

33  
E-18

EGAMBERDIEV E.T.  
ABDULLAYEV S.A  
MAMBETJANOV K.K.

# IQTISODIYOT NAZARIYASI



33  
E-18

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИY UNIVERSITETI

EGAMBERDIEV E.T., ABDULLAYEV S.A.  
MAMBETJANOV K.K.

*S. Mambetjanov*

### IQTISODIYOT NAZARIYASI

2978

*O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 28 dekabrdaqi «676» sonli buyrug'iga asosan iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tanqiyva etilgan.*

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHIKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHIKENT 2021

UOJK 33(075.8)  
КБК 65я7  
E-18

Egamberdiev F.T., Abdullayev S.A., Mambejanov K.K. Iqtisodiyot nazariyasi: o'quv qo'llanma.-Toshkent: Tafakkur to'mchilari, 2021.-420 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, faqat maqsad va vazifalari, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning amal qilish qonuniyalari, iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi turli xil qarashlar, ularning asoslari va manbalari, mullk va mulkchilik, tovar-pul munosabatlari, bozor iqtisodiyoti va ularning amal qilish qonuniyalari, taqdirkorlik va biznes asoslari, ag'gar, molliya, pul-kredit munosabatlari, jahon xo'jaligi, erkin iqtisodiy zonalar, jahon bozori, xalqaro iqtisodiy munosabatlari va shu kabi bir qator muammolarga oid mavzular foydalanuvchilar qulay va oson tushinishlari uchun turli taqdimot, visual maqolalar, chizma, grafik va diagrammalar shaklida yoritilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'llarini ta'kidlash maqsadida davlat iqtisodiy siyosatining amalda oshirilayotganligi nazariyasi O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini va ularning ommilari chiqar talifi qilingan va tegishli xulosalar chiqarilgan. Ushbu darslik iqtisodiyot yo'llarini bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlar bosqich talabalari uchun tavsiya etiladi.

V danoim Uchebnoim posobim rasskryto stavovleniye i etapy razvitiya ekonomicheskoy teorii kak nauki, tseli i zadachi nauki, zakonomerosti ekonomicheskikh yavleniy i protsessov, razlichnyye vzglyady na ekonomicheskoye razvitiye, ego osnovy i istochniki, sobstvennosty i otnosheniya sobstvennosti, tovarno-denezhnyye otnosheniya, ryunoj i zakonomerosti ryunojnykh otnosheniy, osnovy predprinimatel'stva i biznesa, aprarynye, finansovyye i denezhno-kreditnyye otnosheniya, mirovaya ekonomika, svobodnyye ekonomicheskyye zony, mezhdunarodnyye ekonomicheskyye otnosheniya i rya dnykh voprosov s pomoshchyu razlichnykh vizualnykh materialov, risunkov, grafikov i diagramm, prezentsatsiy dlya sozdaniya udobstva i legkosti chitatelya pri ponimani danyogo kursa. V uchebnoim posobii takzhe soderzhit'sya utrublennyy analiz temov ustoychivogo ekonomicheskogo rosta v Uzbekistane i ego faktorov v rezul'tate realizatsii gosudarstvennoy ekonomicheskoy politiki, napravlennoy na modernizatsiyu i diversifikatsiyu ekonomiki i utrubleniye ekonomicheskikh reform v strane. Etoy uchebnoim rekomenduyetsya dlya studentov, izuchayushikh ekonomiku.

**Mualliflar:**

Egamberdiev F.T., Abdullayev S.A., Mambejanov K.K.

**Taqrizchilar:**

Abulqosimov X.P., i.f.d. professor, O'zMU

Hasanov R.R., i.f.d. professor TDU

ISBN 978-9943-6622-4-7

© "Tafakkur" nashriyoti  
© Egamberdiev F.T. va boshqalar

**KIRISH**

Mamlakatimizda to'y berayotgan islohotlar kishilar ongi va ruhiyatiga xam tub o'zgartirish yasamoqda: yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini idrok etish va ularning talablari ruhida ishlash va yashashga intilish qaror topmoqda. Ko'zda tutilgan ulkan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiyotda katta o'zgarishlar talab etiladi. Bu jarayonlarni chiqar tushinishda birinchi manbalarning o'rni katta. Iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha ta'yorlangan ushbu o'quv qo'llanma jamiyatning iqtisodiy negizi, ularning tarkibiy qismlari, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning amal qilish qonuniyalari, bozor iqtisodiyotining tarkib topirish hususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi omillar, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendensiyalari kabi masalalarni qamrab olgan. Iqtisodiyot nazariyasi fani talabalarni jamiyatda to'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongi munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratalashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushinishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Hamda jamiyatning har bir a'zosini g'oyaviy jihatdan yo'llab oshirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishda tanlagan yo'llari — o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy hususiyatlarini hamda bu yo'llardagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyusion to'ntarishlar, ijtimoiy to'ntarishlar, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining mantiqiy tuzilishidan kelib chiqib har bir mavzuga oid nazariy masalalarni yoritishda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribalari va muammolari uzviy bog'liqlikda olib qaraldi. Iqtisodiyot

nazariyasini o'rganishda har bir mavzularda milliy g'oya va milliy makbura, milliy iqtisodiyot va milliy manfaatlarni xisobga olish nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtining barcha yo'nalishlardagi bakalavrlari va iqtisodiyot nazariyasi fanidan dars beruvchi o'qituvchilarga mo'ljallangan. Shu bilan birga undan magistratura talabalari, tadqiqotchilar va xozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muammolarini o'rganishga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

## 1-BO'LIM. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI

### 1-bob. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish usullari

#### Reja:


- 1.1. Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi
- 1.2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi va qaror topishi.
- 1.3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti.
- 1.4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar)
- 1.5. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning uslubiy prinsiplari.

Men mudom ta'kidlardimki, iqtisod qonunlari bu xayot qonunlari.  
*Filip Utkid (ingliz iqtisodchisi)*


#### 1.1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi

**Iqtisodiyot** – moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni aks ettiruvchi ijtimoiy xo'jalik.

**Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi** – ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi.



1.2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining fan sifatida shakllanishi va qaror topishi



Milloddan avvalgi davrdagi qadimgi Misr, Xindiston, Xitoy, Yunoniston, Rim va Sharq mutafakkirlari (Xammurabi, Mannu, Konfusiy, Ksenofont, Platon, Aristotel, Varran, M.Katon, Kolumella va boshqalar)ning iqtisodiy qarashlari. Ular mexnat taqsimoti, yaratilgan maxsulot taqsimlanishi, boylarning vujudga kelishi, xo'jalik yuritish qoidalari, mexnatni tashkil qilish, erga mulkchilik masalalariga o'z yondoshuvlarini bayon qiladi.

Milloddan keyingi davrlarning iqtisodiy qarashlari. Bu davrda iqtisodiy bilimlarning rivojlanishida muqaddas kitoblar («Qur'on», «Xadis») xamda O'rta Osiyo va Sharqning buyuk alomatlarni qarashlari alohida o'rin tutgan.

Ular inson ehtiyojlarini (Farohiy), daromadlar va xarajalar muvozanatini (Ibn Sino), pulning kelib chiqish sabablari (Abu Rayxon Bernuiy), jamiyatdagi mexnatning roli, moddiy ne'matning xususiyatlari, pul va uning vazifalari (Y'Usuf Xos Xo'jib) jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, davlat moliyasi, solliqlarni belgilash tartibi (Alisher Navoiy), insonlarning ishlab chiqarish faoliyati, mexnat va uning jamiyatdagi roli, tovar qiymati va iste'mol qiymati, ayrboshlash jarayoni, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot prinsiplari (Ibn Xoldun) kabi masalalarga o'z munosabatlarini bildirishgan.

«Siyosiy iqtisod» yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «politikos» – ijtimoiy, «oykos» – uy, uy xo'jaligi, «nomos» – qonun degan ma'noni anglatadi. Fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten (1575–1621y.) birinchi marta «Siyosiy iqtisod traktati» (1615 y.) asarida bu fanni ilmiy jihatdan asosladi va u 300 yildan ortiq davomida shu nom bilan rivojlandi.

**Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishi jarayonida  
vujudga kelgan asosiy g'oyaviy oqimlar:**

**Merkantilizm** - jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bo'lib, u savdoda, asosan tashqi savdoda paydo bo'ladi va ko'payadi, deb tushuntiradi. **Merkantilizm** – italyanча “mercante” so'zidan olingan bo'lib, “savdogar” degan ma'noni anglatadi. Bu oqimning namoyondalari: V.Starfod, T.Man, A.Monkreten, Jon Lou, G.Skaruffi va boshqalar.

**Fiziotkratlar** - jamiyatning boyligi qishloq xo'jaligida vujudga keladi degan g'oyani ilgari suradilar. Bu ta'limning asoschisi F.Kene (1694-1774y.) xisoblanadi.

**Klassik siyosiy iqtisod** - boylikning faqat qishloq xo'jaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa soxalarda xam yaratilishini isbotlab berdi.

**U.Petti** (1623-1686 y.) boylikning manbai er va mexnat ekanligini e'tirof etgan. Mexnat boylikning otasi, er uning onasi degan ibora unga tegishlidir.

**A.Smit** “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot” (1776 y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor o'z-o'zini tartibga solishi (“ko'rinnas qo'l”) g'oyasini ilgari suradi. insonni faollashtradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir deb ko'rsatadi.

**D.Rikardo** qiymatning turi sinflar daromadlari va foydaning yagona manbai mexnat ekanligini ko'rsatadi.

**Sizmondli** (Jon Sharl Leonard Simonde Sizmondli) kapitalistik iqtisodiy mexanizمنى tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo'lida ijtimoiy mexanizمنى takomillashtirishga qaratilgan fan bo'lmog'i lozim, deb ko'rsatadi.

**Sosial-utopistlar** (A.Sen-Simon, Sharl Fur'e, Robert Ouen) kapitalizمنى tanqid qilib, xususiy mulkchilikni yo'q qilish, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molni qayta tashkil etish va adolatli tuzum (industrial jamiyat, garrmonik jamiyat, kommunizm) o'rnatish talabi bilan chiqadilar.

**Marksizm** jamiyat taraqqiyotiga tabiiy-tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalari, ularning vujudga kelishi, rivojlanishi va boshqasi bilan almashinishi sabablari to'g'risidagi ta'limotni xanda qo'shimcha qiymat nazariyasini yaratadi.

**Iqtisodiyot nazariyasidagi yangi oqimlar  
(XIX asr oxiri va XX asr boshlari)**

**Marginalizm** vakillari (marginal – keyingi, qo'shilgan) – keyingi tovar nafilligi, qo'shilgan mexnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqan. Keyingi tovar nafilligining kamayib borishi qonuni bu oqimning asosiy prinsipi xisoblanadi. SHunga ko'ra, narx xarajalga bog'liq bo'lmay, keyingi nafillik asosida belgilanadi.

**Marginalizm asoschilari** **K.Menger, F.Vizer, E.Bem-Baverk, U.Levons** xisoblanadi.

**Neoklassik maktab** (asoschisi **Alfred Marshall**) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aralashuvini cheklash g'oyasini ilgari suradi. Bozor mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda xam yuz berishini ko'rsatadi. Funktsional bog'lanish g'oyasini asoslaydi, bozor narxini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat deb xisoblaydi. Bu maktab vakillaridan **L.Yarras** umumiy iqtisodiy muvozanatlar modelini ishlab chiqishga, **I.Shumpeter** esa iqtisodiy tizimlar o'zgarishining kuchlarini ko'rsatib berishga xarakter qilgan.

**Keynschilik** – rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turlish zarurligini asoslashga qaratiladi. **J.M.Keyns** “ish bilan bandlik, fozl va pulning umumiy nazariyasi” (1936 y.) nomli kitobida bunday tartibga solish yalpi talabga xanda shu orqali inflyatsiya va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Neoklassik yo'nalishda yangidan vujudga kelgan oqimlar  
(XX asrning 50–60 yillaridan boshlab)

**Neoliberalizm vakillari** (F.Xayek, I.Shumpeter, L.Erxard) – asosiy e'tiborni davlatning iqtisodiyotiga aralashuvini eng kam darajaga keltirishga, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

**Montarizim (M.Fridman)** – iqtisodiyotni boshqarishni pul muomilasini tartibga solish orqali amalga oshirish mumkinligini asoslab beradi.

**Institutsionalizm (T.Veblen, J.Gelbreyt)** lar fikriga ko'ra – xo'jalik yurituvchilar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy balki noiqisodiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Natijada iqtisodiyotga muassasaviy o'zgarishlar orqali xam ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi.

**Fanning predmeti:** iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun qoidalarini o'rganadi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida fanning predmetiga berilgan ta'riflar

Muallifi	Ta'rif	Manba
M.N.Chepurin Kiseleva E.A.	Iqtisodiyot nazariyasi kishilarning iqtisodiy xatti-xarakatini, ya'ni ularning moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq xarakatlarini o'rganadi	Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik / Pod obr. red. prof. Chepurina M.N., prof. Kiselevoy E.A. – 6-ispravleniye, dopolnennoe i pererabotannoe izdanie. – Kirov: «ASA», 2007, s.28.
M.S.Nosova	Ishlab chiqaruvchi kuchlarning erishilgan darajasi asosida moddiy ne'mat va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bo'yicha kishilar o'rtasida vujudga keluvchi ishlab chiqarish munosabatlarning yig'indisi	Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya. Elementarny kurs: uchebnoe posobie / S.S.Nosova. – M.: KNORUS, 2008, s.16.
G.P.Juravleva, V.I.Vidyapin	Umumiy iqtisodiyot nazariyasi (ijtimoiy fan bo'lib, u cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarning xatti-xarakatini o'rganadi	Ekonomicheskaya teoriya (politekonomiya): Uchebnik/ Pod obr. red. akad. V.I.Vidyapina, akad. G.P.Juravlevoy. – 4-e izd. - M.: INFRA-M, 2004, s.31.
V.D.Kamaev	Bo'ylik va resurslarning cheklanganligi, ulardan samarali foydalanish bilan yaxlit xoldagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimini, ishlab chiqaruvchi xamda iste'molchi sifatidagi tmsomning xatti-xarakatini o'rganadi.	Kamaev V.D. Ekonomicheskaya teoriya: Kratkyy kurs: uchebnik / V.D.Kamaev, M.Z.litichkov, T.A.Bortovskaya. - 2-e izd., ster. – M.: KNORUS, 2007, s.21.
D.D.Moskvina	Ishlab chiqarish munosabatlarini va ularning ishlab chiqarish kuchlari bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi	Osnov ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik /Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. izd. 3-e, ispravl. – M.: Editorial URSS, 2003, s.24.
E.F.Bortsov	Ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishda tarkib topuvchi kishilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi	Bortsov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: vopros – otvet: Ucheb. posobie. – 2-e izd., pererab. 1 dop. M.: INFRA-M, 2008, s.16.


**Iqtisodiy munosabatlar** – moddiy va ma'naviy ne'matlarni takror ishlab

chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan turli xil munosabatlar xisoblanadi.

**Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi** – cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaratsini topish orqali jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'laroq qondirib borishning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdan iborat.


Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari			
Bilish vazifasi	Amaliy vazifasi	Uslubiy vazifasi	G'oyaviy-tarbiyaviy vazifalari
xar qanday fan kabi iqtisodiyot nazariyasi fundamental axamiyatga ega: jamiyada insonlarning ashyolari, moddiy xanda o'zaro birlari aloqalarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etib, bizni o'rab turgan olam to'g'risidagi fikrlarimizni kengaytiradi.	amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslardan ununli foydalanib iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu asosda o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondira borishdan iborat.	iqtisodiyot nazariyasi fanining o'zi, taxlili va uning tamoyillari, olingan xulosalar, tadqiq etilayotgan iqtisodiy qonunlar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.	iqtisodiyot ilmi o'rganuvchilarning ilmiy dunyog'arashini shakllantiradi, milliy istiqbol g'oyasini yoshlar ongiga singdiradi, ularni millat manfaatlari yo'lida iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy maxsulotni ko'paytirish, milliy qadriini oshirish, turmush darajasini ko'tarish ruxida tarbiyalash

**Iqtisodiy qonun** – iqtisodiy xayonning turli tomonlari, iqtisodiy xodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oxibat aloqalarini, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.





**Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish fazalaridagi xarakati**



**Ishlab chiqarish – insoniyat jamiyatining xayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur moddiy ne'matlarni yaratish jarayoni.**

**Taqsimot – ishlab chiqarilgan maxsulotdagi har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishtiroki, ulushi (miqdori, proporsiyasi) ni aniqlash jarayoni.**

**Ayirboshlash – moddiy ne'mat va xizmatlarning bir sub'ektdan boshqasiga tomon xarakati jarayoni. Tovarini sotish – uning pulga ayirboshlanishi, xarid qilish esa – pullarni tovarga ayirboshlanishi.**

**Ayirboshlashning zarur sharti – ixtisoslashish, mexnat taqsimoti, xar xil mulkchilikning kelib chiqishi bu esa jamiyat a'zolari o'rtasida mexnat maxsulini ayirboshlashga olib keladi.**

**Iste'mol – insonning ehtiyojlarini qondirish uchun ne'matlardan foydalanishi.**


**1.5. Iqtisodiy xodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari.**

Xaqiqiy fanning vujudga kelishi fyqatgina tadqiqot predmeti shakllanishi bilan emas, shu bilan birga uning bilish usulining qaror topishi bilan xam bog'liqdir.

**Ushlubiyat** - bu ilmiy bilishning prinsiplar tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq xadislari. Bu ob'ektiv realikni bilish dialektikasi mantiq va nazariyani o'z ichiga oluvchi bir butun ta'limotdir. Ushlubiyat umumilimy xarakterga ega, lekin xar bir fanda o'zining predmetidan kelib chiqib, ilmiy bilish usullarining o'ziga xos xarakterini taqozo qiladi. SHuning uchun uslubiyat umumilimy va xususiy bo'ladi.

Ilmiy bilishning umumiy usuli bo'lib, dialektik usul prinsiplari xizmat qiladi. Bundan tashqari, iqtisodiyot nazariyasi fanining o'ziga xos tadqiqot usullari bo'lib, ulardan eng muhimi ilmiy abstraksiya usulidir. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini o'zgarishida mikroekoplardan, kimyoviy laboratoriyalardan foydalanib bo'lmaydi, ularning o'rniiga abstraksiya kuuchi ishga solinadi.

**Ilmiy bilish usullari**



**Dialektik usul**  
Iqtisodiyotga bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan turli bo'g'inlardan iborat yaxlit bir tizim sifatida qarab, unda ro'y beradigan jarayonlar doimiy o'zgarishda (oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga) va rivojlanishda deb xisoblaydi.

**Ilmiy abstraksiya**  
Mantqiy taxill paytida xodisa va jarayonlarning ikkinchi darajali belgilari fikrdan cheklashirib xanda eng asosiy belgilarni ajratib olish orqali ularning mohiyatini ochib berishga xarakat qilish.

**Taxill va sintez usuli**  
Taxill – bu o'rganilayotgan vogen-xodisalarni aloxida qismlarga ajratib, sintez esa ularni yaxlit bir butun qilib birlashtirish orqali mohiyatini ochib berish.

**Ekspert-ment**  
Amalgan oshirishni lozim bo'lgan iqtisodiy chora-tadbirlarni sinov tartibida iqtisodiyotning aloxida bo'g'inlarida qo'llash. Bu usul istisoxlarni amalga oshirish, iqtisodiyot inqiroz va turg'unliklarga uchrigan davrlarda aloxida muxim ahamiyatga ega.

**Pozitiv va normativ usul**  
Pozitiv usul voqea-xodisalarni real xuyolda qanday bo'lsa, shu xolicha aks ettirish, normativ usul esa ularning xaqiqatda qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi kishilarning fikr-mulohazalari.

**Grafik usuli**  
O'zgaruvchi miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rgazmali qilib tasvirlaydi.

**Farazlash usuli**  
Iqtisodiy taxillda «boshqa sharoitlar o'zgaray qolganda» yoki «boshqa omillar ta'sir qilmaganda», degan farazdan foydalanib, yagona omil ta'sirida iqtisodiy xodisaning mohiyatini ochishga xarakat qilinadi.

**Iqtisodiy modelar** – bu iqtisodiy jarayon va xodisalarning bir tomondan ob'ektiv xususiyatlariga, ikkinchi tomondan, tadqiqotning sub'ektiv maqsadi, xarakteriga ko'ra abstrakt tarzda umumlashirib ifodalangan reallikning andozasidir.

### Iqtisodiy modeldar turlari

**Optimallashgan modeldar** - alohida olingan iqtisodiy komponentlar xatti-xarakatini tadqiq qilishda foydalaniladi. Ular ko'pincha cheklanganlik xarakteriga ega bo'ladi. Masalan, daromadlar, ish xaqi, xarajalar modeli va x.k.

**Muvozanatlashgan modeldar** - iqtisodiy komponentlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni tadqiq qilishda foydalaniladi. Masalan, yalpi talab va yalpi taklif, iste'mol va investitsiyalar, tovarlar miqdori xanda pul massasi modeli va x.k.

### Iqtisodiyot nazariyasining tamoyillari:

- Resurs cheklangan sharoitda tanlash zarurligi;
- Oliyning muqobiligi;
- Keyingi o'zgarishlarni inobatga olish;
- Qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini xisobga olish;
- Samaraning kamayib borishi.

### Xulosalar

1. Iqtisodiyotning bosh masalasi – ehtiyojlarning cheksiz o'sib borishi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi ziddiyat va uni hal qilish yo'lini izlab topishdan iboratdir. Bu ziddiyatli holatni echish zarurligi kishilar oldiga quyidagi muammolarni qo'yadi:

- a) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning optimal variantlarini (eng zarur va tejimli turlarini) tanlab olish va resurslarni ko'proq ishlab chiqarishga jalb qilish;
- b) mavjud resurslarning har bir birligidan tejab-tergab, samarali foydalanish;

v) fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilib, yangi energiya, material, xomashyo turlari, ularning manbalarini topib, foydalanishga jalb qilish, resurslardan foydalanish samaradorligining oshishiga erishish;

8) kishilarning chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishi.

2. «Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanguncha bosib o'tgan yo'l va unda vujudga kelgan g'oyalari, oqimlar juda murakkab, ko'pincha bir-biriga zid va qarama-qarshidir. SHunday bo'lsada, ular bir-birini to'ldiradi. SHu bilan birga ta'kidlash lozimki, hech qaysi iqtisodiy maktabning nazariyalarini mutlaq va doimiy haqiqatga ega deb bo'lmaydi. Turli-tuman fikr va qarashlar olamidan haqiqatni izlab topish chuqur iqtisodiy bilim va tafakkurni taqozo etadi.

3. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani barcha iqtisodiy fanlarning nazariy-uslubiy asosidir. U fundamental fan bo'lib, insonlarni jamiyatning iqtisodiy asoslarini ilmiy tadqiq etishga yo'naltiradi, ularni nazariy-uslubiy bilim bilan qurallantiradi.

4. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ijtimoiy fan bo'lib, u turli ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

5. Iqtisodiyot nazariyasi nafaqat nazariy fan, balki u bevosita amaliy ahamiyat ham kash etadi. Iqtisodiyot nazariyasini bilimay turib, murakkab iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri hal qilib bo'lmaydi.

6. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani doirasida inson va jamiyatning yashash faoliyatining ijtimoiy, axloqiy, milliy va tarixiy tomonlarini tadqiq qilish va bilish mumkin.

7. Iqtisodiyot nazariyasining bilish, amaliy, uslubiy va g'oyaviy-tarbiyaviy vazifalari mavjud. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy vatandorlik ruhida tarbiyalashda iqtisodiyot nazariyasi g'oyaviy-tarbiyaviy vazifasining ahamiyati tobora oshib bormoqda.

### Asosiy tayanach tushunchalar

**Iqtisodiy faoliyat** – cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmuid.

**Iqtisodiyot** – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim.

**Islah chiqarish** – kishiilik jamiyatining mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish jarayoni.

**Taqsimot** – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va sub-ektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni.

**Ayirboshlash** – jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha o'zaro almashish jarayoni.

**Iste'mol** – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi jarayoni.

**Ehtiyoj** – insonning yashashi va kamol topishi, umuman insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalarga bo'lgan zarurat.

**Moddiy ehtiyoj** – moddiy ko'rinishdagi ne'matlar vositasida qondiriluvchi zarurat.

**Ma'naviy ehtiyoj** – insonning shaxs sifatida kamol topishi, dunyoqarashi va ma'naviyatining shakllanishi uchun taqozo etiladigan nomoddiy ne'mat va xizmatlarga bo'lgan zarurat.

**Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni** – ehtiyojlarning miqdoran o'sib, sifat jihatidan takomillashib borishi.

**Iqtisodiy resurslar** – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmumi.

**Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti** – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganish.

**Iqtisodiy qonun** – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-olqibat aloqalari, ularning o'zaro bog'liqligi.

**Iqtisodiy kategoriya** – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.

**Ustlabiyot** – ilmiy bilimning tamoyillari tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va ilmiy hodisalari.

**Ilmiy abstraksiya usuli** – tahlil paytida xalal berishi mumkin bo'lgan ilkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratish.

#### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering.
4. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va etkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiy hisoblanadi?
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti niman? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rin tutadi?
6. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishida qanday ilmiy maktab va yo'nalishlar vujudga kelgan?
7. Iqtisodiyot nazariyasining qanday vazifalari mavjud? Bu vazifalarning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Iqtisodiy qonunlar nima va ularning qanday turlari mavjud? Iqtisodiy qonunlarning iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimada namoyon bo'ladi?
9. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
10. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil o'rtasidagi farq nimadan iborat?


2-Mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari


- 1 • Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi.
- 2 • Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.
- 3 • Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.
- 4 • Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi.
- 5 • Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari.

**2.1. Ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy mazmuni**

Ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda qo'llaniladigan barcha narsalar ishlab chiqarish omillari deyiladi. boshqacha aytganda, ishlab chiqarishning yuzaga kelishini ta'minlaydigan barcha manbalar ishlab chiqarish omillaridir.

**ISHLAB CHIQARISHNING OMIILLARI.**






O'zbekistonda YALM va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sish sur'atlari, % da<sup>1</sup>


Yillar	YALM	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Xizmatlar	Asosiy kapitalga investitsiyalar
2000	103,8	105,9	103,2	105,4	104,6
2001	104,2	107,6	104,1	105,1	105,1
2002	104,0	108,3	106,0	103,3	103,8
2003	104,2	106,0	106,8	103,2	105,2
2004	107,4	109,4	108,3	107,4	107,3
2005	107,0	107,2	105,9	107,6	105,7
2006	107,5	110,8	107,1	107,8	109,3
2007	109,5	112,1	106,5	112,5	125,8
2008	109,8	112,7	104,7	112,3	134,1
2009	108,1	109,1	105,8	106,8	124,8
2010	108,5	108,5	106,9	116,1	108,7
2011	108,3	106,5	106,6	117,2	103,8
2012	108,2	107,8	107,2	114,4	112,7
2013	108,0	109,5	106,9	114,4	112,1
2014	108,0	108,3	107,0	115,1	109,9
2015	107,9	107,9	106,8	114,0	109,6
2016	107,8	106,2	106,6	114,5	107,7
2017	105,3	107,0	101,9	108,9	119,4
2018	105,4	111,5	100,3	105,5	129,9
2019	105,6	108,9	102,5	105,1	138,1

<sup>1</sup> <http://stat.mazpress-sifzhib.govost-gks/1451-makroiqtisodiy-ko-tsankichlar-tahlili>

Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni



Товар ва хизматлар mahalliy va qiyamining yaratilishida ishlab chiqarish omillarining roli



## 2.3. ISHLAB CHIQARISHNING UMUMIY VA PIROVARD NATIJALARI

Respublikamizda oldingi davrda mamlakat bo'yicha ishlab chiqarishda vujudga keltirilgan mahsulotlar yig'indisi yalpi ijtimoiy mahsulot deb atalgan. Yalpi ijtimoiy mahsulot ko'rsatkichida yil mobaynida yaratilgan moddiy ne'matlar yig'indisi hisobga olingan, unda xizmat ko'rsatish sohaslarida vujudga keltirilgan ma'naviy ne'matlar va xizmatlar qiymati aks etmagan. Lekin bir ishlab chiqarish sohasidan chiqqan xomashyo, materiallar, yonilg'i va energiyalarning qiymati boshqa sohalarda ishlatilib, bir necha bor takror-takror hisobga olinib, mahsulotning hajmi sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilgan, iste'molga borib tushadigan tayyor mahsulot esa undan bir necha barobar kam bo'lgan.

**Yalpi ijtimoiy mahsulot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan barcha moddiy va ma'naviy ne'matlarning yig'indisi sifatida ishlab chiqarishning umumiy natijasi bo'lib hisoblanadi.** Uning hajmi va tarkibi ijtimoiy mehnat taqsimoti, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, oraliq mahsulot turi ko'rinishlari oqini harakatining rivojlanganlik darajasini namoyon etadi. Aytib o'tilganidek, yalpi ijtimoiy mahsulotning qiymat jihatidan miqdori o'z ichiga takroriy hisobni ham oladi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti qanchalik chuqurlashib, ijtimoiy mahsulot o'z harakatida qanchalik ko'p bosqichlardan o'tgani sari, takroriy hisob ham shunchalik ko'payib boradi.


- Yaratilgan mahsulot qiymat jihatidan ham uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni:
- 1) ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymatining mahsulotga o'tgan qismi (s);
  - 2) yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning bir qismi, ya'ni, ishchilarga tegishli qismi – zaruriy mahsulot qiymati (v);
  - 3) yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning mulkdorlar, tadbirkorlar va jamiyat uchun ishlab chiqarilgan qismi – qo'shimcha mahsulot qiymati (m)dan iboratdir.

### Milliy mahsulotning tuzilishi (shartli raqamlar misolida)

Izchil turmoqlar	Xomashyo, yoqilg'i, material-lar	Qo'shilgan qiymat			Yalpi ichki mahsulot	Yalpi ijtimoiy mahsulot
		Amortizatsiya	Ish haqi	Soliq va to'lovlar		
Paxta ishlab chiqarish	40	30	30	20	20	140
Paxtani qayta ishlash	140	40	50	25	30	145
To'qimachilik	285	50	60	30	40	180
Tikuvchilik	465	45	50	35	30	160
Jami	930	165	190	110	120	585
	$s=1095$		$v=190$	$m=230$		1515

Jadvaldan ko'rinadiki, yalpi ijtimoiy mahsulot 1515 birlikni, yalpi ichki mahsulot esa 585 birlikni tashkil etadi. Demak, mamlakat miyosida takror hisobga yo'l qo'ymaslik uchun yalpi ichki mahsulotni hisoblashda sotib olingan xomashyo, yonilg'i va materiallar qiymati hisobga olinmaydi, faqat qo'shilgan qiymat hisobga olinadi. Ammo har bir korxonada va tarmoq uchun sotilgan tovar mahsuloti faqatgina yalpi ichki mahsulotdan emas, balki jami yaratilgan ijtimoiy mahsulotdan iboratdir.

Zaruriy va qo'shimcha mahsulotning sotilib pulga aylanganidan keyin o'zgaragan shakllari



Yil davomida olingan qo'shimcha mahsulotlar yig'indisi qo'shimcha mahsulot massasi, uning zaruriy mahsulotga nisbati esa (foizda ifodalanshi) qo'shimcha mahsulot normasi deb yuritiladi.

Agar qo'shimcha mahsulot normasini  $m$ , massasini  $m$ , zaruriy mahsulotni  $v$  bilan belglasak qo'shimcha mahsulot normasi


$$n = m/v \times 100\%$$

ko'rinishdagi formula bilan aniqlanadi.


Misol uchun, «A» korxonaning yil davomidagi qo'shimcha mahsulot massasi 100 mln. so'm, zaruriy mahsulot hajmi esa 250 mln. so'mdan iborat bo'lsin. U holda qo'shimcha mahsulot normasi 40% ni tashkil etadi.

Ish kuni o'zgartirilmagan zaruriy ish vaqtini kamaytirib, qo'shimcha ish vaqtini ko'paytirish evarziga olingan qo'shimcha mahsulot esa nisbiy qo'shimcha mahsulot deb ataladi. Masalan, ish kuni davomiyligi 8 soat hajmida qolgani holda, mehnat umundorligi va intensivligini oshirish hisobiga zaruriy mahsulot yaratishga sarflanishi kerak bo'lgan vaqt 3 soatga tushirildi, deb hisoblaylik. Bunda qo'shimcha mahsulot yaratishga sarflangan vaqt 5 soatga etadi, ya'ni nisbiy qo'shimcha mahsulot hajmi ortadi.

Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard ko'rsatkichlari




Yaratilgan mahsulot (YaLM) ning tarkibiy qismlari



## 2.4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi

Iqtisodiy resurslar nisbatan cheklanganligi sababli jamiyat a'zolarining barcha ehtiyojlarini birdamiga qondirish mumkin bo'lmaydi. SHuning uchun jamiyatga qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarish, qaysilaridan vaqtincha voz kechish lozimligini hal qilish, ya'ni tanlashni amalga oshirish zarur bo'ladi. SHunday tanlash orqali, resurslarning mavjud darajasida mahsulot olishning aniqlangan eng yuqori miqdori jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatini ko'rsatadi. Jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatidan to'liq foydalanish uchun iqtisodiy resurslarning to'la bandligiga erishish va ishlab chiqarishning to'liq hajmini ta'minlash zarur.

### Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i



Ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'idagi har bir nuqta ikki xil mahsulot ishlab chiqarishning qandaydir eng ko'p hajmini ko'rsatadi. Jamiyat uchun mahsulotlarning erishib bo'ladigan har xil uyg'unlashuvlaridan tanlab olish imkoniyati egri chiziq ichida joylashadi. Non va tegirmon ishlab chiqarishining har xil uyg'unlashuvini amalga oshirish uchun jamiyat ularidagi mavjud resurslarning to'la bandligi va ishlab chiqarishning to'liq hajmini ta'minlashi zarur. Non va tegirmonning barcha uyg'unlashuvi ularning eng ko'p miqdorini ko'rsatib, bu barcha mavjud resurslardan esa samarali foydalanish

Iqtisodiyotda resurslarning to'la bandligi va ularidan samarali foydalanishni ta'minlash uchun har ikkala mahsulotning tanlangan hajmi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i deb nomlanuvchi ABCDE chizig'ida joylashgan bo'lishi lozim. Bu chiziqdan chap tomonda joylashgan har qanday nuqta resurslardan to'liq foydalanmaslikni anglatadi. Masalan, chizimdagi G nuqta iqtisodiyotda 1,6 mln. dona non va 5 ming donaga yaqin tegirmon ishlab chiqarilayotganini bildiradi. Bu esa, resurslardan foydalanishning muayyan darajasida, qo'shimcha resurslarni jalb etmagan holda, quyidagi harakatlarni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi:

- non ishlab chiqarishning mavjud hajmini saqlab qolgan holda, tegirmon ishlab chiqarish hajmini 8 ming donagacha etkazish;
- tegirmon ishlab chiqarishning mavjud hajmini saqlab qolgan holda, non ishlab chiqarish hajmini 2,7 mln. donagacha etkazish;
- bir vaqtning o'zida har ikkala mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish.



## Xulosalar

1. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar umumiy ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy negizini tashkil etib, ayiriboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarida bo'ladigan munosabatlarining tavsifini belgilab beradi. SHuning uchun ularni o'rganish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Insoniyat zarur ne'matlar iste'molsiz yashay olmaydi. SHunga ko'ra, bu ne'matlarni muntazam ravishda ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish va xizmat qilish jarayonida insonning yashashi uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy vositalar yaratiladi.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish omillari – er, kapital, ishchi kuchi va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat bo'lib, ular o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu omillardan birining sifat va miqdor jihatidan o'zgarishi pirovardida boshqa omillarning o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

4. Ishlab chiqarish jarayonida barcha omillar harakatda bo'ladi, lekin ular ichida jonli mehnat, ya'ni ishchi kuchi faol bo'lib, u barcha ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiradi, ularga «jon kiritadi», asosiy kapital qiymatining yo'qolib ketmasligini ta'minlab, yangi yaratilgan tovar va xizmatlarga o'tkazadi. Va nihoyat, bu jarayonda yangi tovar va xizmatlar vujudga keladi.

5. Yangi vujudga kelgan tovar va xizmatlar ikki xil xususiyatga – naflilik va qiymatga ega bo'lib, ikki tomonlama hisobga olinadi: natural-ashyoviy (naflilik) va qiymat tomonidan. Natural-ashyoviy tomondan u uch qismga: ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari va turli xizmatlarga bo'linadi. Qiymat tarafdin ham uch qismga: iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (s), zaruriy mahsulot qiymati (v) va qo'shimcha mahsulot qiymati (m)ga bo'linadi.

7. Ishlab chiqarish jarayoni doimo o'zgarib, takomillashib va kengayib boradi. Uning rivojlanib borishida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va tarkibiy jihatdan o'zgartirib borish muhim rols o'ynaydi.

## Asosiy tayanach tushunchalar

**Ishlab chiqarish omillari** – ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar.

**Ishchi kuchi** – insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.

**Mehnat qurollari** – inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalar.

**Mehnat predmetlari** – bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar.

**Ishlab chiqarish jarayoni** – kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat.

**Ijtimoiy takror ishlab chiqarish** – jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turishi.

**Oddiy takror ishlab chiqarish** – ishlab chiqarish miqyoslarining o'zgarilmagan holda takrorlanishi.

**Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish** – ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.

**Ishlab chiqarishning umumiy natijasi** – mamlakat bo'yicha yaratilgan milliy mahsulotning yil davomidagi yig'indisi.

**Ishlab chiqarishning pirovard natijasi** – ishlab chiqarish sohasidagi o'z harakatini tugatgan, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini yo bevosita (iste'mol fondi orqali), yoki bilvosita, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish (jamg'arish fondi) orqali qondirishga tayyor mahsulot.

**Ishlab chiqarish funksiyasi** – ishlab chiqarish omillari bilan uning samarasi o'rtasidagi bog'liqlik.

**Umumiy mahsulot** – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning muhtaq hajmi.

**O'rtacha mahsulot** – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillarining bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi.

So'nggi qo'shilgan mahsulot – eng so'nggi qo'shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga o'sgan mahsulot hajmi.

**Mehnat unumdorligi** – ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyati.

### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish omillari nimalardan iborat?
2. Ishchi kuchi nima, uning mehnat tushunchasidan nima farqi bor?
3. Kapital tushunchasiga ta'rif bering va uning tarkibiga nimalar kirishini tushuntirib bering.
4. Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini va uning ikki tomonini tushuntiring.
5. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning mohiyati nimada?
6. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini tushuntirib bering.
7. Yaratilgan mahsulotning natural va qiymat tarkibi nimalardan iborat?
8. Qo'shilgan mehnat, qo'shilgan kapital va qo'shilgan mahsulot tushunchalarini izohlab bering.
9. So'nggi qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borish qonunining mohiyati nima va u hozirgi davrda amal qiladimi?

### 3 Bob. Ijtimoiy iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo'lgan talablar yondashuvlar.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning modellari.
3. Mulkiylik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmunini mulk ob'ektlari va sub'ektlari.
4. Mulkiylikning huki shakllari va ularning iqtisodiy mazmunini.
5. O'zbekistonda mulkiy davlat taqarufidan chiqarish va munosabatlashish maqsadi, yo'llari va usullari.
6. Hozirgi mulkchilik tizimining kengaytirish, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim usulini yanali'ishlaridan biri sifatida.

#### 1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo'lgan talablar yondashuvlar

1. tarixiy-formatsion yondashuv;
2. madaniy-lashish (sivilizatsiya) darajasi jihatidan yondashuv;
3. texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondashuv;
4. iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv.

#### Tarixiy formatsion yondashuvda

Ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarixiy qismlarini tahlil qilishga e'tibor beriladi.


## Madaniylashish (tsivilizatsiya) darajasi jihatdan yondashuv

buinda jamiyat taraqqiyoti 7 ta bosqichdan iborat deb ko'rsatiladi:

davroniylik muddati 30-35 asrni o'z ichiga o'lgan	• neolit davri;
davroniylik muddati 20-23 asrni o'z ichiga o'lgan	• sharqiy quldorlik davri (Bronza asri);
davroniylik muddati 12-13 asrni o'z ichiga o'lgan	• erik davri (temir asri);
davroniylik muddati 7 asrni o'z ichiga o'lgan	• erlafcedal davri;
davroniylik muddati 4,5 asrni o'z ichiga o'lgan	• industrializatsion davri;
davroniylik muddati 2,5 asrni o'z ichiga o'lgan	• industrial davri;
davroniylik muddati 1,7 asrni o'z ichiga o'lgan	• yuqori industrializatsion davri

## Texnik va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondashuv

texnologik usul bo'yicha bosqichlarga ajratiladi



Fan-texnika, texnologiya va axborot tizimidagi o'zgarishlarga qarab R.Aron, J.Gelbreyt, U.Roston va boshqa olimlar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini uch bosqichga:



## Ular industrializatsion bo'lgan jamiyatning asosiy belgilari quyidagilarni ko'rsatadilar:

- a) aholining asosan qishloq xo'jaligi bilan bandligi;
- b) qo'l mehnatining hukmronligi;
- v) mehnat taqsimotining juda sayozligi
- g) natural xo'jalikning hukmronligi.

## Industrializatsion jamiyatning asosiy belgilari:



## Yuqori darajada industrilashgan jamiyatning asosiy belgilari:

a) xizmat ko'rsatish sohasining yuksak darajada rivojlanishi;	b) ixtirachi kuchining asosiy qismi (60-70%) shu sohada band bo'lishi;	v) Fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanishi, fan xodimlarining va matakali mutaxassislar rolining oshishi;	g) iqtisodiyotning hamma sohalarida va kundalik hayotda adabot va hisoblash texnologiyalarining keng qo'llanilishi;	q) tovarlar va xizmatlar ishlab mahsulot sifatiga muhtoklanishdan iqtisodiy rivojlanishning hamma torlarini o'z ichiga olishi va boshqalar.
---	--	---	---	---


## 2. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari

Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi.

## IQTISODIY TIZIM TURLARI

an'anaviy iqtisodiyot	<ul style="list-style-type: none"> <li>uzoq davrlar mobaynida an'anaviy tarzda amal qilib keluvchi urf-odatlar, tartiblar, udumlar asosida yuritiluvchi iqtisodiy tizim</li> </ul>
ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti	<ul style="list-style-type: none"> <li>barcha moddiy resurslarga ijtimoiy (davlat) mulkchiligi burchkun-ronligi, xo'ja-lik yuritishga o'ld barcha muhim qaror larning markazlashishi tilgan tartibda ma'muriy organlar tomonidan qabul qilinuvchi asoslanuvchi iqtisodiy tizim</li> </ul>
bozor iqtisodiyoti	<ul style="list-style-type: none"> <li>tovar-mul munosabatlari, raqobat, iqtisodiy faoliyat yuritishda ekin-lik va bozor mexanizmlariga asoslan-gan holda yuritiluvchi iqtisodiy tizim</li> </ul>
aralash iqtisodiyot	<ul style="list-style-type: none"> <li>iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishda bozor mexanizmini tamoyil va qonunlarini ma'muriy tartiblash usullari bilan oqilona tartibda uyg'unlashtirib foydalanish-ga asoslangan iqtisodiy tizim</li> </ul>

## 3. Mulkiylik munosabatlarning mohiyati va iqtisodiy mazmuni. mulk ob'ektlari va sub'ektlari



Mulkiylik munosabatlari - bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulkka egalik qilish mulkdorlik xuquqining uning egasi qo'liga saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim xollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan xolda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo'liga bo'ladi. Bunga ijara berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin.

Mulkdan foydalanish - bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy xayolda qo'llanilishidir. Mol-mulkdan foydalanish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi.

Mulkni tasarruf etish - bu mol-mulk taqdirining mustaqil xal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, xadiya qilish, ijara berish kabi xollar orqali ro'y beradi.

#### Mulkiylik ham iqtisodiy xam xuquqiy kategoriya xisoblanadi

Mulkiylikni iqtisodiy kategoriyasi - mol - mulk ishlab chiqarish jarayonida foydalanilisa va o'z egasiga daromad keltirsa, yoki uning iste'molini qondirishga xizmat qilsa, u iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Mulkiylikni xuquqiy kategoriyasi - mulk tadbirkorlik faoliyatining biror bir turi orqali ro'yobga chiqartilmasa, ya'ni iqtisodiy faoliyatda foydalanilmasa u xuquqiy kategoriya xisoblanadi.

#### Mulkiylikning xuquqiy me'yorlarini quyidagilar belgilab beradi:

- ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga tegishli ekanligi;
- mulk egalarning qonun bilan ximoyaladigan vakolatlari;
- mol - mulkni ximoya qilish usullari.

Mulkiylik munosabatlarning iqtisodiy mazmuni (egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) bita mulk shakli doirasida xam ro'yobga chiqarilish usullariga qarab farq qilishi mumkin:



- mulkiylik mexnatga majbur qilish yo'lli bilan ro'yobga chiqarilsa, quldor yoki feodal xususiy mulki vujudga keladi.
- mulkiylikni ro'yobga chiqarish mulkdorning o'z mexnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarish uchun xarakterli xususiy mulk paydo bo'ladi.
- mulk ob'ekti yollanna mexnatga asoslanib xarakterga keltirilsa, korporativ (kapitalistik) xususiy mulk paydo bo'ladi.

#### Mulk ob'ektlari va sub'ektlari.


Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkiylik ob'ektlaridir. Mulk ob'ekti bo'lib, inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mexnat maxsuli, insonning mexnat qilishi qobiliyati - ishechi kuchi va boshqalar xisoblanadi.


Mulk sub'ekti jamiyatta ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo'lgan, mulk ob'ektni o'zlashtirishda gatanashuvchilar, mulkiy munosabatlari ishtirokchilari bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqaga yoki boshqa ijtimoiy guruxlarga birlashgan bo'ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat xam mulkiylik sub'ekti bo'lib chiqadi.

**Mulkchilik munosabatlarini rivojlanish bosqichlari**




- Rim xuquqi bo'yicha mulk:
- Ashyoni egallash xuquqi
- Ashyodan foydalanish xuquqi
- Ashyoni tasarruf qilish xuquqi
- Ashyoni xosil, daromadlarin olish xuquqi
- Ashyoni qonunsiz egallab turgan shaxsdan talab qilib olish xuquqi






**“O‘zbekiston Respublikasining mulkchilik to‘g‘risidagi” qonunida mulkning turli-tuman shakllari quyidagilardan iborat:**



**O'zbekistonda mulk shakllari.  
Mamlakatning milliy mulk tizimi.**



**Umumiy mulk xuquqi quyidagi asoslardan vujudga keladi:**

Oddiy shirkat shartnomasidan, masalan, bir necha fuqaroning birgalashib uy-joy qurishidan yoki bir necha jamoa xo'jaligining birgalashib elektr stansiyasi qurishidan;

Bir necha fuqaroning muayyan umumiy mulkka ega bo'lish uchun mablag' va mexnatlarini qo'shishlaridan, masalan, umumiy oilaviy mulk;

Bir necha shaxslarning qonun yoki vasiyat bo'yicha meros olishlaridan.

**Umumiy mulk sub'ektlari:**

**Jismoniy shaxslar** ↔ **Yuridik shaxslar**

Umumiy ulushli mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etishda sherik egalarining xuquqlari ikki turga bo'linadi:

Barcha umumiy mulkka nisbatan bo'lgan xuquqlar;

Umumiy mulkdagi ulushga nisbatan bo'lgan xuquqlar.

**Er va xotinning nikox davomida oltirgan mulklari:**

xar birining mexnat faoliyatidan, tadbirkorlikdan va intellektual faoliyat natijalaridan oltirilgan daromadlari;

pensiyalar;

nafaqalar;

umumiy daromadlari xisobiga olingan ko'char va ko'chmas mulklari;

qimmatli qog'ozlar;

pay'lar;

**Ommaviy mulk tarkibiga quyidagilar kiradi:**

O'zbekiston Respublikasi mulki

ma'muriy-xududiy tuzilmalar mulki (municipal mulk)



<b>Dexqon va fermer xo'jaligining mol-mulki o'z farqidiga nuvidalarini oladi:</b>
turar-joy;
xo'jalik binolari;
sug'orish inshootlari;
ekinlar;
chorva mollari;
parrandalar;
texnika va uskunalar;
transport vositalari;
qishloq xo'jalik ashyolari;
<b>Xuquqshunoslarni fikricha, davlat mulki zarurligining ob'ektiv sabablari quyidagilardan iborat:</b>
Davlat organlari faoliyatini tashkil etish;
Davlat xavfsizligi va mudofaa uchun;
ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;
Kam ta'minlangan axolini jtimoiy ximoya qilish;
tabiiy ofatlarga va favqulodda xolatlarga qarshi kurash va oqibatlarini bartaraf etish;
Ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg'i energiyasi va sh.k.)

<b>Ob'ektning muomalada erkin xarakatda bo'lishi yoki uning xarakati cheklanganligi yoxud xarakatdan chiqarilganligidan qar'iy nazar, davlat mulki bo'ladi. Buni quyidagicha asoslash mumkin:</b>
fuqarolik xuquqi ob'ektlarining muomalada bo'lishi, cheklanishi yoki muomaladan chiqarilishini davlat va uning organlari belgilaydi;
Ob'ektlarning muomalada bo'lishi davlat tomonidan muayyan maqsadlarda (umumxalk manfa'atlarini ko'zlab) cheklab qo'yiladi yoki muomaladan chiqariladi. Masalan, o'qotar qurollar, portlovchi moddalarning erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilishi axolining va fuqarolarning xavfsizligini o'ylab amalga oshirilgan bo'lsa, ov miltig'ining xarakati cheklanishi (tegishli ruxsatnoma asosida xarakatda bo'lishi) bunday ashyoga egalik qilishdan oldin maxsus xavfsizlik choralarini o'rgatish va ob'ektdan qanday foydalanish lozimligini mulkdorga tushuntirish uchun amalga oshiriladi;
Davlat tabiat tomonidan ato etilgan yoki inson mexnati bilan yaratilgan xar qanday moddiy ne'matlar (ashyolar) ning yagona va yakka mulkdori sifatida ularning jamiyatdagi kishilar o'rtasidagi taqsimoti va xarakatlanishini nazorat qiladi;
fuqarolik muomalasidan qar'iy nazar, ob'ektning davlat mulki bo'lishi xolati davlatning xalq xokimiyatini amalga oshiruvchi sub'ektiligi bilan xarakterlanadi.

**O'zbekiston Respublikasi mulki:**

Davlatga mutlaq mulk xuquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk: Er, erosti boyliklari, suv, xavvo bo'shlig'i, o'simlik va xayvonot dunyosi xamda boshqa tabiiy boyliklar;

Davlat xokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat axamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika byudjetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, boshari bular byudjet yoki davlatning o'zga mablag'lari xisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, boshqa mol-mulkni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Respublika Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Xukumati yoki ular maxsus vakili qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib

**Ma'muriy-xududiy tuzilmalar mulki (munisipal yoki kommunal mulk).**

Maxalliy byudjet mablag'lari, munisipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa mol-mulk munisipal mulk bo'ladi.

**Davlat mulki zarurligining ob'ektiv sabablari quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini tashkil etish.

Xuquqni muxofaza qiluvchi idoralar faoliyatini tashkil etish;


Davlat xavfsizligi va mudofaa ehtiyojlari;

ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;

Kam ta'minlangan axolini ijtimoiy ximoya qilish;

Tabiiy ofatlarga va favqulodda xolatlarga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf etish;

Bar'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg'i energiyasi kabi).



**Shaxsiy mulk**- Fagqarolar mulki bo'lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

- Shaxsiy mulk manbalari:**
- ▶ Iqtisodiy ishlab chiqarishdagi ishtirokidan oladigan daromadlari;
  - ▶ o'z xo'jaligi (olla, dexqon)ni yuritish xisobiga oladigan daromadlari;
  - ▶ aksiyalardan olinadigan dividend;
  - ▶ tojari daromadlar;
  - ▶ shaxsiy tadbirkorlikdan olinadigan daromad;
  - ▶ transfer to'lovlari evaziga kelib tushadigan daromadlar.

- Shaxsiy mulk ob'ektlari:**
- uy-joylar;
  - bog' va dala ko'villar;
  - transport vositalari;
  - to'g'on va shaxsiy tashqi bog'ovlar;
  - xo'jalik faoliyati shabiga olinadigan maxsulotlar;
  - jamo' tashkilotlari
- uy-  
-  
- pul

*1991 yil 19 mayda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida maxsus qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning qabul qilinishiga quyidagilar ob'ektiv sabablar bo'ldi:*

- Totalitar tuzumda shaxsning mulkdan begonalashuvi oqibatlarini tuzatish;
- Davlat mulkning tarkibiy markazlashuvining xaddan orti-shi, undan samarali foydalanish, boshqarish va nazorat qilishni ta'minlay olmaganligi;
- Davlat mulkiga nisbatan tashmachiilik va xo'jasizlikka bar-xam berilishi;
- Hozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik faoliyatini yo'liga qo'yish mulkning davlat qo'lda xaddan ortiq markazlashuviga zid ekanligi.

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirish tamoyillari:**

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirish shakllarini mexnat jamoasining manfaatlarini xisobga olgan xolda ta'minlash;

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirish vaqtda mulkni sotish va pulsiz topshirishni qo'shib olib borish;

Pulli va pulsiz xususiyLashtiriladigan mulkni olishda fuqarolarning xuquqlari tengligi;

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirish sharoitida barcha fuqarolar ijtimoiy ximoya qilinishini ta'minlash;

Oshkoralik va Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirish sharoitida tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo'lga qo'yish;

Monopoliyaga qarshi qonun talablariga rioya etish.

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** – bu davlat mulki xisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishdir.

**XususiyLashtirish** – bu davlat mulkiga egalik xuquqining davlatdan alohida shaxslarga o'tirishidir.

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish yo'llari**

Davlat korxonasini xismondorlik jamiyatlariga aylantirish

Mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga ma'lum shartlar bo'yicha berish

Davlat korxonasini jamoa mulkiga aylantirish

CHet elliklarga sotish yoki qarz xisobiga berish

Davlat mulkni cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish

Davlat mol-mulkini kimoshdi savdosi orqali sotish

pulli yoki soqat to'lash orqali

bepul yoki tekim

Intlyozli

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish usullari**

**U'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirishga yondashishning xususiyatlari:**

- \* dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- \* maqaddi va manzili (adres) li yo'natirilgan;
- \* to'lovga asoslanishi.

### O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning o'ziga xos jihatlarini:<sup>2</sup>

- xususiylashtirishning amalga oshirilayotgan islohotlar-ning ichki mantiqiga bo'yindiriladi;
- xususiylashtirish davlat tomonidan boshqariladi;
- xususiylashtirishni xuquqiy-me'yoriy jihatidan ta'minlashda qonunlarga rioya etiladi.

### O'zbekistonda mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari natijalari

1992-1993 yillar davlat mulkidagi uy-joylar to'liq xususiylashtirilib, 1,1 mln. kishi xususiy xonadon egasiga aylandi deyarlik 54 mingta kichik va o'tra korxonalar xususiy mulkka o'tkazildi

1994 yil 5127 ta ob'ektni xususiylashtirish bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda 4617 ta korxonaning mulkchilik shakllari o'zgartirildi

1995-1996 yillar iqtisodiyotning turli tarmoq va soxalaridagi 12 mingga yaqin davlat mulki ob'ektlari xususiylashtirildi

1991-2000 yillar 83,5 mingdan ortiq davlat mulki ob'ektlari xususiylashtirildi

2000-2010 yillar 9000 dan ortiq davlat tasarrufidagi korxonalar va ob'ektlar xususiylashtirilib, ulardan tushgan pul mablag'lari xajmi 653 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Xozirgi vaqtda iqtisodiyotni erkinlashtirish bilan birgalikda: «Xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish bu borada xaqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, bu jarayonga tarmoqning asosini tashkil qiluvchi korxonalarni jalb etish»<sup>3</sup> islohotlarni chuqurlashtirishda aloxida ahamiyatga ega bo'ladi.

<sup>2</sup> Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «O'zbekiston», 1999, 210-225-betlar

<sup>3</sup> Milliy istiqlol G'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. – T.: «Yangi asr avlodi», 2001, 63-bet

### Xulosalar

1. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bir xilda va tekis kechmay, uni to'liq bosqichlarga ajratish mumkin. Mazkur bosqichlarni bilishda tarixiy-fornatsion, madaniylashtirish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik taraqqiyot darajasi, iqtisodiy tizimlarning o'zgarishi kabi jihalar bo'yicha yondashuvlar mavjud.

2. Iqtisodiy tizim har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlardan – iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy munosabatlarni majmuisini o'z ichiga oladi. Iqtisodiyot nazariyasida ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog'lab, shu asosda dunyodagi mamlakatlar iqtisodiyoti an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlariga ajratiladi.

3. Mulkiylik munosabatlari – shaxsiy, jamoa va davlat manfaatlarini o'zida ifodalaydigan, ishlab chiqarish omillari va natijalaridan foydalanish borasida kishilar, jamoalar, tarmoqlar, hududlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni majmuisidir.

4. Mulkiylik munosabatlarning iqtisodiy mazmuni moddiy va ma'naviy me'murlarni o'zlashtirish borasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Agar mulkiylikning iqtisodiy mazmuni u yoki bu ob'ektni o'zlashtirish va foydalanish borasida sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni bildirsa, mulkiylikning haqiqiy mazmuni sub'ektning ob'ektiga nisbatan bo'lgan munosabatni aks ettiradi.

5. Mulkiy davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish – korxonalar ustav formatida davlat ulushining qisqarishi, ularning investitsion jozibadorligini oshirish va korijli investorlarni xususiylashtirish jarayoniga jalb etishni kengaytirishga qaratilgan kompleks dasturdan iborat jarayondir.

### Asosiy tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish usuli – ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o'zaro ta'siri.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan unsurlar tizimi (ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari).

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabattar** – hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabattar.

**Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya** – ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqummasi majmumi.

**Ishlab chiqarishning texnologik usuli** – mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish majmumi.

**Oddiy kooperatsiya** – bir xil ishni yoki xizmat vazifasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shakldagi uyushmasi.

**Manufaktura** – mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo'lmagan sharoitdagi kooperatsiya.

**Yirik mashinalashgan ishlab chiqarish** – mehnat taqsimoti hamda mashinani mehnatga asoslangan kooperatsiya.

**Iqtisodiy tizim** – mavjud iqtisodiy munosabattar majmuasining iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikdagi tizimi.

**Mulkchilik munosabattari** – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabattar.

**Mulkdan foydalanish** – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning natfi jihatlarning bevosita iste'mol qilinishi.

**Mulkni tasarruf etish** – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.

**Mulkka egalik qilish** – mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning iqtisodiy shakli.

**Mulk ob'ektlari** – mulkka aylangan barcha boylik turlari.

**Mulk sub'ektlari** – mulk ob'ektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabattar ishtirokchilari.

**Xususiylashtirish** – mulkka egalik qilish huquqining davlatdan xususiy va boshqa shaxslarga o'tishi.

**Davlat tasarrufidan chiqarish** – mulkni davlat hisobidan chiqarilib, boshqa hodavlat mulk shakllarining vujudga keltilishi.


#### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Taraqqiyot bosqichlarini bilishda qanday yondashuvlar mavjud?
2. Ishlab chiqarish usuli nima va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
3. Ishlab chiqarish usullarining eng muhim o'ziga xos belgilarini ajratib ko'rsating. Bir ishlab chiqarish usulining boshqasiga almashinishi sabablari haqida mulohaza bildiring.
4. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini sanab ko'rsating. Fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish texnologik usuliga ta'siri qanday?
5. Ishlab chiqarish texnologik usullarining bosqichlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?
6. Iqtisodiy tizim nuqulalarini farqlantiradigan asosiy belgilarini sanab ko'rsating.
7. Mulkchilikning mohiyatiga ta'rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy mazmunini ajratib ko'rsating.
8. Mulk sub'ektlarining ko'p darajali bo'lishiga sabab nima? Mulkchilik shakllarining farqlanishi asosida nima yotadi?
9. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini tanqiz qiladi? Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish nima uchun hozirgi bosqichda ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi? Xususiylashtirish bosqichlari va shakllariga tavsif bering.
10. Xususiylashtirishning qanday usullarini bilasiz? Bu usullardan birini tanlab olishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

4-Bob. To'var-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir

- 1 • Natural ishlab chiqarishdan to'var ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi
- 2 • To'var va uning xususiyatlari
- 3 • Qiymaning mehnat nazariyasi va keyingi qo'shilgan miqdor natijaligi nazariyalari
- 4 • Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari
- 5 • O'zbekistonda milliy valyutaning mutomahaga kiritilishi va uning barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.


Ijtimoiy xo'jalikni tashkil etishning umumiy iqtisodiy shakllari



Natural ishlab

Bunda insonlar bozorda ayirboshlash uchun emas balki o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulot ishlab chiqaradilar.

Natural xo'jalikning asosiy belgilari



### Natural va tavar xo'jaliklarining bir-biridan farqlanishi

Asosiy jixadlar	Natural xo'jalik	Tavar xo'jaligi
1. Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadi	SHaxsiy ehtiyojlarni qondirishda foydalanish	Boshqa ayriboshlash, bozorda oldi-soldi qilish
2. ishlab chiqariladigan maxsulot tarkibini aniqlash	Extyvojar imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda oldindan aniqlanadi	Bozordagi muayyan talab ishlab chiqaruvchining xususiy manfaati asosida aniqlanadi
3. iste'molchini o'ziga jalb etish uchun kurash	Bunday mavjud emas	Bunday kurash mavjud va tavar xo'jaligining rivojlanishi bilan kuchayib boradi
4. ishlab chiqarilgan maxsulotning iste'mol qilinishi darajasi	Barcha chiqarilgan maxsulotlar to'raligicha qilinadi	ishlab chiqarilgan maxsulotlar ayrim turlari va qismlarining sotilmay qolishi, ya'ni iste'mol qilinmasligi
5. ishlab chiqarish jarayonidashchi kuchining ishtrok etish tanoyilari	ishlab jarayonida o'zining va oila a'zolarining kuchidan foydalanadi	ishlab chiqarish jarayonida yollanna ishchi kuchidan xam foydalanish mumkin

#### Tovar xo'jaligining rivojlanish bosqichlari:


- Oddiy tovar xo'jaligi – bunda muayyan tovarlar jamiyatning asosiy mayda, aloxidalashgan va ma'lum darajada ixtisoslashgan qatlamlari tomonidan yaratilib, ayriboshlashga taqdim qilingan
- Onnaviylashgan (kapitalistik) tovar xo'jaligi – o'zining ko'tanligi bilan tavsiflanadi. Bunda bozor munosabatlari umumiy xarakter kasb etadi, ya'ni nafaqat barcha maxsulotlar, balki ishlab chiqarish omillari xam tovarga aylanadi. Xususiy mulk ustuvorlik kasb etadi.
- Xozirgi zamon madaniyashgan tovar xo'jaligi – bozor va davlat mexanizmi xamda globallashev jarayonining afzalliklarini o'zida mujassamlashtiradi.

### Natural xo'jalik belgilari

- Mexnat taqsimoti rivojlanmagan;
- ishlab chiqarish biqliq xarakterga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchilarning o'z extyvojlarni qondirishga buysundirilgan;
- ishlab chiqarish bilan iste'molning o'zaro mosligi bevosita xo'jalik ichida ta'minlangan;
- Mexnat tor doirada ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan;
- Ishaehi kuchining safarbarligi cheklangan.

### Tovar xo'jaligining belgilari

- Ijtimoiy mexnat taqsimoti va uning chuqurlashuviga asoslanishi;
- ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida iqtisodiy aloxidalashuvi;
- Maxsulot bozorda sotish, erkin ayriboshlash uchun ishlab chiqarilishi.




### Tovar ishlab chiqarish quyidagicha farqlanadi:

1. Oddiy – xususiy mulkchilikka va ishlab chiqaruvchining shaxsiy mexnatiga asoslanadi.
2. Kengaytirilgan – xususiy mulkchilikka va yollanna ishchi kuchiga asoslanadi.




### Tovar va uning xususiyatlari




Tovar – bu biron-bir nafillikka (iste'mol qiymatga) va almashuv qiymatiga ega bo'lgan, bozor uchun ishlab chiqariladigan maxsulot yoki xizmatlardir


#### Tovarning xususiyatlari



### Mexnatning ikki yoqlama xarakteridan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyati



### Tovar qiymati miqdoriga ta'sir etuvchi omillar



Qiyamatning mehnat nazariyasi – bu nazariya tarafdorlari qarashicha, tovarlarning ayiriboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Qiyamatning miqdori esa, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan, ya'ni ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan o'lchanadi.

Ijtimoiy zaruriy ish vaqti – ishlab chiqarishning mavjud ijtimoiy normal sharoitda va shu jamiyada mehnat maxorati va jadalashuvining o'rtacha darajasida biron iste'mol qiymatini tayyorlash uchun talab qilinadigan ish vaqtidir.

#### Qo'shilgan miqdor nafillik nazariyasi.

Qiyamat va bazo nazariyasida yangi yo'nalishni boshlab bergan mashhur ingliz iqtisodchisi M.A.Marshall xisoblanadi. Qo'shilgan miqdor nafilligi nazariyasining bir tomonligini u qiymatni faqat nafillik bilan tushuntirishda ko'rdi. A.Marshall keyingi qo'shilgan miqdor nafilligi nazariyasini talab va taklif nazariyasi nomida ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bilan bog'lashga xarakter qildi. A.Marshall fikricha:

tovar qiymati teng darajada keyingi qo'shilgan miqdor nafilligi va ishlab chiqarish sharoitlari bilan aniqlanadi. SHunday qilib, A.Marshalldan boshlab iqtisodiyot nazariyasida qiymatning tub asosini qidirib topishdan chekinish va funksional hisoblashga, ya'ni bir vaqtda baxolar va talab – takliflarning o'zaro ta'sirini aniqlashga o'tildi.

Me'yoriy (marginal) nafillik deb qo'shimcha iste'mol qilingan maxsulotdan qo'shimcha olinadigan nafga aytiladi.

### Pulning kelib chiqishi, moxiyati va vazifalari

Qiyamat (ayirboshlash) shakllarining rivojlanishi

⇒

\* Oddiy yoki lasodifiy shakli (1 bolta = 1 qop don).

\* To'la yoki kengaygan shakli (1 bolta = 1 qo'y yoki 1 qop don yoki 1 ketmon).

\* Umumiy shakli (1 bolta yoki 1 qo'y yoki 1 ketmon = 1 qop don).

\* Pul shakli (1 bolta yoki 1 qo'y yoki 1 qop don = 1 unsiya oltin).

O'z qiymatini boshqa tovarda ifodalagan tovar **qiyamatning nisbiy shaklini**, boshqa tovarlar qiymatini ifodalashga xizmat qiluvchi tovarlar esa **qiyamatning ekvivalent shaklini** tashkil qiladi.

**Qiyamat shakllarini rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar:**

- Mexnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi;
- Mexnat unumdorligining o'sishi;
- Maxalliy va milliy bozorlarning vujudga kelishi.

**Umumiy ekvivalentlik rolining oltiniga yuklatilishi sabablari**

- sifat jixatdan bir xil o'Ichamga keltirish mumkinligi;
  - zanglamasligi va uzoq muddat saqlash mumkinligi;
  - bo'linuvchanligi va yaxlit xolatga keltirish mumkinligi;
  - tabiatda nisbatan kamyobligini;
  - oz miqdordagi modir metall qiymatining ancha yuqoriligi;
- Oltin pul** – xamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovar.

**Xozirgi zamon pullari** – xar qanday tovarni ayirboshlash yoki qarz to'lashga qabul qilinadigan davlat tomonidan qonunlashtirilgan ekvivalentlikning umumiy vositasi.

### Pulning vazifalari:

**Qiyamat o'Ichoviy vazifasi** – bunda tovar (xizmat)ning almashuv qiymati pul vositasida xisoblanadi va baxolanadi. Shuningdek, iqtisodiy resurs sarf-xarajatlari va daromadlarni hisoblashning yagona o'Ichov birligi xam puldir.

**Muomala vositasi vazifasi** — bunda pul tovarlar muomalasi jarayonida vositachi sifatida maydonga chiqadi.

**To'lov vositasi vazifasi** — tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sollganda va turli xil to'lov majburiyatlari amalga oshirilganda pul bu vazifani bajaradi.

**Jamg'artish vazifasi** – pul muomaladan chiqarib olinganda bu vazifani bajaradi. Real ravishda oltin pul va oltin buyumlar boylik to'plash vazifasini bajaradi.

**Jaxson puli vazifasi** — oltin pulga tegishli. Ba'zi nufuzli valyutalar xam ideal ravishda bu vazifani bajarishi mumkin.

**Xozirgi paytda pul tushunchasi ikki ma'noda ishlatiladi:**

- milliy xo'jalikda tovar va xizmatlar xarakterini ta'minlovchi naqd pul; naqd bo'lmagan muomala va to'lovlar uchun ishlatiladigan vositalar, ya'ni kredit pullar (kvazi pul, lotincha quasi – deyarli, xuddi) tashkil etadi.


Likvidlik darajasi turlicha bo'lgan barcha pul vositalarining muayyan nisbatlarda yaxlit pul massasini tashkil etishi, pul agregati deyiladi.

Pul agregati likvidlik darajasi absolyut bo'lgan (100%) naqd puldan boshlab, borgan sari likvidligi kamayib boruvchi pul vositalaridan tashkil topadi.

**Pul** – tovarlarni ayirboshlashda umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi maxsus tovar.

**To'laqonli pullar** – xaqiqiy pullar bo'lib, unda qiymatga ega pulli tovar ishtirok etadi.

**To'tiqsiz pullar** – to'laqonli pullarning o'rinsosari bo'lib, qiymati muxim bo'lmagan va shunga muvofiq nominaliga to'g'ri keqmaydigan pul belgilari.



Xozirgi zamon puli – naqd pullar va naqd pulsiz xisob vositalaridan iborat.

• naqd pullar → Qog'oz pullar va tangalar

• naqd pulsiz xisob vositalari → Elektron pullar, cheklar, plastik kartochkalar, viza, to'lov talabnomasi, zayomlar va boshq.

**Pulning nominal qiymati** → Bu qayd qilingan miqdor (100, 200, 500 yoki 1000 so'm)lar bo'lib, unga narx darajasidagi ro'y beradigan o'zgarishlar ta'sir ko'rsatmaydi, faqat sotib olish layoqati ortishi yoki pasayishi mumkin.

**Pulning real qiymati** → Bu uning xarid qilish layoqati yoki pul birligiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdoridir.

Qog'oz pul belgilari tegishli nominal va real qiymatga ega bo'lishi zarur.

Pulning xarid quvvati (F) tovar va xizmatlarning narxiga (P) bog'liq bo'lib quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$F = \frac{1}{P}$$

Sotib olish layoqati narxlar darajasiga teskari mutanosiblikda joylashadi.

## Xulosalar

1. Tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning paydo bo'lishi ijtimoiy mehnat taqsimotining hamda xususiy mulk kelib chiqib, ishlab chiqaruvchilar alohidalashuvining rivojlanishi bilan bog'liq.
2. Tovarning ikki xossasi — nafliligi (iste'mol qiymati) va qiymati inson mehnatining ikki yoqlama tavsifi natijasida vujudga keladi. Agar naflilik (iste'mol qiymati) aniq mehnat organi yaratilsa, almashuv qiymati abstrakt mehnatning natijasi hisoblanadi.
3. Qiymat mehnatning ijtimoiy xossasi bo'lib, unda tabiat ashyolarining birorta ham molekulasi, zarrachasi yo'qdir. Qiymatning asosida odamlar bir-birlari uchun mehnat qilishlarini bildiruvchi ijtimoiy mehnat yotadi. Biroq, alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar mehnati singari o'zining ijtimoiy xususiyatini faqat mehnat mahsulatlarini ayirboshlash organi ko'rsatadi.
4. Tovar qiymatini aniqlash borasida iqtisodiyot nazariyasida ikki xil yondashuv mavjud: qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi. Birinchi nazariya tovar qiymatini unda mujassamlashgan ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari tashkil qiladi desa, ikkinchi nazariya tovarning qiymatini uning nafliligi, ayniqsa keyingi qo'shilgan tovar nafliligi belgilab beradi, deb ko'rsatadi.
5. Tovarlarini ayirboshlash jarayonining uzoq vaqt rivojlanishi natijasida umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi, boshqa hamma tovarlarni ayirboshlash mumkin bo'lgan alohida tovar pul sifatida ajralib chiqdi.
6. Pul o'zining rivojlanish tarixida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi: tovar pullar (pul o'rini har xil mahsulotlar bosgan); to'la qiymatga ega pullar (oltin yoki kumush); to'la qiymatga ega bo'lmagan pullar (qog'oz pullar, oddiy metall tangalar); kredit pullar (veksel, banknot, chek, kredit kartochka).

## Asosiy tayanich tushunchalar

**Natural ishlab chiqarish** — mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun mo'ljallagan ishlab chiqarish.

**Tovar ishlab chiqarish** — mahsulotlarni o'z iste'moli uchun emas, balki hozorda sotish, ayirboshlash uchun va boshqalarning ehtiyojini qondirish maqsadida ishlab chiqarish.

**Tovar** — biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo'lgan, ayirboshlash uchun yaratilgan mahsulot.

**Naflilik** — tovarning kishilarning biron-bir narsaga bo'lgan ehtiyojini qondirish layoqati.

**Ijtimoiy zaruriy naflilik** — talab miqdoriga mos keladigan miqdordagi naflilik.

**Qiymat** — tovarda mavjud bo'lgan ijtimoiy-zaruriy mehnat, almashuv qiymati — biron turdagi iste'mol qiymatining boshqa turdagi iste'mol qiymatiga ayirib olinadigan miqdoriy nisbati.

**Ijtimoiy zaruriy ish vaqti** — muayyan ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyadagi mehnat mahkasi va jadalligi darajasi o'rtaicha berilgan sharoitda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti.

**Qiymat qonuni** — tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash uning qiymati asosida amalga oshiriladi, qiymatning o'zi esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari organi o'zlaridagi foydalanuvchi sabab-oqibat bog'liqligi.

**Aniq mehnat** — muayyan aniq iste'mol qiymatlarini vujudga keltiradigan mehnat.

**Abstrakt mehnat** — mehnatning aniq shakldan qariy nazar unuman inson tabiati kuchining sarflanishi, ijtimoiy mehnatning bir qismi.

**Mehnat unumdorligi** — ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt.

**Mehnat intensivligi** — mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligi.

**Pul** — umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovar.

**Diversifikatsiya** — ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalarini ko'paytirish, ularning sifatini takomillashtirish.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.

#### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ijtimoiy xo'jalik shakllariga umumiy tavsif bering. Natural va tovar xo'jaligining asosiy farqlari nimalardan iborat?
2. Tovar ishlab chiqarish va bozorning vujudga kelishining umumiy shart-sharoitlarini tushuntiring.
3. Nima uchun tovarga naflilik (iste'mol qiymat) va almashuv qiymatining biriligi sifatida qaraladi? Tovardagi bu ikki xil xususiyat nimadan kelib chiqadi?
4. Qiymatning mehnat nazariyasi mazmunini tushuntirib bering.
5. Qiymatning so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi asosida nima yotadi?
6. Keyingi (so'nggi) qo'shilgan miqdor nafliligi nima va uning pasayish sababini tushuntiring.
7. Tovarlar qiymatini aniqlashga bo'lgan quyidagi fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring:
  - a) ijtimoiy zaruriy mehnat sarfari bilan belgilanadi;
  - b) keyingi qo'shilgan tovarlarning nafliligi bilan aniqlanadi;
  - v) keyingi qo'shilgan tovarlarning nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi.
8. Pulning mazmunini va vujudga kelishining umumiy shart-sharoitlarini tushuntirib bering.
9. Pulning ratsionalistik va evolyusion konsepsiyalarining mazmuni nimadan iborat?
10. Pul qanday vazifalarni bajaradi? Har bir vazifasining mazmunini tushuntirib bering.
11. Olin pul va qog'oz pul o'rtasidagi umumiylik va farqlarini ko'rsatib bering.

## II BO'LIM. BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI

### 5-bob. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi

Reja:

- 5.1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari
- 5.2. Bozor iqtisodiyotida doimiy va asosiy muammolarning hal qilinishi
- 5.3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari
- 5.4. Bozor va uning vazifalari
- 5.5. Bozorning turlari va tuzilishi
- 5.6. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari

#### 5.1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari

**Bozor iqtisodiyoti** - bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul munomilasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar - pul munosaballariga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakldagi xarakati yotadi. Iqtisodiy monopoliizmi inkor etadi.


#### Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari

**Uy xo'jaliklari** – iqtisodiyotning iste'molchilik soxasini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari resurslarini etkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchi xam xisoblanadi..

**Korxonalar, firma yoki tadbirkorlik sektori** — iqtisodiy resurslarning iste'molchisi, iqtiso-diyotning birlamchi bo'g'ini va tovar (xizmat)larning asosiy ishlab chiqaruvchisi xisoblanadi.


**Davlat** — iqtisodiy resurslar va tovarlar iste'molchisi xanda ijtimoiy iste'mol xarakteridagi ne'matlar bilan ta'minlovchi xisoblanadi.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining tabiiy taqozo qiladigan iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg'unlashtirishga qaratilgan iqtisodiy dastak xanda vositalardir.



**Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari:**

- ⇒ Turli shakldagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilik ustivorligi;
- ⇒ Tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- ⇒ Raqobat kurashlari;
- ⇒ Davlatning iqtisodiyotiga cheklangan xolda aralashuvi;
- ⇒ Korxonalar va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlari o'zgarishlariga moslashuvchanligi.



**Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari**

turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;

individerlik va tanlov erkinligi

raqobat kurashining mavjudligi


davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi

korxonalar va firmalarning moslashuvchanligi

innovatsiyaga moyillik

**Bozor iqtisodiyotining turlari**


klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti	hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti
<ul style="list-style-type: none"> <li>• xususiy mulkchilikka asoslangan holda iqtisodiy faoliyat yuritish;</li> <li>• kapital va ishlab chiqarishning korxonalar miqyosida umumlashganligi;</li> <li>• shaxsiy erkinlik;</li> <li>• o'ziga kuchli raqobat;</li> <li>• davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi;</li> <li>• ijtimoiy himoyaning yo'qligi;</li> <li>• aloqalarning tabaqalanishi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lishi;</li> <li>• kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi;</li> <li>• mulkning bir qismi yirik monopoliyalar va davlat qo'lida toplanib, milliy va xalqaro miqyosda umumlashganligi;</li> <li>• iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki;</li> <li>• ijtimoiy himoyaning kuchayishi.</li> </ul>



### 5.2. Bozor iqtisodiyotida doimiy va asosiy muammolarning hal qilinishi

Bozor iqtisodiyotiga yo'l tutgan har qanday mamlakat bu iqtisodiyotning qanday amal qilishini tushunib olish va oldiga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun iqtisodiyotning umumiy muammolari bo'lgan bir qator savollarga javob topishi zarur.

- Nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur?
- Qanday texnika va texnologiya bilan ishlab chiqarish zarur?
- Kim uchun ishlab chiqarish zarur? - kabi har doim bo'ladigan umumiy muammolar shular jumlasidandir.



Agar bu savollarni umumiy ravishda qo'yib, unga taraqqiyotning hamma boqchalariga hos bo'lgan umumiy javobni beradigan bo'lsak ularni to'rtida qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

- aholi ehtiyoji uchun zarur turda va miqdorda tovar va xizmat ishlab chiqarishi;
- mavjud resurslardan samarali foydalanib, yangi texnika va texnologiya orqasida ishlab chiqarish;
- aholi iste'moli uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish deb javob berish mumkin.

Leikin bozor iqtisodiyoti davrida bu savollarga o'zgacha javob beriladi. Bu javoblar bozor iqtisodiyotining o'ziga xos tarixiy xususiyatidan, uning talablari va qonun-qoidalaridan kelib chiqadi.

Nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng avvalo iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanish darajasiga, talab va taklif nisbatiga bog'liq. Bunda mavjud bo'lgan resurslar qanday hajmda band qilinishi yoki qaysi qismini ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi ham hisobga olinishi lozim.

Nima ishlab chiqarish zarur, degan savolga javob berishda korxonalar zarar ko'rmaslik va foyda olish uchun intilish qoidasiga amal qilishni hisobga olib kulusa chiqarishimiz zarur. Shu bilan birga tovar va xizmatlarning qanday to'plamni jamiyatning talablarini to'la qondirishi e'tiborga olinishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat talabi mavjud bo'lgan, binobarin foyda keltirishi mumkin bo'lgan tovarlar ishlab chiqariladi va xizmatlar ko'rsatiladi, zarar keltiradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilmaydi. Bunda foyda olish yoki olmaslikni korxonalar o'z tovarini sotishdan oladigan umumiy pul daromad va uning ishlab chiqarishga qilingan umumiy xarajati o'rtasidagi nisbat aniqlaydi.

Umumiy daromad tovar narxini sotilgan tovar miqdoriga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Umumiy xarajalar har bir resurs narxini uni ishlab chiqarishda sarflangan resurs miqdoriga ko'paytirish va keyin har bir resurs sarflarini qo'shishi orqali hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti so'zsiz texnika taraqqiyoti uchun rag'bat yaratadi. Ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga olib keluvchi texnologiyani birinchi qo'llash, korxonaning o'z raqobatchilari oldidagi vaqinchalik ustunligini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish harajatlarning pasayishi korxonaning iqtisodiy foyda olishini bildiradi. Bundan tashqari, bozor tizimi yangi texnologiyaning tez tarqalishi uchun sharoit ham yaratadi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaga yuqori foyda berishi mumkin bo'lgan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqarishni amalga oshiradilar.

Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak bozor iqtisodiyoti sharoitida:

- a) foyda beradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqariladi.
- b) puli bor, yuqori foyda olish imkonini beradigan haridorlar uchun ishlab chiqariladi.
- v) yuqori foyda olishni ta'minlaydigan, tejash imkonini beradigan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqariladi.

### 5.3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari

<b>AFZALLIKLARI</b>
Resurslarni taqsimlashning samaradorligi
Erkinlikni ta'minlash
iqtisodiy faollikni rag'batlantirish
Xar bir shaxs, korxonaga, firma va korporasiyalarning tinimsiz xarakter va izlanishida bo'lishi

<b>KAMCHILLIKLARI</b>
Raqobanning kuchsizlanishiga yo'l qo'yishi va uni rag'batlantirishi
Jamiyatning extiyoji yuqori bo'lgan tovarlar bilan ta'minlash kafolatini mavjud emasligi
Jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayishi va axolining tabaqalanishi
Ijtimoiy iste'mol qilinadigan ayrim ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taklif etishga qodir emasligi

Bozor iqtisodiyotining afzalliklari bizning oldingi bayon qilgan tahlillarimizdan va fikrlarimizdan ma'lumdur. Bu tahlillardan uchasi ayrimga e'tiborga loyiq.

1) **Resurslarni taqsimlashning samaradorligi.** Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Buning mazmuni shuki, raqobatli bozor tizimi resurslarni jamiyatga eng zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. U ishlab chiqarish uchun resurslarni uyg'unlashtirishning ancha samarali usullarini va ishlab chiqarishga yangi, ancha samarali texnologiyani qo'llashni taqozo etadi. Qisqasi, bozor tizimi shaxsiy manfaatni shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyat uchun mavjud resurslardan zarur tovarlarni talab darajasidagi miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

2) **Erkinlik** – bozor iqtisodiyoti tizimining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u shaxsiy erkinlik roliga ustivorlik beradi. Ko'plab ayrim shaxslar va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirish tashkil qilishning asosiy muammolaridan biridir. Bunday uyg'unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Biri — markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo'llash; ikkinchisi – bozor tizimi vositasi orqali ixtyoriy hamkorlik. Faqat bozor tizimigina iqtisodiy faoliyatni majbur qilmasdan uyg'unlashtirishga layoqatlidir. Bozor



iqtisodiyoti iadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qiladi, xususan shu asosda u muvaffaqiyatga erishadi.

3) Bozor iqtisodiyotining yana bir afzalligi shundaki, bunda har bir shaxs, korxonalar, firma va korporatsiyalar tinimsiz harakatlarda va izlanishda bo'lishadi. Chunki xo'jasizlik, susqashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini xonavyayon qilishga olib keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar raqobatga bardosh berish, doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurashadi. Natijada bozor iqtisodiyoti million-million kishilarni xarakterga soladi, ularni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi.

Bozor iqtisodiyotining yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy afzalliklari bilan bir qatorda boshqa ko'plab jiboy jihatlarni ham sanab o'tish mumkin. Jumladan:

- uning ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi va ko'nikishining yuqori darajasi;
- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarishga

joriy etishning jadal sur'ati;

- turli-tuman ehtiyojlarni qondirish, maqsulot sifatini oshirish qobiliyati;


- buzilgan muvozanatni nisbatan tezlik bilan qayta tiklash;
- cheklangan axborot — turli resurslarning narx darajasi va ularning sarflanish darajasiga yo'nalgan holda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli amal qila olish imkoniyati.

#### 5.4. Bozor va uning vazifalari

Bozor tushunchasi bozor iqtisodiyotining markaziy kategoriyasi bo'lib, iqtisodiyot nazariyasida ham, xo'jalik yuritish amaliyotida ham, barcha mamalaklar tajribasida ham qo'llaniladigan ilmiy-amaliy tushunchadir.

Eng avvalo «bozor» va «bozor iqtisodiyoti» tushunchalarining bir-biridan farqlanishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Chunki, ko'pincha bu ikki tushunchani bir xil ma'noda tushunish, ba'zi adabiyotlarda sinonim so'zlar sifatida qo'llash yoki ularni chalkashirish hollari uchraydi. Bozor jamiyatda bozor iqtisodiyoti shakllangunga qadar mehnat taqsimotining ro'y berishi natijasida vujudga kelib,

ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ayirboshlash jarayonini o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti esa bozor va bozor munosabatlarning tarixan uzoq davr mobaynida rivojlanishining natijasi sifatida paydo bo'ladi va bozor qonunlari asosida tashkili efiluvchi va faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiy tizimni anglatadi.




Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni iste'molchilarga yetkazib berishdan iboratdir. Bu yerda bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'laydi, ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o'z iste'molchisini topadi. Bunda bozor vositachi bo'lib xizmat qiladi. Bozorda qiymat shakllari almashadi. U qiymatni tovar shaklidan pul shakliga aylantiradi. Individual mehnat sarflari sifatida chiqqan tovarlar bozor tomonidan tan olinsa, ijtimoiy mehnat sarfini namoyon qiladi va tovarning bozor qiymati hosil bo'ladi.

Bozor ayirboshlash kategoriyasi bo'lib, ishlab chiqarishning uzluksiz faktorlarni turishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish, yangidan boshlanishi uchun yaratilgan tovarlar sotilishi va ularning pulga aylanishi, puldan esa kerakli iqtisodiy resurslar xarid qilinishi zarur. Bozor vositasida tovarni sotishdan tushgan mahsulotlar hisobiga, ishlab chiqaruvchilar resurslar sotib olish yo'li bilan yaratilgan ishlab chiqarish vositalari o'rinni qoplaydigan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kerakli moddiy va mehnat resurslariga ega bo'ladi.

orgali resurslarning erkin harakati ta'minlanadi va ularning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi ro'y beradi. Iste'molchilar bozorda u yoki bu tovarga bo'lgan talabini bildiradi. Bozor bu talabni ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilarga uzatadi. Resurslar talab bildirgan tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlanib turadi.

Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini talab, taklif, raqobat va narxlar yordamida bajaradi. U o'zida talab va taklifni jamlab, bu bilan nima, qancha miqdorda va qaysi vaqtda ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi. Bozor narx vositasida iqtisodiy resurslarni tovarlarga talab kamaygan tarmoqlardan talab ortgan tarmoqlarga oqib kelishini ta'minlaydi.

Shuningdek, adabiyotlarda bozorning boshqa ko'plab qo'shimcha vazifalari ham keltiriladi. Bu vazifalarni yaqqolroq tasavvur etish uchun ularni maxsus chizma ko'rinishida ifodalash mumkin.



Bozor turli xil vazifalarni bajarsa-da, ular o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Bozorning mazmunini to'laroq tushunmoq uchun uning turlarini va ichki tuzilishini bilish zarur.

### 5.5. Bozorning turlari va tuzilishi

**Bozor isloxoatlari** - xalq ishtirokida, lekin davlat tomonidan ishlab chiqilgan, bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davlat nazorati ostida amalga oshirishini bildiradi.

**Bozor** - bu iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar xanda tovarlar va pul xarakati bo'yicha savdo vositachilari o'rtasidagi muayyan iqtisodiy munosabatlar majmui bo'lib, u bozor munosabatlari sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradi va mexnat maxsulotlari ayirboshlanishini ta'minlaydi.

**Bozorning tuzilishi** - bu bozor unsurlarining ichki qurilishi, joylashishi va tartibi, ularning bozor umumiy xajmidagi ulushi.

Bozor turli tuman ko'rinishlarga ega bo'lib, uning eng oddiy turlari tijorat do'konlari, avtomobillarga yog' quyish shaxobchalari, qishloq xo'jalik maxsulotlari bozori kabilar bo'lsa, yuqori darajada tashkil qilingan xanda ancha murakkab shakllari birjalar, auksionlar va chet el valyutalari bozori xisoblanadi.

#### Bozorni turkumlanish mezonlari:

##### I. Ayirboshlash ob'ektlarining turiga ko'ra:

- iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori (oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari xanda xizmatlar bozori)
- ishlab chiqarish omillari bozori (ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar xanda ishchi kuchi bozori);
- ko'chmas mulk bozori (er va uy-joy bozori);
- moliya bozori (qarz majburiyatlari, kapital, valyuta bozori);
- intellektual tovarlar va «nou-xau» bozori.

**II. Raqobating cheklanish darajasi yoki bozor sub'ektlarining mavqeiga ko'ra:**

- erkin raqobati bozor;
- sof monopolistik bozor;
- monopolistik raqobati bozor;
- oligopolistik bozor.

**III. Xududiy qamrov darajasiga ko'ra:**

- maxalliy bozorlar;
- milliy bozorlar;
- jaxon bozori.

**IV. Savdo bitimlarini amalga oshirish tartibi va xajmiga ko'ra:**

- chakana savdo bozorlari;
- ulgurji savdo bozorlari;

**V. Mulik shakllariga ko'ra:**

- davlat savdosi;
- kooperativ savdo;
- dexqon bozori.

**VI. Bozor aloqalarining qonuniylik darajasiga ko'ra:**

- rasmiy (legal) bozor;
- norasmiy (xufiyona) bozor.


**Bozorlar tizimi**- turli tuman mezonlar asosida aloxida unsurlarga ajratilgan barcha bozorlar majmuidir.

**Investitsiyalar bozori**- pul bozorining bir turi bo'lib, bunda bozor munosabatlarining ob'ekti kapital qo'yilmalari hisoblanadi.

**Innovatsiyalar bozori**- bu yangiliklar, kashfiyotlar, rasionalizatorlik takliflari bozori.

**Moliya bozori.** Bu bozor turli-tuman va ko'p jixati bo'lsa xam, olish-sotish ob'ekti - bita pul (pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) hisoblanadi va turli xil shakllarda chiqadi. Oritqicha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlari, bu moliyaviy resurslarini, mablag'lar kanyobiligini sezgan sub'ektlarga taklif qiladi.

**Moliya bozorining tuzilishi**  
(moliyaviy bitimlarning xarakteriga ko'ra)



Qarz majburiyatlari bozorida olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi.

- Kapital bozorida qo'yilgan puldan daromad olishi xuquqi sotiladi va sotib olinadi.
- Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorida ularning yangidan chiqarilgan nusxalari sotiladi va sotib olinadi;
- Ikki lamchi bozorida esa oldin chiqarilganlari xarakatda bo'ladi.

**Bozor segmenti**- bu bozordagi savdo-sotiqning shart-sharoitiga qarab ko'pgina bo'g'inlarga ajratilishidir.

**Bozor segmentlariga ajratish mezonlari:**


- axolining xarid qilish layoqati darajasi, ya'ni to'lovga layoqatligi;
- xududiy va jiiimoiy demografik mezonlar (axolining soni, uning yosh tarkibi, jinsi, zichligi, tabiiy iqlim sharoiti, ehtiyojlar tarkibi va x.k.)

**5.6. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari**

**Bozor infratuzilmasi** – bu tovar va xizmatlar xarakatiga ko'maklashuvchi tashkiliy-xuquqiy shakllar yig'indisi.

**Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasi** – bu aloxida bozorlar doirasida xarakatlanuvchi va ularning me'yoriy tartibda amal qilishini ta'minlash bo'yicha ma'lum vazifalarni bajaruvchi o'zaro bog'liq ixtisoslashtirilgan institutlar yig'indisi.

**Bozor infratuzilmasi institutlari** – bozor munosabatlari amal qilishi, barcha bozor faoliyati turlarining muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlovchi korxonalar yig'indisi.



**Infratuzilma**

Ujguri va chakana savdo korxonalari, kina oshdi savdolari, yarmarkalar, vositachilik firmalari, tovar birjalari	TOVAR BOZORI
Banklar, sug'ura kompaniyalari, fondlar, fond bozorlari	MOLLYAVIY BOZOR
Mehnat birjalari	ISHCHI KUCHI BOZORI
Axborot markazlari, sdiiva idoralari, reklama agentliklari, auditorlik firmalari	

<b>Bozor infratuzilmasi vazifalar</b>	
Bozor munosabatlari engilashirish;	ibtidoatchilarining manfaatlarini amalga oshirishni
Ixtisoslashtirish asosida bozor sub'ektlari ishi samaradorligini va tezkorligini oshirish;	
Bozor munosabatlarni tashkiliy tashkilyashtirish;	
Ishlabarmonlik amaliyotini davlat tomonidan va jiiimoiy tartibga solish, yuridik va iqtisodiy nazorat shaklini engilashirish	

## Xulosalar

1. Bozor va bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida vujudga keladi.
2. Bozor munosabatlari sub'ektlari o'zaro bog'liq holda va aloqada bandlik, milliy daromad va ishlab chiqarishning umumiy hajmi kabi ijtimoiy ishlab chiqarish natijalarini aks ettiradigan va doimiy harakarda bo'ladigan daromadlar va xarajalar oqimini shakllantiradi.
3. Bozor munosabatlarining har bir ishtirokchisi o'z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib, mustaqil qaror qabul qiladi. Aynan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinligi va mustaqilligi bozor ko'rinishidagi iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltiradi hamda o'z rivojlanishining tabiiy-evolyusion, dinamik xususiyatini belgilab beradi.
4. Bozor iqtisodiyoti – murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, birlashgan, o'zaro bog'langan va birgalikda harakatlanadigan bir qator tarkibiy tuzilmalarini o'z ichiga oladi.
5. Bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishi uchun uning infratuzilmasi shakllantiriladi. Bozor infratuzilmasi – bu bozor munosabatlarga ko'mak berishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy institutlar tizimidir.
6. Bozor iqtisodiyoti tizimining afzalligiga qaramay, shunday muammolar borki, ularni bozor mexanizmi vositasida hal etish kam samara keltiradi yoki umuman hal etib bo'lmaydi. Ana shunday muammolarni hal etish uchun davlat ularni o'z zimmasiga olishi yoki zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi kerak.

### Asosiy tayanch tushunchalar

- Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.
- Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uy'umlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalar.
- Bozor** – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (soluvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisi.

**Bozor ob'ekti** – ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.

**Bozor sub'ekti** – ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi.

**Uy xo'jaliklari** – iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik.

**Tadbirkorlik sektori** – iqtisodiyotning daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi bo'g'ini.

**Davlat sektori** – o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalari majmui.

**Bank** – iqtisodiyotning me'yorda amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.

**Suda kapitali bozori** – pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berish bo'yicha oldi-soldi munosabati.

**Qimmatli qog'ozlar bozori** – turli ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit kabilar)ning oldi-soldi munosabati.

**Bozor infratuzilmasi** – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir naronda amal qilishiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir.

**Birja** – namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-soliq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi.

**Tovar birjasi** – oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.

**Fond birjasi** – qimmatli qog'ozlar oldi-soldisi bo'yicha rasmiy jihatdan tashkil etilgan va muntazam amal qiluvchi bozor shakli.

**Valyuta birjasi** – milliy valyutalar kurslari bo'yicha ularning erkin oldi-soldisi amalga oshiriladigan, rasmiy jihatdan tashkil etilgan bozori shakli.

**Mehnat birjasi** – ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishchi kuchining oldi-soldi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro'yxatga oluvchi muassasa.

**Broker (makler)** – bu tovar, fond va valyuta birjalariida oldi-soldi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma.

**Auksion** – alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi.

**Savdo yarmarkasi** – muayyan belgilangan vaqtda va joyda o'tkaziluvchi hamda o'tkazilish jarayonida ulgurji savdo bitimlari tuziluvchi tovar namunalari ko'rgazmasi.

**Savdo uyi** – o'z ichiga tashqi savdo kompaniyasi bilan bir qatorda ishlab chiqarish, bank, sug'urta, transport, ulgurji-chakana va boshqa turdagi firmalarni oluvchi keng tarmoqli savdo kompaniyasi.

**Supermarket** – bu xaridorning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi.

#### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlari va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.
7. Etuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
8. Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra bozorning qanday turlarini ajratish mumkin?
9. Hududiy jihatdan bozorning qanday turlari mavjud?
10. Bozor infratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta'rif bering.

#### **6-bob. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari**

**Reja:**

6.1. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari

6.2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari

6.3. O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari

##### **6.1. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining umumiy mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishdan iboratdir.

Mamuriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri - ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davr tushuniladi.

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha yo'llari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy turga bo'linadi:

- 1) rivojlangan mamlakatlar yo'lli;
- 2) rivojlanayotgan mamlakatlar yo'lli;
- 3) sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'lli;
- 4) sotsializm g'oyalari samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mexanizmi bilan qo'shib olib borish yo'lli (Xitoy, V'etnam).

**Rivojlangan mamlakatlar yo'lli** - bu g'arba model deb xam atalib, bunda oddiy tovar xo'jaligidan erkini raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga va undan xozirgi zamon madaniy jixatdan rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tiladi.

**Rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li** - bu mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li bo'lib, unda qoloq, an'anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tiladi.

**Sobiq socialistik mamlakatlar yo'li** - bu yo'lining xususiyati, bir-biriga butunlay qarama-qarshi bo'lgan bir iqtisodiyotdan boshqasiga, ya'ni markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan xozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tiladi.

Bir iqtisodiy tizimdan (ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan) boshqa iqtisodiy tizimga (bozor iqtisodiyotiga) o'tish yo'llari:

**Revolyusion yo'l** - katta to'ntarishlar qilishni taqozo qiladi va bunda «karaxi qilib davolash» usuli keng qo'llaniladi. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bu yo'lni tanlagan.

**Evolyusion yo'l** — asta-sekinlik bilan revolyusion to'ntarishlarsiz, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tishni ko'zda tutadi. O'zbekiston va boshqa ayrim sobiq socialistik mamlakatlar mazkur yo'lni tanlagan.

O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari

bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish.** Erkinlashtirish - bu xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. U butun iqtisodiyotga tatbiq etilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda davlat monopoliyasini bekor qilish;
  - resurslarning markazlashgan holdagi taqsimotini tugatish;
  - narxlarining asosan talab va taklif nisbati asosida shakllantirilishiga o'tish;
  - ichki va tashqi bozorlarda transaksion bitimlar ustidan davlat nazoratini pasaytirish.

## **2. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish.**

Bu yo'nalish quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

- barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligi uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi;

- bozorga xorijiy raqobatchilar ham kirishi uchun imkon berilishi;

- kichik biznesning rivojlanishiga halqat beruvchi ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlash va tarmoqqa kirishdagi to'siqlarni pasaytirish;

- tabiiy monopoliyalarning narx va mahsulot sotish siyosatini tartibga solish va boshqalar.

## **3. Institutional o'zgarishlar.** Mazkur o'zgarishlar quyidagi sohalarni

qamrab oladi:

- mulkchilik munosabatlari o'zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish;

- bozor infratuzilmasini (tjorat banklari, tovar va fond birjalari, investisiya fondlari va h.k.) shakllantirish;

- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tizimini yaratish;

- bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo'jalik qonunchiligini qabul qilish va boshqalar.

## **4. Tarkibiy o'zgarishlar.** Tarkibiy o'zgarishlar birinchi navbada xalq

xo'jaligi va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishdan asosiy maqsad — ichki va tashqi bozorlarda to'lovga qodir talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarilishini rivojlantirishdan iborat.

## **5. Makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish.** Aslini olganda,

bu jarayon tizimiy islohotlar qatoriga kirmaydi, chunki u bozor iqtisodiyoti barqaror amal qilayotgan mamlakatlarda ham tez-tez o'tkazilib turadi. Bu yo'nalishning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi eng avvalo va kuchli ravishda moliyaviy sohada, ayniqsa yuqori inflyatsiya shaklida namoyon bo'ladi. Inflyatsiyaning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bozor munosabatlarning normal qaror topishiga to'sqinlik qiladi, shuning uchun uni bartaraf etish o'tish davri iqtisodiyoti uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish, ijobiy foiz stavkasini ta'minlash va boshqalar kiradi.

**6. Bozor xo'jaligiga mos bo'lgan aholini ijtimoiy himoyalash tizimini shakllantirish.** Bu tizim aholining nisbatan muhtoj qatlami aniq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga o'tishga yo'naltirilgan.

Bozor tizimining ko'rsatib o'tilgan asosiy unsurlarini shakllanishining yakuniga yetishi o'tish davri tugaganligidan darak beradi.

### **6.2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari**

Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsa-da, turli mamlakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Hammaga malumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ikki yo'l, ya'ni revolyusion va evolyusion yo'llar mavjud. Pol'sha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyusion yo'lini, birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. Boshqacha aytganda ular «karaxt qilib davolash» degan usulni qo'lladilar. Bu yo'lni amalga oshirish uchun Rossiyada «300 kun», «500 kun» degan o'tish dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlarni tezkorlik bilan amalga oshira boshladilar. Bunda ular bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ancha uzor muddatli o'tish davri bo'lishini unuttilar. Natijada bu mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketdi, ko'plab korxonalar yopilib, ishsizlar soni ko'paydi, pulning qadri keskin pasayib ketdi, iqtisodiyot esa hamon karaxtlikdan chiqqani yo'q, odamlarning ahvoli og'irlashdi.

Shuning uchun O'zbekiston bu yo'ldan bormay boshqa yo'l tanladi. Bu yo'l O'zbekistonning o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyusion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

O'zbekistonda bozor munosabatlarga o'tish yo'li ijtimoiy-yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta muhim tamoyil asos qilib olingan.

**Birinchi tamoyil-** iqtisodiyot siyosatan ustivor bo'lishi va buning uchun iqtisodiyot makkuradan xoli bo'lishi kerak. iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmoqi zarur. iqtisodiyot, siyosatga nisbatan ustivor mavqega ega bo'lishi lozim. iqtisodiyotga na siyosat, na makkura o'z ta'zviqini o'tkazmasligi kerak.

**Ikkinchi tamoyil-** davlat bosh isloxotchi bo'lishi kerak. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz ravishda, o'zi bo'larchilik asosida emas, balki davlat raxbarligida amalga oshiriladigan isloxotlar orqali yuz berishini bildiradi.

**Uchinchi tamoyil-** qonunlar va ularga amal qilinishning ustivorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibli ravishda, xammaning keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqqan davlat qonunlariga so'zsiz rioya etilishi orqali borishini bildiradi.

**To'rtinchi tamoyil-** faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu iqtisodiyotga kuchli ta'sir eta oladigan, xalqning ijtimoiy ximoyasini, uning faolligini ta'minlaydigan, ijtimoiy adolatni yuzaga chiqaradigan siyosatni olib borishni anglatadi. SHu boisdan, iqtisodiy isloxotlar jarayonida avval, odamlarni, birinchi navbatda, ximoyaga muxtoj oldindan kuchli darajada ijtimoiy ximoyalash choralarini ko'rish zarurligi inobatga olinadi.

**Beshinchi tamoyil-** bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil chugur iqtisodiy isloxotlarni shoshilmasdan, sobitqadamlik bilan amalga oshirishni talab etadi. Bu etakchi tamoyil bo'lib, isloxotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi.



Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni islox qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib Birinchi Prezident I.A. Karimov asarlarida bu bosqich uchun bir qator vazifalar ajratib ko'rsatiladi<sup>4</sup>.

**Birinchi vazifa** – davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga etkazish. Bunda davlat mulkini xususiylashtirish, tadbirkorlik faoliyatini keng qo'llab-quvvallash, kichik xususiy korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish xisobiga ishlab chiqarishda davlatga qarashli bo'lmagan qismining ulushini oshirish ko'zda tutiladi.

**Ikkinchi vazifa** – ishlab chiqarishning pasayishiga barxam berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Bu xam korxonalar va tarmoqlarning, umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi.

**Uchinchi vazifa** – milliy valyuta-so'mni yana xam mustakkamlashdan iborat. Bu esa so'mning konvertasiyasi, qat'iy valyutalarga erkin sur'arda almashirish layoqati demakdir, unga pulning qadrsizlanishiga qarshi ta'sirchan choralarini qo'llash, iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirish xamda ichki bozorni shunday mollar bilan to'ldirish, korxonalarining chegga mol chiqarishini kengaytirish xisobiga valyuta zaxiralarini mustakkamlash yo'li bilan erishiladi.

**To'rtinchi vazifa** – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xom ashyo etkazib berishdan tayyor maxsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi. Birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim yuzaga keladi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashiriladi, xususiylashtirish tugallanadi, narxlar erkin qo'yib yuboriladi, davlat korxonalarining monopoli mavqei tugatiladi.

Lekin bundan Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadiga to'liq erishildi va bu sohada qo'yilgan vazifalar to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish har bir davrda kun tartibiga yangi vazifalarni qo'yadi.

### 6.3. O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o'tish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohotlar – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-xalqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

<sup>4</sup> Karimov I.A.O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998. 332-333 betlar.

### Respublikada iqtisodiy isloxlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- |   |                |       |         |
|---|----------------|-------|---------|
| -mulkiiy  | munosabatlarni | islox | qilish; |
| -agrar isloxoqlar;  |                |       |         |
| -moliya-kredit va narx-navo isloxoqi;                                 |                |       |         |
| -boshqarish tizimini islox qilish va bozor infratuzilmasini yaratish; |                |       |         |
| -tashqi iqtisodiy aloqalar isloxoqi;                                  |                |       |         |
| - ijtimoiy isloxoqlar.  |                |       |         |

### Respublikada iqtisodiy isloxlarning xuquqiy negizini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning asosiy yo'nalishlari:

- Davlat va iqtisodiy mustaqillikning xuquqiy negizlarini yaratish, davlatning boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilishi.
- Tizimdagi o'zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosabatlarga va shu jumladan, mulkchilik munosabatlarga asos bo'ladigan qonunlar tizimini yaratish.
- Kishilarning konstitution va yuridik xuquqlarini, ijtimoiy kafolatlarini va axolini ijtimoiy ximoyalashni ta'minlaydigan qonunlar.
- Xo'jalik yuritishning va institusional o'zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmini yaratishga qaratilgan qonunlar.
- O'zbekistonda xalqaro munosabatlarning teng xuquqli sub'ekti sifatida ta'rifi o'chi xuquqiy me'yorlarni yaratish.

### O'zbekistonda qishloq xo'jaligini islox qilishga ustuvorlik berilishining asosiy sabablari:

- Respublika iqtisodiyotida agrar soxa ustunlikka egaligi, axolining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan shu tarmoq axvoliga bog'liqligi.
- Qishloq xo'jaligi maxsulotlari (asosan paxta) valyuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chekdan sotib olishni moliyaviy ta'minlashning asosiy manbaidir.
- Respublika sanoat potentsialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan ko'pgina sanoat tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qi-machilik, engil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbolli bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi.
- Mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini xalq e'tibidagi axamiyati ortib boradi.

### Respublikada agrar isloxlarning asosiy yo'nalishlari:

- eriga bo'lgan mulkchilik munosabatlarni islox qilish;
- barcha davlat qishloq xo'jalik korxonalarini jamoa va mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish.
- shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan erlarni shaxsiy xo'jaliklar va bog'-'dala xovli, uchastkalariga ajratib berish.
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish.
- qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga jalb qilish.
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

Kredit sohasidagi islohotlar bank tizimini takomillashtirish, banklarning mustaqilligini va pul muomalasi uchun javobgarligini oshirishga qaratiladi. Shu maqsadda Respublikada Markaziy bank hamda keng farmoqli tijorat va xususiy banklardan iborat ikki bosqichli bank tizimi vujudga keltirildi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Narxlarning erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarurdir. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartirildi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga muvofiqlashtirib borildi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda xom-ashyo va mahsulot ayrim turplarining, narx-navo bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi.

Tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish asosiy maqsad emas. Barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat ko'rsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish ob'ektiv zaruriyatdir.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Birinchi yo'nalish — narxlar erkinlashtirishi va pulning qadsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rta darajasini muntazam oshirib borish.

Ikkinchi yo'nalish — Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish.

Uchinchi yo'nalish — islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tashkil etishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan ma'naviy ahloqiy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyovqarash xususiyatlari hisobga olinadi.

Shunday qilib, islohotlarning barcha yo'nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o'tish o'rnatishga qaratiladi. Bu islohotlar o'zbeklarning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obro'-e'tibori mamlakatga aylantirishga xizmat qiladi.

### Xulosalar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining umumiy mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga ta'virlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishdan iboratdir.

2. O'tish davri quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi: ssikllilik (jamiyada u yoki bu to'g'ri o'zgarishlarning qaytarilib turishi), beqarorlik (jamiyada mavjud bo'lgan to'g'ri ko'rsatishlarning kumari va o'zaro ta'bir), muqobillik (islohotlar va rivojlanish yo'llarini tanlash imkoniyati), ta'kidlilik (eski tizimning yo'qolib ketishi o'rnatilgan boshqa tizimning vujudga kelishi, uning rivojlanishi).

3. O'zbeklarning bozor iqtisodiyotiga o'tishda tanlangan yo'lli — o'ziga xos ma'naviy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'llidagi jahon iqtisodiyotining hisobga olingan holda revolyusion to'rtarishlariz, ijtimoiy to'rtarishlariz, ijtimoiy himoyalash kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

4. Iqtisodiy islohotlar — bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad ma'mulot aholisi uchun yashash va xo'jalik faoliyati yuritishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-ahloqiy etukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-axloqiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

5. Iqtisodiy islohotlarning bosh bo'g'ini mulkiylik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi.

6. Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qator vazifalar turadi. Bular xususiy lashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish; makroiqtisodiy barqarorlikka erishish; milliy valyutani mustahkamlash; iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish; ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalaridir.

7. O'tish davrida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni keng aholi qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishining asosiy sharti islohotlarning ijtimoiy yo'natirilganligidir.

8. Milliy taraqqiyotimizning hozirgi pallasida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlari yanada kuchaytirilib, pirovard strategik maqsadimiz – ijtimoiy yo'natirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'llidagi harakatlar izchil ravishda amalga oshiriladi. Modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'natirish va takomillashirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin.

#### Asosiy tayanuch tushunchalar

**Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri** – ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davr.

**Bozor islohotlari** – bozor iqtisodiyotini va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

**Iqtisodiy islohotlar** – iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui.

**Iqtisodiy uktdad** – turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

**Iqtisodiyotni erkimlashtirish** – bu xo'jalik hayotining barcha sohalardagi to'siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo'natirilgan chora-tadbirlar tizimi.

**Islohotlar konsepsiyasi** – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'natilishlari, uol amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy qo'ng'ari.

**Iqtisodiyotni barqarorlashtirish** – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni yozulga ko'tirish.

**Modernizatsiyalanish** – jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'natirish va takomillashirish jarayonlari majmui.

#### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari (islohotlari) ni tavsiflab bering. Ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib.

2. Erkinlikning bozor munosabatlariga o'tish yo'lli qanday xususiyatlarga ega? Respublikada iqtisodiyotni isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

3. Bozor munosabatlarini hosilchona-hosilchil qaror topirish tamoyilining asosiy tuzilishi nashirining. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini tavsiflab ko'rsatib bering.

4. Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo'natishlar bo'yicha amalga oshiriladi? Har bir yo'natish bo'yicha o'zingizning fikr-mulohazalarinizi bildirib.

5. Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi? Bu vazifalarning to'laroq tavsifini bering.

6. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning etakchilik faoliyati oshirish bo'nat etakchilik tashkirlab bering.

7. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror topirishning qanday davlat sharoitlari bilan? Ular bir-biri bilan qanday bog'langanligini tahlil qiling.

8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etishning asosiy ustuvor vazifalarini ko'rsatib bering.

## 7-bob. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati

### Reja:

- 7.1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni
- 7.2. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni
- 7.3. Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati
- 7.4. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi

### 7.1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni

**Talab** – xaridor ma'lum narxda, u rasional yoki muxit ta'siri ostida amal qilishidan qat'iy nazar mazkur bozordan sotib oladigan tovar va xizmatlari miqdori.

Ex'tiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, **talab bu pul bilan ta'minlangan ex'tiyovidir**. Ex'tiyoi zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xoxish», «istak» bo'lib qolaveradi.

Talablar xar xil bo'lib, bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qilinadi: **yakka talab va bozor talabi**.

Xar bir iste'molchining, ya'ni aloxida shaxs, oila, korxon, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi **yakka talab deyiladi**.

Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi **bozor talabi deyiladi**.

Narx va talabning xajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq **talab egri chizig'i deyiladi**.


Agar talab egri chizig'i o'zining oldingi xolatida qolsa va bunda u yoki bu tovarni sotib olishdagi xar qanday miqdoriy o'zgarish talab miqdoriga o'zgaruvchanligini bildiradi.

Talabning o'zgarishi bir vaqtda narx o'sishi va talab miqdoriga o'zgarishni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy hayotda qarama-qarshi vaziyat ro'y berishi ham mumkin: talabning qisqirishi ta'sirida narxning tushishi va talab miqdoriga kamayishi kuzatiladi. Xar ikkala xol talab xajmining o'zgarishini ko'rsatadi.



Masalan, narx bilan sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasida bo'ladigan bog'liqlikni ko'rsatuvchi chiziqni **talab qonuni deyiladi**.

Har qanday hayotda biz narxlar o'rtasida ayrim tovarlarga talabning o'zgarishi olib kelishi mumkin bo'lgan xollarni ham uchratadi. Bu vaziyat **R.Giffen samarasi** deb ataladi (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan). Giffen kashfiyoti shunchaki o'zgarish kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan un iste'mol qilish kengayishini kuzatib, bu samarani tasvirlab ko'rsatgan.

**Talab xajmi** – xaridorlar ma'lum vaqt va ma'lum joyda mazkur narx bo'yicha xarid qilishga tayyor bo'lgan tovar (xizmat)lar miqdori.




Talab egri chizig'i –  $Q_d$  va  $P$  ning teskari bog'liqligini namoyon etuvchi grafik ko'rsatadi. U salbiy og'ish burchagiga ega va  $DD$  bilan belgilanadi.  
 $D$  (demand) – talab,  $P$  (price) – narx,  $Q$  – talabdagi tovar miqdori



Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab xajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga xam bog'liq bo'ladi. Bu omillar talabning narxdan tashqari omillari deyiladi.

**Talabga narxdan tashqari quyidagi asosiy omillar ta'sir qo'rsatadi:**  
 1. iste'molchining didi; 2. Bozordagi iste'molchilar soni; 3. iste'molchining daromadlari; 4. Bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi; 5. Kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishining kutilishi; 6. Soliqlar



**Narx va sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik**

Har kg un narxi (so'm)	1 oy davomida unga bo'lgan yakka talab miqdori (kg)	1 oy davomida unga bo'lgan bozor talabi miqdori (tn)
350	10	1,0
300	20	2,0
250	30	3,0
200	50	5,0
150	60	6,0

7.2. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni

**Taklif** – ishlab chiqaruvchilar ma'lum narx bo'yicha bozorda sotishni ko'zda tutgan va sota oladigan muayyan tovarning miqdori.

Maqsadga erishish bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovar (taklif) miqdori xam ortadi, narxning tushishi bilan taklif xajmi qisqaradi. **Bu o'zaro to'g'ri-tadan-to'g'ri bog'liqlik taklif qonuni**

Taklifning shu omillardan bir yoki nechtasining o'zgarishi taklif soljmining o'zgarishini taqozo qiladi. Taklif xajmining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarajatlari va transport tashish imkoniyatlari xam ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat maxsulotlari uchun taklif kamdan-kam o'zgaruvchan bo'ladi.

Bozorda taklif qilinadigan tovar xajmiga narxdan tashqari bir qator omillar ta'sir qiladi. **Bu omillarning asosiy lari quyidagilar:** 1) Resurslarning narxi; 2) ishlab chiqarish texnologiyasi; 3) Soliq va darajasizlar; 4) Boshqa tovarlarning narxi; 5) Narx o'zgarishining kutilishi; 6) Bozordagi sotuvchilar soni.

Taklifga ta'sir qiluvchi omillarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

1. Resurslarning narxi. Ishlab chiqarish xarajatlari va taklif o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxlarining pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va taklifni oshiradi. Aksincha, resurslarga narxning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, mineral o'g'itlar narxining pasayishi bug'doy taklifini oshiradi, yomg'irlab sug'orish xarajatlarining oshishi makkajo'xori doni taklifini qisqartiradi.

2. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Texnologiyalarning takomillashuvi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Resurslarning mavjud narxida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va taklif ko'payadi. Masalan, paxta zararkundalariga qarshi ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdorini va sifatini, binobarin taklifni oshiradi.


3. Soliqlar va subsidiyalar darajasi. Ko'pchilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, import tovarlarga boj to'lovlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifini oshiradi.

4. Boshqa tovar narxi. Boshqa tovarlar narxlarining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, qo'y go'shti narxining pasayishi mol go'shti taklifini oshiradi. Aksincha, mol go'shti narxining tushishi qo'y go'shti taklifini oshiradi.

5. Narx o'zgarishining kutilishi. Kelgusida mahsulot narxining o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot yetkazib berish xohishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda neft narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini pasaytiradi.

6. Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) soni. Tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi.


Tarmonqdagi ishlab chiqaruvchilar soni ortib borishi taklifni ko'paytiradi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.



7.3. Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati

Biz yuqorida turli omillar ta'sirida talab va taklif miqdorining o'zgarib turishini ko'rdik. Lekin talab bilan taklif miqdorlari bir-birlari bilan doimo ma'lum nisbatda bo'ladi, bu nisbatlar o'zgarib turadi. Ba'zan talab miqdori taklif miqdoridan oshib ketib, narx ko'tirilsa, ayrim paytda taklif miqdori talab miqdoridan oshib ketib, narx pasayib qoladi. Talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat bozor muvozanati deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi deyiladi. Ba'zan uzi muvozanatlashgan narx ham deb yuritiladi. Bozor muvozanati va muvozanatli narx har doim mavjud bo'lib turmaydi, ularga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar muvozanatlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Ammo iqtisodiyotda ushbu muvozanatga doimo intilish mavjud bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, tabiiy resurslarning mavjud darajasi xam taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, narxning o'zgarishiga javoban ishlab chiqarishni kengaytirish nafaqat boshqa xil mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkoniyatini mavjud bo'lsa taklif o'zgarishi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan erlar cheklangan bo'lsa, uning narxi keskin qanchalik oshmasin, er taklifini oshirib bo'lmaydi. Jaldy kasb soxa xodimlar (massalar, oshinlar, shorlar, yozuvchilar, masvrlar va boshqalar) mexnat maxsuloti va narxi xam ta'sir oshiruvchi taklif xam nafaqat o'zgaruvchan bo'ladi.



Зрасм. Мувозанатли нарх.

Spiral bo'yicha xaraj harakatida ularning manfaatli muvozanatli nuqtaga erishilguncha bir-biriga yaqinlashib boradi va muvozanatli nuqtalar talab va taklifi tengligini ko'rsatadi. Agar 50 so'mda ifodalangan narx darajasiga e'tiborni qaratsak, bunda 1 va 2 nuqtalar o'rtasidagi farq tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishini ko'rsatadi va to'yinagan bozori xarakterlaydi. Aksincha, 10 so'mlik narxda, 3 va 4 nuqtalar o'rtasidagi farqda ifodalangan tovar kamyobligi (defitsi) vujudga keladi, xamda bu kamyobli tovar bozorini xarakterlaydi.

Tovarning narx o'zgarishidan tashqari boshqa barcha omillari "narxga bog'liq bo'lmagan" omillar deb ataladi. Bu SS taklif chizig'ida bir nuqtadan ikkinchisiga o'zgarishini emas, balki taklif egri chizig'ining o'zining o'zgarishini bildiradi. - agar taklif ortsa, egri SS taklif chizig'i o'ngga (pastga), agar taklif kamaysa, chapga (yuqoriga) o'zgaradi.

$$S=f(P,Pr,KK,T,N,B)$$

Pr- resurslar narxi, K- mavjud texnologiya xarakteri, T- solliqlar va subsidiyalar.

Muvozanatli narxni tushunib olish uchun vaqt omili katta ahamiyatga ega bo'ladi. Xam soluvchi va xam xaridor uchun o'rnatilgan muvozanatli narx qanday xarakter kasb etishini bilish muxim. SHu sababli bozordagi bir zumlik, albata davrli va uzoz davrli muvozanatlik xolatni fargalash zarur.

Bu zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarimas yoki dehqinly miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning

Uzun davrli muvozanatlik, ishlab chiqarish va taklifi vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ko'paytirish imkoniyati bilan taqazo qilinadi. Bunday vaqtinchalik omillarga ish vaqtdan tashqari, dam olish va hayratun kunlari ishlash, ish smenasini ko'paytirishlar kiradi.

Uzun davrli muvozanatlik o'zgarishi uzoz muddatli xarakterdagi omillardan foydalanishini taqozo qiladi. Bunda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga kelirish bilan bog'liq investitsiyalar xaqida gap boradi. Bu davrda yangi korxonalarni qurish xamda muvotir bozordagi yangi korxonalarining paydo bo'lishi xam mumkin bo'ladi.

Narxning muayyan darajasidatalab va taklif miqdori nisbatan bir - biriga mos kelgan xolat bozor muvozanati deyiladi.

Foah egluvchanligini aniqdab beruvchi bir qator xolatlarda mavjud. Ularning asosiyarlari quyidagilar:

- muvotirlarning o'rmini bosuvchanligi.
- muvotir qiyamati (narxi) ning iste'molchi daromadidagi salmog'i.
- muvotirlarning iste'mol xususiyatlari.
- vaqt omili.

$$Et = \frac{\Delta Q}{Q}$$

AS

Q - ishlab miqdorining foizli o'zgarishi;  $\Delta S$  - narxlarning foizli o'zgarishi.




**Taklifning egiluvchanligi** agar ishlab chiqaruvchi baxoning o'zgarishini sezuvchan bo'lsa, taklif o'zgaruvchan bo'ladi va aksincha. Taklifning egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muxim omil, maxsulotga narxning mavjud o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i hisoblanadi. ishlab chiqaruvchi narxning mavjud o'zgarishiga moslashish uchun qanchalik uzozroq vaqtga ega bo'lsa, ishlab chiqarish xajmi shunchalik katta o'zgaradi va shunga mos ravishda taklifning egiluvchanligi xam yuqori bo'ladi. Biz yuqorida vaqt omilining juda qisqa, qisqaroq va uzoz muddatli davrlardagi taklifning o'zgarishiga ta'sirini taxlil qilib bergan edik. Bu ta'sir taklifning egiluvchanligida xam o'z axamiyatini saqlab qoladi.

#### 7.4. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi


Muzqaymoq iste'mol qilishdan olingan so'nggi qo'shilgan va yalpi naflilik

Iste'mol qilingan muzqaymoqlar soni	So'nggi qo'shilgan naflilik (MU)	Yalpi naflilik (U)
0	-	0
1	4	4
2	3	7
3	2	9
4	1	10
5	0	10
6	-3	7

Talab	Taklif
1. Iste'molchi didi.	1. Resurslar narxi.
2. Iste'molchi daromadi.	2. ishlab chiqarish texnologiyasi.
3. Bir-biriga bog'liq tovarlar narxi.	3. Soliq va subsidiya.
4. Kelajakdagi narxlarning o'zgarish ehtimoli.	4. Boshqa tovarlar narxi.
	5. Narx o'zgarishini kutish.
	6. Bozordagi sotuvchilar soni



Klaster tuzish bo'yicha misol



## Xulosalar

1. Iqtisodiyoti boshqarishning bozor mexanizmi – iqtisodiy tizimning samarali va moslashuvchan dastigidir. Bozor mexanizmining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning har bir elementi narx bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, narxning talab va taklif hajmiga ta'siri hamda ularning o'zaro aloqadorligi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning faoliyatini belgilab beradi.

2. Talab – ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismidir. Talab qonuniga muvofiq narxning o'sib borishi talabning qisqarishiga olib keladi, talabning kengayishi esa narxning o'sishiga olib keladi. Shuning uchun narx (mustaqil o'zgaruvchi) bilan talab (tobe o'zgaruvchi) o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

3. Talab ikki xil yo'nalishda o'zgaradi: biri talab hajmining o'zgarishi bo'lib, talab egri chizig'i bo'ylab harakatlanasa, ikkinchisi talab xususiyatining o'zgarishi bo'lib, talab egri chizig'ining o'zini o'ngga-yuqoriga yoki chapga-pastga qarab siljitudi.

4. Taklif ishlab chiqaruvchilarning bozorga sotishga chiqargan tovarlari miqdori bo'lib, tovarlar miqdori ishlab chiqarish bilan belgilanadi, ammo aynan unga bog'liq emas, chunki zaxira, eksport va import omillari ham taklif qilinadigan tovarlar miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Taklif bilan narx o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud, narxlarning o'sishi taklifning o'sishiga olib keladi va aksincha.

5. Talab va taklifning o'zaro ta'siri natijasida bozor muvozanati vujudga keladi. Bozor muvozanati – talab hajmining taklif hajmiga mos kelishidir. Bunday mos kelishlik bozorda muvozanatli narxni yoki bozor narxini shakllantiradi.

6. Bozordagi bir zumlik, qisqa davri va uzoq davri muvozanatlik holatni farqlash zarur. Bir zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarmas yoki doimiy miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning bozor vaziyatiga tez, birdaniga moslasha olinmasligi bilan bog'liq. Qisqa davri muvozanat vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ishlab chiqarish va taklifni ko'paytirish imkoniyatini taqozo qiladi. Uzoq davri muvozanatga erishish uzoq muddatli davrdagi omillardan foydalanishni taqozo qiladi. Bular ishlab chiqarishni

qayta qurullanirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalarni amalga oshirish, shuningdek, yangi korxonalarni qurishdan iborat.

7. Xo'jalik amaliyoti uchun bozor sub'ektlarining narx o'zgarishiga bo'lgan muvohabatini ifodalovchi talab va taklif egluvchanligi tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Talab egluvchanligi ko'rsatkichi asosida ishlab chiqaruvchilar yalpi tushum miqdorini oson aniqlab olishlari mumkin. Agar talab egluvchan bo'lsa, narx bilan yalpi tushum qarama-qarshi tomon harakatlanadi, talab ozeqluvchan bo'lsa harakat bir tomonlana bo'ladi.

8. Iste'molchining bozordagi xatti-harakati so'nggi qo'shilgan nafillik nazariyasi hamda iste'molchi tanlovi nazariyasi orqali izohlanadi. So'nggi qo'shilgan nafillik pasayib borish tendensiyasiga ega bo'lib, bu iqtisodiy tamoyil afzalida ifoda etiladi. Mazkur tamoyilning mohiyati shundan iboratki, agar alohida olingan yukka iste'molchining holatidan kelib chiqilsa, ne'matlarni iste'mol qilish hajmining ko'payib borishi bilan, ma'lum vaqtdan boshlab, muayyan ne'matning bozordagi birligini iste'mol qilishdan olingan qo'shimcha nafillik oldingisiga nisbatan kamayib boradi. Iste'molchi tomonidan o'zi uchun turti tovarlarning nafillik darajasining baholanishi iste'molchining afzal ko'rishi deyiladi.

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Talab** – pul bilan ta'minlangan, to'lovga qodir ehtiyoj; ma'lum vaqt oralig'ida, bozorning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji.

**Yukka talab** – har bir alohida iste'molchi (masalan, shaxs, oila, korxonalar) bozordagi tovarning shu turiga bo'lgan talabi.

**Bozor talabi** – bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi.

**Talab qonuni** – tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik.

**Talab egri chizig'i** – narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi egri chiziq.

**Oliy toifali tovarlar** – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

**Past toifali tovarlar** – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

**Engels qonuni** – iste'molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

**Taklif** – ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori.

**Taklif qonuni** – narxning o'zgarishi bilan taklif etilgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqligidagi o'zgarishi.

**Bozor muvozanati** – talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat.

**Bozor narxi** – bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx.

**Talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi** – talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich.

**Talabning daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi** – iste'molchi daromadining bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich.

**Taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi** – taklif hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o'zgarishi taklifning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich.

**Iste'molchining afzal ko'rishi** – iste'molchi tomonidan o'zi uchun turli tovarlarning nafitlik darajasining baholanishi.

**So'nggi qo'shilgan nafitlik** – muayyan ne'matning navbardagi birligini iste'mol qilishdan olingan qo'shimcha nafitlik.

**Yalpi (umumiy) nafitlik** – so'nggi qo'shilgan nafitlik ko'rsatkichlarining yig'indisi.

**Beqarqlik egri chizig'i** – ehtiyojarni bir xil darajada qondirishini ifodalovchi iste'mol to'plamlari yig'indisi.

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarasa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarasa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
3. Don birjasida bug'doyga bo'lgan talab va taklifning umumiy hajmi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi deb faraz qilaylik:

Talab, mingssentner hisobida	Bissentner narxi (so'm)	Taklif mingssentner hisobida	Ortiqcha (+) yoki kam (-)
85	3400	72	
80	3700	73	
75	4000	75	
70	4300	77	
65	4600	79	
60	4900	81	

a) Bozor narxi yoki muvozanatlashgan narx qanday bo'ladi? Bug'doyning muvozanatlashgan miqdori qancha? 4-ustunni to'ldiring va natijalarini tushuntirib bering:

b) Jadval ma'lumotlaridan foydalanib bug'doyga bo'lgan talab va taklif egri chiziqdalarini grafik shaklida tasvirlang. Muvozanatlashgan narx va muvozanatlashgan miqdorni aniqlang:

v) Olma uchun 3400 so'm bu bozorda muvozanatlashgan narx bo'la olmaydi? qanday ko'rsatkich?

g) davlat bug'doyining eng yuqori narxini 3700 so'm qilib belgiladi deb faraz qilaylik. Bunday narx qanday oqibatlarga olib kelishini batafsil tushuntiring. O'z javoblarinigizni grafikda tasvirlang.

4. Talab va taklifning quyidagi o'zgarishlarining har biri raqobatlilik bozorda muvozanatli narx va mahsulotlarining muvozanatli miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi? Javoblarinigizning to'g'riligini tekshirish uchun talab va taklif egri chiziqlari grafigidan foydalaning:

a) taklif qisqaradi, talab esa o'zgarishsiz qoladi; b) talab qisqaradi, taklif esa o'zgarishsiz qoladi; v) taklif ko'payadi, talab esa o'zgarishsiz qoladi; g) talab ham, taklif ham ko'payadi; d) talab ortadi, taklif esa o'zgarishsiz qoladi; e) taklif ko'payadi, talab esa qisqaradi; j) talab ortadi, taklif esa qisqaradi; z) talab ham, taklif ham qisqaradi.

5. Engel qonunining mohiyatini tushuntirib bering.

6. Iste'molchi xatti-harakati nazariyasining asosida nimalar yotadi? Bu nazariyaning asosiy qonun-qoidalarini izohlang.

7. Iste'molchining afzal ko'rishi nima? U iste'molchi tanloviga qanday ta'sir ko'rsatadi?

8. Yalpi (umumiy) naflilik va so'nggi qo'shilgan naflilik tushunchalari o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

9. Befarqlik egri chizig'i nimani ifodalaydi? Befarqlik kartasi-chi? Ularning iste'molchi xatti-harakatini tushuntirishdagi ahamiyatini izohlang.

10. Iste'molchi byudjeti chizig'iga narx va daromaddagi o'zgarishlar qanday ta'sir ko'rsatadi?

## 8-bob. Raqobat va monopoliya

### Reja:


8.1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari

8.2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari

8.3. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik

### 8.1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari

**Raqobat** — iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z manfaatlaridan kelib chiqib, yuqori daromad olish imkoniga, yuqori naf, nufuzli mavqega ega bo'lish uchun boshqalar bilan bellashuvi, kurashidir. U bozor subektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishi tufayli yuz beradi.



Raqobatning iqtisodiy asosi — bu mulkchilikning turli-tumantligi, ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari va iste'molchilarning ta'dbirkor, mulk va daromad egasi sifatida erkin xamda mustaqil bo'lishidir.

### Raqobatning rivojlanish bosqichlari

- I. Oddiy tovar xo'jaligiga xos bo'lgan raqobatchilik bosqichi;
- II. Sof yoki erkin raqobatga asoslangan bosqich;
- III. Monopolistik raqobat bosqichi;

### Raqobat shakllari va usullari

#### Raqobat shakllari

<p><b>I. Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larning bozordagi mavqeiga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• sof yoki erkin raqobat;</li><li>• sof monopoliya;</li><li>• monopolistik raqobat;</li><li>• oligopoliya.</li></ul>
<p><b>II. Miqyosiga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• tarmoqlar ichidagi raqobat;</li><li>• tarmoqlar o'rtasidagi raqobat;</li><li>• milliy xo'jalik doirasidagi raqobat;</li><li>• jaxon xo'jaligi doirasidagi raqobat.</li></ul>
<p><b>III. Sodir bo'lish xarakteriga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• tartibsiz (stixiyali) raqobat;</li><li>• tartibga solinadigan raqobat.</li></ul>
<p><b>IV. Amalg oshirish usuliga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• narx vositasida raqobat;</li><li>• narxdan boshqa vositalar orqali olib boriladigan raqobat.</li></ul>
<p><b>V. Amalg oshirish yo'lga ko'ra:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• xalol raqobat;</li><li>• g'irrom raqobat.</li></ul>

### Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar)ning bozordagi mavqei belgilab beruvchi omillar:

- ishlab chiqaruvchi (sotuvchilar) soni;
- bozorga kirish va chiqib ketishda to'siqlarning mavjudligi.

**Tarmoq ichidagi raqobat** – maxsulot ishlab chiqarish va sotishda qulay ahvoldagi ega bo'lish uchun bir tarmoq korxonalar o'rtasida boradi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida turli ishlab chiqaruvchilar tovarlarning individual (aloxida) narxi, bozor narxiga aylanadi.

**Tarmoqlar o'rtasidagi raqobat** – turli tarmoq korxonalar o'rtasida yuqori foydaga ega bo'lish uchun boradi. Bu raqobat natijasida korxonalarda xosil bo'lgan turli foyda normalari o'rtacha foydaga aylanadi.

**Milliy xo'jalik doirasidagi raqobat** – natijasida o'rtacha narxlar va bozor a'v'ektlarining yalpi milliy (tekki) maxsulotdagi ulushi aniqlanadi.

**Jahon xo'jaligidagi raqobat** – turli davlatlar milliy ishlab chiqaruvchilarning jaxon bozoridagi mavqei mustakamlash uchun boradi va uning natijasida aloxida tovarlarning jaxon narxlari shakllanadi.

**Tartibsiz (stixiyali) raqobat** – bozor kuchlarining ta'sirida tabiiy ravishda ro'y beradi.


**Tartibga solinadigan raqobat** – madaniylashgan tarzda va ma'lum me'yorlar doirasida sodir bo'ladi.

**Narxning raqobat vositasi sifatida qo'llanilish darajasiga qarab narx yordamidagi va narxsiz raqobat ajratiladi.**


**Raqobatlashishda g'ayrioddiy usullar (josuslik, qotillik, zo'ravonlik va sh.k.) ning qo'llanilish darajasiga ko'ra xalol va g'irrom raqobat farqlanadi.**

Raqobat shakllari	sof yoki erkin raqobat				sof monopoliya		monopolistik raqobat		oligopoliya	
Asosiy belgilari	Juda ko'p				Yagona		Nisbatan ko'p		Kam sonli	
Ishtab chiqaruvchi (sotuvchi)lar soni	Mavjud emas				Katta taqdiqlar, to'siqlar mavjud		Uncha katta emas		Katta	
To'siqlar, (barer) larning mavjudlik darajasi,										

### Raqobat usullari



### Narx yordamida raqobatlashish



Narxdan boshqa vositalar yordamida raqobatlashish

Tovar sifatini tabaqalashirish – bir xildagi exityojni qondiradigan va birturga mansub bo'lgan tovarlar turlicha iste'mol xossalriga ega bo'ladi.

Tovarlarni kreditga sotish – tovarlar nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchi o'z tovarlarini narxini kechiktirib to'lash sharti bilan sotib, raqiblaridan ustun kelishi mumkin.

Sotish vaqtida va kafolatlangan muddarda tekin shërviz xizmati ko'rsatish.

Marketing – uning vositasida maxsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtirishga xarakter qilinadi.

Reklama, tovar belgilari, firma muxirlari xamda qadoqlash usullari tovarlarni o'ziga jalb etuvchanlini oshirish va sotish xajmining ko'payishini rag'batlantirishning muxim yo'llari hisoblanadi.

## 8.2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari

**Monopolya – monopoli yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopoli toqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.**

Monopoliyalarning moddiy asosi

bu

ishlab chiqarishning, ya'ni ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda maxsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalar qo'llida to'planishi hisoblanadi.

buning asosiy sababi

olinayotgan foyda hajmining ko'payishi

Monopolyaning asosiy turlari

Hozorni gamrab olish darajasiga ko'ra:

Vujudga kelishi sababi va tarqalishiga ko'ra:

• sof monopolya  
• oligopolya  
• monopsoniya

• tabiiy monopolya  
• legal (qonuniy) monopolya  
• sun'iy monopolya

## 1. Bozorli gamrab olish darajasiga ko'ra: sof monopolya, oligopolya va monopsoniya.

Sof monopolya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O'zbekistonda sof monopolyalar sifatida «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarining yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababi ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi.

**Oligopolya** - tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

**Monopsoniya** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona istiqmolchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga «GM auto» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxonada mamlakatimizdagi yengil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeiga ega bo'ladi.

## 2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya.

**Tabiiy monopoliya** – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlarning ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya sub'ektari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashitirib bo'lmaydi.

**Legal (qonuniy) monopoliya** – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

- 1) Patent tizimi
- 2) Mualliflik huquqi
- 3) Tovar belgileri

**Sun'iy monopoliya** – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning sharti (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini muayyan o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarining kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xom ashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalariga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va hokimiyat);


- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarini bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan sigib chiqarishga harakat qiladi.

Sun'iy monopoliyalar kartel', sindikat, trest, konsorsium, konsenm kabi muayyan shakllarda namoyon bo'ladi.





**8.3. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik**

**Davlatning antimonopol siyosati** – monopoliyalar faoliyatini cheklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga qaratiladi. Bu siyosat o'z ifodasini antimonopol qonunlarda topadi.

**AQSHning antimonopol qonunchiligi**

**Sherman qonuni** (1890 y) — unda ishlab chiqarish va savdoni cheklash maqsadida tuzilgan bitimlar noqonuniy deb xisoblanadi.

**Kleyton qonuni** (1914-y) — iste'molchilarni narx orqali kamситish, majburiy shartnomalar tuzish, raqobatchi korxonalar-ni zarflashuviga olib keluvchi aksiyalarni sotib olish direktoralarning chirmashib ketishi, bir firmaning raxbari boshqa firmaga a'zo bo'lishini taqiqlaydi.

**Seller-Kefover qonuni** (1950-y). Bu qonunda Kleyton qonuniga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, unda nafaqat raqobatchi korporasiyaning zarflashuviga olib keluvchi aksiyalargina emas, ishlab chiqarish fondlar (asbob-uskuna, boshqa moddiy narsalar)ni sotib olish xam taqiqlandi.

**Antimonopol tartibga solishning asosiy yo'nalishlari:**

- bozorning monopollashuvini cheklash;
- raqobatchi kompaniyalar qo'shilishini taqiqlash;
- monopoli narxlar belgilashni taqiqlash;
- raqobatchi madaniy-lashgan tarzda olib borishni qo'llab-quvvatlash.

### O'zbekiston Respublikasining antimonopol qonunchiligi:

- Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida» gi qonun (1992 y.). Unda bozorda ataylab taqchillik xosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobaga to'sqinlik qilish va uning g'irrom usullarini qo'llash taqiqlanadi;
- «Obektarning xo'jalik yurituvchi jamiyalar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom (1994 y.). Unda o'z monopol mavqei suiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashirish ko'zda tutildi;
- «Iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida» gi qonun (1996 y.). Qonunda g'irrom raqobat va bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarish taqiqlanadi.

### O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiruvchi muassasalar:

- Moliya vazirligi xuzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobati rivojlantirish qo'mitasi (1996 y.);
- O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobati rivojlantirish davlat qo'mitasiga aylantirildi (2000y).
- Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi (2005 y).
- Monopoliyadan chiqarish va raqobati rivojlantirish davlat qo'mitasi (2010-yildan).
- O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi.

### O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992 yil, avgust)

bozorda ataylab taqchillik hosil qilish

narxlarni monopollashtirish

raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish

raqobatning g'irrom usullarini qo'llash

man etiladi

Respublikada monopoliyalar ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq) larning bozordagi mavqei tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish.
2. O'z monopol mavqei suiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994 yil 18 iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Obektarning xo'jalik yurituvchi jamiyalar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996 yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmi yaratishga ham alohida e'tibor beriladi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan monopoliyaga qarshi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri – bu monopolistik-korxonalarining tovar bozorida egallab turgan ustunlik mavqei suiste'mol qilishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat olib borishdan iboratdir. Aynan shu maqsadda monopolistik-korxonalar Davlat reestri yuritiladi. Ushbu reestrlarga ma'lum bir tovar bozorida 65 foizdan ortiq ulushga ega bo'lgan korxonalar kiritiladi. Reestrga olingan xo'jalik yurituvchi subektlar o'z mahsulotlarining narx (tarifi)lari yoki rentabellik darajalarini Moliya vazirligida yoki joylardagi moliya organlarida deklaratsiyadan o'tkazishlari shart.

## Xulosalar

1. Raqobat bozorning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. U bir tomondan, ishlab chiqarish munosabati sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Raqobati bozor ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlashga imkon yaratadi.

2. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo ikki turga – tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobating to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular sof raqobat, monopollashgan raqobat, sof monopoliya va oligopoliyadir.

3. Sof raqobat va sof monopoliya real hayotda kam uchraydi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining holatini monopollashgan raqobat va oligopoliya tavsiflaydi. Monopollashgan raqobatta juda ko'p mavda firmalar tomondan turli-tumanni tabag'ulashgan mahsulot ishlab chiqariladi, shuning uchun sohaga kirish qiyin emas.

4. Raqobat – xo'jalik yuritishning asosiy usuli hisoblangani uchun raqobat muhitining shakllanishi bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Raqobat muhiti deb bozor munosabatlari ishtirokchilarining xo'jalik yuritishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan iqtisodiy, qonuniy, tashkiliy va siyosiy sharoitlar majmuasiga aytiladi. Raqobat muhitining mavjudligi – alohida olingan firmaning bozor sharoitida erkin harakat qilib xukmronlik mavqeiga erishishiga halqat beruvchi asosiy omildir.

5. Monopoliyani tartibga solish – miqdoran hisoblash imkoniyati kam bo'lgan juda murakkab jarayondir. O'zbekistonda davlatning monopoliyaga qarshi chora-tadbirlari nafaqat monopoliyani cheklash, balki monopoliyadan chiqarish jarayoni bilan uzviy ravishda olib borilmoqda. Juda ko'plab tarmoqlarda xukmron mavqega ega bo'lgan korxonalar (ular yagona korxonalar tarmoq sifatida ish yuritishlar edi) xususiy lashtirilib, mustaqil korxonalaraga aylantirildi va natijada tarmoqda raqobat muhiti shakllantirildi.

6. Davlatning monopoliyaga qarshi qonunchiligi raqobatlashuvchi sub'ektlar faolligini susaytirmaydigan darajada etarlicha moslashuvchan bo'lishi dardkor.

### Asosiy tayanach tushunchalar

**Raqobat** – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurash.

**Tarmoq ichidagi raqobat** – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boruvchi kurash.

**Tarmoqlararo raqobat** – turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurash.

**G'irrom raqobat** – raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomondan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (yo'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarining obro'siga putur etkazish va h.k.) usullaridan foydalanish.

**Halol raqobat** – jamiyat tomondan tan olingan iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zidd keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslangan raqobat kurashi.

**Narx vositasida raqobatlashuv** – ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pilyaytirishi asosidagi kurash.

**Narxsiz raqobatlashuv** – asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifatli, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblangan kurash.

**Monopoliya** – monopoli yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopoli yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashtirilishi.

**Ishlab chiqarishning to'planishi** – ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishi.

**Kapitalning to'planishi** — qo'shimcha qiymatning bir qismini jang'arish (kapitallashirish) natijasida kapital hajmining oshishi.

**Kapitalning markazlashuvi** — bir kapital tomonidan boshqa biring qo'shib olinishi yoki bir gancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati va boshqa shakllarda ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishi.

**Sof monopoliya** — tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi va binobarin, foyda olishdagi yakkahukmronlik holati.

**Oligopolya** — tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati.

**Monopolistik raqobat** — tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati.

**Monopsoniya** — tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati.

**Tabiiy monopoliya** — korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati.

**Legal (qonuniy) monopoliya** — qonuniy tarzda tashkili etiluvchi monopolistik holat.

**Sun'iy monopoliya** — monopoliya foyda olish maqsadida tashkili etiluvchi birlashmalarining shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

**Kartel** — ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qolib, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota asosida amalga oshiriladigan bita sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarining uyushmasi.

**Sindiklat** — ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgan holda, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkili etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriluvchi, bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasi.

**Trust** — ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

**Konsorsium** — tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi.

**Konsern** — rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma.

#### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu vazifalarning bir-biridan farqini ajratib ko'rsating.
3. Halol va g'irrom raqobatlashuv usullariga nimalar kiradi?
4. Raqobatlashuvning demping narxlarini qo'llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
5. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat? Monopoliyaning qanday turlari mavjud?
6. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi o'rtasida qanday farq bor?
7. Tabiiy, legal va sun'iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko'rsating.
8. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday?
10. Raqobat muhitining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
11. O'zbekistonda raqobatchi qo'llab-quvvatlovchi va monopoliyaga qarshi kurashuvchi qanday tashkilotlar mavjud?


## 9-bob. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari

### Reja:


- 9.1. Narxning mazmuni va uning vazifalari
- 9.2. Narx turlari va ularning mazmuni
- 9.3. Raqobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari
- 9.4. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari

### 9.1. Narxning mazmuni va uning vazifalari

Narx- tovar natiligi tan olinganda uning qiymatining pulda ifodalaniishi, qiymatning bozorda namayon bo'lish shakli.



### TOVAR XUSUSIYATLARINING NARXGA TA'SIRI



### 9.2. Narx turlari va ularning mazmuni

**Ulgurji narxlar.** ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar bir yo'la ko'tarishga sotilganda ulgurji narxlardan foydalaniladi.

**Shartnoma narxlar.** Bu sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlaridir.

**Chakana narxlar.** Bu narxlarda tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narxlaridir.

Davlatning narxlarni tartibga solishlik faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotasiyali narxlarni vujudga keltiradi. **CHegaralangan narxlarda davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi, ular shu doirada o'zgarishi mumkin.** Bunday narxlar yordanida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi.

**Dotasiyalangan narx - bu davlat byudjeti xisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlar.** Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni xayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

**Demping narx.** Bozorda o'z mavqeini mustaxkamlash va raqiblarini siqib ehtiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadiki, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qisminan kechib yuboriladi,

Sotish xajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar **nutfuзли narxdan** foydalanadi. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan va monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi,shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari axolinig yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nutfuзли tovarlar xam mavjudki, ular nutfuзли narxlarda sotiladi.

Amaliyotda **preyskurant narxlar** xam ishlatiladi. Bunday narxlar firma preyskuranlarida (narx ko'rsatkichlarida) e'lon qilinadi va tovar narxining qaysi summa atrofida bo'lishini ko'rsatadi, ammo xaqiqiy narx preyskurant narxdan yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Narxlar farqining miqdoriy ifodasi **narx diapazoni** deyiladi. **Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir**

Bozor ko'lamini xisobga olinganda **xududiy (minthqaviy), milliy va xalqaro narxlar** mavjud.

**Xududiy narx(mintaqaviy)** faqat ma'lum xududiy bozorga xos bo'lib, u shu xudud doirasidagi omillar ta'siridan xosil bo'ladi.

**Milliy bozor narxi** bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir.

**Jahon narxi** nuayyan tovarga kelgan baynalminal xarajatlarni, tovarning jaxon standart talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini o'zida aks ettiradi.

Iqtisodiy nazariyada **narx nisbati** degan tushuncha bor, u **narx pariteti** deb xam yuritiladi.

Narxlarning yuqorida qayd qilingan turlari bilan birga iqtisodiy xayotda quyidagi narxlaridan xam foydalaniladi:

- > **Auksion narxi** — auksionda sotilgan tovarning «kim oshdi» narxi.
- > **Bazis narxi** — bitimlar tuzilgan paytda belgilangan narx.
- > **Birja narxi** — birja kotirovkasi va unga birja kontraktidan tovarning sifati, olib kelib berish joyi va boshqa o'zgarishlarga qarab cheginma qilingan yoki ustama qo'shilgan narxlar.
- > **Kotirovka narxi** — ma'lum bir davr uchun qayd etilgan o'tacha tipik

**narxlar.** Kontrakt narxlar kelishuv asosida aniqlanadi va yangi bitimlar tuzishda (jumladan, birjalarda) mo'ljall bo'lib xizmat qiladi.

> **Transfert narxlar** — bir kompaniyaning sho'ba korxonalari yoki bo'limlari o'rtasidagi tijorotda qo'llaniladigan narxlar.


> **Fyuchers narxlari** — birjada fyuchers bitimlarida qo'llaniladigan narxlar.

> **Ayirboshlash narxi** — ma'lum bir turdagi tovar va xizmatlarni boshqasiga ayirboshlash uchun beriladigan tovar va xizmatlar miqdoriga belgilanadi.

> **Xisob-kitob narxi** — xar bir fyuchers pozitsiyasining shu kungga yagona narxi; savdo tugashining oxirgi daqiqalarida tuzilgan narx bitimlari asosida xisob palatasi tomonidan belgilangan narx.

> **Iqtisodiy taxtil, rejalashtirish va statistika xamda tadqiqot maqsadlarida joriy narxlar** bilan birgalikda **taqqoslama narx-lardan** foydalaniladi. Ulardan foydalanish bozor iqtisodiyoti taqozo qiladigan obektiv zaruriyatdir. Masalan, inflyatsiya jarayonida narxlarning qanday o'zgarганиni bilish dolzarb bo'lib, u **taqqoslama narxlar** yordamida aniqlanadi.

> **Irratsional narxlar** er, suv, o'simlik va xayvonot dunyosi kabi tabiiy resurs va ne'matlarga belgilanadigan narxlarni bildiradi.




**Davlatning narx siyosati** — bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida narxlarni oqiblashirish va milliy bozor narxlarini jaxon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

### 9.3. Raqobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari

Narxning shakllanishiga bozorning holati bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki narxning shakllanishida bozordagi talab va taklif nisbati asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, talab va taklif miqdoriga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatiga ko'ra bozordagi raqobating turli ko'rinishlari farqlanadi. Mukammal raqobat sharoitida ishlab chiqaruvchi (yoki sotuvchi) hamda iste'molchi (yoki xaridor)larning soni juda ko'p bo'lib, ularning ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish orqali narx shakllanishiga ta'siri umuman sezilmaydi. Nomukammal raqobat sharoitida esa ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) yoki iste'molchilar (xaridorlar)dan birining soni cheklangan bo'lishi ularning bozordagi ishlab chiqarish hajmiga va, pirovardida, bozordagi narxning shakllanishiga sun'iy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bunday raqobat turli darajalaridagi narxlarning shakllanish xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

Shu sababli, biz quyida mukammal raqobat, sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya sharoitida narxlarning shakllanish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

**Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanishi.** Erkin raqobat kurashi sharoitida narxning tashkil topish xususiyatlarini tadqiq etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall hisoblanadi. Uning fikricha, tovarning oldi-soldi jarayoniga qadar ikki xil, ya'ni sotuvchi va xaridor narxlari mavjud bo'ladi. Nazariy jihatdan har ikki narxning yuqori va quyi darajalari mavjud. Sotuvchi o'z tovari narxining imkon qadar yuqori bo'lishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Biroq, erkin raqobat sharoitida narxni boshqalardan yuqori darajada belgilashga intilish mazkur sotuvchining bozordan sigib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Sotuvchi narxining eng past darajasi shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoplashi kerak. Xaridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, biroq erkin raqobati bozor sharoitida uning ham tovar sotib olinmay qolish xavfi mavjud bo'ladi. Xaridor narxining yuqori darajasi esa, Marshall ta'biricha, so'nggi qo'shingan miqdor nafliligiga teng bo'lishi kerak.




1-chizma. Mukammal raqobati bozor sharoitida narxning shakllanishi.

**Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi.** Monopoliya sharoitida narx shakllanishining o'ziga xos jihati shundaki, agar mayda tovar ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlarining individual narxlarini o'zgartira olsalar, ularning harqali o'laroq bozor ishtirokchilari sifatidagi monopoliyalar bozor narxlarini o'zlarini belgilay oladilar. Bunda monopoliyalar ommaviy talabning oshishi bilan narxning oshishi hamda ommaviy taklifning oshishi bilan narxning pasayib borishidan o'ziga xos tarzda foydalanadilar.

Ommaviy tartibda tovarlarni sotuvchi monopoliyalar o'z manfaatlari yo'lida taklif kam bo'lganda narxning oshishi tendensiyasidan foydalanadilar.

Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi quyidagi miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi: talabga nisbatan tovarlar taklifi qanchalik yuqori bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik past bo'ladi va aksincha, taklif kamayishi bilan narx oshib boradi. Bu bog'liqlik 2-chizmada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

## Taklif miqdori



Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Monopsoniya mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan tovarlarning katta hajmini sotib olib, talab bo'yicha narx qonunidan o'ziga xos tarzda foydalanadi.

Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi quyidagi miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi: taklifga nisbatan xaridorlarning ommaviy talabi qanchalik katta bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, talabning kamayishi bilan bozor narxi pasayib boradi.

**Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi.** Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi tarmoqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llaniluvchi «ergashish» hamda «inkor etish» hatti-harakatlari orqali izohlanadi.

«Ergashish» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirishiga) qolgan oligopolistlar tomonidan ham ergashish, ya'ni shunday o'zgarishlar qilish kuzatiladi. Odatda, bozorda o'z tovarlariga narxni pasaytirish orqali iste'molchilari soni hamda sotish hajmini oshirishga qaror qilgan oligopolist hatti-harakatiga javoban qolgan oligopolistlar ham narxlarini pasaytiradilar. Natijada narxning umumiy pasayishi ro'y berib, bozordagi ulush oldingi holda qoladi, ya'ni oligopolistning hatti-harakati samara bermaydi.

«Inkor etish» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirishiga) qolgan oligopolistlar tomonidan inkor etish, ya'ni hech qanday javob o'zgarishlari qilmaslik kuzatiladi. Ko'pincha bunday holat oligopolist tomonidan o'z tovariga narxni oshirgan chog'ida ro'y beradi, ya'ni qolgan oligopolistlar tovarlari narxlarini oshirmaydilar. Natijada, narxni oshirgan oligopolist o'z iste'molchilarini yo'qotib, bozordan siqib chiqariladi.

## 9.4. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari

**Narxlarini erkinlashtirish** - iqtisodiy isloxoatlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, isloxoatlarning jittimoiy - iqtisodiy oqibatlari ko'p jixardan shu muammoning xal etilishiga bog'liq bo'ladi. Narxlarini erkinlashtirish xom ashyo bilan maxsulot ayrim turklarining narxlari, narx bilan axoli va korxonalar daromadlari o'rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. SHu yondashuvlarga asosanib, narxlar quyidagi yo'llar bilan erkinlashtiriladi: a) narxlarini birdaniga, yoki "esankiratadigan" tarzda qo'yib yuborish; b) narxlarini sun'iy ravishda to'xtatib qo'yish; v) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish.

### Narxlarini erkinlashtirishdan ko'zlangan maqsad:

- xomashyo bilan maxsulot ayrim turlari narxlari o'rtasidagi nomutanosiblikni yumshatish;
- narx bilan axoli daromadlari va korxonalar foydasi o'rtasidagi mutanosiblikka erishish;
- investitsion tovarlar, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxlarining oqilona nisbatini ta'minlash;
- ishlab chiqarish vositalari, xalq iste'mol tovarlari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari xamda tariflariga o'tish;
- milliy bozor narxlarini jaxon bozori narxlariga yaqinlashtirish.

### Narxlarini erkinlashtirish yo'llari:

- narxlarini birdaniga yoki «esankiratadigan» tarzda qo'yib yuborish;
- narxlar o'sishini sun'iy ravishda to'xtatib qo'yish;
- narxlarini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish;
- narxlarini asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich erkinlashtirish.



## Xulosalar

1. Narx o'zida faqat naflilik yoki ijtimoiy mehnat sarflarining birini emas, balki har ikkalasining bir vaqtda puldagi ko'rinishini ifoda etadi. Demak, narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.
2. Narxning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bulardan asosiyarlari qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning naflilik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati, pulning qadr-qimmatini va h.k. hisoblanadi. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafliligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi.
3. Narx quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: muvozanatlikni ta'minlash vazifasi; qiymat va naflilikni hisobga olish vazifasi; tartibga solish vazifasi; raqobat vositasi vazifasi; ijtimoiy himoya vazifasi.
4. Narxning juda ko'p turlari mavjud bo'lsada, ularning barchasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularida jamiyadagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi.
5. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlarda davlatning narx sohasidagi siyosati ko'p jihatdan narxlarni erkinlashtirish, milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.
6. O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi.
7. Respublikada narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi.

### Asosiy tayanach tushunchalar

**Narx** – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasi.

**Bozor narxi** – bir tomondan, tovarlarning sotilishini ta'minlovchi, boshqa tomondan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlangan narx.

**Joriy narx** – yil davomidagi ishlab chiqarish natijalarini hisoblashda qo'llaniluvchi amaldagi narx.

**Qiyosiy narx** – ishlab chiqarishning natijalari ma'lum yil (bazis yil) asosida hisoblanuvchi va boshqa yillar bilan taqqoslanuvchi narx.

**Narx tizimi** – iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari.

**Ulgurji narx** – ishlab chiqaruvchilar tomondan katta partiyadagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilgan qo'llaniladigan narx.

**Shartnoma narx** – sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomondan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx.

**Chakana narx** – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narx.

**Chegaralangan narx** – davlat tomondan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o'zgarishi mumkin bo'lgan narx.

**Dotatsiyalangan narx** – davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx.

**Demping narx** – bozorda o'z mavqegini mustakamlash va raqiblarini siqib olibqarish uchun firmalar tomondan foydalaniladigan maxsus narx.

**Nufuzli narx** – sotish hajmini o'zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomondan foydalaniladigan narx.

**Erkin bozor narxi** – talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxi.

**Narx diapazoni** – narxlar oralig'ining puldagi ifodasi.

**Hududiy narx** – faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, shu hudud doirasidagi omillar ta'sirida hosil bo'ladigan narx.

**Milliy bozor narxi** – bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning muvofiqligini aks ettiruvchi narx.

**Jahon bozori narxi** – muayyan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy xarajatlarni, tovarning jahon standart talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladigan narx.

**Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi** – taklifga nisbatan xaridorlarning ommaviy talabi qanchalik katta bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik yuqori bo'lishi va aksincha, talabning kamayishi bilan bozor narxi pasayib borishi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik.

**Ommaviy taklif bo'yicha narxning o'zgarishi** – talabga nisbatan tovarlar taklifi qanchalik yuqori bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik past bo'lishi va aksincha, taklif kamayishi bilan narx oshib borishi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik.

#### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering. Narxlarning asosiy turlariga qisqacha tavsif bering.
2. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud? Ularning atfzallik va kamchilik tomonlarini ko'rsatib bering.
3. Narxning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
4. Mukammal raqobat sharoitida narxning tashkil topish mexanizmini tushuntirib bering.
5. Sof monopoliya sharoitida narx qanday shakllanadi?
6. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
7. Oligopoliya sharoitida firmalarning «inkor etish» va «ergashish» xatti-harakatlarining mazmuni nimadan iborat? «Narx bo'yicha etakchilik» tushunchasini izohlab bering.
8. «Narxlar qaychisi» nima va undan qanday sharoitlarda foydalaniladi?
9. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekistonda narxni etkinlashtirish jarayoni qay tarzda amalga oshirildi?
10. Narx siyosati nima? O'zbekistonda narx siyosati amalga oshirilishining qanday xususiyatlari mavjud?

## 10-bob. Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi

### Reja:

- 10.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari
- 10.2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari, ularni tashkil etish va boshqarishning bozor tizimlari
- 10.3. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati bosqichlari
- 10.4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanna kapital
- 10.5. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligi


### 10.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari rivojlanish shart-sharoitlari.

**Tadbirkorlik** tushunchasining sinonimi sifatida biznes tushunchasi xam qo'llanilib keladi. **Biznes** xo'jalik sub'ekti faoliyati soxasi va ularning iqtisodiy manfaatlarini tavsiflovchi iqtisodiy termin bo'lsa, **biznesmen**- ishbiarmon(ish odami), tadbirkor va tijoratchi ma'nolarini bildiradi. Ummunam olganda biznesmen va biznes tushunchalari tadbirkor tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noni bildiradi.

«**Tadbirkorlik**– moddiy va pul mablag'larini foyda topish yo'lidagi sarflab, bozorga kerakli tovarlar va xizmatlar etkazib berib, kishilarga naf keltiruvchi, ularning xojatini chiqaruvchi iqtisodiy faoliyat tushuniladi».

«**Tadbirkorlik**- yangi imkoniyatlarni qidirish, yangi texnologiyalarni qo'llash jarayoni, kapital qo'yishning yangi soxalarini topish, eskicha sarqitlar va chegaralardan voz kechish, ishlab chiqarish omillarining uch asosiy tarkibiy qismini bog'lashning eng maqbul usullarini topish» dir

**Tadbirkorlik** mulk sub'ektlarining foyda olish maqsadida taxlika (tavakkalchilik) bilan xanda mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar domrasida o'z tashabbusi bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatish va uni muvofqlashtirishdir.



Tadbirkorlik tushunchasining mazmuni uning to'rtta o'zaro bog'liq vazifasini aniqlash bilan to'liq ochiladi.

1. Tadbirkor o'ziga tovar (yoki xizmat) ishlab chiqarishning yagona jarayonida er, kapital va mexnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi.
2. Tadbirkor biznesni yuritish jarayonida o'ziga asosiy qarorlar qabul qilishdek qiyin vazifani oladi, bu qarorlar korxonaga faoliyatining maqsadini aniqlab beradi.
3. Tadbirkor – bu yangi maxsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki xatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida kiritishga xarakter qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.
4. Tadbirkor -- bu taxlitka (risk) ga boruvchi inson. Buni uning boshqa uchta vazifasini chuqur o'rganish ko'rsatadi. Bozor munosabalariga asoslangan jamiyatta asoslangan tadbirkorga foyda katolatlanmagan. Uning sarflangan vaqti, kuchi va qobiliyati foyda yoki zarar bilan taqdirlanishi va xatto u sinishi xam mumkin. Qisqacha aytganda, tadbirkor nafaqat o'zining vaqti, mexnati va ishchanlik layoqati, balki o'zi yoki o'z aksionerlari ishlab chiqarishga qo'ygan mablag'lar bilan taxlitkaga boradi.

**Tadbirkorlik faoliyatining moxiyati to'g'risidagi asosiy nazariyalar:**

Tadbirkor, bu noaniq daromadga ega kishilar. Tavakkalchilik katari uning bosh xususiyatidir (**R.Kontlon**). U bu atamani iqtisodiy fanga xam olib ktrgan).

A.Smit tadbirkorni tijorat bilan shug'ullanib, foyda olish uchun iqtisodiy tavrakkalchilik qiluvchi mulk egasi deb ta'riflaydi.

Tadbirkor, iqtisodiy agent sifatida foyda olish uchun o'z tajribasi va bilimni tavrakkalchilik xataridan qo'rqmay ishga soluvchi shaxs (**J.B.Sey**).

Tadbirkor bu «zabt etuvchi», g'alaba uchun kurashuvchi (katarga tayyor, ruxan erkin, g'oyalarga boy, irodali, tirishqoq) tashkilotchi, ya'ni u birgalikda ishlash uchun kishilarni birlashtira oladi. (**V.Zombert**)

Tadbirkor, ishlab chiqarish omillari uyg'unlashu-vining yangi nisbatini izlovchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va novatorlik qobiliyatiga ega shaxs (**Y. Shumpeter**).


**Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida turli xil fikrlar va yondoshuvlar**

- XVIII asrda **R.Kantlon**, **A.Tyuro**, **F.Kene**, **A.Smit** va **J.B.Seylar**
- tadbirkor bu – tavrakkalchi.
- **Y.Shumpeter**
- tadbirkor bu – novator.
- **F.Noyok** va **L.Milzlar**
- tadbirkor bu – istanuvchi va tadqiqotchi.
- **K.Malkonnell** va **S.Bryular**
- tadbirkor bu – "katolizator", qaror qabul qiluvchi, tashkilotchi shaxs bo'lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, tashkikaga boruvchi insondir.

### Tadbirkorlik faoliyatining asosiy vazifalari

- 1 • ishlab chiqarish jarayonida er, suv, kapital va ishchi kuchi resurslarini birlashtirish;
- 2 • qarorlar qabul qilish;
- 3 • yangilikka intilish;
- 4 • lavakkachilik.

### 10.2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari, ularni tashkil etish va boshqarishning bozor tizimlari



### Tadbirkorlikning rivojlanish shart-sharoitlari.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning ijtimoiy, unumdavlat maqsadlarida foydalanadigan va nixoyat, jamoa, guruh, xususiy va shaxsiy maqsadlarda ishlatiladigan turlari mavjud. SHunga mos ravishda tadbirkorlikning turli-tuman: davlat, jamoa, shaxsiy, xususiy, aralash va boshqa xosla shakllari rivojlanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi quyida iqtisodiyot soxasiga o'tib ketadi.

**Davlat tadbirkorligi** bu davlat mulkchiligi asoslangan korxonalarni va mulkida davlat ulushi yuqori salmoqni tashkil etadigan korporatsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Jamoa tadbirkorligi**- fuqarolar guruhi, jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari xisobiga tashkil etiladi.

**Shaxsiy tadbirkorlik** — shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarish uning o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Ehtidda, tadbirkorlikning bu shakli savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish soxalarida yuqori samarali bo'lib tez rivojlanadi.

**Xususiy tadbirkorlik**- xususiy tashabbus orgali o'z mablag'larini talqiga tashirish asosida tashkil etiladigan tadbirkorlik.

**Shartnomaviy tadbirkorlik**- korxonalaraxbari tomonidan amalga oshiriladi va u mulk egasi yoki uning ishonchli vakili (organi) tomonidan ma'lum miqdor va majburiyatlarni olib, javobgarlikni o'z bo'yiniga oladi. Harbiy-tadbirkor fuqaro tadbirkor qanday ro'yaxdan o'tsa, u xam shunday ro'yaxdan o'tadi va javobgarligi xam xuddi fuqaro-tadbirkorlikki kabi bo'ladi.



**Aralash korxonalar-** turli mulk shakllariga taalluqli firmalar bo'lib, xususiy, davlat va jamoa mulkining aralash mablag'lari asosida tashkil etiladi.

**Korxonalar (firma)** — iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy shakli, milliy iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini va tovarlar ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bo'yicha tadbirkorlik faoliyat sub'ekti.

**Aksionerlik jamiyatlari** ancha katta xajmda mablag'lar va iqtisodiy resurslar talab qiladigan loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi xamda moliyaviy resurslarni aloxida o'ziga xos shaklda, ya'ni xissadorlik tartibida birlashtirish asosida tashkil qilinadigan korxonalaridir.

Aksionerlik jamiyatiga qo'yilgan kapital miqdoriga qarab, qimmatli qog'oz-aksiya chiqarish va uni joylashtirish xissadorlik munosabatlarning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

**Aksionerlik jamiyatlari (AJ) ning ikki turi mavjud**



**Aksiya** — xissadorlik jamiyati sarmoyasiga qo'shilgan xisssa-siga guvohlik qiluvchi, uning egasiga ulushiga muvofiq sof foydaning bir qismini dividend shaklida daromad olish va shu aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda qatnashish xuquqini beradigan qimmatli qog'oz xisoblanadi.

Aksiya o'z egasiga korxonani boshqarishda qatnashish, jamiyat tugatilganda uning mulkiga sheriklik xuquqini xam beradi.

**Uchqirguchiya** — kapital egasining aksionerlik jamiyatiga doimiy foiz shaklida daromad olish sharti bilan pul qo'yganiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz.

**Aksiyaning nominal qiymati** — aksiyada ifodalangan pul summasidir, aksiyalar bozori uning qimmatli qog'ozlar bozorida sotiladigan narxidir.

Aksiya kursi, eng avvalo, ikki omil dividend miqdori va foiz darajasiga bog'liq. Divident qancha ko'p bo'lsa, aksiya kursi shuncha yuqori bo'ladi. Aksiya kursi dividendni (D) bankning foiz stavkasiga (r) bo'lish orqali topiladi:

$$\text{Aksiya kursi} = \text{Divident} / \text{Bank foizi} \times 100\%$$

**Aksiya kursiga ta'sir etuvchi omillar:**

Aksiya kursiga bozor qonuniga muvofiq ravishda, albatta talab va taklif nisbati ta'sir etadi. U o'z navbatida quyidagi omillarga bog'liq:

**1. Iqtisodiy omillar:**

- a) ishlab chiqarish omillari (korxonada balans, korxonada quvvatlaridan foydalanish darajasi, maxsulotlarni sotish imkoniyati, menejmenti);
- b) bozorga xos omillar (bozor kon'yunkturasi, narxning o'zgarishi: xomashyo narxi, valyuta kursi, to'lov qobiliyati, tashqi savdo va boshqalar).


**2. Ruhiy omillar** (investorlar kayfiyati, qo'ygan maqsadi va x.k.).

**3. Siyosiy omillar** (davlatning xo'jalik, soliq, sosial va boshqa siyosati, investor xaqida ma'lumotga ega bo'lish) kabilar.

**Ta'sischiлик foydasi** — aksionerlik jamiyatlarini ta'sis etuvchilar o'zlashtiradigan daromad shakli bo'lib, u sotilgan aksiyalar summasi va jamiyatga xaqiqatda qo'yilgan mablag' miqdori o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

**10.3. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati bosqichlari**

Tadbirkorlik kapitali - tadbirkorlar ixtiyorida bo'lib, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari



Doiraviy aylanishning birinchi va uchinchi bosqichlari muomala sohasida, ya'ni resurslar va tovarlar bozorida, ikkinchi bosqichi esa ishlab chiqarishda ro'y beradi. Shuning uchun formulada ishlab chiqarish jarayoni va muomala sohasi o'rtasidagi oraliqlar nuqtalar (...) bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Har bir bosqichda kapital muayyan harakat shakliga kiradi. Birinchi bosqichda u pul shaklida, ikkinchi bosqichda umumiy yoki ishlab chiqarish omillari va uchinchi bosqichda tovar shaklida yuzaga chiqadi. Kapital doiraviy aylanish jarayonida uning har bir shakli alohida vazifani bajaradi va shunga ko'ra ular **kapitalning harakati shakllari** deyiladi.

**Kapital pul shaklining harakati** iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bunga pulni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib olishga avanslash orqali erishiladi. Kapital **umumiy shaklining harakati** tovarlar ishlab chiqarish va xudi shu jarayonda qiymatning o'sishiga erishishni ta'minlash vazifasiga qaratiladi.

**Kapital tovar shaklining harakati** orqali ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatining narx shaklida ro'yobga chiqishi sodir bo'ladi va o'sgan qiymatning pulga aylanishi bilan tadbirkorning foyda olish maqsadi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi uchun tadbirkorlik kapitali o'zining bir shaklidan boshqa bir shakliga aylanib turishi va Ayni paytda har uchala shaklda ham mavjud bo'lmog'i lozim. Agar tadbirkorlik kapitali bu shakllarning birortasida to'xtab qolgudek bo'lsa, uning harakatidagi uzluksizlik buziladi.

Tadbirkorlik kapitali umumiy shaklining doiraviy aylanishi ishlab chiqarishning muomalaga nisbatan yetakchi rol o'ynashini ochib beradi: ishlab chiqarish birinchi o'ringa qo'yiladi, ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qiymatlari tashkili topadi va qiymat o'sadi.

Kapital o'z harakatini qanday jirimoy-iqtisodiy shakllarda amalga oshirmasin, ular uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, doiraviy aylanish va uning bosqichlarining harakat ko'rinishi umumiy. Shu bilan birga xo'jalik yuritishning ayrim shakllarida tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi, ularning bosqichlari va harakat shakllari o'zlarining iqtisodiy mazmuni jihatidan farqlanadi.

**10.4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital**  
Tadbirkorlik kapitalining harakati bir doiraviy aylanish bilan to'xtab qolmaydi, balki u uzluksiz davom etib, takrorlanib turadi. Doiraviy aylanishlarning bunday uzluksiz takrorlanib, yangilanib turishi tadbirkorlik kapitalining aylanishi deyiladi.

**Tadbirkorlik kapitalining asosiy turlari**

**asosiy kapital**

*• ishlab chiqarish jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashadigan, o'zining qiymatini taqyoriqlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib o'tkazib boradigan va ashyoviy-bunyim shaklini o'zgartirmaydigan kapitaldir.*

**aylanma kapital**

*• bir doiraviy aylanish davomida to'liq iste'mol qilinadigan, o'zining qiymatini ishlab chiqarishi natijalariga to'liq o'tkazadigan va ashyoviy-bunyim shaklini ham yo'qotadigan kapitaldir.*

**Asosiy va aylanma kapitalning bir birtidan farqlanishi**

**1. Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlariga ko'ra**

**2. Qiymatini ishlab chiqarish natijalariga o'tkazish xususiyati ko'ra**

**3. O'z qiymatini qayta tiklash xususiyati ko'ra**

**1. Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlariga ko'ra**

asosiy kapital

- tayyorlangan mahsulot tarkibiga buyum jihatdan kirmaydi, uzog davr davomida faoliyat qiladi, o'zining oldingi natural buyum shaklini o'zgartirmaydi.

aylanma kapital

- har bir doiraviy aylanishda to'liq unumli iste'mol qilinadi, o'zining aslyoviy—buyum shaklini yo'qotadi va yangi turdagi bilan almashinadi.

**2. Qiymatini ishlab chiqarish natijalariga o'tkazish xususiyati ko'ra**

asosiy kapital

- ishlab chiqarish jarayonida qator yillar davomida faoliyat qilib, ularning qiymati tovarlariga qisman o'tib boradi.

aylanma kapital

- har bir doiraviy aylanishda to'liq icha unumli iste'mol qilinadi va ularning qiymati mahsulot va xizmatlar qiymatiga to'liq icha o'tadi.

**3. O'z qiymatini qayta tiklash xususiyati ko'ra**

asosiy kapital

- o'z qiymatini bir nechta doiraviy aylanishlardan keyin amortizatsiya fondi orqali qayta tiklaydi

aylanma kapital

- har bir doiraviy aylanishda mahsulot sotilgandan keyin to'liq icha qayta tiklaydi

**10.5. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligi**

Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish o'zaro bog'langan ichki jarayonga: asosiy kapitalning eskirishi, ya'ni amortizatsiya jarayoni va amortizatsiya fondidan mehnat vositalarini jismoniy shaklda tiklash uchun foydalanishga taynamadi.

**Asosiy kapitalning eskirishi**

<b>jismoniy eskirish</b>	
<i>foydalanish jarayonidagi eskirish</i>	<i>tabiiy kuchlar ta'sirida eskirish</i>
<b>ma'naviy eskirish</b>	
<i>mehnat unumdorligi oshishi natijasida asosiy kapital qiymatining pasayishi</i>	<i>ancha mukammal, arzon va unumli mashinalarning ishlab chiqarishga kirib kelishi natijasida asosiy kapital qiymatining pasayishi</i>

**Amortizatsiya** - bu asosiy kapital eskirib borishiga qarab, uning qiymatini asta-sekin ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazish, asosiy kapitalni keyinchalik qayta tiklash maqsadlarida mahsulotning amortizatsiya miqdoriga teng qismini jamg'arish jarayonidir.

**Amortizatsiya normasi** amortizatsiya ajratmalari yillik summasining shu asosiy kapital qiymatiga nisbatan aniqlanadi va foizda ifodalanadi. Amortizatsiya ajratmalarining umumiy normasi asosiy kapitalni takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda ikki qismdan iborat bo'ladi: bir qismi asosiy kapitalni to'la qoplashga (qayta tiklashga), ikkinchisi ularni qisman qoplashga (kapital ta'mirlashga) mo'ljallanadi.



Amortizatsiya normalari mehnat vositalari jismoniy va ma'naviy yeyilishining haqiqiy miqdorini aks ettirishi kerak. Oshirilgan normalar mahsulot tanaxsini sun'iy ravishda o'stirib yuboradi, pasaytirilgan normalar esa asosiy kapital tiklanish davrini kechiktiradi va shu tariqa taraqqiyotga to'siq bo'ladi.

Hozirgi sharoitda amortizatsiya ajratmalari rivojlangan mamlakatlarda kapital qo'yimlarni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi. Shunga ko'ra davlat ko'pincha firmalarga jadallashirilgan amortizatsiyani qo'llashga ruxsat beradi. Jadallashirilgan amortizatsiya ajratmalarning yuqori normalarini belgilash orqali asosiy fondlar qiymatini nisbatan qisqaroq vaqt ichida ro'yxatdan chiqarish imkonini beradi. Odatda jadallashirilgan amortizatsiyani qo'llash asosiy fondlarning aktiv qismi uchun ruxsat etiladi. Biroq, bu holat natijada asosiy kapitalning tezroq yangilanishini, balki ishlab chiqarish xarajatlarini amortizatsiya ajratmalariga to'g'ri keluvchi qismning oshib ketishiga ham olib keladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshishi, avvalo qo'shimcha kapital mablag' sarfalannasdan turib mahsulot hajmini ko'paytirishda o'z ifodasini topadi.

### Xulosalar

1. Xo'jalik yuritishning bozor tizimiga o'tish – iqtisodiyotning tadbirkorlik turiga o'tish demakdir. Tadbirkorlikning iqtisodiy tabiati tashabbuskorlik, tavakkalchilik va mas'uliyat, ishlab chiqarish omillarini yangicha usulda birlashtirish, novatorlik kabi bir qancha belgilar bilan tavsiflanadi.

2. Tadbirkorlik faoliyati deb shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatga aytiladi.

3. Tadbirkorlik daromadining o'ziga xos xususiyati shunda-ki, birinchiidan, u ishlab chiqarish jarayonida resurslarning eng optimal variantda qo'llanilishi natijasida vujudga keladi, ikkinchidan esa, bozorda ayirboshlash natijasida shakllanadi.

4. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatda ma'lum darajada shart-sharoit yaratilishi zarur. Tadbirkorlik vazifalarini amalga oshirish,

rivojlantirish va shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar majmuaasi tadbirkorlik muhitini tashkil qiladi. Tadbirkorlik muhiti bir necha unsurlardan tashkil topgan: huquqiy asosning mavjudligi, iqtisodiy erkinlik, shaxsiy manfaat, bozorning rivojlanganligi, raqobat, davlatning cheklangan roli.

5. «Tadbirkorlik» va «biznes» tushunchalari mazmun va mohiyatan bir faoliyatni anglatadi. Ammo faoliyatning novatorlik tomoni haqida gap bo'lganda «tadbirkorlik» tushunchasi ishlatiladi.

6. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining quyidagi shakllari samarali amal qilib kelmogda: xususiy tadbirkorlik, mas'uliyati cheklangan va mas'uliyati cheklannagan jamiyatlar, hissdorlik jamiyatlari. Hissadorlik jamiyatlarining rivojlanishi milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hissadorlik jamiyatlarining paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantiradi, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini ko'paytiradi, aholining keng qatlamini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga undaydi.

7. Kapitalning aylanishi shunday harakatki, unda kapital barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tib, o'ziga xos bo'lgan vazifalarni bajarib o'zining dastlabki shakliga qaytadi. Kapitalning aylanishi avanslangan qiymat butunlay qoplangan taqdirda amalga oshgan hisoblanadi. Kapital aylanish tezligi kapitalning bir yilda aylanish tezligi va aylanish soni bilan o'lchanadi.

8. Kapital o'zining aylanish xususiyatiga qarab asosiy va aylanna kapitalga bo'linadi. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida to'liq ishtirok etib, o'z qiymatini mahsulot qiymatiga qismlar bilan o'tkazadi. Mehnat vositalari o'rmini qoplash uchun mo'ljallangan va amortizatsiya fondida jamg'ariladigan asosiy kapital qiymati amortizatsiya ajratmalari deyiladi. Amortizatsiya ajratmalari summasing asosiy kapital qiymatiga nisbati amortizatsiya normasi deyiladi va foizlarda hisoblanadi. Aylanna kapital ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini to'laligicha tayyor mahsulot qiymatiga o'tkazadi.

### Asosiy tayanachlar

**Tadbirkorlik faoliyati** – shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.

**Aksiyadorlik jamiyati** – ko'proq foyda olish maqsadida aksiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.

**Aksiya** – bu uning egasi aksiyadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz.

**Aksiya kursi** – qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarning sotiladigan narxi.

**Obligatsiya** – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.

**Ta'sischiлик foydasi** – sotilgan aksiyalar va aksiyadorlik korxonasiga haqiqatda qo'yilgan mablag'lar summasi o'tasidagi farq.

**Dividend** – aksiya egasi o'zlashtiradigan daromad turi.

**Tadbirkorlik kapitali** – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari.

**Aylanma kapital** – umumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilinadigan, o'z qiymatini yaratilgan mahsulotga to'liq o'tkazadigan va ashyoviy-buyum shaklini ham yo'qotadigan qismi.

**Asosiy kapital** – umumli kapitalning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o'zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib o'tkazib boradigan va xizmat muddati davomida o'zining ashyoviy-buyum shaklini o'zgartirmaydigan qismi.

**Amortizatsiya normasi** – amortizatsiya ajratmalari yillik summasi asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.

#### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'rif bering. «Tadbirkorlik faoliyati» va «biznes» tushunchalarini izohlang.
2. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab ko'rsating. Nima uchun tadbirkor tahlilka (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko'rsatadi?

3. Tadbirkorlikning rivojlanish shart-sharoitlari nimalardan iborat?
4. Tadbirkorlikning shakllari va ularning xususiyatlarini ko'rsating.
5. Aksiyadorlik jamiyatiga ta'rif bering. Aksiya nima, aksiya kursi qanday aniqlanadi? Aksiya kursiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.

6. Tadbirkorlik kapitali nima? Uning tarkibiy tuzilishi qanday?

7. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o'tadi hamda qanday shakllarga kiradi?

8. Kapitalning aylanishiga tavsif bering. Aylanish vaqti qanday vaqlarni o'z ichiga oladi? Ularga tushuncha bering.

9. Kapitalning aylanish tezligi qanday aniqlanadi? Kapitalning aylanish uzunligi ikki oyni tashkil qiladi deb faraz qilsak, bir yilda necha marta aylanadi va bir aylanishining uzunligi qancha davom etadi?

10. Umumli kapital asosiy va aylanma kapitalga qanday mezonlar bo'yicha ajratiladi? Asosiy va aylanma kapitalga tavsif bering.

11. Amortizatsiyaning iqtisodiy mazmunini nimadan iborat? Uning normasi qanday aniqlanadi?

12. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orkali aniqlanadi? Aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini tushuntiring.



## 11-bob. Korxonada (firma) xarajatlari va foydasi


### Reja:

- 11.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi
- 11.2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarning o'zgarish tamoyillari
- 11.3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi


### 11.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi

Ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish natijasida vujudga keladigan sarf-xarajalar ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.







# 1. Namoyon bo'lish sohasiga ko'ra



## 2. Xarajatlarning jalb etilish manbaiga ko'ra



## 3. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'siriga ko'ra



## 11.2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarish tamoyillari

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda vaqt omili, ya'ni xarajat qilingandan pirovard natija olinguncha o'tgan davr sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi.

**Qisqa muddatli davr** — bu korxonaning faqat o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirish uchun taqozo etiladigan davrdir. Misol uchun, korxonada mahsulotiga talab keskin oshdi, deb faraz qilaylik. Taklifning muayyan hajmida talabning oshishi harxning ham ko'tarilishiga va binobarin, korxonada foydasining ko'payishiga olib keladi. O'z o'rnida, ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali korxonada foyda massasini yanada oshirish imkoniga ega. Buning uchun u eng avvalo qisqa muddatli davrdagi ishlab chiqarish xarajatlarini amalga oshiradi. Bunday xarajatlarga qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jonli mehnat xarajatlarini oshirish, ya'ni qo'shimcha ishchi kuchini yollash va ulardan foydalanishi;
- 2) xomashyo, material, elektr energiyasi va boshqa xarajalar miqdorini ko'paytirish;
- 3) nisbatan arzon va ishlab chiqarishga osonlik bilan joriy etish mumkin bo'lgan mehnat vositalari miqdorini ko'paytirish va h.k.

Bundan ko'rinadiki, korxonada ishlab chiqarish hajmini o'stirish uchun qisqa davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin bo'lib, ular qisqa muddatli xarajalar hisoblanadi. Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish bino va inshootlari maydoni, mashina va uskunarlar miqdori) doimiy bo'lib qoladi, hamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun etarli bo'lishi mumkin.

**Uzoq muddatli davr** — bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va barcha band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun etarli bo'lgan davrdir. Bu erda shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishini taqozo qiladigan davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxonada

munosiyatidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Misol uchun, tikuvchilik korxonasida ishlab chiqarish quvvatlarini nisbatan qisqa muddatda, masalan bir necha kunda o'zgartirish mumkin. Buning uchun bir necha ish stoli va tikuvchilik mashinalari sotib olib va o'rnatish kifoya qiladi. Mashinasozlik yoki neftni qayta ishlash zavodidagi qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish esa bir necha yilni taqozo etishi mumkin.

**Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi shunda namoyon bo'ladiki, korxonada ishlab chiqarish hajmi o'sib borishi bilan, bir qator omillar ishlab chiqarish o'rta xarajatlarining pasayishiga ta'sir ko'rsata boshlaydi.** Bu omillar quyidagilar: 1) mehnatning ixtisoslashuvi; 2) boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi; 3) kapitaldan samarali foydalanish; 4) qo'shimcha turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi. Quyida bu omillarning har biriga batafsil to'xtalib o'tamiz.

**1. Mehnatning ixtisoslashuvi.** Korxonada ko'lamining o'sib borishi bilan foydalanilayotgan mehnatning ixtisoslashuv darajasini oshirish imkoni kengayib boradi. Qo'shimcha ravishda ishchilarning yollanishi topshiriqning ular o'rtaida borgan sari aniqroq taqsimlanib borishini anglatadi. Ishlab chiqarish jarayonida 5-6 muddan turli operatsiyalarni bajarish o'rtaida engdillikda har bir ishchi bita — yagona topshiriqni bajarishi mumkin bo'ladi. Butun ish kuni davomida u o'zining malakasiga ko'proq mos keladigan vazifani bajarish bilan band bo'ladi. Kichik korxonalarda malakali ishchilar ko'pincha o'z ish vaqlarining deyarli yarmini hech qanday malaka talab etmaydigan ishlarni bajarishga sarflaydilar. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining oshib ketishiga olib keladi. SHuningdek, ishlab chiqarish miqyosining o'sishi bilan ta'minlanuvchi mehnat operatsiyalarining bajarilmasligi inkonyati ishchilar uchun o'z vazifalarini bajarishlarida katta tajriba orttirishga zamin yaratadi. 5-6 ta topshiriq bilan band qilingan eng mahorati ishchi ham bu vazifalarning har birini bajarishda u qadar malakali bo'la olmaydi. Yagona vazifani bajarish imkoniga ega bo'lgach, xuddi shu ishchi yanada samaraliroq ishlay oladi. Va nihoyat, mehnat ixtisoslashuvining yuqori darajasi ishchi tomonidan bir topshiriqni bajarishdan boshqa biriga o'tishdagi vaqt yo'qotilishi holatining oldini oladi.

**2. Boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi.** Ishlab chiqarishning yirik miqyoslari, shuningdek, boshqaruv bo'yicha mutaxassislar mehnatidan yaxshiroq foydalanish imkonini beradi. Biringinchi 20 nafar ishchini nazorat qilishga qodir bo'lgan rahbarning mehnati bir necha ishchiga ega bo'lgan kichik korxonada etarli darajada foydalanilmaydi. Bu holatda ma'muriy apparatni ta'minlash xarajatlari oshirmagan holda korxonada ishlab chiqarish xodimlarining sonini ikki baravar ko'paytirish mumkin bo'ladi. SHu bilan birga, kichik firmalar boshqaruvchi mutaxassis mehnatidan bevosita maqsadga muvofiq foydalana olmaydilar. Kichik korxonada sotish muammolari bo'yicha mutaxassis o'z vaqtini boshqaruvning turli sohalari – masalan, marketing, ishchi kuchi resurslarini boshqarish, moliyaviy boshqarish bo'yicha taqsimlashga majbur bo'lishi mumkin. Operatsiyalar miqyosining kengayishi marketing bo'yicha mutaxassis o'zini mahsulotlarni taqsimlash va sotish ustidan nazorat o'rnatishga to'liq bag'ishlashi mumkinligidan darak berib, boshqaruvning boshqa funksiyalarini bajarish uchun qo'shimcha ravishda tegishli mutaxassislar jalb etiladi. Pirovardida bu holat samaradorlikning oshishi hamda mahsulot birligiga bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarning pasayishiga olib keladi.

**3. Kapitaldan samarali foydalanish.** Ko'p hollarda kichik firmalar ishlab chiqarish jihozlaridan texnologik nuqtai nazardan nisbatan samarali foydalanishga qodir bo'lmaydilar. Mahsulotlarning ko'plab turlarini ishlab chiqarish uchun mashinalarni faqat juda yirik va qimmat turuvchi komplekslarda sotib olish mumkin. Buning ustiga, mazkur mashina jihozlaridan samarali foydalanish ishlab chiqarishning katta hajmlarini taqozo etadi. Demak, yaxshi jihozlarni sotib olish va samarali foydalanishga faqat yirik ishlab chiqaruvchilargina erishishlari mumkin. Misol uchun, avtomobilsozlikda ishlab chiqarishning nisbatan samarali usullari yig'ish liniyasi uchun robot texnikasi hamda murakkab jihozlarning qo'llanishini taqozo etadi. Mazkur jihozlarning samarali ishlatilishi uchun, ba'zi bir hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga 200 mingdan to 400 mingga qadar avtomobil ishlab chiqarish hajmiga erishish lozim bo'ladi. Faqat yirik ishlab chiqaruvchilargina bunday jihozlarni sotib olishlari va samarali foydalanishlari mumkin. Bu holat

mayda ishlab chiqaruvchilar uchun muammolarni keltirib chiqaradi. Avtomobillarni boshqa jihozlar yordamida ishlab chiqarish samarasiz va mahsulot birligiga nisbatan ko'proq xarajalar qilinishiga olib keladi. Biroq, nisbatan samarali jihozni sotib olib, undan ishlab chiqarishning kichik hajmi tufayli to'liq foydalanmaslik ham samarasiz va qimmatga tushuvchi yo'l hisoblanadi.

**4. Qo'shimcha turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi.** Yirik miqyosdagi ishlab chiqarishning tashkilotchisi qo'shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun kichik firmaga qaraganda kengroq imkoniyatga ega bo'ladi. Go'sht qadoqlash bo'yicha yirik fabrika ishlab chiqarish chiqindisidan elim, o'g'itlar, dorivor mahsulotlar va boshqa shu kabi qo'shimcha mahsulotlarni tayyorlaydi-ki, kichik firma bu chiqindilarni zarur bo'lmaganligi uchun shunchaki tashlab yuborishi mumkin edi.

**Ishlab chiqarish miqyosining o'sishidan doimiy ravishda olinuvchi samara.** Ba'zi hollarda ijobiy miqyos samarasi ta'siri barham topuvchi ishlab chiqarish hajmi bilan salbiy miqyos samarasi kuchga kiruvchi ishlab chiqarish hajmi o'rnatidagi tafovut juda ahamiyatli bo'lishi mumkin. Bu ikkala chegara orasidagi maydonda barcha resurslarning 10%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining ham mutanosib ravishda 10%ga ko'payishiga olib keladi.


Ishlab chiqarish miqyosining kengayib borishi chuqur ixtisoslashuv tufayli boshqarish bo'yicha mutaxassislar mehnatidan ancha yaxshi foydalanish imkoniyatini beradi. Bu oxir-oqibatda samaradorlikning oshishi va mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

### 11.3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi

*Daromad – bu korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar ularning pul tushumlari yoki pul daromadlari deyiladi.*

*Foyda – bu korxonada, pul daromadlaridan sarflangan barcha xarajalar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda deb yuritiladi. ayrim adabiyotlarda bu iqtisodiy foyda deb ham yuritiladi.*

### Foydaning shakllanish bosqichlari



Demak, tovar va xizmatlar sotilganda ularning umumiy qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shimcha mahsulot esa foydaga aylanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, foydaning haqiqiy manbai qo'shimcha mahsulot yoki qo'shimcha qiymatdir. Odatda ishlab chiqarish sohasidagi yirik korxonalar tovarlarni katta hajmda ishlab chiqarib, ularni savdo vositachilariga ulgurji narxlarda sotadilar. SHunga ko'ra, ular tovarning ulgurji narxi uning tannarxidan yuqori bo'lgan taqdirda foyda oladilar. Demak, **ishlab chiqaruvchi foydasi (F<sub>icd</sub>) – bu mahsulot tannarxi (T) va ulgurji narxi (N<sub>u</sub>) o'rtasidagi fargdan iborat:**

$$F_{icd} = N_u - T.$$


Bundan ko'rinadi-ki, mahsulot birligidan olinadigan foyda ikkita asosiy omilga bog'liq bo'ladi: 1) mahsulot tannarxi darajasi; 2) ulgurji narxlar darajasi.

**Tannarx – bu mahsulotning har bir birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir.**


Bu o'rinda mahsulot tannarxini uning qiymatidan farqlash lozim. Ma'lumki, mahsulot qiymati (Q) o'z ichiga sarflangan ishlab chiqarish vositalari qiymati (Q<sub>v</sub>) hamda yangidan yaratilgan qiymat (Q<sub>vλ</sub>)ni to'liq oladi. O'z navbatida yangidand yaratilgan qiymat ish haqi (IH) va yalpi foydaga (F<sub>ya</sub>) ajraladi (1.6-chizma).

Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi omil – korxonada o'z mahsulotlarini sotuvchi narx darajasi bo'lib, bu o'rinda mahsulot narxi, qiymati va tannarxi o'rtasidagi nisbatning beshita asosiy holatini ajratib ko'rsatish mumkin

#### Mahsulot qiymati tarkibi



#### Tovar qiymati va narxining nisbati




Chizmadan ko'rinadi-ki, birinchi holatda narx mahsulotlar tannarxidan past darajada o'rnatilib (N<sub>1</sub> daraja), buning natijasida ular zarariga sotilishi mumkin. Ikkinchi holatda narxning N<sub>2</sub> darajada o'rnatilishi mahsulotni sotishdan olingan pul miqdorining korxonada xarajatlarga teng kelishi, ya'ni ishlab chiqarishning faqat o'zini o'zi qoplashi ta'minlanishi mumkin. Uchinchi holatdagi N<sub>3</sub> narx darajasi tannarxidan yuqori, biroq qiymatdan past bo'lib, bunda korxonada foydasi tovarida

mujassamlashgan foyda miqdoridan kam bo'ladi. To'rtinchi holatdagi  $N_4$  narx darajasi qiymat miqdoriga teng bo'lib, korxonada mujassamlashgan barcha foydani oladi. Va nihoyat, beshinchi holatdagi  $N_5$  narx darajasini o'rnatish korxonaga tovar qiymatidan ko'proq pul daromadi olish imkonini beradi. Buni yuqorida keltirilgan misoldagi «A» mahsulot qiymati va narxi orqali aniqroq ifodalash mumkin:  $N_1 = 500$  so'm;  $N_2 = 600$  so'm;  $N_3 = 800$  so'm;  $N_4 = 1000$  so'm;  $N_5 = 1200$  so'm.

Korxonada yalpi foydasining taqsimlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chizmadan ko'rinadiki, eng avvalo yalpi foydadan boshqa iqtisodiy binolaridan foydalanganlik uchun ijara haqi, qarzga olingan pul mablag'lari uchun sub'ektlarga turli to'lovlar amalga oshiriladi. Bu to'lovlarga boshqalarning er va to'lanadigan foizni kiritish mumkin. Bundan tashqari, korxonalar davlat va mahalliy hokimiyat organlari byudjetiga soliqlar to'laydilar, turli hayriya va boshqa fondlarga mablag'lar kiritadilar. Mablag'larning qolgan qismi korxonada sof foydasini tashkil etadi. U korxonaning ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlariga, shuningdek, jamg'arish (ishlab chiqarishni kengaytirish)ga, atrof-muhit muhofazasi, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqa maqsadlariga sarflanadi.

### Yalpi foydaning taqsimlanishi



Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasini o'zaro farqlash lozim. Iqtisodiy foyda umumiy pul tushumidan barcha ichki va tashqi xarajatlar, shuningdek, me'yordagi foydani chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. SHu sababli buxgalteriya foydasi iqtisodiy foydadan ichki xarajatlar miqdoriga ko'proqdir. Bunda ichki xarajatlar har doim o'z ichiga me'yordagi foydani ham oladi. Korxonada umumiy pul tushumi tarkibidagi umumiy va buxgalteriya xarajatlari hamda foydasining farqlanishini quyidagi tasvir orqali yanqoqroq tasavvur etish mumkin.

**Korxonada umumiy pul tushumi tarkibidagi iqtisodiy va buxgalteriya foydasining farqlanishi**

Buxgalteriya atamasi bo'yicha				
Buxgalteriya foydasi	=	Umumiy pul tushumi	-	Tashqi xarajatlar
Iqtisodiy atama bo'yicha				
Iqtisodiy foyda	=	Umumiy pul tushumi	-	Tashqi xarajatlar - Ichki xarajatlar - Me'yordagi foyda

Korxonada foydasining mutlaq miqdori uning massasini tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlarga nisbati va uning foizda ifodalinishi foyda normasi deyiladi.

Amaliyotda foyda normasini hisoblashning ikki variantidan foydalaniladi. Bular foydaning joriy sarflarga — korxonada xarajatlarga yoki avanslangan mablag'larga (asosiy va aylanma kapital) nisbatidir.

Bular quyidagicha aniqlanadi:

$$1. P' = (P/M) \times 100\%$$



bu erda:  $R'$  – foyda normasi;  $P$  – foyda massasi;  $W$  – ishlab chiqarilish xarajatlari;

$$2. P' = (P/K_{\text{norma}}) \times 100\%,$$

bu erda:  $R'$  – foyda normasi;  $P$  – foyda massasi;  $K_{\text{avans}}$  – korxonaga avanslangan mablag'lar yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtaacha yillik qiymati.

Bizning misolimizdagi korxonaning «A» mahsulot ishlab chiqarishdan olgan foyda massasi 40 mln. so'mni, foyda normasi esa 66,7% (40 mln. so'm / 60 mln. so'm)  $\times$  100%) ni tashkil etadi.

Foyda normasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga to'g'ri mutanosib handa ishlab chiqarish xarajatlari yoki avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosibdir. SHu tufayli foyda normasi korxonaga ish samaradorligining integral ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foydaning o'sishiga chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgaruvgan holda ikki yo'l bilan: 1) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga; 2) narxni oshirish hisobiga erishish mumkin.

### Xulosalar

1. Ishlab chiqarish xarajatlari – iqtisodiyot nazariyasining eng muhim tadqiqot kategoriyalaridan biridir. Uning vazifasi korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarning miqdori va tarkibini aniqlashdan iborat.

2. Xarajatlarni tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotdan olingan pul tushumi nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashi, balki foyda olishni ham ta'minlashi kerak. Foyda – tadbirkorlik faoliyatining mazmunini anglatadigan, uni harakatga keltiruvchi omildir. Ammo bu maqsadga erishish ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita bog'liq. SHuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etish iqtisodiy tahlilning muhim bo'g'ini hisoblanadi.

3. Tadbirkor korxonaga xarajatlari va foydasiga turlicha yondashadi. Muayyan xarajalar doirasida foyda ishlab chiqarishning eng yaxshi imkoniyatlarini ta'minlashi kerak. Muayyan foyda doirasida esa xarajatlarni shunday optimall

darajaga keltirish kerakki, bunda ishlab chiqarishni moliyalashtirish ko'p sarf talab etmasin.

4. Korxonaga umumiy xarajatlari ikkiga bo'linadi: ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotni yaratish uchun sarflanadigan xarajatlardir. Ushbu xarajatlar xom-ashyo, yoqilg'i, energiya, ishchi kuchi, amortizatsiya va boshqalarga sarflanadi. Muomala xarajatlari tovarlarni realizatsiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sarflardir. Ular sof muomala va qo'shimcha muomala xarajatlariga bo'linadi. Sof muomala xarajatlari foyda hisobidan qoplangan, qo'shimcha muomala xarajatlari esa tovar narxiga kiritiladi.

5. Korxonaga ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. SHunga ko'ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlar korxonaga o'zi uchun zarur resurs va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi. Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. SHu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozor narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

6. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etish darajasiga qarab doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar ham farqlanadi. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqartishi yoki oshishi) ta'sir etmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchil hajmida ham mavjud bo'ladi. O'zgaruvchi xarajatlar deb ishlab chiqariladigan tovar miqdorining oshishiga yoki kamayishiga bevosita ta'sir qiladigan xarajatlarga aytiladi. Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

7. Korxonaga ishlab chiqarish hajmini o'stirish uchun qisqa muddatli davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bu qisqa muddatli

xarajatlardir. Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish bino va inshootlari maydoni, mashina va uskunalar miqdori) doimiy bo'lib qoladi, hamda bu davrda faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun etarli bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, qisqa muddatli davr oralig'ida korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari o'zgarishsiz qoladi, ishlab chiqarish hajmi jonli mehnat, xom ashyo va boshqa resurslar miqdorini ko'paytirish orqali o'zgarishi mumkin. Bunda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish intensivligini oshirish mumkin.

8. Qisqa muddatli davr — bu korxonaning faqat o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirish uchun taqozo etiladigan davrdir. Uzoq muddatli davr — bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va butun band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun etarli bo'lgan davrdir. Bu erda shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishini taqozo qiladigan davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxonaga xususiyatidan kelib chiqib farqlanish mumkin.

9. Korxonaga pul daromadlaridan sarflangan barcha xarajatlari chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda yoki iqtisodiy foyda deb yuritiladi. Tovar va xizmatlar sotilganda ularning umumiy qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shimcha qiymat esa foydaga aylanadi. Bundan ko'rinib turibdiki foydaning haqiqiy manbai qo'shimcha mahsulot yoki qo'shimcha qiymatdir.

10. Korxonaning umumiy foydasidan byudjetga (asosan soliq to'lovlar), banklarga (olingan ssuda uchun foiz) to'lovlar va boshqa majburiyatlar chiqarib tashlansa korxonaga sof foydasi qoladi. Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlanishi natijasida hosil qilinadi. SHu sababli buxgalteriya foydasi iqtisodiy foydadan ichki xarajatlari miqdoriga nisbatan ko'proqdir. Bunda ichki xarajalar har doim o'z ichiga normal foydani ham oladi.

11. Foydaning o'sishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarishsiz holda ikki yo'l bilan: yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga, yoki narxni oshirish hisobiga erishish mumkin.

#### Asosiy tayanich tushunchalar

**Ishlab chiqarish xarajatlari** — tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ishlatish uchun mo'ljallarga etkazib berishga qilinadigan barcha sarflar.

**Ichki xarajatlari** — korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlari.

**Tashqi xarajatlari** — tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajatlari.

**Doimiy xarajat** — ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etmaydigan, u o'zgarib borgan miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlari.

**O'zgaruvchi xarajat** — ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etadigan xarajatlari.

**O'rtacha xarajatlari** — mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlari.

**Qo'shilgan xarajatlari** — mahsulotning navbatdagi qo'shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlari.

**To'g'ri xarajatlari** — mahsulot tannarxiga bevosita qo'shilib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlari.

**Egri xarajat** — mahsulot tannarxiga ustama bo'lib, narxda aks etadigan xarajatlari.

**Iqtisodiy yoki sof foyda** — yalpi pul tushumidan barcha xarajatlari chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

**Foyda normasi** — foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlari bo'lgan hisobining foizdagi ifodasi.

#### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlarning mohiyatini va tarkibini tushuntiring.
2. Ichki va tashqi xarajatlari o'rnatilgan farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.
3. O'rtacha doimiy, o'zgaruvchi va umumiy xarajatlarning mazmuni hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.
6. Foydaning mazmuni va manbaini tushuntiring.

7. Iqtisodiy foyda va buxgalleriya foydasining farqi nimada? Ularning shakllanish tartibini tushuntirib bering.

8. Yalpi foydaning taqsimlanish tartibini tushuntirib bering. Mulkiylik va xo'jalik yuritish shakllarining turilligi foydaning taqsimlanish tartibiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

9. Foyda massasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni izohlab bering.

10. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o'zgarishlardan qaysilari uzoq muddatli davrdagi xarajatlarga kiradi:

a) kompaniya neftni qayta ishlovchi yangi uskunani o'rnatadi;

b) korxonaga yana 200 ishchini yollaydi;

v) fermer o'z uchastkasida qo'llaniladigan o'g'it miqdorini ko'paytiradi;

g) fabrikada uchinchi smena joriy qilinadi.

11. Sarflarning quyidagi turlari xarajatlarning qaysi turkumiga tegishli ekanligini aniqlang: mahsulot reklamasi xarajatlari, korxonaga chiqqan zaryonlar bo'yicha foiz to'lovlari; xom-ashyo xarajatlari, ko'chmas mulkka soliq to'lovlari, boshqaruv xodimlari maoshi; ishchilarga ish haqi to'lovlari; amortizatsiya ajratmasi.

12. Quyidagi keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib foyda normasini har ikkala usulda hisoblang: umumiy foyda – 250 ming so'm; ishlab chiqarish xarajatlari – 1250 ming so'm; avanslangan mablag'lar (asosiy va aylama kapital) – 2500 ming so'm.

Natijalarni taqqoslab, izohlab bering

## 12-bob. Ish haqi va mehnat munosabatlari

Reja:

12.1. Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari

12.2. Ish haqining iqtisodiy mazmuni

12.3. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari

12.4. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli

12.1. Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari

Mamlakatda yaratilgan mahsulotning taqsimlanish tamoyillari to'g'risidagi nazariyalar

«Ishlab chiqarishning uch omili» nazariyasi (asoschisi j.b.sey)

• unga ko'ra tovarlarni ishlab chiqarishda mehnat, er va kapital bah-baravar qatnashadi, ular hamma daromadlar manbaidir va binobarin daromadlar ham shu omillar o'rtasida taqsimlanadi.

«Qo'shilgan omil (so'nggi qo'shilgan kapital yoki ishchi kuchi) unumdorligi» nazariyasi (asoschisi j.klarck)

• unga ko'ra yaratilgan bo'ylik uchala omil o'rtasida ularning har biri yaratilgan mahsulot miqdoriga (ya'ni unumdorligiga) qaratib taqsimlanadi

Ushbu g'oyalarning ijobiy tomoni

1. • kapital, er va ishchi kuchi (jonli mehnat)ning har uchalasi tovar yoki xizmatning nufusligini yaratishda qatnashishi ko'rsatiladi;

2. • yaratilgan miqdori bilan bu uchala omilning miqdori va unumdorligi o'rtasida bog'liqlik mavjudligi asoslangan.

salbiy tomoni

1. kapital va er tovar nafitligini yaratishda passiv ravishda qatnashsada, qiymat yaratmasliklarini hisobga olishmaganligi;
2. yangi qiymat faqatgina jonli mehnat tomonidan yaratilishini ko'rsatib berolmaganligidir.

Hozirgi kunda yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlari quyidagicha

1. milliy mahsulot mulk egalari (davlat, jamoa, xususiy, shaxsiy) va ishchi kuchining egasi bo'lgan ishchi-xizmatchilar o'rtasida taqsimlanadi.
2. milliy mahsulotdan amortizatsiya summasi ajratib qo'yiladi, chunki bu summa asosiy ishlab chiqarish vositalarini (asosiy kapitalni) qayta tiklash uchun zarur.
3. milliy mahsulotning ma'lum bir qismini sug'urta hamda jilimoy himoya fondlariga taqsimlanadi;
4. uning bir qismini davlatning o'z vazifalarini to'liq bajarar olishi uchun soliq sifatida taqsimlanadi.

Yalpi ichki mahsulotning yuqorida aytilganlardan qolgan qismini hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital, yer egalari va ishchi kuchi egalari o'rtasida taqsimlanadi va jamiyat a'zolarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Chunki bu jarayon natijasida ishlab chiqarishda qatnashgan ishchi kuchi egasi va boshqa omillar egalari - mulkdorlarning mahsulotdagi ulushi aniqlanadi hamda ularning omilli daromadlari sifatida shakllanadi. Bu ish haqi, foiz, renta va foyda shaklidagi daromad turlari ko'rinishini oladi.


## 12.2. Ish haqining iqtisodiy mazmuni


*Ish haqi - bu ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va umumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushning puldagi ifodasidir.*

### Ish haqining asosiy turlari

Nominal ish haqi - ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi

Real ish haqi - nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori





Real ish haqi – bu nominal ish haqining «xarid etish» qobiliyati. O'z-o'zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqiga va xarid qilimadigan tovarlar (va xizmatlar) narxiga bog'liq. Shunday ekan, real ish haqi boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda, nominal ish haqiga to'g'ri mutanosibdir va iste'mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir. Bu miqdorlar nisbatini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$V_p = \frac{V_n}{P}$$

bu yerda:  $V_p$  - real ish haqi ;  $V_n$  - nominal ish haqi ;  $P$  - iste'mol buyumlari va xizmatlarining narx darajasi.

Joriy etilgan yil (eng oxirgi sana)	ish haqi	yoshga doir pensiya	bolaligidan nogironlarga nafaga	zaruriy ish stajiga ega bo'lmagan keksalar va ishga layoqatsiz fuqorolar nafagasi
2011	57200	110620	110620	61780
2012	79590	160415	160415	87345
2013	96105	182950	182950	115640
2014	118400	224680	224680	135740
2015	130240	264590	264590	155970
2016	149775	306970	306970	162840
2017	172240	341760	341760	196450
2018	202730	396500	396500	243300
2019	223000	436150	436150	267650

### 2.3. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari



**Vaqtbay ish haqi** xodimning malakasi, mehnatining sifati va ishlagan vaqtiga qarab to'lanadigan ish haqidir. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo'lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, injener-texnik xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektromontyorlar va shu kabilar) haq to'lashda yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog'liq bo'lmagan paytlarda (masalan konveyerlar va avtomat liniyalarda ishlash) qo'llaniladi.

**Ishbay ish haqi** ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori va sifati yoki bajarilgan ishning hajmiga qarab beriladigan ish haqidir. Mahsulot birligi uchun to'lanadigan ish haqi miqdori, tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish normasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi. Chunonchi, ishchilarning bir qismiga to'g'ri ishbay tizimi bo'yicha haq to'lanadi. Bunda ishlab chiqarish me'yori qay darajada bajarilishidan qat'iy nazar, ish haqi yagona mahsulot birligi uchun belgilangan tarif bo'yicha to'lanadi.


**Ishbay ish haqi** ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori va sifati yoki bajarilgan ishning hajmiga qarab beriladigan ish haqidir. Mahsulot birligi uchun to'lanadigan ish haqi miqdori, tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish normasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi. Chunonchi, ishchilarning bir qismiga to'g'ri ishbay tizimi bo'yicha haq to'lanadi. Bunda ishlab chiqarish me'yori qay darajada bajarilishidan qat'iy nazar, ish haqi yagona mahsulot birligi uchun belgilangan tarif bo'yicha to'lanadi.

**Ishbay-mukofot tizimi** bir gancha ko'rsatkichlar uchun mukofot berishni nazarda tutadi. **Ishbay-progressiv haq to'lashda** ishchining belgilab qo'yilgan me'yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif bo'yicha ish haqi beriladi, normadan yuqorisiga esa oshirilgan haq (tarif) bo'yicha pul to'lanadi.

Ischilarning ish haqini tabaqalashtirish eng avvalo davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. **Tarif tizimi** yordamida tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turi toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasi tartibga solib turladi.



**Ish haqi to'lashning tarifsiz tizimi** - bunda ish haqi miqdori korxonalarining yakkuniy natijalaridan kelib chiqqan xolda belgilanadi. uning namoyon bo'lish shakllari




**12.4. Mehnat munosabatlarning iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli**

*Mehnat shartnomalari bu - ishga yollash bo'yicha korxonaga mu'viri va ishchilar o'rtasidagi tuziladigan shartnomadir. unda quyidagilarga e'tibor qaraladi:*

- ish haqi stavkasi;
- normadan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka;
- dam olish kunlari va tanqislar;
- pensiya fondlari va sog'liqni saqlashga ajratmalar;
- narxlarning o'zgarishini hisobga olib iste'molchilik savati qiyomatini tartibga solish;
- mehnat sharoiti va tashkiliy masalalar hal qilinadi.

**Kasaba uyushmalari** - bu kasaba uyushmalari bu - mehnat munosabatlari rivojlantirish, ishsizlikni jifimoiy himoyalash, ishlovchilarning mehnat sharoitini yaxshilash va ish haqini oshirish imkoniyatlarini tizlash bilan shug'ullanuvchi jifimoiy tashkilotdir.

**Kasaba uyushmalarining ish haqiga ta'sir qilish usullari**



**Xulosalar**

1. Mahsulot va daromadlarni taqsimlash ham doim bir xil bo'lmay, balki shu davrda amal qilib turgan iqtisodiy munosabatlar tizimiga, jumladan mulkchilik munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitlari, ya'ni kapitalga mulkchilikning turi shakllari mavjud bo'lgan, erga esa davlat mulki bo'lib turgan sharoitda yaratilgan milliy mahsulot mulk egalari (davlat, jamoa, xususiy, shaxsiy) va ishchi kuchining egasi bo'lgan ishchi-xizmatchilar o'rtasida taqsimlanadi.

2. Yaratilgan yalpi ichki mahsulotning uning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida mehnatning miqdori, sifati va unumdorligiga qarab taqsimlanadigan qismi ish haqi deb yuritiladi.

3. Ish haqining asosiy vazifasi ishchi va xizmatchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash, boshqacha qilib aytganda, mehnat me'yori bilan iste'mol me'yori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashdan iboratdir.

4. Ishchi uchun qanday shaklda va qancha miqdorda ish haqi olishi muhim, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhim,

shu sababli nominal va real ish haqi farqlanadi. Nominal ish haqi bu ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi. Real ish haqi – bu nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori. O'z-o'zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqiga va xarid qilinadigan tovarlar narxiga bog'liq. Shunday ekan, real ish haqi, boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda, nominal ish haqiga to'g'ri mutanosibdir va iste'mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir.

5. Real ish haqi uch omil bilan aniqlanadi: birinchidan, nominal ish haqining miqdori bilan; ikkinchidan, amaldagi soliqlar yuki bilan; uchinchidan, iste'mol narxlar darajasi bilan.

6. Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy shakli: vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi. Vaqtbay ish haqi xodimning malakasi, mehnatining sifati va bahlangan vaqtiga qarab to'lanadigan ish haqidir. Ishbay ish haqi ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori yoki bajargan ishining hajmiga qarab beriladigan ish haqidir. Mahsulot birligi uchun miqdori, tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish me'yoriga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi.

7. Ishchilarning ish haqini tabaqalashirish eng avvalo davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. Tarif tizimi yordamida tarmoqlar va mamlakat miqtasiga bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasi turli-birga solib turiladi.

8. Ko'pchilik mamlakatlarda mehnat munosabatlarining rivojlanishidagi ixtisizlikni ijtimoiy kafolatlash, ishlovchilarning mehnat sharoitini yaxshilash va ish haqini oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda kasaba uyushmalari asosiy rolni o'ynaydi.

9. Kasaba uyushmalari o'zlarining iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishlarida muvofiqatlarini himoya qilinyotgan mehnatkashlar guruhining kasbiy ixtisizligi muvofiqatlaridan kelib chiqqan holda yopiq (tor) yoki ochiq (keng) turda tashkil etilishi mumkin. Yopiq turdagi kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirish

uchun ishchi kuchi taklifini qisqartirishga harakat qilsalar, ochiq turdagi kasaba uyushmalari ish haqi darajasi bo'yicha shartnoma tuzishda korxonaga ma'muriyatiga bevosita ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar.

#### Asosiy tayanch tushunchalar

**Ish haqi** — ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va umumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

**Vaqtbay ish haqi** — ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib to'lanadigan ish haqi.

**Ishbay ish haqi** — ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ishlajimga qarab to'lanadigan ish haqi.

**Nominal ish haqi** — pul shaklida olingan ish haqi summasi.

**Real ish haqi** — nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.

**Ishbay-mukofotli haq to'lash tizimi** — bajarilgan ish uchun haq to'lashni erishilgan turli natija ko'rsatkichlariga qarab mukofot berish bilan qo'shib olib borilishini nazarda tutuvchi tizim.

**Ishbay-progressiv haq to'lash tizimi** — ishchining belgilab qo'yilgan me'yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif bo'yicha, me'yordan yuqori qismiga esa oshirilgan haq (tarif) bo'yicha ish haqi to'lanishini ko'zda tutuvchi tizim.

**Tarif tizimi** — ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasini tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab tartibga solib turuvchi me'yorlar majmuni.

**Tarif-malaka ma'lumotnomalari** — ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta'rif, ishchi va mutaxassislarining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar, turli tavsifdagi ishlarni tarqatish uchun qo'yiladigan razryadlar majmuni.

**Tarif setkasi** — turli razryadlar va tarif koeffitsientlari majmuni bo'lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi.

**Tarif stavkalari** — tegisli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo'lgan ishchilarning mehnatiga to'lanadigan haq miqdori majmuni.

**Mehnat shartnomalari** — korxonaga ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi ishga yollash bo'yicha munosabatlarni namoyon etuvchi va tartibga soluvchi hujjat bo'lib, unda ish haqi stavkasi, me'yordan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog'liqni saqlashga ajratmalar hamda o'zgarishni hisobga olib iste'mol savati qiymatini tartibga solish kabi masalalar ifoda etiladi.

**Kasaba uyushmasi** — ish beruvchi va ishga yollanuvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlarning shakllanishi, amalga oshirishi va tartibga solinishida ishga yollanuvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat tashkiloti.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yaratilgan milliy mahsulotning qanday qismi ish haqi shaklini oladi?
2. Ish haqi bilan zaruriy mahsulot o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
3. Ish haqining turlicha nazariyalarini tahlil qilib, ularga o'z qarashingizni bildiring.
4. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?
5. Nima uchun ish haqining umumiy darajasi har xil mamlakatlarda turlicha?
6. Tarif tizimi o'z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi? Ularning har birining ahamiyati va farqlanishini tushuntirib bering.
7. Mehnat munosabatlari deganda nimani tushunasiz? Mehnat munosabatlari kimlar tomonidan tartibga solinadi?
8. Kasaba uyushmasi nima va uning qanday turlari mavjud?
9. Kasaba uyushmalari ish haqini oshirishning qanday usullaridan foydalanadilar?
10. Mehnat shartnomasi nima va unda qanday masalalar o'z ifodasini topadi?



### 13-bob. Agrar munosabatlar va agrobiznes

#### Reja:

- 13.1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari
- 13.2. Renta munosabatlari
- 13.3. Agrosanoat integratsiyasi va agrobiznes
- 13.4. O'zbekistonda agrar ishlohtlarni amalga oshirish va yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari

#### 13.1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari

**Agrar munosabatlar** iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos turi xisoblanadi. «Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish ko'p jihatdan er bilan bog'liq, shuning uchun xam erga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlarni tashkil etadi»<sup>5</sup>

**Erga egalik qilish** – tarixan tarkib topgan an'analar yoki qonuniy asosda belgilangan tartibda erga egalik xuquqining tan olinishini bildiradi.

**Erdan foydalanish xuquqi** – bu o'rnatilgan urf-odatlar, udumlar yoki qonuniy tartibda ularning doimiy va muddatli foydalanish uchun berilishini bildiradi.

Boshqa bir ta'rifda esa "Er bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar" deb ataladi deyilgan<sup>6</sup>.

Yuoridagi ta'riflardan ko'rinish turibdiki, er bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar agrar munosabatlarning asosini tashkil etadi. SHu sababli, **agrar munosabatlarning asosiy xususiyatlari** xam erga uzviy bog'liq bo'ladi.

Uni quyidagicha asoslash mumkin:

– erning agrar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatidagi xususiyati, erning narxi va uning sifati agrobiznesning boshqa resurslarini tanlash, uyg'unlashtirish va ulardan foydalanishning turli variantlarini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

– qishloq xo'jaligi maxsulotlariga bo'lgan talabning noelastikligi bu soxadagi daromadlarning past bo'lishini belgilaydi, qishloq xo'jaligi maxsulotlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi ularning foydaliilik darajasini kamaytiradi.

Agrar munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri atrof-muxitda bo'layotgan tabiiy jarayonlarning unga bevosita ta'sir ko'rsatishidir. Mazkur jarayonlar erning maxsuldorligida va ushbu soxadagi ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatuvchi iqlim, ob-xavo sharoitlarida o'zining aksini topadi.

Bozor munosabatlari sharoitida er tovarga, tadbirkorlik ob'ektiga aylanadi. Ammo er resurslari makonda tabiiy ravishda cheklangan, uni takror ishlab chiqarib bo'lmaydi. Er taklifi er narxining ortishi bilan ko'payib, aksincha, kamayishi bilan tushib ketmaydi. SHu sababli, er taklifi mutlaq noelastik (o'zgarmaydigan) bo'ladi. Er o'zining **shu xususiyatlari** bilan boshqa resurslardan farqlanadi.


**Agrar munosabatlar** - bu qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va qishloq xo'jaligi vositalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlardir.

<sup>5</sup> Shodmonov SH., Jo'raev T.: iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar to'plami. - T., 2000. - B.152.  
<sup>6</sup> O'limov A., Shariqov Jaev M., iqtisodiyot nazariyasi. - T., "Meknat" 1995. - B.338.

**Agrar munosabatlarni tor va keng ma'nolarda talqin etish mumkin.** Tor ma'noda agrar munosabatlar erini, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni o'zlashtirish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligida vujudga qiluvchi ichki munosabatlari bilangina cheklanadi. Keng ma'noda esa agrar munosabatlar o'z ichiga soxa uchun ishlab chiqarish vositalari etkazib beruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi va uni sotuvchi korxonalar bilan qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasida vujudga keladigan aloqalarni qamrab oladi.

### 13.2. Renta munosabatlari

Erdan foydalanilgan uchun uning egasiga to'lanadigan xaq renta deb ataladi.




#### Er rentasining tarixiy shakllari:

- ⇒ Barshina - er egalariга ishlab berilgan.
- ⇒ Obrok - er egalariга maxsulot ko'rinishida to'langan.
- ⇒ Pul rentasi - maxsulot sotilgandan keyin pul shaklida berilgan


#### Erga bo'lgan talab va renta miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar:

- ⇒ Erlarning unumdorligi. Bir turdagi ekinlar ekilganda unumdorligi yuqori bo'lgan erlarga talab katta bo'ladi va bu rentaning xam yuqori bo'lishiga olib keladi.
- ⇒ Foydalanishda bo'lgan erlarda etishtiriladigan qishloq xo'jalik maxsulotlarining bozor narxi. Qaysi maxsulotning bozor narxlar yuqori bo'lsa, shu ekin ekiladigan erlarda renta xam yuqori bo'ladi.
- ⇒ Birgalikda foydalaniladigan boshqa resurslarning narxlar va unumdorligi. Masalan, qishloq xo'jalik mashina va uskunalarining narxi xamda unumdorligi renta miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.
- ⇒ Er maydonlarining shaxar markazlari, bozorlar, yo'llar va suv manbalariga joylashishining uzoq-yuqinligi;
- ⇒ Erlardan sanoat usulida, qurilish va boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- ⇒ Erlarda ekin turlarini joylashtirish imkoniyatlari darajasi.

#### Agrar ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlari



### 13.3. Agrosanoat integratsiyasi va agrobiznes



**Ishlab chiqarish infratuzilmasi** bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, **ijtimoiy infratuzilma** odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan soxalarni ( uy-joy, madaniy- maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va xokazo) o'z ichiga oladi.

**Agrosanoat integratsiyasi.** ASM tashkil topishining negizi agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va ma'xsulotni iste'molchiga etkazi beruvchi tush tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi xanda ularning uzviy birlash jarayonidir. Agrosanoat integratsiyasi barcha tarkibiy darajalarda, barcha bo'g'inlarda: mamlakat va mintaqalar ko'lamida, korxonalar, tumanlar darajasida mavjud.


Agrosanoat integratsiyasi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, ijtimoiy mexnat taqsimotini, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish natijasidir.

Tadbirkorlik faoliyatini qishloq xo'jalik soxalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi. **Agrobiznes tushunchasiga** qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari xam kirtiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy ta'mirlash xizmat ko'rsatish, uning maxsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarni qamrab oladi.

**Agrobiznes faoliyatining maqsadi** iste'mol bozorini etarli miqdorda sifati qishloq xo'jalik maxsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilash uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

**Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bug'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir.** Chunki ular bevosita kishlok xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chikaradi. Bu xo'jalilar uz erida eki jaraga olingan erda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chikaruvchi fermerning uzi va oila a'zolari xisoblab ayrim xollarda yollamma mexnadan foydalanish san mumkin. Fermer xo'jaligining afzaligi shundan iboraki, undan mulk va mehnat bevosita kushiladi, bu esa yuqora samarani ta'minlaydi.

#### Agrobiznesning asosiy ko'rinishlari



**Agrobiznes turlaridan biri agrofimlardir.** Ular ma'lum turdagi kishlok xo'jalik maxsulotlarini etishtirish va uni pirovard maxsulot darajasigacha kayta ishlashni kushib olib boradigan korxonalar. Agrofimlar xam kishlok xo'jaligi, xam sanoatga xos resurslarni ishlatib, istemolga tayyor bulgan maxsulot yaratadi. Muzkur turdagi korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chumonchi oilaviy xo'jalik asosida xam tashkil topib, kichik zavodlar bilan birlikishi mumkin. **Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning**

**Agrosanoat birlashmalari** bir turdagi maxsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik xamda korxonalarni birlashtiradi.

**Agrosanoat kombinatlari** qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtirish, qayta ishlash va istemolchilarga etkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarining ma'lum bir xududida birlashuvidir. Agrobiznes turiga ko'ngilli va paychilik mablag'lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni xam kiritish mumkin. Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalari, jamoa xo'jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan qo'shma korxonalar xam agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

13.4. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirish va yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari

*Agar islohotlarning asosiy yo'nalishlari*

- 1 • erdan foydalanish islohoti
- 2 • savdan foydalanish islohoti
- 3 • mulk islohoti
- 4 • moliya-kredit va soliq islohoti
- 5 • narx-navo islohoti

**Erdan foydalanish islohoti**

- 1993 yil • fermer xo'jaliklariga er uchaskalarini merosga qoldirish huquqi bilan umrbod egalik qilish, kamida 10 yil muddat bilan foydalanish yoki yaraga er uchaskalarini qiratisi belgilangan.
- 1998 yil • jugarolarga fermer xo'jaliklarini yuritish uchun er uchaskalari 50 yilgacha bo'lgan, lekin 10 yildan kam bo'lmagan muddatga yaraga berilishi belgilandi.
- 2004 yil • fermer xo'jaliklari yuritish uchun er uchaskalari tanlov asosida yaraga 50 yilgacha bo'lgan, lekin 30 yildan kam bo'lmagan muddatga birlashtirish belgilandi.

**Natija**

- 2004 yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun er uchaskalaridan foydalanishning jara shakli joriy qilindi;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga er uchaskalari faqat unan hokimni tomonidan yaraga berilishi belgilab qo'yildi;
- er uchaskalari yaraga 30 yildan 50 yil muddatgacha berilishi qonuniy belgilab qo'yildi;
- er uchaskalaridan foydalanish huquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi;
- o'z mablag'i hisobidan er maydonlarini o'zlashtirishni taqaballantirish tizimi joriy etildi.

### Suvdan foydalanish islohoti

- 1 • irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy-hududiy prinsiplardan harva printsiptiga o'tkazildi;
- 2 • respublika bo'yicha 10 ta irrigatsiya tizimlari harva boshqarmalari va 1 ta farzona vodiysi bo'yicha birlashtirilgan dispetcherlik markaziga ega bo'lgan magistral kanallari tizimi boshqarilmasi tashkil etildi;
- 3 • fermer xo'jaliklariga suvdan foydalanishni samarali yo'lga qo'yish va bu borada xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida suvdan foydalanuvchilar uyushmalari tashkil etildi;
- 4 • moliya vazirligi tasarrufida suzoriadigan erlarning meliorativ xolalarini yaxshilashi bo'yicha alohida maxsus jamg'arima tashkil qilindi.
- 5 • moliya vazirligi qoshida "o'zmetiomashitcing" davlat tizing kompaniyasi tashkil qilindi

### Mulk islohoti

- 1 • davlat mulki tugatilib, xususiy, jamoa, hissasdorlik yoki xorij sarmoyasi bilan shakllanadigan mulklar yuzaga keldi;
- 2 • qishloq xo'jaligida mulk "davlat mulki" va "jamoa mulki" (shirkat va jamoa xo'jaliklari) shaklidan "xususiy mulk"
- 3 • jamoa mulki bo'lgan boz va tokzorlar, chorva fermerlari va mollari, texnikalar hamda boshqa mol-mulkilar xususiy lashtirildi;
- 4 • xususiy mulklarini himoya qilish va ularning rivojlanishini huquqiy jihatdan kafolatlash bo'yicha me'yoriy xujjatlar qabul qilindi.
- 5 • qishloq xo'jaligida nodavlat sektor tomonidan 99 foiz mahsulot ishlab chiqarilmoqda.

### Moliya-kredit va soliq islohoti

- 1 • davlat ehtiyotlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar uchun hosil o'rib-yizib olinguncha 60 foiz qismini ajratish, paxta xom ashyosini xarid qilishda joriy yil oxirigaacha 90 foiz qismini ajratish tizimini joriy qilindi;
- 2 • qishloq tadbirkorlarini kreditlarga bo'lgan talabini qondirish maqsadida nodavlat kredit uyushmalari tashkil etilmoqda;
- 3 • qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun barcha turdagi soliqlar umumlashtirilib, yagona er solizi joriy qilindi.
- 4 • respublikamizda ishlab chiqarilgan texnika vositalari va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalarini lizingga berish tizimini joriy etildi;
- 5 • er ularasi huquqini va bulensi hosilni garovga qo'yganda holda kredit olish shakllanmoqda.

### Narx islohoti

- 1 • davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xom ashyosining narxini jaxon bozoridaagi narxidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.
- 2 • davlat tomonidan sotib olinayotgan zalla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.
- 3 • boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari bozoridaagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

## Xulosalar

1. Erga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlarni tashkil etadi.
2. Agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi. Er egasi va uni ijara olib foydalanuvchi (tadbirkor) o'rtasida mazkur erdan olinadigan foydani taqsimlash borasidagi munosabatlar renta munosabatlari deyiladi. Er rentasi er egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir.
3. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud renta vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi: absolyut er rentasi, differensial (tabaqalashgan) renta I va II, monopol renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan erlardan olinadigan renta.
4. Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga etkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birlashish jarayonidir.
5. Agrosanoat majmuasi (ASM) – bu qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlaridir. ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi. Birinchi soha – qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari etkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar; ikkinchi soha – qishloq xo'jaligining o'zi; uchinchi soha – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga etkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish); to'rtinchi soha – qishloq aholisi hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, maishiy xizmat ko'rsatish, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara xo'jaligi).
6. Tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agrobiznes tushunchasiga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kirittiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnika, ta'mirlash xizmatlari ko'rsatish, qishloq xo'jaligi

mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yanada yanqirdorcha sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan ta'limsiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

### Asosiy tayanach tushunchalar

**Agarar munosabatlar** – erga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Renta munosabatlari** – erdan foydalanish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromadni taqsimlash va o'zlashtirish bilan bog'liqlikda vujudga keladigan munosabatlar.

**Differensial renta** – er uchaskalarining unumdorligidagi va joylashgan joylardagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

**Differensial renta I** – erlarning tabiiy unumdorligi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

**Differensial renta II** – erlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

**Absolyut renta** – qishloq xo'jaligida erga bo'lgan xususiy mulkchilik monopoliyavi natijasida vujudga kelib, barcha turdagi – yaxshi, o'rta va yomon erlardan olinadigan renta.

**Monopol renta** – alohida tabiiy sharoitga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiriladigan erlardan olinadigan renta.

**Erdirma sanonda renta** – foydali qazilma konlarining joylashishi (er qazilmasiga nisbatan) va ularning boyligi jihatdan farqlar natijasida vujudga keladi.

**Agrosanoat majmuasi** – qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarining birligi.

**Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi** – bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi sohalar.

**Ijtimoiy infratuzilma** – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalar.

**Agrosanoat integratsiyasi** – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga etkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birlash jarayoni.

**Agrobiznes** – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sohalardagi namoyon bo'lish shakli.

#### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Agrar munosabatlarning mazmunini, iqtisodiy munosabatlarda tug'gan o'rtni va xususiyatlarini ko'rsatib bering.
2. «Erga egalik» va «erdan foydalanish» tushunchalarini izohlang.
3. Er rentasi nazariyalarning umumiy tomonlari va tub farqlarini ko'rsatib bering.
4. Er rentasining asl mazmunini tushuntiring.
5. Differensial (I va II) va absolyut rentaning hosili bo'lish shart-sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini tushuntirib bering.
6. Monopol renta nima?
7. Qazib oluvchi va undirma sanoatda renta qanday hosil bo'ladi?
8. «Ijara haqi» va «er rentasi» ning farqlarini izohlang.
9. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga tavsif bering.
10. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalarining iqtisodiy mazmuniga o'z fikringizni bildiring

14.10b. **Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.** Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari

**Reja:**

- 14.1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
- 14.2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari
- 14.3. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari

14.1. **Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari**

**Milliy iqtisodiyot** yangi sifat va o'sishga moyil bo'lgan barcha ishlab chiqarish tarmoqlari va soxalarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga qamrab olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

**Makroiqtisodiyot** – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy soxalarini bir butun qilib olingan milliy iqtisodiyotdir.

Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mexnat iqtisodiyotining natijasi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish xajmi bir qator ko'rsatkichlar yordamida, **makro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, taxlit qilinadi.** Bu ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baxo beriladi va milliy iqtisodiyotning rivojlanish tamoyillari aniqlanadi.

### Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi

- yalpi ichki maxsulot, yalpi milliy maxsulot, sof milliy maxsulot, milliy daromad va ularning o'zgarishi;
- axoli jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki maxsulot, yalpi milliy maxsulot, sof milliy maxsulot, milliy daromad va ularning o'zgarishi;
- ishsizlik, inflyatsiya va bandlik darajasi;
- iste'mol, jang'arma va investitsiyalar darajasi;
- nominal va real ish xaqi xamda daromdqlar darajasi;
- davlat byudjeti va uning xolati (taqchilligi);
- narxlar darajasi va uning o'zgarishi (indeksi);
- savdo aylanmasi va to'lov balansi xolati;
- mamlakat milliy boyligi, uning tarkibi va o'zgarishi.

**Makroiqtisodiy modelar** – iqtisodiyot va unda ro'y beradigan real voqelikning mantiqiy (nazariy), miqdoriy (matematik) va grafik o'lchamlarda abstrakt tasvirlanishidir.

#### Makroiqtisodiy modelar:

- ❖ Doiraviy oqimlar (aylanishlar) modeli;
- ❖ yalpi talab va yalpi taklif (AD-AS) modeli;
- ❖ tovarlar miqdori va pul massasi (MV=PQ);
- ❖ Fillips. Laffer egri chiziqdari.

#### Bozor xo'jalik sub'ektlarini quyidagicha tasniflash qabul qilingan.

1. Nomoliyaviy korxonalar yoki ishlab chiqarish shakllari.
2. Uy xo'jaliklari.
3. Davlat ma'muriy tashkilotlari.
4. Mazkur mamlakat chegarasidan tashqaridagi xo'jalik sub'ektlari.

**Milliy xisoblar tizimi (MXT)** ikki tomonlama yozuv qoidasiga asoslangan balanslashgan jadvallar to'plami bo'lib, unda makrodarajadagi bir iqtisodiy bilim natijalari xam xarajatlar va xam daromadlar sifatida aks etadi.

MXT BMTning statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni o'z ichiga olib, ular standart xisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan iboratdir.

MXTning bosh ko'rsatkichi **1993 yilgacha – YAMM** bo'lib, uning barcha bosqichlaridagi xarakati bo'yicha ma'lumotlar MXT orqali xisobga olingan.

**1993 yildan boshlab**, Milliy xisoblar tizimining markaziy ko'rsatkichi – yalpi ichki maxsulot (YAIM) bo'lib, yalpi milliy maxsulot uning ikkinchi makroiqtisodiy ko'rsatkichidir. Boshqa tomondan, yalpi ichki maxsulot yalpi milliy maxsulotning ma'lum modifikatsiyasidir.

#### **MXT g'oyasining vujudga kelishi, ishlab chiqilishi va amalga oshirilish bosqichlari.**

• Milliy xisoblarning dastlabki uslubiy asoslari F.Kene tomonidan qilinmoly taktor ishlab chiqarishning natural va qiymat ko'rsatkichlari o'rta-sidagi nisbatlar nuqai nazariidan ilgari surilgan.

• MXTning nazariy asoslarini yaratish va uni ishlab chiqishga J.Keyns, A.Bouli, J.Klarck, S.Kuznes, R.Stoun, R.Frish kabi iqtisodchilar katta xissa qo'shgan.

• Birlashtgan Millatlar Tashkilotining statistika byurosi «Milliy daromadni aniqlash va Milliy xisobni tashkil qilish» to'g'risidagi ma'rufatni e'ton qilgan (1947y.) xamda shu asosda R.Stoun rahbarligida rivojlangan mamlakatlar tajribasi xisobga olinib MXT ishlab chiqilgan.

• Milliy xisoblar standart tizimi BMT statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, 1953 yildan boshlab qo'llanila boshlagan.

• 1968 yilda MXTning ancha takomillashgan andozasi kiritilgan. Unda xarajatlar va ishlab chiqarish jadvali, moliyaviy xisobot, bozor va nobozor sektorlar ajratib ko'rsatilgan.

• 1993 yilda BMT MXTning takomillashgan yangi standartini tasdiqlagan. Unda iqtisodiyot sektorlari, standart xisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning nomlanishi birnuncha o'zgartirilgan.



**Milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar**

- 1 • mavjud bozor kon'yunkturasi, bozorlar sizini va monopollashtiruv darajasi;
- 2 • mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki;
- 3 • ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi;
- 4 • fan-texnika taraqqiyotining miqdori, taxsifi va rivojlanish sur'atlari;
- 5 • ishlab chiqarish resurslarining sifati;
- 6 • hududlarning er mavdonlari;
- 7 • infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanganligi;
- 8 • ekologiya holati.

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar**

<b>YAMM</b>	• yalpi milliy mahsulot;
<b>YAIM</b>	• yalpi ichki mahsulot;
<b>SYIM, SIM</b>	• sof milliy mahsulot, sof ichki mahsulot;
<b>MD</b>	• milliy daromad;
<b>milliy ko'rsatkichlar</b>	• pul oqini, byudjet xolati, inflyatsiya (deflyatsiya);
<b>ijtimoiy ko'rsatkichlar</b>	• axoli daromadlari, ishsizlik darajasi, axoli soni va h.k.

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati**

- ular yordamida butun iqtisodiyotning holati, uning o'sishi yoki pasayishi tahlil qilinib, xilosa chiqariladi;
- ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi;
- ular tuzilma vaqt oralig'idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga devosila ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi
- ishlab chiqarish, qiriboshlash, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rganatgan shaklda aks ettirish imkonini beradi
- munhakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

**14.2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari**

**Yalpi milliy mahsulot (YAMM)** – milliy xo'jalikda bir yil davomida vujudga keltirilgan pirovard mahsulot va xizmatlar bozor qiymatidan iborat bo'ladi.

**Sof milliy mahsulot** – bu yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib, o'zida moddiy ishlab chiqarish soxalarida yil davomida yangidan vujudga keltirilgan qiymatini ifodalaydi.

**Milliy daromad = pirovard mahsulot - amortizatsiya**  
yoki  $W-C=V+m$

Butun milliy iqtisodiyotning xolatini xarakterlovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich – yalpi milliy mahsulot YAMM xisoblanadi.

Bütün xalq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iborat bo'lganligi sababli **jami ijimioy maxsulot (JIM)**ning ashyoviy (natural-buyum) tarkibi ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlaridan iborat bo'ladi. JIMning ishlab chiqarish vositalaridan iborat qismi (mashina, uskuna va shu kabilar) ishlab chiqarish xitoylari uchun foydalaniladi va demak bitvosita iste'molni qondiradi, **iste'mol buyumlari** (oziq-ovqat, kiyim-kechak va shu kabilar) esa ulardan farq qilib, bevosita xitoylarni qondirish uchun ishlatiladi.

**Qiyamat shaklida JIM** – iste'mol qilingan ishlab chiqari vositalari qiyamati (S) va yangidan yaratilgan qiyamatidan ( $V+nq$ ) iborat bo'ladi.

JiMini W bilan belgilasak, bunda  $W=c+V+m$  bo'ladi.

Yangidan yaratilgan qiyamat zaruriy maxsulot yoki ishchi kuchi qiyamatidan (V) va qo'shimcha maxsulotdan (m) iborat bo'ladi.

Boshqacha aytganda:

$JIM=oraliq\ maxsulot+pirovard\ maxsulot$

**Oraliq maxsulotga** ishlov berish, qayta ishlash va sotish maqsadlari uchun xarid qilingan tovarlar kiradi.

**Pirovard maxsulot** istemolchilar tomonidan foydalanish uchun sotib olinadigan tayyor tovarlar va xizmatlardan iborat bo'ladi.


**Qo'shilgan qiyamat** – bu korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulot qiyamatidan etkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiyamati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiyamati.

**Boshqacha aytganda qo'shilgan qiyamat** – bu korxonada yalpi maxsulotidan yoki ishlab chiqarilgan maxsulotining bozor narxidan joriy moddiy xarajatlarni chiqarib tashlangan miqdoriga teng.

YaMMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan kapital qiyamati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa **sof milliy maxsulot (SMM)** ko'rsatkichi xosil bo'ladi.  
**YaMM** – amortizatsiya yillik summasi = **SMM**

SMM qiyamatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxonada tomonidan o'rnatiladigan baxoga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar iste'molchi zimmasiga tushadi va uning xisobiga o'zlarining daromadining bir qismini yo'qotadi. SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa **milliy daromad (MD)** ko'rsatkichi xosil bo'ladi.  
**SMM** – biznesga egri = **milliy daromad**.

**Milliy daromad** milliy xo'jalikda bir yil davomida ishlab chiqarilgan pirovard maxsulot va xizmatlarning bozor baxosidagi qiyamat bo'lib, natural shaklida iste'mol buyumlari, ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallangan ishlab chiqarish vositalarining bir qisminan iboratdir.



### 14.3. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) – bir yil davomida mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard maxsulotlar va xizmatlarning bozor boxosidagi qiymati.


YAIM ning ikkita turi

<b>Nominal YAIM</b>	• Joriy bozor narxlarida hisoblangan milliy mahsulot
<b>Real YAIM</b>	• o'zgarmas, qiyosiy narxlarida hisoblangan milliy mahsulot

Real YAIM = Nominal YAIM / Narx Indeksi

Narx indeksi = joriy yildagi iste'mol tovarlari narxi / bazis yildagi iste'mol tovarlari narxi

O'zbekistonda 2003-2018 yillarda yaim o'sish ko'rsatkichlari, foizda.



YAIM (YAIM) uch xil usul bilan xisoblanishi mumkin:

Birinchi usul: YAIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondoshuv.	Ikkinchi usul: YAIMni xisoblashga xarajatlar bo'yicha yondoshuv.	Uchinchi usul: YAIMni daromadlar bo'yicha xisoblash
<p>Ko'rsatilgan kiyimat bu ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati bilan sotib olingan xom-ashyo, materiallar, oraliq mahsulot qiymati o'rtasidagi farq. Bu xolda YAIM qiymati barcha ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatlari yig'indisi sifatida hisoblanadi.</p>	<p>YAIM = S + i + G + Xn</p> <p>S - uy xo'jaligi iste'mol xarajatlari = kundalik xarajatlari + uzoq muddat foydalanadigan tovarlar uchun xarajatlar + turli xizmatlar uchun xarajatlar.</p> <p>i - yalpi xususiy ichki investitsiyalar = tadbirkor tomonidan sotib olingan mashina, asbob-uskuna va shunga o'xshashlar + xamma qurilish + zaxiralar ko'payishi.</p> <p>G - davlatning tovar va xizmatlar uchun xarajatlari = davlatning xamma xarajatlari - transfer to'lovlar (pensiya, natfaqa kabi sosial to'lovlar).</p> <p>Xn - sof eksport = eksport - import.</p>	<p>YAIM = A + T + i + r + R + G</p> <p>A - iste'mol silingan kapital xajmi yoki amortizatsiya.</p> <p>T - biznesga solinadigan egri soliqlar: sotishdan olingan soliq, aksizlar, mulkka soliqlar, litsenziya to'lovlar va bojxona bojlari.</p> <p>i - ishchilarning ish xaqi: ish xaqi va unga qo'shimchalar, ijtimoiy sug'urta, pensiya, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga ajratmalar.</p> <p>r - ijara xaqi - iqtisodiy mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlari.</p> <p>R - foiz stavkalari yoki foiz daromadlari - pul kapitalini etkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan olinadigan pul to'lovlar.</p> <p>G - mulkdan keladigan daromad yoki foyda - mulk egalari daromadlari va korporatsiyalarning olgan foydalari (TR) dan iborat.</p>

### Hozirgi kunda YalMni hisoblashdagi muammolar

- 1 • jamiyat farovonligini oshiruvchi, biroq aniq hisobot yuritish mushkulligi sababli hisobga olinmaydigan faoliyat turlari (kasallar va bolalarni uyda parvarishlash, yashash uchun uyda qulayliklar yaratish, yakkalaribda o'qitish va boshqalar);
- 2 • jamiyat farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xujfona iqtisodiyot sohalari faoliyat turlari (gijohvandlik mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish, ko'ngilochar mashinalarning yashirin turlari, reket va boshqalar);
- 3 • jamiyat farovonligini oshiruvchi, biroq bozor tavsifiga ega bo'lgan uy ishlari (xonadonlarni, elektr va radio jilozlarni, poyqal va avtomashinalarni ta'mirlash va boshqalar);
- 4 • jamiyat farovonligining pasayishiga olib keluvchi ishlab chiqarishni kengaytirishning salbiy natijalari (resurslarning tugab ketishi, iqlimning o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi).

### Uy xo'jaliklarining pirovard iste'moli

- **uzoq muddatgacha iste'mol qilinadigan buyumlar**
- avtomobil, mebel, madaniy - maishiy tovarlar va hokazolar
- **qisqa muddatli iste'mol qilinadigan buyumlar**
- oziq-ovqat, kiyim - kechak, kundalik xayotdagi xo'jalik buyumlari va hokazolar
- **har xil xizmatlar**
- transport, aloqa, tibbiy xizmat va hokazolar

### YalM ni xarajatlarga asoslanib hisoblanayotganda uning tarkibiga qo'shilmaydigan xarajatlar

- 1 • davlanning transfer to'lovlari (karyular, nogironlar to'lovlari, talabalar stipendiyalari, qaytarilmaslik sharti bilan berilgan karzlar);
- 2 • xususiy transfer to'lovlari (masalan, talabalarining xar oyda o'z ayvaridan oladigan subsidiyalari, badvatlar oilalarining turli xayriyalari va boshqalar);
- 3 • qimmatli qozozlar oldi—soldisi jarayonidagi xarajatlar bu xarajatlar garchi ishlab chiqarishga o'z ta'sirini bivosita ko'rsatmasda, maxsus ilol qiymatiga qiymat qo'shmaydi;
- 4 • ishlatilgan buyumlar.

### Xulosalar

1. Milliy iqtisodiyot ko'plab o'zaro bog'liq iqtisodiy unsurlardan iborat bo'lgan murakkab iqtisodiy tizimni namoyon etadi. Milliy iqtisodiyot, barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro- va makrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir.
2. Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohasini bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga xalq xo'jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohaslarini oladi.
3. Ko'pgina mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga bahol berilib, ular faoliyatining rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o'sishi yoki ortqaga ketishi baholi qilinib, xulosa chiqariladi.
4. Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi milliy mahsulot (YalM), yalpi ichki mahsulot (YalM), sof

milliy mahsulot (SMM), milliy daromad(MD), ishchi kuchi bandligi, ishlatilgan inflyatsiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

5. Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy mahsulot tarkibiga faqat tovar shaklida bo'lib, bozor narxi mavjud bo'lgan yoki, hech bo'lmaganda, ularni yaratish uchun haqiqatda sarflangan xarajatlar miqdori bo'yicha baholash mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlar kiritilishi mumkin.

6. YalM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi. Qo'shilgan qiymat — bu korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan mol etkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

7. Milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun yalpi ichki mahsulot (YalM) ko'rsatkichidan foydalaniladi. Yalpi ichki mahsulot umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u faqat mazkur mamlakat ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mamlakat ichida yaratilgan tovar va xizmatlar jami qiymatining bozor narxlaridagi ifodasini namoyon etadi.

8. Milliy hisoblar tizimi asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajalar balans misol bo'lishi mumkin. Daromadlar xo'jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajalar to'rtta guruhdan iborat bo'ladi: iste'mol, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yordagi — muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

9. YalM uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin: 1) qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv; 2) sarf-xarajalar bo'yicha yondashuv; 3) daromadlar bo'yicha yondashuv.

#### Asosiy tayanch tushunchalar

**Makroiqtisodiyot** — moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlitirib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

**Milliy hisoblar tizimi** — milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ularidan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

**Yalpi milliy mahsulot (YaMM)** — milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi.

**Yalpi ichki mahsulot (YalM)** — yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati.

**Sof milliy mahsulot (SMM)** — yil davomida jonni mehnatning unumli hisobkati bilan yaratilgan yangi mahsulotdir.

**Milliy daromad** — yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning puldagi ifodasi bo'lib, hozirgi hisoblar tizimida SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

**Shaxsiy daromad** — milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, korxonada foydalandan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo'liga kelib tushadigan ijtimoiy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

**Nominal YalM** — joriy narxlarda hisoblangan YalM.

**Real YalM** — narxlarning o'zgarishini hisobga olib, o'zgarimas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan YalM.

**Qo'shilgan qiymat** — ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va umumiy iste'mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

**Oraliq mahsulot** — ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar.

**Pirovard mahsulot** — ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va umumiy iste'mol qilishga tayyor bo'lgan mahsulotlar.

**Xufyona iqtisodiyot** – YalMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi.

**Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
2. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning farqi nimada? Ular iqtisodiyotning qanday ko'rinishlari uchun xos ekanligini izohlang.
3. Milliy hisoblar tizimining mohiyati nimada? U o'z ichiga qanday ko'rsatkichlarni oladi.
4. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar himalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
5. YalM va SMM bip-bipidan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy dapomad-chi?
6. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.
7. YalM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat.
8. Nominal va real YalM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko'rsating.
9. Agar joriy yildagi nominal YalM hajmi 700 mlrd. so'mga, narx indeksi 1,5 ga teng bo'lsa, real YalM hajmi qancha bo'ladi? Agar narx indeksi 0,8 ga teng bo'lsa-chi?
10. Sof iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichining mohiyati hamda hisoblash tartibini tushuntirib bering.


**15-bob. Yalpi talab va yalpi taklif**

**Reja:**

- 15.1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar
- 15.2. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar
- 15.3. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi

**15.1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar**

**Yalpi talab** - bu barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida sotib olinishi mumkin bo'lgan turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabning umumiy hajmi yoki milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmidir.



Akademik V. Kamaev esa yalpi talabni real yalpi milliy mahsulot unsurlariga bo'lgan umumiy pul talabi sifatida namoyon bo'lishini hamda uni pulning miqdoriy nazariyasiga muvofiq quyidagi ko'rinishda ifodalashini ta'kidlaydi:

$$AD = M \times V / P$$


bu yerda:  
 AD – yalpi talab;  
 M – pul miqdori;  
 V – pulning aylanish tezligi  
 P – narx darajasi

Boshqa sharoitlar o'zgarмай qolganda, narx darajasi qancha past bo'lsa, iste'molchilar (mamlakat ichidagi hamda chet eldagi) milliy ishlab chiqarish real hajmining shuncha katta qismini va aksincha, narx darajasi qancha yuqori bo'lsa, shuncha kam qismini sotib oladi. Shunday qilib, boshqa sharoitlar o'zgaragan holda narx darajasining oshishi ishlab chiqarishning real hajmiga bo'lgan yalpi talab hajmining kamayishiga sabab bo'ladi. Aksincha, narx darajasining pasayishi ishlab chiqarish hajmiga yalpi talabning oshishiga olib keladi. Yalpi talabga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi ham milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga olib keladi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» bo'yicha darslikda yalpi talab iqtisodiyot alohida sohalari sarflarining yig'indisi sifatida ifodalanaadi, ya'ni:

$$Y_d = C + I + G + NX$$

bu yerda:  
 Y<sub>d</sub> – yalpi talab;  
 C – uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari;  
 I – xususiy sektorning investisiya sarflari;  
 G – davlat xaridi;  
 NX – sof eksport.



Yalpi talab egri chizig'i.


Yalpi talab hajmiga ta'sir ko'rsatadigan omillar

Iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar

Investitsion sarflar

davlat sarflari

sof eksportdagi o'zgarish




Investitsion sarflar

- foiz stavkatalari
- investitsiya-lardan kutiladigan foyda
- solliqlar
- ortiqcha quvvatlar

Davlat sarflari

- harbiy sohaga harajatlari
- yo'l qurilishlari
- tilim, madaniyat
- obodonlashtirish, shaharsozlik



Sof eksportdagi o'zgarish





**15.2. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar**

**Yalpi taklif** - bu mamlakatda muayyan vaqtda narxlarining muayyan darajasida ishlab chiqarilib, sotishga chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmidir. bu narxlarining har xil mumkin bo'lgan o'rta darajasida milliy ishlab chiqarishning mavjud real hajmini ko'rsatadi.



Yalpi taklif egri chizig'i.

**Yalpi taklif hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.**

- resurslar narxining o'zgarishi
- samaradorlikning o'zgarishi
- huquqiy me'yorlarning o'zgarishi

**1. Resurslar narxining o'zgarishi.** Resurslar narxi tayyor mahsulot narxidan farq qilib, yalpi taklifning muhim omili hisoblanadi. Boshqa ahvollar o'zgaray qolganda, resurslar narxining oshishi mahsulot birligiga xarajatlarning ko'payishiga, resurs narxlarining pasayishi esa xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Resurs narxlariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Resurslar taklifining ko'payishi ular narxini pasaytiradi va natijada mahsulot birligiga xarajalar kamayadi. Resurslar taklifining kamayishi esa qarama-qarshi natijaga olib keladi. Endi alohida resurslar taklifi o'zgarishining yalpi taklifga ta'sirini qarab chiqamiz.

**Yer resurslari taklif yangi yerlarning ochilishi, sug'orish inshootlarining qurilishi, yerga ishlov berish texnik imoniyatlarining takomillashuvi tufayli ko'payishi mumkin.** Yer resurslari taklifining ko'payishi yerga bo'lgan sarflarning kamayishiga olib keladi va shu orqali mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni pasaytiradi. Irrigatsiya qurilmalari shahobchalarining kengayishi, dehqonchilikning intensiv usullarini qo'llash tufayli yer resurslarining kamayishi qarantaga qarshi natijaga olib keladi

**Ishchi kuchi resurslari.** Korxonalar xarajatlarning asosiy qismi ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash uchun ketadigan xarajatlarni hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o'zgaray qolganda, ish haqining o'zgarishi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mavjud ishchi kuchi resurslarining ko'payishi ish haqining pasayishiga, ularning kamayishi esa ish haqining oshishiga olib keladi.

**Kapital.** Agar jamiyat asosiy kapital zahirasini o'stirib borsa, yalpi taklif o'sish tamoyiliga ega bo'ladi. Masalan, agar jamiyat o'z daromadining asosiy qismini tejab, uni investitsion tovarlar sotib olishga yo'naltirsa, yalpi taklif o'sadi. Xuddi shunday asosiy kapital sifatida yaxshilanganda ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va yalpi taklif ko'payadi. Korxonalar o'zining eski, sifatli past bo'lgan qurilmalarini yangi va archa takomillashgan qurilmalar bilan almashirishi bunga misol bo'la oladi. Agar mamlakat asosiy kapitalining miqdori kamaysa va sifatli yomonlashsa, yalpi taklif qisqaradi.

**Tadbirkorlik qobiliyati.** Vaqt o'tishi bilan mamlakatda tadbirkor kishilar soni ko'payadi va bu yalpi taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, keyingi vaqtda respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga asosiy e'tiborning qaratilishi bunday faoliyat bilan shug'ullanishga harakat qiluvchi kishilar sonining ko'payishiga olib kelishi muqarrar va bu o'z navbatida yalpi taklifni oshiradi

**Bozordagi hukmronlik.** Resurslarni yetkazib beruvchilarning bozordagi hukmronligining susayishi yoki kuchayishi ham resurs narxlariga va yalpi taklifga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bozordagi hukmronlik - narxlarni raqobat mavjud bo'lgan sharoitdagidan ancha yuqori o'rnatish imkoniyatidir.

**2. Samaradorlikning o'zgarishi.** Samaradorlik - bu 2-bobda aytilganidek, milliy ishlab chiqarish real hajmining sarflangan resurs miqdoriga nisbatidir. Boshqacha aytganda, samaradorlik - bu xarajat birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarishning o'rtaacha hajmi yoki ishlab chiqarish real hajmi ko'rsatkichidir. Boshqa sharoitlar o'zgaray qolganda bir ishchi hisobiga ko'proq miqdorda mashina va uskunalardan foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashirish, ancha bilimli va malakali ishchi kuchini qo'llash kabi omillarning o'zaro ta'siri samaradorlikning o'sishi va yalpi taklifning oshishiga olib keladi.

**3. Huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.** Korxonalar o'z faoliyatida amal qiladigan huquqiy me'yorlarning o'zgarishi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni va yalpi taklifni o'zgartirishi mumkin.


Huquqiy me'yorlar o'zgarishining ikki turi mavjud:

- a) soliq va subsidiyalarning o'zgarishi;
  - b) davlat tomonidan tartibga solish tavsifi va usullarining o'zgarishi.
- Korxonalardan olinadigan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, ish haqi fondiga nisbatan ajratmalar)ning ko'payishi mahsulot birligiga xarajatlarni ko'paytirishi va yalpi taklifni qisqartirishi mumkin.
- Korxonaga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalarning ortishi yoki soliq yukining kamayishi ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytiradi va yalpi taklifni oshiradi.

Davlat tomonidan tartibga solish tavsifi va usullarining o'zgarishi ham ko'p hollarda mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarni va shu orqali yalpi taklifni o'zgartiradi.

15.3. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi

Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nisbat.




Yalpi talab egri chizig'i va yalpi taklif egri chizig'i kesishtgan nuqta umumiy iqtisodiy muvozanatni ifodalab, bu holatga narxning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmi orqali erishiladi.


Iqtisodiyot doimiy ravishda makroiqtisodiy muvozanat tomon harakat qiladi va ma'lum darajada bu tenglik ta'minlab turladi. Biroq, yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillarining o'zgarib turishi natijasida muvozanat buziladi va iqtisodiyot yangi muvozanat tomon harakat qiladi.

Yalpi talab va yalpi taklif muvozanatli yalpi taklif egri chizig'ining qaysi kesmasida ro'y berishiga qarab o'ziga xos xususiyat kash etadi.


Yulq kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi.




Tlk kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi.



Oraliq kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi.



Xrapovtk samarasi



## Xulosalar

1. Yalpi talab – bu barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida turli tovarlar va xizmatlarni sotib olish mumkin bo'lgan milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi.
2. Yalpi talab turli tovarlarning miqdori, sifati va narx darajasiga bevosita bog'liq. Agar yakka talab egri chizig'i turli narx ko'rsatkichlarida alohida iste'molchining muayyan tovarga bo'lgan talabi miqdori o'trasidagi bog'liqlikni ifodalasa, yalpi talab egri chizig'i mamlakatdagi narxlarning turli darajasi hamda ifodalasa, yalpi talab hajmi o'trasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.
3. Yalpi taklif – bu mamlakatda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilib, sotishga chiqarilayotgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmidir. Bu narxlarning har xil mumkin bo'lgan o'rta darajasida milliy ishlab chiqarishning mavjud real hajmini ko'rsatadi.
4. Yalpi taklifga eng avvalo narxlar darajasi bilan ishlab chiqarilgan tovarlar jittimoiy qiymati o'trasidagi nisbatning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Narxlar darajasining qiymatdan oshishi qo'shimcha tovarlar ishlab chiqarish uchun rag'bat yaratadi. Narxlar darajasining qiymatdan pasayishi esa tovar ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. SHu sababli narxlar va milliy ishlab chiqarish hajmi o'trasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bog'liqlik mavjud bo'ladi.
5. Yalpi taklifga narxdan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi: a) resurslar narxining o'zgarishi; b) samaradorlikning o'zgarishi; v) huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.
6. Iqtisodiyot nazariyasida yalpi taklifga uch xil nuqtai nazardan yondashuv mavjud: yalpi taklif narxlar darajasiga bog'liq emas; narxlar darajasiga bevosita bog'liq; yalpi taklifning o'sishida yoki kamayishida narxlar darajasi o'zgarishsiz qoladi. SHuning uchun yalpi taklif egri chizig'i grafigi uchta kesmaga ega: tik, yotiq va oraliq kesmalar.
7. Yalpi talabning o'sishi yalpi taklifga turlicha ta'sir qiladi: taklif egri chizig'ining keyinscha kesmasida taklif aynan o'sha miqdorga ortadi, oraliq kesmada – narxlar darajasining o'sganligi uchun taklif oz miqdorda ortadi, klassik

kesmada esa – yalpi taklifda o'zgarish bo'lmaydi, chunki barcha resurslar jalb etilgan bo'ladi, lekin narxlar darajasi keskin o'sadi.

8. Yalpi talab egri chizig'i va yalpi taklif egri chizig'i kesishgan nuqta umumiy iqtisodiy muvozanatni ifodalab, bu holatga narxning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmi orqali erishiladi.

9. Iqtisodiyot doimiy ravishda makroiqtisodiy muvozanat tomon harakat qiladi va ma'lum darajada bu tenglik ta'minlab turiladi. Biroq, yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarib turishi natijasida muvozanat buziladi va iqtisodiyot yangi muvozanat tomon harakat qiladi.

## Asosiy tayanch tushunchalar

**Yalpi talab** – barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida turli tovarlar va xizmatlarni sotib olish mumkin bo'lgan milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi.

**Yalpi taklif** – mamlakatda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilgan va sotishga tayyor bo'lgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmi.

**Xrapovik samarasi** – yalpi talab oshganda narxning o'rta darajasi ko'tarilishi, lekin talab kamayganda, qisqa davr ichida narx pasayish tamoyiliga ega bo'lmagligini ifodalovchi ko'rsatkich.

## Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yalpi talab va yalpi taklifni tahlil qilish nima uchun zarur?
2. Yalpi talab nima? Nima uchun yalpi talab egri chizig'i o'zgaradi?
3. Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Yalpi talab egri chizig'ining pasayuvchan shaklda bo'lishiga foiz stavkasi, boylik va import tovarlar xaridi samaralarining ta'sirini tushuntirib bering.
5. Yalpi taklif nima? Yalpi taklif egri chizig'idan uchta kesmani tasvirlang va ular nimani ko'rsatishini tushuntiring?
6. Yalpi taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

7. Hozirgi sharoitda O'zbekistonda yalpi taklifning o'zgarishiga ko'proq qaysi omillar ta'sir ko'rsatmoqda?
8. O'zbekistonda yalpi taklif hajmini oshirishda davlat tomonidan qanday choralar ko'rilmoqda?
9. Huquqiy me'yorlarning o'zgarishi yalpi taklif hajmiga ta'sir ko'rsatishi borasida Respublikamiz tajribasidan misollar keltiring.
10. Nima sababdan xrapovik samarasi ro'y beradi? Bu samaraning real hayotda amal qilishiga misollar keltiring.
11. Yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining ahamiyati nimada? Bunday muvozanatga erishish yo'llarini izohlab bering.

## 16-bob. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

### Reja:

- 16.1. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi
- 16.2. Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi
- 16.3. Investitsiyalar va ularning darajasini belgilovchi omillar
- 16.4. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbatni ta'minlash muammolari
- 16.5. O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash va uning shart-sharoitlari
- 16.1. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi

### Iste'mol turlari

shaxsiy iste'mol	<i>• ishlab chiqarish sohasidan tashqari ro'y beradigan iste'mol bo'lib, bunda iste'mol buyumlaridan bevosita foydalaniladi.</i>
umumiy iste'mol	<i>• bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining iste'mol qilinishidir.</i>
yalpika tartibdagi iste'mol	<i>• alohida shaxsning o'z kufiyorida bo'lgan ne'matlarini iste'mol qilishi.</i>
jamoa'viy iste'mol	<i>• jam'iyat a'zolari turli guruhlarining ne'matlaridan birgalikda foydalanishi.</i>
ijtimoiy iste'mol	<i>• butun bir jam'iyat a'zolarining ijtimoiy ne'matlardan birgalikda foydalanishi.</i>

Iste'mol sarflari — bu aholi joriy daromadlarining tikichilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi. Aholi o'z daromadini sarflar ekan, bugungi (joriy) iste'mol hamda kelgusidagi iste'mol hajmini oshirish o'rtasida tanlovni amalga oshiradi.

**Jamg'arma** - bu aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi.

Shu bilan birga joriy davrda amalga oshirilgan jamg'arma joriy iste'molning chegirilgan qismidir, chunki jamg'arma aholi va korxonalar ixtiyordagi daromadning iste'molga sarflanmagan qismini hisoblanadi:

$$Y = C + S,$$

bu yerda:

- Y – barcha xo'jaliklar ixtiyordagi daromad;
- C – iste'mol miqdori;
- S – jamg'arma miqdori.

**Milliy daromad ko'rsatkichlari**

**Milliy daromad**

$$MD = I + J$$

bu erda: MD – milliy daromad;  
I – iste'mol miqdori;  
J – jamg'arma miqdori.

**Sof daromad**

$$SD = MD - TS$$

bu erda: SD – sof daromad;  
MD – milliy daromad;  
TS – to'g'ri soliq.

**Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir qiladigan omillar**

Ob'ektiv omillar

*jamg'arilgan mol-mulk darajasi*

*narxlar darajasi*

*real foiz stavkalar*

*iste'molchining qarzdorligi darajasi*

*iste'molchilarni soliqqa tortish darajasi*

Ob'ektiv omillar

*iste'mol va jamg'arishga bo'lgan moyillik*

*kelgusidagi narx*

*pul daromdlari*

*soliq*

*tovarlar zahirashning o'zgarishiga munosabat*

**Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi ko'rsatkichlar**

*Iste'molga o'rtacha moyillik*

$$IO^*M = I / ShD$$

*Iste'molga keyingi moyillik*

$$IKM = \Delta I / \Delta ShD$$

*Jamg'armaga o'rtacha moyillik*

$$JO^*M = J / ShD$$

*Jamg'armaga keyingi moyillik*

$$JKM = \Delta J / \Delta ShD$$

**Iste'mol va jamg'arma darajasi, mlrd. so'm**  
(shartli raqamlar asosida)

Yillar	daromad darajasi (md)	iste'mol (I)	jamg'arma (J)	icimolga o'rtacha moyillik (i : md)	jamg'arishga o'rtacha moyillik (j : md)	iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik (Δi : Δmd)	jamg'arishga keyingi qo'shilgan moyilli an KΔj : Δmd
2010	1500	1300	200	0,87	0,13	-	-
2015	1800	1500	300	0,83	0,17	0,67	0,33
2019	2200	1700	500	0,77	0,23	0,50	0,50

### 16.2. Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi

**Jamg'arma - bu uzog muddat qiladigan tovarlarni harid qilish, turli xilidagi favqulodda xolatlarni sug'urtalash hamda foizli daromad olish maqsadida pul mablag'larining to'planib borishidir.**

**Ijtimoiy-madaniy sohadagi jamg'arish** (noishlab chiqarish jamg'arishi) uy-joy fondini, kasalxonalar, o'quv muassasalari, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport muassasalari, ya'ni nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi.

Jamg'arish summasi, uning hajmi va tarkibi takror ishlab chiqarish sur'atlarini belgilab beradigan hal qiluvchi omillardir. Jamg'arish normasi bevosita jamg'arish summasining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$KH = (KIC / MD) \times 100\%$$

bunda: JN - jamg'arish normasi;

JS - jamg'arish summasi;

MD - milliy daromad.

**Jamg'arish turlari**

**Ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arish**  
(*bu asosiy va aylanma kapitalni kengaytirishga ishlatiladi*)

**Ijtimoiy-madaniy sohadagi jamg'arish**  
(*bu nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi*)

### 16.3. Investitsiyalar va ularning darajasini belgilovchi omillar

**Investitsiyalar** - bu asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir.

Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag'lariга sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi.

Investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy harakalar - investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs - investor deyiladi.

**Investitsiyalarning shakllanish manbalari**

Investorlarning o'z moliyaviy resurslari

• *foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.*

qarz olingan moliyaviy mablag'lar

• *obligatsiya zayonlari, bank kreditlari*

jalb qilingan moliyaviy mablag'lar

• *aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning puy va boshqa to'lovlari*

davlat byudjeti mablag'lari


• *subsiyiva, dotatsiya va boshqalar*

chet elliklar mablag'lari


2018 йилнинг январь-декабрида asosiy kapitalga investitsiya-larining olinayotganining ma'lumotlarini ma'lumotlarini b'ynich ta'klimladi.

	Ma'ru' su'm	U'stun sur'atini, %/yil	Jam'iyat nisbatini, %/yil
Asosiy kapitalga investitsiyalar	107333,0	118,1	100,0
<i>bu jumladan:</i>			
Ma'ru'atlashni investitsiyalar	34448,4	159,9	32,1
Bu'jjet ma'ru'atlarini	4124,1	88,7	3,8
Davlat ma'ru'atini jam'iyatlarini	5468,7	170,6	5,1
Finanslar sportini rivojlantirishni jam'iyatlarini	271,2	129,0	0,3
Tingilash va tirakliket jam'iyatlarini	7894,8	103,7	7,4
U'zbekiston Respublikasini ma'ru'atini ostidagi kreditlar	16689,6	2,89	15,5
Ma'ru'atlashni investitsiyalar	72884,6	105,3	67,9
korxonalar ma'ru'atlarini	30062,9	106,5	28,0
axoli ma'ru'atlarini	12127,8	104,1	11,3
U'zridan-U'zri xorijiy investitsiya va kreditlar	14660,4	85,8	13,7
Ma'ru'at banklari kreditlarini va boshqa kredit ma'ru'atlarini	16033,5	131,3	14,9

Investitsiyalar darajasiga ta'sir qiluvchi omillar




Investitsiyalarning asosiy turlari




Yalpi investitsiyalar bilan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi nisbat iqtisodiyot rivojlanish holatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Quyidagi 6-chizmada yalpi va sof investitsiyalar hamda amortizatsiya nisbati o'zgarishining o'suvchi, turg'un va qisqaruvchi iqtisodiyotlarga ta'sirini ko'rishimiz mumkin.






a) O'sib boruvchi iqtisodiyot



b) Turg'un iqtisodiyot




c) Qisqaryotgan iqtisodiyot

Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri

Chizmadan ko'rinadiki, yalpi investitsiyalar tarkibida sof investitsiyalar hajmining ahamiyatli darajada bo'lishi yil oxirida kapital hajmining o'sishiga hamda, pirovardida iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi. Turg'un iqtisodiyot sharoitida esa yalpi investitsiyalar faqat amortizatsiya ajratmalari, ya'ni iste'mol qilingan kapitalni qoplash fondi hajmiga teng bo'lib, yil oxirida kapital miqdori o'zgarmay qoladi. Yalpi investitsiyalarning iste'mol qilingan kapitalni qoplash fondi hajmidan ham oz bo'lishi yil oxirida kapital miqdorining qisqarishiga va, buning oqibatida, iqtisodiyot ko'rsatkichlarining pasayib ketishiga olib keladi.

16.4. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbatni ta'minlash muammolari


Investitsiya va jamg'arma o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash borasida bir qator nazariy qarashlar farqlanadi. Bu borada eng avvalo klassik iqtisodchilarning qarashlarini ko'rib chiqamiz.



Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik modeli.

Chizmadan ko'rinadiki, klassik modelni tuzishda tik o'q bo'yicha real foiz stavkasi, yotiq o'q bo'yicha esa jamg'arma va investitsiya hajmi ko'rsatkichlari joylashtirilgan. Investitsiya va foiz stavkasi o'rtasida teskari funksional bog'liqlik mavjud: foiz stavkasi ganchalik yuqori bo'lsa, investitsiya hajmi shu qadar past bo'ladi va aksincha. Jamg'arma esa to'g'ri, o'suvchi funksional bog'liqlikka ega, ya'ni foiz stavkasining yuqori bo'lishi jamg'arma darajasining ham yuqori bo'lishiga olib keladi

Keynschilarning investisiya va jamg'arma o'rtasidagi muvozanat modeli o'z tuzilishiga ko'ra klassik modeldan farq qiladi. Bunda eng markaziy nuqta – J.M.Keyns tomonidan jamg'arma foiz stavkasining emas, balki daromadning funksiyasi deb qaralishi hisoblanadi: . Investisiya esa, klassik modeldagi singari, foiz stavkasining funksiyasi deb olinadi. Ya'ni, keynscha konsepsiyaning asosida jamg'arish va investisiya darajalarining boshqa-boshqa omillar ta'sirida o'zgarishi yotadi.



#### Jamg'arma va investisiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli.

Chizmadan ko'rinadiki, grafik ko'rsatkichlarining joylashuvi ham klassik modeldan farq qiladi. Tik o'qda jamg'arma (S) va investisiya (I) darajasi, yotiq o'qda esa milliy daromad darajasi (NI) joylashgan. Iqtisodiyotdagi jamg'arma darajasi milliy daromad hajmiga bog'liq holda o'zgaradi. Milliy daromad hajmi amalda investisiya darajasiga ham ta'sir ko'rsatsada, mazkur modelda uni milliy daromadga bog'liq bo'lmagan, ya'ni avtonom holda beriladi.

Investisiya va jamg'arma darajalari muvozanatining klassik va keynscha modellari o'rtasidagi farq quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: birinchidan, klassik modelda bu muvozanat ro'y berishi uchun iqtisodiyotning doimiy ravishda to'la bandlik holatida bo'lishi talab etiladi. Keynscha modelda esa, yuqorida ko'rib chiqilganidek, bu muvozanatga to'la bandlik bo'lmagan holatda ham erishish mumkin; ikkinchidan, klassik modelda narx mexanizmi juda harakatchan bo'ladi. Keynscha modelda narxning bunday moslashuvchanligi inkor etiladi; uchinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, klassik modelda jamg'arma foiz stavkasining funksiyasi sifatida, keynscha modelda esa daromad funksiyasi sifatida qaraladi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinadiki, jamg'arma va investisiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli klassik modelga nisbatan aniqrog'ini, real hayot, ya'ni iqtisodiyotning to'la bandligi mavjud bo'lmagan holatga nisbatan ham tatbiq etilib, takomillashirilgan model hisoblanadi. Shunga ko'ra, biz ham makrodarajadagi boshqa muammolarni ko'rib chiqish va tahlil qilishda asosan ushbu modeldan foydalanamiz.

#### Xulosalar

1. Milliy iqtisodiyotda YalMning asosiy qismi yangidan vujudga keltirilgan mahsulot, uning sotilgandan keyingi puldagi ifodasi milliy daromad iste'mol va jamg'arma maqsadlarida sarflanadi.
2. Keng ma'noda iste'mol jamiyat iqtisodiy chiquvchilarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni bildirib, umumli va shaxsiy iste'molga ajraladi.
3. Jamg'arma – bu aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi chiquvchilarini qondirish va foizli daromad olish maqsadlarida to'planib borishi. Uning hajmi uy xo'jaliklari daromadidan iste'mol sarffarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

4. Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik iste'mol va jamg'arma funksiyasi deyiladi. Bu funksiyalarni bayon etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning nuqtai nazarlari farqlanadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, jamg'arma banklarning real foiz stavkasi ganchalik yuqori bo'lsa, ularning qiziqishlari shu qadar kuchli bo'ladi. J.M.Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikrlariga qarshi chiqib, uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog'liq emasligini, kishilar uchun hamma vaqt joriy iste'molning kelgusidagi iste'moldan afzaligini ta'kidlaydi. U iste'mol sarflari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida uy xo'jaliklarining joriy daromadlarini ko'rsatadi.

5. Iste'molchilarning daromadlari o'sib borgan sari ularning jamg'arishga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi.

6. Amalda jamg'arish kapital mablag'lar yoki investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi.

7. Jamg'arish summasi milliy daromadning bir qismini tashkil etadi va shu sababli milliy daromad hajmi ko'payishini belgilaydigan omillar jamg'arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiy qo'llaniladigan resurslar massasi va ularning unumdorligidir.

8. Investitsiyalar — asosiy va aylanna kapitalni ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo'yilmadir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi.

9. Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi: 1) investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi; 2) foiz stavkasi.

#### Asosiy tayanach tushunchalar

**Iste'mol** — jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni.

**Shaxsiy iste'mol** — iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlardan foydalanish, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishi.

**Umumiy iste'mol** — ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.

**Iste'mol sarflari** — aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun jabrlanadigan qismi.

**Jamg'arish** — aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'plab bo'lishi.

**Iste'molga o'rtacha moyillik** — shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi.

**Jamg'arishga o'rtacha moyillik** — shaxsiy daromadning jamg'arishga ketadigan ulushi.

**Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik** — daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o'zgarishi darajasi.

**Jamg'arishga keyingi qo'shilgan moyillik** — daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arish hajmining o'zgarishi darajasi.

**Iqtisodiy jamg'arish** — milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanna kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zahiralarni ko'paytirish uchun sarflanib bo'lishi.

**Jamg'arish normasi** — jamg'arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Investitsiya** — ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohaslarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanna kapitalga pul shaklidagi qo'yilma.

**Investitsiyalar samaradorligi** — milliy daromad (foydalaning) o'sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iste'mol, jang'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jang'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarini sanab ko'rsating.
3. Iste'mol va jang'arma funksiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo'llagan holda tushuntiring.
4. Manfiy va musbat (ijobiy) jang'arma nima va ularning grafikdagi joylashishi qanday bo'ladi?
5. Jang'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Iste'molga va jang'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz? Iste'mol va jang'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?
7. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.
8. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri qanday?
9. Jang'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik modelining mohiyatini tushuntirib bering.
10. Jang'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modelining mohiyatini hamda klassik modeldan farqini tushuntirib bering.

### 17-bob. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik

#### Reja:

- 17.1. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari
- 17.2. Iqtisodiy o'sishning omillari
- 17.3. Iqtisodiy o'sish modellari
- 17.4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

#### 17.1. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari

Iqtisodiy o'sish - bu bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvidir.

Iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichning asosiy kamchiliklari

mahsulot sifatining e'tiborga olinmasligi

soliq sur'ovonligini belgilay olinmasligi


o'tiruv muhitidagi o'zgarishlar-ni hisobga olinmasligi

ishlab chiqarishning inson salomatligi-ga ta'sirini hisobga olinmasligi

**O'zbekistonda yaim va iqtisodiyot tarmoqlarida mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, % da**

Yillar	YAIM					Investi-siyalar
	Y	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Xizmatlar	X <sub>1</sub>	
2000	103,8	101,3	103,1	105,4	X <sub>1</sub>	101,0
2005	107,0	103,8	105,4	107,6	X <sub>2</sub>	105,7
2006	107,5	106,2	106,7	107,8	X <sub>3</sub>	106,1
2007	109,5	106,6	106,1	112,5	X <sub>4</sub>	106,7
2008	109,0	106,8	104,5	112,3	X <sub>5</sub>	107,4
2009	108,1	104,1	105,8	106,8	X <sub>6</sub>	108,2
2010	108,5	106,0	106,9	111,0	X <sub>7</sub>	108,7
2011	108,3	104,0	106,6	111,4	X <sub>8</sub>	108,5
2012	108,2	105,3	107,2	109,3	X <sub>9</sub>	107,9
2013	108,0	107,0	106,9	107,8	X <sub>10</sub>	108,3
2014	108,0	105,5	107,0	108,5	X <sub>11</sub>	109,1
2015	107,9	105,4	106,8	108,4	X <sub>12</sub>	109,6
2016	107,8	105,0	106,6	109,3	X <sub>13</sub>	107,7
2017	105,3	107,0	102,0	108,9	X <sub>14</sub>	107,1
2018	105,1	110,2	100,3	105,3	X <sub>15</sub>	106,8

**O'zbekistonda Yaimning o'sish sur'atlari**



Iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'lchovida quyidagicha o'z ifodasini topadi.

$$O'S = \frac{Yaim_{joriy davr} - Yaim_{hozir davr}}{Yaim_{hozir davr}} \times 100\%$$


bu yerda:

O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda;

Yaim hozir davr – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real Yaim hajmi;

Yaim joriy davr – joriy davr (yil)dagi real Yaim hajmi.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan Yaim hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, muvohiqatimizdagi o'sish sur'atining 7,7% darajasida Yaimni 2 baravar oshirish uchun 9,1 yil talab etiladi (70:7,7). Xolbuki, iqtisodiy o'sishning 2000 yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yomonda oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqartirishga olib keladi.



Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonaga bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi ko'pchilik hadda o'shadi o'shanda yana bir korxonaga quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqdolarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifati jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potentsialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxonaga qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurilantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.


**Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:**


- YalMI va milliy daromadning mulloq hajmi va uning o'sish sur'ati;
- YalMI va milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;
- YalMI va milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajalari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:**

- ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;
- xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi
- ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat
- inmehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tasliki etilishi, ixtisoslashirilishi va kooperatsiyasi


**17.2. Iqtisodiy o'sishning omillari**





Real mahsulot g'ishtini aniqlab beruvchi omillar.

**Ushbu ko'rsatkichlarning ijobiy va salbiy tomonlari**



- VAI ni mulohazalar va uning o'zgarishi:
- Ushbu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiy salohiyatini aniqlashda yordam beradi.
- VAI ning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'zgarishi:
- Bu ko'rsatkich mamlakat va mintaqalardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.
- VAI ning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'zgarishi:
- Ushbu ko'rsatkichdan iqtisodiy samaradorlikni baholashda foydalaniladi.

**17.3. Iqtisodiy o'sish modellari**

Iqtisodiy o'sishning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellari yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-biridan farqlanadigan, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda neoklassik nazariya namoyondalari quyidagi noto'g'ri nazariyalar asoslanadi:

- 1) mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;
- 2) ishlab chiqarish omillarining har biri o'zining keyingi qo'shilgan mahsulotiga tegishli ravishda mahsulot qiymatini yaratishga hissasini qo'shadi. Shunga ko'ra, bunga javoban barcha keyingi qo'shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;
- 3) mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo'lgan resurslar o'rtasida miqdoriy bog'liqlik mavjud;
- 4) ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilishi hamda ular o'rtasida o'zaro bir-birining o'rtasida bosish imkoniyati mavjud.

Neoklassik model' ko'p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P. Duglas va matematik Ch. Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Kobb-Duglas modeli orqali ishlab chiqarish hajmining o'zgarishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilindi, u quyidagicha ifodalanaadi:

$$Y = AK^\alpha L^\beta$$

- bu yerda:  
 Y – ishlab chiqarish hajmi;  
 K – kapital sarflari;  
 L – ishchi kuchi sarflari;  
 A,  $\alpha$ ,  $\beta$  - ishlab chiqarish funksiyasining koefitsientlari:

Keyinchalik Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini golland iqtisodchisi Yan Tinbergen yanada takomillashdirib, unga yangi omil – texnika taraqqiyoti ko'rsatkichini kiritdi. Natijada ishlab chiqarish funksiyasi formulasi quyidagi ko'rinishni oldi:

$$Y = AK^\alpha L^\beta e^{\gamma t}$$

Bu yerda:  $e^{\gamma t}$  – vaqt omili.

Ch. Kobb va P. Duglas o'z tadqiqotlarida AQSH qayta ishlash sanoatining 1899-1922 yillar mobaynida ish faoliyatini tahlil qilib, ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

$$Y = 1,01 \times K^{0,25} \times L^{0,75}$$

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSH qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1%ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini 0,25%ga, ishchi kuchi sarflarining 1%ga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75%ga oshishiga olib kelar ekan.

Ch. Kobb va P. Duglas o'z tadqiqotlarida 1899-1922 yillar mobaynida ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

$$Y = 1,01 \times K^{0,25} \times L^{0,75}$$

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSH qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1%ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini 0,25%ga, ishchi kuchi sarflarining 1%ga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75%ga oshishiga olib kelar ekan.

Iqtisodiy o'zgarishning keyingi bosqichida ko'rsatkichlar nazariyasini rivojlantirish natijasida quyidagi yondoshish natijasida omil R. Xarrod va amerikalik iqtisodchisi Ye. Domaring iqtisodiy o'zgarishlar nazariyasini ishlab chiqarish funksiyasiga qo'shish shart qilib qo'yiladi.

**Pol daromadning qo'shimcha o'zgarishi (talab)**

Bu tenglikni formula tarzida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta V = \sigma \times \Delta a,$$

bu yerda:

1 – har yillik sof kapital qo'yilishining o'zgarishi;

$\Delta V$  – sof kapital qo'yilmalarining o'zgarish sur'ati;

$\Delta a$  – sof kapital qo'yilmalarining o'zgarish sur'ati;

$1/a$  – multiplikator, bu yerda  $1/a$  o'zgarishga bog'langan o'rtacha ko'rsatkich;

$\sigma$  – kapital sun'iylik.

Iqtisodiy muvozanatning muvofiq yondoshish natijasida omil R. Xarrod va amerikalik iqtisodchisi Ye. Domaring iqtisodiy o'zgarishlar nazariyasini ishlab chiqarish funksiyasiga qo'shish shart qilib qo'yiladi.

**Ishlab chiqarish natijalarining qo'shimcha o'zgarishi (taklif)**

Bu tenglikni formula tarzida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta V = \sigma \times \Delta a,$$

bu yerda:

1 – har yillik sof kapital qo'yilishining o'zgarishi;

$\Delta V$  – sof kapital qo'yilmalarining o'zgarish sur'ati;

$\Delta a$  – sof kapital qo'yilmalarining o'zgarish sur'ati;


$1/a$  – multiplikator, bu yerda  $1/a$  o'zgarishga bog'langan o'rtacha ko'rsatkich;

$\sigma$  – kapital sun'iylik.



17.4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

*Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy, intellektual va tabiiy boyliklardan iboratdir.*



Moddiy-buyumlashgan boylikning tarkibiy qismlari

ishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlar).

notislab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlar).


aylanma kapital (fondlar).

tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi.

moddiy zahiralalar va ehtiyotlar.

aholining uy, tomorqa va yordamchi xo'jaligida jamg'arilgan mol-mulk.

Moddiy-buyumlashgan boylikning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar



Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi.

Moddiy-buyumlashgan boylikning o'sishi jamiyat moddiy qimmatliklari ko'payishining asosi hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlanasa madaniyat, san'at, fan kabi nomoddiy sohalar ham o'sib va takomillashib boradi.

Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga jamiyatning nomoddiy tavsifdagi qimmatliklarini ham oladi.

## Xulosalar

1. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va ziddiyati jarayon hisoblanib, u asosan iqtisodiy o'sishda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanaadi.

2. Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 miqdori qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YALM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi.

3. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari mavjud. Ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi orqali o'sish ekstensiv iqtisodiy o'sish deyiladi. Ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potentsialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish intensiv iqtisodiy o'sish deyiladi.

4. Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: taklif omillari va taqsimlash omillari. Taklif omillariga tabiiy resurslarning miqdori va sifati; mehnat resurslari miqdori va sifati; asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi; texnologiya va fan-texnika taraqqiyotini kiritish mumkin. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlashga xizmat qiluvchi omillar taqsimlash omillari deyiladi.

5. Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turlari iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy

nuvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

6. Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Iqtisodiy rivojlanish** – ko'p qirrali jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

**Iqtisodiy o'sish** – YALM, SMM, MD miqdorining mutlaq hajmi va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanaadi.

**Iqtisodiy o'sish mezonlari** – iqtisodiy o'sishni nisbatan to'liq darajada baholash imkonini beradigan ko'rsatkichni xarakterlaydi.

**Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari** – iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sish** – ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

**Intensiv iqtisodiy o'sish** – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

**Iqtisodiy o'sish omillari** – iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishda o'z o'rniga ega bo'lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

**Milliy boylik** – insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiiy omillari.

**Moddiy-buyumlashgan boylik** – milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan mahyoviy – buyum ko'rinishga ega bo'lgan qismi.

**Tabiiy boylik** – milliy boylikning tabiatda mavjud bo'lib, insoniyat tomonidan foydalanishga jalb qilingan tabiiy ashyolari va kuchlari (er, qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va boshqalar).

**Ma'naviy boylik** – ashyoviy–buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan nomoddiy boyliklardan va insoniyatning intellektual salohiyati natijalaridan iborat.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalarining ta'rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.
2. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi?
3. Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o'sish turlari uchramaydi?
4. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishining sanaradorligiga baho berishda iqtisodiy o'sishning qanday ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
5. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi taklif, taqsimlash va talab omillarini tushuntiring hamda ularning ahamiyatini baholang.
6. Milliy boylik tushunchasining ta'rifini bering va tarkibiy tuzilishini ko'rsating.
7. Milliy boylik tarkibida moddiy–buyumlashgan boylik qanday o'ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi?
8. Nima uchun er, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o'lchovida baholab, milliy boylik tarkibiga kiritish mumkin emas?
9. Madaniy, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklarining milliy boylik tarkibida aks etishini qanday izohlaymiz? Ularning har biriga misollar keltiring.

## 18-bob. Milliy iqtisodiyotning muvozanati va nisbatlari

### Reja:


18.1. Iqtisodiy muvozanat, uni ta'minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari

18.2. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari


18.3. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdagi vazifalar

18.1. Iqtisodiy muvozanat, uni ta'minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari

Iqtisodiy muvozanat deb iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir nechta tomonining bir-biriga teng kelgan holatiga aytiladi. Shuning uchun ham butun iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap bo'lganda eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik e'tiborga olinadi.



### Iqtisodiy muvozanatning asosiy turlari




### *Hususiy muvozanat*

ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi muvozanat

aholining sotib olish layoqati va tovar taklif o'rtasidagi muvozanat

byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat

aholida tovarlarga talab va taklif o'rtasidagi muvozanat



Umumiy iqtisodiy muvozanatga erishish uchun yaratilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlar

*ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarining mos kelishi*

*ma'makatidagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo'jalik mexanizmlarining mavjud bo'lishi*

*muvozanatli ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi*

*asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hokozolar)da talab va taklif muvozanatiga erishishi*

**Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash usullari**

Yalpi sarriflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli

Bunda ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdoriy ko'rsatkichi sifatida sof ichki mahsulot (sim) iqtisodiyot bo'yicha yalpi sarriflarga ya'ni iste'mol hajmi va sof investitsiya sarriflari summasiga taqqoslanadi.

Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli

Bunda iqtisodiyot sub'ektlari tomonidan jamg'arilgan mablag'lar miqdori ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalari qo'yilgan investitsiyalar hajmi bilan taqqoslanadi.

### **18.2. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari**

**Iqtisodiy mutanosiblik** – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir. Bunda tenglik bo'lishi shart emas. Ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 2:3, 5:3, 3:1) bo'lishi mumkin.

#### *Iqtisodiy mutanosiblik turlari*

umumiy iqtisodiy mutanosiblik

turmonoqlararo mutanosiblik

turmonoq ichidagi mutanosiblik

hududiy mutanosiblik

davlatlararo mutanosiblik

Umumiy iqtisodiy mutanosiblik

*Bunga milliy daromadagi tarkibiy qismlar o'rtasidagi mutanosiblik kiradi*

iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi mutanosiblik

tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi mutanosiblik

aholining pul daromadlari bilan xarajalar o'rtasidagi mutanosiblik

**Tarmoqlararo mutanosibliklar.** Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar alohida o'rin tutadi. Mamlakat xalq xo'jaligi juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-birini taqozo qiladi. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar. Tarmoqlararo mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlik tarmoqlar ichidagi mutanosiblik organi ta'minlanadi. Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

**Hududiy (territorial) mutanosibliklar.** Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlikni ham taqozo qiladi. Yuzaki qaraganda hududlar o'rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidagi roli to'liq namoyon bo'lmaydi.



**Davlatlararo mutanosibliklar.** Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. Birinchidan, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti organi bir-biri bilan bog'langan, ikkinchidan, shu bog'liqlik organi milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliklar tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobiga qondiradi.

Qarab chiqilgan mutanosibliklarga erishish organi milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojini ta'minlab borishdan quyidagilar ko'zda tutiladi:

- mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanган holda jamiyatning ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish;
- to'la bandlilikka erishish, ya'ni mehnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni xohlaganlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash;
- narx-navoning nisbiy bargavorligiga erishish va uni infflyasiya ta'siridan xoli qilish;
- iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini yetarli darajada investisiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish;
- eksport va importni muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining faolligiga erishish.

**18.3. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdagi vazifalar**

*Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi – iqtisodiyotning turi qism va bo'laklari o'rtasidagi proporsiyalar va o'zaro nisbatlardir.*



Davlatning tarkibiy o'zgarishlar siyosati - bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan choralar-tadbirlar majmuidir.

**1** *mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini ko'rsatish;*

**2** *tashtqi bozorlardagi kon yunktura o'zgarishlariga kam ta'sirchan bo'lgan tarmoqlar va sohalarning yulim va bandlikdagi ulashning yuqori do'lishini ta'minlash;*

**3** *tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek eksport qiluvchi korxonalar va tarmoqlarning xom ashyo va buyrovchi qismlar bilan ta'minlanishida mahalliy korxonalar ulashining ustunligiga erishish;*

**4** *kon yunktura o'zgarishlariga tez moslashuvchan, kapital-sig'inishi past bo'lgan sohalar va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'ini oshirish.*

Yillar	Yalpi	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Xizmatlar	Investitsiyalar
2000	103,8	101,3	103,1	105,4	101,0
2005	107,0	103,8	105,4	107,6	105,7
2006	107,5	106,2	106,7	107,8	106,1
2007	109,5	106,6	106,1	112,5	106,7
2008	109,0	106,8	104,5	112,3	107,4
2009	108,1	104,1	105,8	106,8	108,2
2010	108,5	106,0	106,9	111,0	108,7
2011	108,3	104,0	106,6	111,4	108,5
2012	108,2	105,3	107,2	109,3	107,9
2013	108,0	107,0	106,9	107,8	108,3
2014	108,0	105,5	107,0	108,5	109,1
2015	107,9	105,4	106,8	108,4	109,6
2016	107,8	105,0	106,6	109,3	107,7
2017	105,3	107,0	102,0	108,9	107,1
2018	105,1	110,2	100,3	105,3	106,8

**Xulosalar**

1. Iqtisodiy muvozanat deb bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda va ta'sirda amal qiladigan iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelgan holatiga aytiladi. SHuning uchun ham butun iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap borganda eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik e'tiborga olinadi.

2. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanat o'z ichiga xususiy va umumiy investitsiyalarning bir qator muvozanatlar tizimini oladi. Xususiy muvozanat – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi. Umumiy muvozanat jamiyat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o'zaro teng kelishini bildiradi. Umumiy iqtisodiy muvozanat bozor sharoitida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning teng kelishida ko'rinadi.

3. Umumiy iqtisodiy muvozanat ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishi; mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo'jalik mexanizmi; muvozanatli ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi; bozor muvozanati, ya'ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hokazolar)da talab va taklif muvozanati kabi qator shart-sharoitlarni taqozo etadi.

4. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashda, asosan, ikkita o'zaro bog'liq muqobilan foydalaniladi: 1) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli; 2) jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli. SHuningdek, iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning balans, xarajat va natijalarni taqqoslash kabi usullari ham qo'llaniladi.

5. Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik, mos keluvchi nisbatlar bo'lib, bunda tenglik bo'lishi shart emas.

6. Iqtisodiy mutanosibliklarning barchasini umumlashtirib umumiy iqtisodiy muvozanat mutanosibliklari; tarmoqlararo mutanosibliklar; tarmoq ichidagi mutanosibliklar; hududiy (territorial) mutanosibliklar; davlatlararo mutanosibliklarga guruhlash mumkin.

### Asosiy tayanich tushunchalar

Iqtisodiy muvozanat – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir nechta tomonining bir-biriga mos kelish holati.

Xususiy muvozanat – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.

Umumiy muvozanat – iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir nechta tomonining, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning bir-biriga teng kelgan holati.

Retssession farq – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan kam bo'lgan miqdori.

Inflyasion farq – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori.

Multiplikator samarasi – bu sof milliy mahsulotdagi o'zgarishning yalpi sarflardagi o'zgarishga nisbati.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat o'lchamlarining mos kelishlik darajasi.

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy muvozanat, xususiy va umumiy muvozanatlarga tavsif bering. Ularga misollar keltiring.

2. Quyidagi ikki usul, ya'ni: a) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli; b) jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli yordamida muvozanatli SMM grafikda qanday aniqlanishini tushuntiring.

3. Multiplikator samarasi nima? Investitsion sarflarning o'zgarishi va multiplikator miqdori o'rtasidagi bog'liqlik qanday?

4. Agar jamg'armaga o'rtacha moyillik 0; 0,4; 0,6 ga teng bo'lsa, multiplikator qanday bo'ladi? Agar tadbirkor investitsiyalari darajasini 8 mln so'mga ko'paytira, iste'molga o'rtacha moyillik esa 4/5 ga teng bo'lsa, SMM qanday o'zgaradi?

5. Akselerator samarasi nima va u iqtisodiy muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

6. Avtonom va hosilaviy investitsiyalarning farqi nimada? Ularga ta'sir etuvchi omillar ham farqlanadimi?

7. Milliy iqtisodiyotning muvozanat darajasiga erishishda xususiy mulkioshibliklarning roli qanday?

8. Mutanosiblikning qanday turlarini bilasiz? Ularga qisqacha ta'rif bering.

9. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday?

10. Respublikada iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishlarni qaysi yo'llarda amalga oshirish ko'zda tutilgan?

## 19-bob. Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy begarorlik

### Reja:

- 19.1. Makroiqtisodiy begarorlik va iqtisodiyotning siklliligi
- 19.2. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Sikllarning asosiy turlari
- 19.3. Inqirozlarning mazmuni va turlari
- 19.4. Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari

### 19.1. Makroiqtisodiy begarorlik va iqtisodiyotning siklliligi

**Iqtisodiy sikl** – ishlab chiqarish hajmi, bandlilik va inflyasiya darajasidagi davriy tebranishlardir.

Sikl davomiyligi bo'yicha bir inqirozdan ikkinchi inqiroz boshlanguncha o'tgan davrdan iborat bo'ladi.

#### Siklni keltirib chiqaruvchi sabablar

- takror ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklar;
- talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklar;
- yalpi sarflar darajasining o'zgarishi (o'z navbatida bu sarflar hajmini ishlab chiqarish va bandlik darajasi belgilab beradi).
- investitsiyalar hajmining davriy kamayishi
- pul massasi hajmining tebranishi
- asosiy kapitalning yangilanishi
- mulplikator samarasining kuchsizlanishi va boshqalar

Iqtisodiy siklning kelib chiqishini faqat tashqi yoki faqat ichki omillarga bog'lovchi qarashlar mavjud bo'lib, ular fanda **eksternal** va **internal** nazariyalar deb nomlanadi

**Eksternal nazariyada** tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy xodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi.

- Ularning asosiy lari quyidagilar:
- urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzarlar
  - oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarning ochilishi
  - yangi xududlarning ochilishi va u bilan bog'liq ravishda axoli mig-rasiyasi xanda er shari axolisi sonining o'zgarib turishi
  - ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovasiyalardagi qudratli o'zgarishlar

**Internal nazariya** siklli rivojlanishga iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillari sabab deb xisoblaydi.

Bu omillar quyidagilar:

- ❖ asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati;
- ❖ shaxsiy iste'molning o'zgarishi;
- ❖ ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish o'rinlarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan investision mablag'lar hajmi;
- ❖ ishlab chiqarish va talab hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati

Uchinchi guruh iqtisodchilar iqtisodiyotning siklli rivojlanishiga sof ichki yoki tashqi omillarni emas, balki ularning xar ikkisinining turlicha kombinatsiyalashgan variantlari ta'sir qilishini ko'rsatishadi.



## 19.2. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Sikllarning asosiy turlari

### Sikl to'g'risidagi nazariyalar

**Kitchin sikli** (2-4 yil) zaxiralar sikli deb nomlanadi. Bu sikl iste'mol tovarlariga bo'lgan bozor talabi va taklif muvozanatining buzilishi va tiklanishi tarzida yuz beradi. J. Kitchin bu siklni zaxiralar, bank kliningi (ing. clearing – naqd pulsiz xisob-kitob tizimi) va ulgurji narxlar o'zgarishining yalpi milliy mahsulot o'zgarishiga olib kelishi bilan bog'laydi. Kitchin iqtisodiyotdagi 2-4 yildagi sikl o'zgarishini moliyaviy xisobotlar va sotish narxining o'zgarishi asosida aniqlagan.

**Juglyar sikli** (biznes sikli, sanoat sikli, o'rtacha sikl va katta sikl deb xam nomlanadi (7-11 yil). Bu sikl Fransiya, Angliya va AQSHda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarning asosiy sabablarini taxli qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta xisssa qo'shgan K. Juglyar (1819-1905yy.) nomi bilan ataladi.

Bu sikl qisqa muddatli sikldan fagat muddati bilan emas, namoyon bo'lishi, xarakteri bilan xam farq qiladi. U fagat milliy iqtisodiyotiga emas, jaxon iqtisodiyoti dinamikasini xam ifodalaydi. Uning aloxida qismlari siklning fazlari tarzida ajratiladi.

**Kuznes sikli** – («qurilish sikli» deb xam nomlanadi). S.Kuznes milliy daromad, iste'mol sarflari va ishlab chiqarish maqsadidagi yalpi investitsiyalarda 20 yillik davrda o'zaro bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini aniqlagan.

**Kondratev sikli** («uzoq to'liqlar» sikli deb xam nomlanadi). Rus olimi N.D Kondratev Angliya, Fransiya va AQSHning 100-150 yildagi rivojlanishidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rta darajasini umumlashtirib bir qator katta sikllarni ajratib ko'rsatadi.

U o'z tadqiqotini tovar narxlar, procent stavkasi, remta, ish xaqi, eng zarur mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi o'zgarishi asosida olib bordi. U bir uzun to'liqning boshqasi bilan almashuvini ishlab chiqarishni bir texnologik usuldan ikkinchisiga o'tishi, ish kuchining sifati jixadan o'zgarishi, ta'limning o'zgarishi, tashkiliy iqtisodiy munosabatlarda tub o'zgarishlar, boshqarishda tarkibiy revolyusiyaga yuz bershini bilan izoxlaydi.


Katta sikl iqtisodiyotda tub burilish yuz bershini, fan-texnikadagi buyuk kashfiyotlarning ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida muttlaqo yangi texnologiyalarning kiritilishi bilan ajralib turadi.

Kondratev siklining davomiyligi o'rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi. Katta sikllarning tebranish davri.

- 1 - to'liqin 1772-1783 yillardagi depressiyadan 1812-1825 yildagi beqarorlikkacha;
- 2 - to'liqin 1825-1838 yillardagi depressiyadan 1866-1873 yillardagi beqarorlikkacha;
- 3 - to'liqin 1873-1885 yillardagi depressiyadan 1913-1929 yillardagi beqarorlikkacha;
- 4 - to'liqin 1929-1938 yillardagi depressiyadan 1966-1974 yillardagi beqarorlikkacha;
- 5 - to'liqin 1974-1982 yillardagi depressiyadan boshlangan. iqtisodchilarning fikricha 2010 yillargacha davom etishi va 2010-2015 yillardan yangi 6 - to'liqin boshlanishi mumkin deb taxmin qilingan edi. U bir-muncha oldinroq 2008 yilda boshlandi




Siklning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti xamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishidir. Jumladan u birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyusiyasi, ikkinchisini - temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektroenergiya, telefon va radioning kashf etilishi, to'rtinchisini avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog'laydi.

Xozirgi zamon olimlari beshinchi – siklni elektronika, gen injenerligi, mikroprosessolar va boshqalarni rivojlanishi bilan bog'lashadi.



**Iqtisodiy sikl va uning fazalari**

**Iqtisodiy faollik, YAIM**



**19.3. Inqirozlarning mazmuni va turlari**

Inqiroz fazasida ishlab chiqarish va bandlilik qisqaradi, ammo narxlar pasayish imkoniyatiga berilmaydi. Bu fazaning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik o'zining eng past darajasiga tushib ketishi orqali tavsiflanadi. Shunga ko'ra, **iqtisodiy inqiroz** deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi va unga quyidagilar sabab bo'ladi:

- **inqiroz ishlab chiqarishdagi beqarorlik**
- **ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanasiblik**
- **ishlab chiqarish bilan isre' mo'ljning bir-biriga mos kelmasligi**
- **ishlab va taklif o'rtasidagi muvotannaning buzilishi**

### Inqirozlar turlari

xo'jalik tizimida muvozanatning buzilishi miqyosiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> <li>• umumiy inqiroz</li> <li>• ayrim sohalardagi inqiroz</li> </ul>
iqtsodiyotdagi muvozanatning buzilishiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> <li>• davriy inqiroz</li> <li>• ortaliq inqiroz</li> <li>• nomuntazam inqiroz</li> </ul>
takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi tavsifiga ko'ra	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi</li> <li>• taqchil ishlab chiqarish inqirozi</li> </ul>

### Ayrim sohalardagi inqiroz

pul-kredit sohasidagi inqiroz	• mamlakatda pul-kredit tizimining tang ahvoriga tushishi bo'lib, bunda fitorvi va bank krediti qisqaradi.
valyuta inqirozi	• bunda milliy valyutaning obro'si tushib ketadi. Bankda valyuta zahirasi tugab, milliy valyuta kursi tushib ketadi.
birqa inqirozi	• bu tanglik fond birligari faoliyatidagi chuqur ushkinlikda ifodalanadi.
ekologik inqiroz	• atrof-muhitni eng avvalo inson sog'lig'ini yo'qotish, uningni qisqartirishga olib kelayotgan darajada valyutani vujudga keltishda ifodalanaadi.
tarmoqlar inqirozi	• bu ma'lum bir tarmoqni qamrab, ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi yoki normal xo'jalik aloqalarining buzilishi tugayil yuz beradi.
tarkibiy inqirozlar	• bu inqirozlarni ishlab chiqarishning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomuntazosbliklar keltirib chiqaradi.
agrar inqiroz	• bu qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlaridir.

Iqtisodiy inqirozlar oqibatida ancha yuqori darajada yo'qotishga uchrataydigan tarmoqlar va axoli gatlamlari.

- ❖ ishlab chiqarish vositalari (investition tovarlar) ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari;
- ❖ qurilish (uy-joy va ishlab chiqarish ob'ektlari qurilishi);
- ❖ uzoq muddat foydalaniadigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar;
- ❖ doimiy, bir xil miqdorda daromad oluvchi iste'molchilar.

Barcha ko'rsatkichlar mutlaq va nisbiy miqdorlarining o'zgarishi orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy inqiroz oqibatlaridan kamroq yo'qotishga uchrataydigan tarmoqlar va axoli gatlamlari.

- kundalik iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar va soxalar;
- iqtisodiyotning nisbatan monopoli mavqega ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi tarmoqlari;
- miqdori qayd qilinmagan yuqori daromad oluvchilar.


Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari

Tarkibiy inqirozlarni iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va soxalari rivojlanishidagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar xanda nomuntazosbliklar keltirib chiqaradi.

Tarkibiy o'zgarishlarning kelib chiqishini taqozo qiluvchi omillar

- fan-texnika taraqqiyoti
- talab va uning tarkibidagi o'zgarishlar

**Agrar inqirozlar qishloq xo'jaligida ro'y beradigan iqtisodiy inqirozlaridir**



**19.4. Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqishi sabablari va salbiy oqibatlari**

Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik xolatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi

**Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning tahlili asosida chiqarilgan xulosalar**

- ❖ Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, resessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarli, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo xajmining kamayishi, shuningdek, jaxsonning ko'plab mamlakatlarga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy jifimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdiq'ini topmoqda.
- ❖ Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jaxon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan islox qilish zarurligini ko'rsatdi.
- ❖ Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaxo qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo'qligini xam tasdiqladi.
- ❖ Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning xar qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lamini va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jixatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi.
- ❖ To'rtinchidan, jaxon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini engillashtirish ko'p jixatdan xar qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo xamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

**Jaxon moliyaviy inqirozi kelib chiqishining qo'shimcha sabablari:**

- yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida davlat byudjeti taqchilligi va salbiy tashqi savdo balansiga ega bo'lishi;
- davlat tashqi qarzi miqdorining YAIMga nisbatan o'sish sur'atlarining kuchayishi;
- norishtonial pul-kredit siyosati xanda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab tutilishi natijasida qarzga yashash odatiga va kundalik xotajga aylanishi;
- ipoteka kreditlari berish talablarning asossiz bo'shshirib yuborilganligi va uy-joy bozorida narxlarining qisqa muddat ichida keskin o'sishi;
- moliyaviy institutlarning majburiyatlarga nisbatan ustav mablag'larini mutanosibligini keskin buzilishi;
- qimmatbaxo qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;
- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;
- moliyaviy rag'batlantirish uslubini sifati real ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;
- yuqori riskli va murakkab xosilaviy qimmatbaxo qog'ozlarning vujudga kelishi.

**Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning xolati va oqibatlari**

1. Moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, resessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarli, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo xajmining kamayishi, shuningdek, jaxsonning ko'plab mamlakatlarga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy jifimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdiq'ini topmoqda.
2. Avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jaxon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan islox qilish zarurligini ko'rsatdi.

Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaxo qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada na-zorat yo'qligini xam tasdiqladi.

## Xulosalar

1. Iqtisodiyssiki deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlab, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o'tib, o'zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o'tgan davr tushuniladi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati birssiki bilan to'xtab qolmaydi, balki u to'xtovsiz to'liqsimon harakat sifatida davom etadi.

2. Iqtisodiyssiki maxsus fazalar orqali amalga oshadi. Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Odatda iqtisodiyssikning inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish fazalari ajratib ko'rsatiladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jarayonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.

3. Iqtisodiyssiklarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb atash qabul qilingan.

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi, ya'ni: urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar; oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi; yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi, er shari aholisi sonining o'zgarib turishi; ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalaridagi qudratli o'zgarishlar.

4. Internal nazariya iqtisodiyssiklarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillari tug'diradi deb hisoblaydi va quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi: asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati; shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi); investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'natiriladigan mablag'lar hajmi; ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi.

5. Iqtisodiyotningssiklil rivojlanishi sabablarini izohlashda shuningdek so'f monetar nazariya, nomonetar nazariya, etarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi, jamg'arish nazariyasi, psixologik nazariya kabilar ham ilgari suriladi.

6. Hozirgi zamon iqtisodiy fanida iqtisodiyssiklning 1380 dan ortiq turlari mavjudligi ta'kidlanadi. Ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan eng asosiy turlari sifatida Kitchin, Juglar, Kuznets, Kondratyevssikllarni keltirish mumkin.

7. Iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi. Inqirozlar turli-tuman tarzda ro'y bersada, ularni umumiy, o'xshash tomonlarini nazarda tutib, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: xo'jalik tizimida muvozanatning buzilishi miqyosiga ko'ra umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan inqirozlar; iqtisodiyotda muvozanatning buzilishini muntazam yoki aksincha tarzda yuz berishiga ko'ra davriy, oraliq, nomuntazam inqirozlar; takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi tavsifiga ko'ra ortiqcha ishlab chiqarish va inqichni ishlab chiqarish inqirozlari.

8. 2008 yilda dastlab AQSH ipoteka bozorlarida namoyon bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi etarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y berdi.

9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining asosiy sabablari bo'lib rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosati, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotiga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvining cheklanganligi; moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi; noratsional pul-kredit siyosatining, hamda qayta moliyalash atavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turlishi natijasida qarzga yotishning odatga va kundalik holatga aylanishi; moliyaviy institutlarning muqbariyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi; qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi va boshqalar hisoblanadi.

10. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlardagiga qaraganda mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan

chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarining yopilishi orqali namoyon bo'lsa, O'zbekistonda inqirozning iqtisodiyotga ta'siri jahon xomashyo bozorlarida eksport mahsulotlariga talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport daromadlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlar xarid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylannasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

11. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligi quyidagi yumshatuvchi omillarining mavjudligi bilan izohlanadi: ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lining tanlanganligi; davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligining aniq belgilab olinganligi; O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zaxiralari yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi; oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi; aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chorra-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi; davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechoqliq barqaror va ishonchli ekanligi, ularning himoya mexanizmlarining qanchalik kuchiligi.

#### Asosiy tayanach tushunchalar

**Iqtisodiy inqiroz** – ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishi.

**Iqtisodiyssikl** – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'liqsimon harakati.

**Turg'unlik (depressiya)** – ishlab chiqarishning bir joyda deppsinib turishini anglatuvchi hamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiyssikl fazasi.

**Jonlanish** – iqtisodiyssiklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o'tishini tavsiflovchi fazasi.

**Yuksalish** – iqtisodiyssiklning iqtisodiyotda to'liq bandlikka erishi, ishlab chiqarishning inqirozdan oldingi darajadan ham ortib ketishi va to'lovga loyiqqali talabning kengayib borishini tavsiflovchi fazasi.

**Tarkibiy inqirozlar** – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.

**Agrar inqirozlar** – qishloq xo'jaligida ro'y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo'lib, ssikli tavsifga ega bo'lmaydi va sanoatssikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishishning qanday yo'llari mavjud?
2. Iqtisodiy inqirozlar mohiyati nimada ifodalanadi?
3. Iqtisodiyssikl bo'yicha qanday nazariyalar mavjud? Eksternal va internal muvaziyalarning farqi nimada?
4. Iqtisodiyssiklning ta'rifi bering va uning har bir fazasining o'ziga xos belgilarini ko'rsating.
5. Iqtisodiyssikllarning asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko'rsating.
6. Iqtisodiyssiklning oqibatlarini baholang.
7. Inqirozlarning umumiy jihatlarga ko'ra qanday guruhlarga ajratish mumkin?
8. Tarkibiy inqirozlarni tushuntirish ssiklili tebranishlar vujudga kelishining muhoblarni ko'rsating.
9. Agrar inqirozlarning xususiyatlarini bayon qiling.
10. Oritqecha va taqchil ishlab chiqarish inqirozlarining kelib chiqish muhoblarni ko'rsating va o'zaro taqqoslang. Ushbu inqirozlarni bartaraf etish chorra-tadbirlaridagi farqlarni bayon eting.
11. 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi vujudga kelishining asosiy sabablarni tushuntirib bering.

12. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmuni va ko'lamlari to'g'risida jahonning etakchi ekspert va tahlil markazlari tomonidan qanday xulosalar chiqarildi?

13. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining rivojlangan mamlakatlarga ta'sir yo'nalishlari va darajasini tavsiflang.

14. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri nimalarda namoyon bo'ldi? Uning ta'sir oqibatlarini yumshatuvchi omillarni izohlab bering.

## 20-bob. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik

Reja:

- 20.1. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari
- 20.2. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va uning taklifi nisbati
- 20.3. Ishchi kuchi bandligi to'g'risidagi turli konsepsiyalar sharti
- 20.4. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash
- 20.5. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

### 20.1. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari

**Ishchi kuchi** – bu insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Jamiyatning milliy mahsuloti hisobiga ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillariga emas, balki shaxsiy omili, ya'ni ishchi kuchi ham takror ishlab chiqariladi

Ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonini tadqiq etish uning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnat faoliyatiga layoqati bo'lgan qismini orqali ifodalaniib, u **ishchi kuchi resurslari** deb ham ataladi.

Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezoni bo'lib uning yoshi va mehnatga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi. Odatda ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa sohalarida band bo'lgan pensionerlar ham ishlashi mumkin.

Ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismini farqlanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan shaxslar ishchi kuchi resurslarining faol qismini hisoblanasa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va vaqtinchalik uy xo'jaligida band bo'lganlar **potensial qismini** hisoblanadi.

**Mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari miqdoriga ta'sir qiluvchi**

**aholining tabiiy o'sishi**

**Ishchi kuchi migratsiyasi**

Ishchi kuchi migratsiyasi - bu turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishidir.

uning turlari

**Ichki migratsiya**

*\* bu bir mamlakat ichidagi migratsiya*

**Xalqaro migratsiya**


*\* bu xalqaro miqdarda ro'y beradigan migratsiya*

**Ichki migratsiyaning asosiy shakllari**

tugal migratsiya	<i>* bu aholining doimiy yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq migratsiya;</i>
tebranuvchi migratsiya	<i>* bu ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnashishi bilan bog'liq migratsiya;</i>
ma'vsumiy migratsiya	<i>* bu mavsumiy ish faoliyati bilan bog'liq migratsiya;</i>
tasodifiy migratsiya	<i>* bu ishchi kuchining barcha holatlarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog'liq migratsiya.</i>

**20.2. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va uning taklifi nisbati**

*Ishchi kuchi bozori - bu xo'jalik faoliyati jarayonida "ishchi kuchi" tovarini egalari va uning asosiy iste'molchilari - davlat va tadbirkorlar o'rtasida mehnat sharoitlari va unga haq to'lash miqdorlari, ishchilarning malaka darajasi, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarining hajmi, imensivligi va mas'uliyat darajasi bo'yicha tarkib topuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimidir.*




**Ishchi kuchining qiymati** nafaqat ishchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, balki ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda uning sifatini oshirish jarayonlarini yetarli darajada ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy ne'matlarining jami qiymatini o'z ichiga oladi. Ishchi kuchi qiymati o'zgaruvchan ko'rsatkich bo'lib, u turli omillar ta'sirida oshib yoki pasayib turishi mumkin. Ishchi kuchi qiymatini oshiruvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojlarning ob'ektiv ravishda o'sishi; mehnat intensivligining oshishi; o'qish va kasbiy bilimlar olishga sarflarning ko'payishi va h.k. Ishchi kuchi qiymatini pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib moddiy ishlab chiqarish sohasidagi ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishi hisoblanadi. U ishchi va uning oilasi ehtiyojlarini qondiruvchi hayotiy vositalar qiymatining pasayishiga olib keladi.

**Ishchi kuchi tovarining nafligi** uning kapital egasining foyda olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish layoqati orqali namoyon bo'ladi.



### Filips egri chizig'ining mohiyati



### 20.3. Ishchi kuchi bandligi to'g'risidagi turli konsepsiyalar sharhi

Ishchi kuchining bandligi to'g'risidagi nazariyalar bir-biridan muammoga nisbatan yondoshuv, qo'llanilgan tadqiqot usullari va vositalari jihatidan farqlanadi. Darslik va o'quv qo'llanmalarda ishchi kuchi bandligi bo'yicha neoklassiklar, keynshchilar, monetarizm, institusional-sosiologik va boshqa ilmiy maktab vakillarining qarashlari bayon etiladi

**Neoklassik maktab konsepsiyasi** A.Smitning klassik nazariyasi qoidalari asosida shakllantirilib, D.Gilfer, A.Laffer, M.Feldsteyn, R.Xoll kabi bir qator olimlarning fikr-mulohazalari orqali namoyon bo'ladi. Bu maktab namoyandalari ishchi kuchi bozorini maxsus qonunlariga bo'yusunuvchi aloqalar tizimi sifatida ko'rib chiqib, ular bozor mexanizmi orqali boshqarilishini ta'kidlaydilar. Ish haqi darajasi ishchi kuchining narxi sifatida ko'rsatiladi va unga bo'lgan talab va taklifga ta'sir ko'rsatib, ular o'rtasidagi nisbat va zarur muvozanatni ta'minlaydi. Ishchi kuchining narxi bozor kon'yunkturasi tezlik bilan javob qaytaradi, ya'ni bozordagi talab va taklifning o'sishi yoki kamayishiga qarab o'zgaradi. Shunga ko'ra, ishchi kuchi bozorida taqchilik yoki taklif ortiqchaligi ish haqi darajasini o'zgartirish orqali bartaraf etiladi. Ishchi kuchi bozorining klassik modeli uning o'zini-oz tartibga solish tamoyiliga asoslanadi.

Keynscha maktab vakillari ishchi kuchi bozorini harakatsiz, o'zgarasiz tizim sifatida baholab, unda ishchi kuchining narxi qat'iy belgilangan bo'lishini ta'kidlaydilar. Bandlik va ishsizlik darajasi, ishchi kuchiga bo'lgan talab, real ish haqi darajasi kabi asosiy ko'rsatkichlar ishchi kuchi bozori orqali emas, balki tovar va xizmatlar bozorida samarali talab miqdori orqali belgilanadi. Ishchi kuchi bozorida esa faqat ish haqi darajasi va unga bog'liq bo'lgan ishchi kuchi taklifi miqdori shakllanadi. Biroq ishchi kuchi taklifi amaldagi bandlikning shakllanishida yetakchi rolni o'ynamay, balki faqat uning ish haqining muayyan hajmidagi eng yuqori mumkin bo'lgan darajasini ta'sirlaydi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab yalpi talab, investitsiya va ishlab chiqarish hajmi orqali tartibga solinadi. Ishsizlikning mavjud bo'lishi yalpi samarali talabning yetishmasligi bilan shartlanib, uni byudjet va pul-kredit siyosatining iqtisodiy faollikni oshiruvchi choralar-tadbirlari orqali bartaraf etish mumkin. Davlat yalpi talabni kengaytirish tadbirlarini amalga oshira borib, ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'sishiga imkon yaratadi va buning natijasida bandlikning o'sishi hamda ishsizlikning qisqarishi ro'y beradi.

**Shartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi** (M.Beyli, D.Gordon, K.Azariadis) o'zida neoklassik hamda keynscha taqinlarni uyg'unlashtiruvchi konsepsiya hisoblanadi. Konsepsiya mualliflari, bir tomondan, pul ko'rinishidagi ish haqi qat'iy to'g'risidagi keynscha qoidani qabul qiladilar va ishchi kuchi bozorida mavjudlashuv narxlar (ya'ni, ish haqi) hisobiga emas, balki ishlab chiqarish moddiy hajmi va bandlikning o'zgarishi hisobiga amalga oshirishni ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan, bu qat'iylikning o'z xususiy iqtisodiy manfaatlar ostida harakat qiluvchi individlar harati-harakatidan kelib chiqariladi. Mazkur nazariyaning asosida ta'dirkorlar va ishchilar o'zaro uzoz muddatli shartnoma munosabatlarga kirishishlari to'g'risidagi qoida yotadi. Mazkur shartnoma huquqiy jihatdan taqozo etilgani uchun emas, balki har ikkala tomon uchun ham iqtisodiy jihatdan foydaliligi sababli paydo bo'ladi. Firma ishlab chiqarishning pasayib ketishi davrida mehnatga haq to'lash hajmini kamaytirmaydi, ishlab chiqarishning o'sishi davrida esa malakali ishchilarga ish haqini oshirmaydi. Pul ko'rinishidagi ish haqining o'zgarishi bir tekisda boradi. Ish haqi darajasi individlar harati-harakatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq natijasi sifatida ma'lum me'yorda qat'iy tus oladi.

**Institusional-sosiologik maktab** namoyandalari (T.Veblen, J.Danlop, J.Gelbrey, L.Ulman va boshqalar) ishchi kuchi bandligi borasidagi muammolar turli ko'rinishdagi institusional islohotlar yordamida hal etilishi mumkin, degan qoidaga asoslanadilar. Ular bu muammoning faqat makroiqtisodiy jihatdan tahlili bilan chegaralanmaydilar. Shuningdek, ular ishchi kuchi tarkibi va unga tegishli holda ish haqi darajasidagi jimoiy, kasbiy, tarqoq, yosh, jins, etnik va boshqa tafovutlar ta'sirida ishchi kuchi bozorida vujudga keladigan nomuvofiqliklarni izohlashga harakat qiladilar

Moshavuchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi (R.Buac, G.Stending) 70-yillarning oxirida, nisbatan rivojlangan G'arb mamlakalarida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish amliga oshirib yotgan davrda keng tarqaldi. Uning asosida ishchi kuchi bozorini tartiblasdan voz kechish, bandlikning moshavuchan, funksional jihatdan individuallashtirilgan va nosandart shakllariga (qisman bandlik, to'liq bo'lmagan ish haflasi yoki ish kuni, qisqa muddatli shartnomalar, uyga ish olish va h.k.) o'tishning zarurligi to'g'risidagi qoidalar yotadi. Bunday yondoshuv iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajalarini kamaytirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ishga yollash, ishdan bo'shatish va bandlik shakllarining turli xil va moshavuchanligi, ish vaqtini tartibga solishning moshavuchanligi, ish haqini taqab qabul qilish asosida tartibga solishning moshavuchanligi, ishchilarni ijtimoiy himoyalash usul va shakllari, shuningdek, ishchi kuchi bozoridagi talab va taklifning tebranshiga ishchi kuchi hajmi, tarkibi, sifati va narxini muvofiqlashtiruvchi moshavuchanligi hisobga erishiladi.

**Monetar maktab namoyandalari** (M.Fridmen, E.Felps va boshqalar) bozor iqtisodiyotini o'z-o'zidan tartiblanuvchi tizim sifatida baholab, uning narx mexanizmining o'zi bandlikning oqilona darajasini belgilab berishni takliflaydilar. Bunday tizimga davlat tomonidan har qanday aralashuv bozorning o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmini ishdan chiqaradi. Davlatning pul vositasida yalpi talabni rag'batlantirishi esa pirovardida inflyatsiya jarayonlarining kuchayishini keltirib chiqaradi.


Monetaristlar iqtisodiyotda deimo ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'lishini takkidlab, uni «ishsizlikning tabiiy me'yori» deb aytadilar. Bandlikning bu «tabiiy daraja»dan chetlanishi faqat qisqa muddatli tavsif kash etadi. Agar bandlik darajasi muvozanat darajasidan ortiq bo'lsa, bu inflyatsiyaning jadallashuviga, agar kam bo'lsa, deflyatsiyaning jadallashuviga olib keladi. Bandlikni barqarorlashtirish bo'yicha siyosat ishsizlik darajasini uning tabiiy me'yordan chetlanishiga, ishlab chiqarish hajmi va band bo'lganlar sonining tebranshlariga qarshi kurashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ishchi kuchi bozorini muvozanatga keltirish uchun monetaristlar asosan pul-kredit siyosati dastaklaridan foydalanishni tavsiya etadilar.

Umuman olganda moshavuchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi tabdrikor va ishchilar o'zaro munosabalarining turli shakllarini mavjudligini taqozo etib, ishchi kuchi bozorining yalpi xarajalarini rasionallashtirish, foydali darajasini oshirish va yuqori harakatchanligini ta'minlashga qaratilgan.

## 20.4. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash

Iqtisodiyotning barqarorligi va sog'lomligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri ishsizlik darajasi hisoblanadi. Biroq, har qanday mamlakatda doimiy ravishda ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'ladi. Umuman olganda, mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi.

### Ishsizlik turlari



Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{ishsizlar soni}}{\text{ishchi kuchi soni}} \times 100\%.$$

**Institutsional aholi** – bu nobozor tuzilmalar, ya'ni davlatning armiya, politsiya, davlat apparati singari institutlarga yo'naltirilgan aholidan iborat. Aholining qolgan mehnat qilish yonidagi qismi noinstitutsional aholi hisoblanadi. Band bo'lgan aholi tarkibiga iqtisodiyotning hozir tuzilmalariga yo'naltirilgan aholi kiritaadi.

Makroiqtsodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YalM hajmining o'rtacha qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. Bu nisbat iqtisodchilar orasida **Ouken qonuni** sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YalM hajmining o'rtacha qolishi 2,5% ni tashkil qilishini ko'rsatadi. 1:2,5 yoki 2:5 bo'lgan bu nisbat, ishsizlikning har qanday darajasi bilan bog'liq ravishda mahsulotning mutloq yo'qotilish hajmini hisoblash imkonini beradi.

Ishchi kuchi bozorida mehnat resurslari bir vaqtning o'zida turli sohalar bo'yicha harakata bo'ladi. Ya'ni, ishchi kuchi ahamiyatli qismining doimiy ravishda iqtisodiy faol aholi tarkibiga qo'shilib, undan chiqib turishi, ishga yollanib, ishdan bo'shashi, ish qidiruvchilar safiga tushib qolishi va h.k. jarayonlar takrorlanib turadi. Shunga ko'ra, ishchi kuchi bozorida quyidagi guruhlar paydo bo'ladi:

- ishchi kuchi tarkibidan chiqqanlar;
- ishchi kuchi tarkibiga kiruvchilar;
- ish qidirishdan voz kechganlar;
- o'z ishini yo'qotganlar;

## 20.5. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

1	• keng faoliyat turini, shuningdek yakkta tartibdagi ta'dibkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish.
2	• xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-xizmatiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini ancha kengaytirish.
3	• qishloqda keng qamroqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.
4	• ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish.
5	• vaqtincha ishga joylashtirish imkonini bo'lmagan hollarga yaroqli aholini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash.

### Xulosalar

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonini tadqiq etish uning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnat faoliyatiga layoqati bo'lgan qismini orqali ifodalani, u ishchi kuchi resurslari deb ham ataladi. Ishchi kuchining sifati uning tarkibining zamon talablari jihatidan ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiqdigi darajasini namoyon etadi. Ishchi kuchining sifati uning ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, malaka, ish tajribasi darajalari kabi ko'rsatkichlar orqali ifodalanaadi.

2. Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'zlashtirishni ta'minlash demakdir.

3. Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo'lib, turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishini bildiradi. Migratsiya ikki darajada, ya'ni mamlakat ichida va xalqaro darajada ro'y berishi mumkin.

4. Iqtisodiyotning barqarorligi va sog'lomligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri ishsizlik darajasi hisoblanadi. Biroq, har qanday mamlakatda doimiy ravishda ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'ladi. Umuman olganda, mehnatga layoqati bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, ssiklik, institutsional, texnologik, hududiy, yashirin va turli turlidagi ishsizlik turlariga bo'linadi.

5. «To'la bandlik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutlaq mavjud bo'lmavligini bildirmaydi. CHunki, friksion va tarkibiy ishsizlikning bo'lishi tabiiy hisoblanadi, shu sababli to'la bandlik ishchi kuchining 100% dan kam qismini tashkil qiluvchi miqdor sifatida aniqlanadi. Aniqroq aytganda, to'la bandlik sharoitida ishsizlik darajasi friksion va tarkibiy ishsizlar soniga teng bo'ladi. ssiklik ishsizlik nolga teng bo'lganda to'la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasiga erishiladi. To'la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb ataladi.

6. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari uning ta'sirida ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot hajmi orqali baholanaadi. Iqtisodiyot ishlashni xohlagan va ishlay olingan barcha uchun etarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi. Iqtisodiy ehtiyojlarida bu yo'qotish yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YAIMning potensial YAIMdan kam bo'lgan

hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YAIM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi.

#### Asosiy tayanach tushunchalar

**Ishchi kuchi** – insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.

**Ishchi kuchini takror hosil qilish** – insonning mehnatga bo'lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash, katta yoshli ishchilar o'rmini bosadigan yosh ishchilar avlodini etishtirish jarayoni.

**Yalpi ishchi kuchi** – jamiyat yoki alohida olingan mamlakat miqyosida qiymat va iste'mol qiymatlarini yaratishda ishtirok etuvchi bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat qiluvchi ishchi kuchlarining umumlashirilgan majmui.

**Ishchi kuchi talabi** – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.

**Ishchi kuchi taklifi** – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.

**Aholining tabiiy o'sishi** – bu aholining emigratsiya va immigratsiyadan tashqari harakati.

**Emigratsiya** – fuqarolarning o'z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi.

**Immigratsiya** – xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko'chib kelishi.

**Ishsizlik** – mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi.

**Friksion ishsizlik** – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinalar bo'shashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik.

**Tarkibiy ishsizlik** – ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o'zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik.

**Siklik ishsizlik** – iqtisodiyssiklikning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik.

**Ishsizlik darajasi** – ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.

**Ouken qonuni** – ishsizlik darajasi va YAIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish deganda nimani tushunasiz va uning xususiyatlari qanday?

2. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog'liq? Fan-texnika taraqqiyotida ishchi kuchining sifatiga qanday talablar kuchayadi?

3. Ishchi kuchi bozori amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Ishchi kuchi qiymati va iste'mol qiymati qanday aniqlanadi? Ularga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering.

5. Ish bilan to'la bandlik nima uchun nisbiy ma'noda tushuniladi? Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?

6. Ishsizlikning asosiy turlariga tavsif bering.

7. Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?

8. Ishsizlikning tabiiy darajasi nimani anglatadi va u qanday tartibda aniqlanadi?

9. Ouken qonunining mohiyati nimada namoyon bo'ladi?

10. Ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tushuntirib bering.

## 21-bob. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat

### Reja:

- 21.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi
- 21.2. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari
- 21.3. Soliq tizimi va uning vazifalari
- 21.4. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari

### 21.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi

**Moliya** – bu pul mablag'lari fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish yuzasidan ro'yi beradigan munosabatlarning nazariy ifodasidir

Takror ishlab chiqarish jarayonida pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlari **moliyaviy munosabatlar** deyiladi. Bu munosabatlar pul fondlarining xarakatiga bog'liq ravishda davlat bilan korxonalar va tashkilotlar, tarmoqlar, regionlar va aloxida fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan barcha munosabatlarni qamrab oladi.


**Moliya iqtisodiy kategoriyasi sifatida pul munosabatlari tizimi bo'lib**, uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.



**Moliya makroiqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq to'rtta vazifani bajaradi:** takror ishlab chiqaruvchi, taqsimlovchi, rag'batlantiruvchi va nazorat qiluvchi.

**Korxonalar va tarmoqlar moliyasi** ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida xamda aloxida fondlar yaratish yo'li bilan xodimlarning **ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat** qiladi. Bunday fondlarga ishlab chiqarishni, fan va texnikani rivojlantirish fondi kirib ular birgalikda korxonalar moliyasini tashkil qiladi. Ayni paytda ular tarmoqlarning va umumdavlat moliyalarining mablag'lari manbai bo'lib xizmat qiladi.


### Moliyaning asosiy belgilari:

- \* pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar shaklida ifodalanadi;
- \* ekvivalent almashinuvchi ishtirokisiz yuz beradi aniq maqsadga yo'natiriladi va sarflangan mablag' qaytarilmaydi;
- \* yalpi milliy maxsulot (Yamm) va milliy daromad (MD) ni maxsus fondlarga taqsimlaydi.





<p><b>Mikromoliya</b> - bu firmalar va xonadonlar, nodavlat va jamoat tashkilotlaridagi moliya, moliya tizimning boshlang'ich va asosiy bo'g'ini xisoblanadi.</p> <p>Mikromoliya munosabatlari ikki yo'nalishda amalga oshadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ichki moliya aloqalari. Bunda xosil bo'lgan moliya resurslari jamoa (korxonalar, firma va x.k.) doirasida taqsimlanib ishlatiladi.</li> <li>• Tashqi moliyaviy aloqalar. Bunda pul mablag'i xususidagi munosabalar boshqa korxonalar, bank, birligi, maxalliy xukumat, davlat moliyaviy idoralari bilan yuz beradi.</li> </ul>	<p><b>Makromoliya</b> - bu mamlakat doirasidagi va milliy iqtisodiyotga xizmat qiluvchi moliya bo'lib, bu davlat moliyasidan iborat.</p> <p>Makromoliya munosabatlari uch usul bilan amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Xar. bir davlat o'z xarajatlarni daromadlari bilan o'zi qoplashga xarakter qiladi.</li> <li>• Xarajatlarini qoplay olmasa, axoldan va chet mamlakatlardan, xalqaro tashkilotlardan qarz oladi.</li> <li>• Ayrim paytlarda xalqaro tashkilotlar, chet davlatlar iqtisodiy - ijtimoiy yordam harqasida qaytarib olmaslik sharti bilan mablag' ajratadi.</li> </ul>
--	---



**Umumdavlat moliyasi** davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondini xanda davlat mol mulki va shaxsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lishi davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjeti - bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir. Davlat daromadlari va xarajatlarning asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi.

Jamiat moliya tizimida maxsus va xayriya fondlari xam aloxida o'rin tutadi. Bu fondlar turli xo'jalik sub'ektlari va axolning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida hisoblash va ishlatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan jamiat moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va byudjetdan tashqari moliya fondlari (penasiya fondi, axolini ish bilan ta'minlash fondi, tabiatni muxofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi va boshqalar)ning ahamiyati ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasida moliya tizimi Moliya Vazirligi tomonidan boshqariladi. Moliya Vazirligi Markaziy moliya tashkiloti shaklida davlatning yuqorona moliyaviy siyosatini yuritib, moliyani tashkil etishga umumiy rahbarlik qiladi.


### 21.2. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari

**Hislat siyosat** - davlat xarajatlari va soliqdarni o'zgartirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan byudjet va soliq siyosatini o'z ichiga oluvchi moliyaviy siyosatning bir qismi.


**Davlat byudjeti** - davlatning daromadlari manbai va mablag'larini sarflash yo'nalishlari ko'rsatilgan xolda tuzilgan davlatning ma'lum davr, odatda bir yilga mo'ljallangan daromadlari va xarajatlari smetasi.

**Davlat byudjeti defitsiti** – davlat byudjeti xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi.  
**Davlat byudjeti profitsi** – ma’lum davrda daromadlar miqdorining xarajatlardan ortib ketishi.

Davlat byudjeti daromadlari	Davlat byudjeti xarajatlari
<b>Solig:</b> bevosita, bilvosita soliqlar resurs to'lovlari; <b>Soliqdan tashqari:</b> soliqdan tashqari yig'imlar, boj va boshqa majburiy to'lovlar davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini foydalanish va sotishga etkazib berish va joylashtirishdan daromadlar qonunchilikka muvofiq meros, xadya qilish xuquqiga ko'ra davlat mulkiga o'tadigan pul mablag'lari yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek xorijiy davlatlardan beminmat pul tushumlari byudjet ssudalarini qoplash uchun yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek xorijiy davlatlarga berilgan to'lovlar	byudjet mablag'laridan foydalanuvchilarning joriy xarajatlari joriy byudjet transfertlari kapital xarajatlari kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga byudjet transfertlari yuridik shaxslar - rezidentlar va xorijiy davlatlarga byudjet ssudalari davlatning maqsadli fondlariga byudjet dotasiyalari va byudjet ssudalari davlat qarzlarni qoplash va xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa xarajatlari




2019-2021 йилларга мўljалланган БЮДЖЕТ КУРСАТКИЧЛАРИ ПРОГНОЗИ



### 21.3. Soliq tizimi va uning vazifalari

**Solig** - davlat tomonidan daromadlarning bir qismiga (to'g'ridan-to'g'ri) egalik qilish xuquqi bo'yicha korxonalar, muassasalar va axoli to'laydigan majburiy yig'imlar.



**Milliy iqtisodiyotda solliqlar kuydagi uchta muxim vazifani bajaradi:**

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tanglikni ushlab turish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Xozirgi davrda umumiy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda solliq xajmining o'sib borishini kuydagi omillar taqoz qiladi.

1. Axoli sonining o'sishi.
2. ijtimoiy soxa xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
3. Atrof muxitning ifloslanishi.
4. Qashshoqlik va daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.
5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligining ta'minlash xarajatlari xajmining o'sishi.

Xozirgi davrda solliq tizimida davlatning solliq siyosatini O'zbekiston Respublikasi Davlat Solliq Qo'mitasi va uning joylardagi (viloyat, shaxar, tuman) muassasalari amalga oshiradi.


Solliq solish va uning stavkasini belgilash bir qator prinsiplarga asoslanadi.

1. Natijalik prinsipi.
2. To'lov layoqatlilik prinsipi.
3. Adolatlilik prinsipi.

Solliq bo'yicha intiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Solliq intiyozlarining amaliyotda kuydagi turlari keng tarqalgan:

- ob'ektlarning solliq olinmaydigan eng kam darajasini balgilash;
- solliq to'lashdan aloxida shaxs yoki ma'lum guruxlarni (masalan, urush faxriylarini) ozod qilish;
- solliq darajasi (stavkasi)ning pasaytirish;
- solliq olinadigan summadan chegirish;
- solliqli kredit (solliq olishni kechiktirish yoki solliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish).

Solliqlar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosid) va regressiv (kamayib boruvchi) solliqlarga bo'linadi. Bu bo'linish solliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanadi.



Progressiv, proporsional va regressiv solliqlarning grafik ko'rinishi



**Soliqlar amal qilish doirasiga ko'ra ikki darajadagi soliqlarni o'z ichiga oladi:**  
**umum davlat soliqlari va maxalliy soliqlar.**

**Maxsulot baxosiga qo'shilish xarakteriga ko'ra soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga bo'linadi.** Egri soliqlar tovar baxosi ustiga qo'yiladigan ustama xisoblangan, to'g'ri soliqlar tanaxning tarkibiy elementi sifatida bevosita narxning ichiga kiradi.

**Korxonada, axoli va mulk egalariidan olinadigan barcha soliqlar o'zlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:** o'borot solig'i, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq, resurs to'lovlari, amortizatsiya ajratmalari va ijtimoiy sug'urtada to'lovlar, shaxsiy daromad solig'i, ish xaqi fondidan va korxonada (korporatsiya) foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i, aksiz yig'inlar va bojxona to'lovlari, meros qilingan va taqdim qilingan mulk solig'i, litsenziyalar va vizalardan olingan soliq va x.k.k. Bu soliqlarning asosiy qismini jamiyat miqyosida tartibga solinadi va umumdavlat asosiy bo'g'inini bo'lgan davlat byudjetiga kelib tushadi.

**Xokimiyat boshqaruvining quyi bo'g'inlari byudjeti asosan solishtidan olinadigan soliqlar va mulk soliqlari xisobiga shakllanadi.**

**O'borot soliq.** O'borot soligining xosil bo'lishi va ishlatilishining o'ziga xos mexanizmi (to'lashning shartlari, to'lovlar muddatlari va miqdorlarning qayd qilinishi) unga mablag'larni jamlashning soliq usuliga oid tashqi belgilarni kasb etadi. O'borot soliq egri soliqlardan farq qilib, maxsulot baxosi tarkibiga kiradi.

**Qo'shilgan qiymatga soliq.** Qo'shilgan qiymat soliqi chakana sotishdan olinadigan soliqga juda o'xshash, farqi faqat shundaki, QOS narx bilan boshqa firmadan sotib olish qiymati o'rnatilgan farqqa qo'llaniladi. Moxiyati bilan QOS iste'molchilik tovarlari sotishdan olinadigan umumdavlat soliqga tenglashadi.

**Aksiz soliq.** Bu soliqning ob'ekti natural yoki qiymat shaklida sotilgan tovarlar xajmi xisoblanadi. Aksiz soliqi egri soliq xisoblanib, tovar birligiga o'rnatiladi va uning chakana narxiga kiradi xamda ancha yuqori narxlar orqali sotuvchidan iste'molchiga o'tadi.

**Mulk soliqi.** Mulk soligining asosiy qimining og'irligi shu mulk egasining elkasiga tushadi, chunki bu soliqni boshqaga yuklash mumkin emas. Bu - er, shaxsiy mulk, xususiy uy yoki kvaritra soliqlarga tegishli. Masalan, xato er sotilganda xam mulk soligining qandaydir yukini unga o'rinish mumkin emas. Xaridor shu er uchun kelajakda to'lashga to'g'ri keladigan soliq xajmini e'tiborga olib erining narxini pasaytirishga xarakat qiladi.

**Soliqlarning iqtisodiy faoliyatga ta'siri.** Soliqlar takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faollikni tartibga solishning vositalaridan biri rolini o'taydi, yangi sialat kasb etadi. Bu ta'sir ko'rsatish g'oyat ko'p qirralidir. Uning ayrim tomonlariga e'tibor qarataish lozim:

**Birinchiidan,** davlat foydaga soliq solish yo'li bilan, kapitaning jamg'arilish jarayoniga juda sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

**Ikkinchiidan,** soliqni tartibga solish tadbirlaridan u yoki bu tarmoqning raqobatga layoqatligini xamda korxonalar ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish va ularning kapital jamg'arishiga eng qulay sharoit yaratish uchun keng foydalaniladi.


**Uchinchiidan,** davlat imiyozli soliqlar yordami bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarni

muhtardiy joylashitirishga, infraqstruktura ob'ektlarini yaratish va shu kabliarga sezilarli ta'sir ko'rsatish mumkin.  
**To'rtinchidan,** davlat butun xo'jalik kon'yunkturasiiga umumiy ta'sir ko'rsatish maqsadida, soliq mexanizmidan keng foydalaniladi. Davlat iqtisodiy turg'unlikni bartaraf qilish uchun imiyozli soliqlar yordamida kapital quyilmalarning rag'barlantradi, xam iste'molchilik va xam investitsion tovarlar yalpi talabni kengaytirish uchun ancha kulay sharoit yaratiladi.

Soliqlar turlari	Soliqqa tortish ob'ektlari bo'yicha	Soliqlarni undirish usullari bo'yicha	Soliq miqdorini belgilash usullari bo'yicha	Byudjet darajasi bo'yicha	Foydalanish tartibiga ko'ra									
						Bevosita	bilvosita	umummilliy	mintaqaviy	umumiy	maqsadli			
daromad solig'i	mulk solig'i	xarajatga soliqlar	daromad bo'yicha	mulk bo'yicha	aloxida	universal	bojxona bojlari	proporsional	progressiv	regressiv	umummilliy	mintaqaviy	umumiy	maqsadli


**Soliqlarning asosiy turlari**

**Davlat qarzi - xukumatning avvalgi byudjet defitsitlariga teng bo'lgan umumiy qarzlari miqdori (minus byudjet ortiqchaligi).**




### Fiskal siyosat: maqsad va yo'nalishlar

- Fiskal siyosatning maqsadi – davlat daromadlari va xarajatlarin mutanosib o'zgartirish, soliqqa tortish tizimi, balanslangan davlat byudjetini tartibga solish tizimi asosida to'liq bandlikni va noiflyasion iqtisodiy o'sishni ta'minlash.
- Davlat xarajatlari multiplikatori – YAlM ning o'sishiga muvofiq ravishda davlat xarajatlarning o'sish koeffitsienti.



### Byudjet-soliq siyosati



### Oqibatlar

ijobiy	salbiy	ijobiy	salbiy
Qisqa muddatda davriy tushishni bartaraf etish; uzoq muddatda iqtisodiy o'sish.	Byudjet kamomadi, korxonaga soliq yuki ortishi, inflyasiya o'sishi.	Byudjet kamomadi, korxonaga soliq yuki va talab inflyasiyasinin pasayishi.	Yaqin istiqbolda ishsizlikning o'sishi, ishlab chiqarishning susayishi; uzoq istiqbolda stagflyasiya xavfi

## 21.4. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, shu jumladan davlat byudjeti barqarorligini mumkin bo'lgan darajada ushlab turish vazifasini ham o'z ichiga oladi.

Soliq tizimini isloh qilishga asos qilib olingan asosiy tamoyil – korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishdir. Bu ularning o'z mablag'larini ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnika bilan qayta qurultirish va aylanma mablag'larni to'ldirishga sarflash imkoniyatini beradi. Bu esa oqibat natijada ishlab chiqarishning yuksalishiga olib keladi.

Korxonalar zimmasidagi soliq yukini yengillashirishga erishishda qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasini kamaytirishga ham e'tibor qaratiladi. Shunga erishnmoqimiz kerakki, har bir soliq to'lovchi, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, soliq to'lashidan bo'yin tovlamadan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin.

Davlat byudjeti mutanosibligini kuchaytirish maqsadida, soliq tizimini takomillashirish bilan bir qatorda, korxonalarining moliya intizomini mustakamlash, to'lov majburiyatlarini bir ne'yoraga keltirish, qarzlarning salbiy oqibatini tugatish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliq organlarini tashkil etishning butun tizimida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarur. Bu idoralarning bosh vazifasi soliqdarning byudjetga o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlashgina emas, balki, eng muhimini, soliqqa doir jinoyatlarining oldini olish maqsadida soliq to'lovchilarga yordam berish va ularning bu boradagi bilimlarini oshirishga ko'maklashish, ular bilan muntazam ish olib borishdan iboratdir.

### Xulosalar

1. Moliya milliy iqtisodiyot va aholi farovonligining o'sishini aks ettirib, korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarning pasayishi va ularning jahon bozoridaagi raqobatbardoshligining oshirishini rag'batlantiradi, ishlab chiqarish tuzilmasini, tarmoqlararo va hududiy nisbatlarini shakllantiradi.

2. Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. Moliya tizimi turli darajadagi byudjetlarni, ijtimoiy, mol-mulk va shaxsiy sug'urta fondlarini, davlatning valyuta zaxiralari, korxonalar va firmalar, tijorat va notijorat tuzilmalarining pul fondlarini, boshqa maxsus pul fondlarini o'z ichiga oladi.

3. Umumiy davlat moliyasi davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulkini va shaxsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'linish davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

4. Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai bo'lib soliqlar hisoblanadi. Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida, sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

5. Soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqdar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) soliqdarga bo'linadi.

### Asosiy tayanich tushunchalar

**Moliya** – pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

**Moliyaviy munosabatlar** – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuidi.

**Moliya tizimi** – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

**Moliyaviy siyosat** – davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar majmuidi.

**Fiskal (soliq-byudjet) siyosati** – davlat tomonidan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o'zgartirish bo'yicha qo'llaniluvchi chora-tadbirlar.

**Davlat byudjeti** – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashirilgan rejasi.

**Byudjet taqchilligi** – davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchiligi.

**Davlat ichki qarzi** – davlatning mamlakat ichida qimmatli qog'ozlarini olibqarish, turli nobyudjet fondlaridan olgan qarzi.

**Davlat tashqi qarzi** – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

**Davlat krediti** – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

**Soliqlar** – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli.

**Soliq stavkasi** – soliq summasing soliq olinadigan sumмага nisbatining foizdagi ifodasi.

**Laffer egri chizig'i** – davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.

2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo'g'inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat byudjetining o'rni qanday?

3. Davlat byudjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?

4. Byudjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy byudjet taqchilligini tushuntiring.

5. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning turlarini, asosiy vazifalarini ko'rsating.

6. Moliyaviy siyosat va fiskal siyosatning umumiy va farqli jihatlari tavsiflang.

7. Davlatning ichki va tashqi qarzlari manbalarini izohlab bering.

8. Soliq yuki nima? Uning iqtisodiyotga ta'sirini ko'rsatib bering.

9. Laffer egri chizig'ining mazmunini nimadan iborat?

10. Keyingi yillarda O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni gapirib bering.

## 22-bob. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli

**Reja:**

22.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi


22.2. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari


22.3. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari

22.4. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari.

22.5. O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi

### 22.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi





**Pul agregati** birinchi navbada  $M_0$  - absolyut likvidlikka ega bo'lgan muomaladagi naqd pul massasini o'z ichiga oladi.

**Pul agregati**

$M_1 = M_0 +$  banklardagi muddati ko'rsatilmagan depozitlar va cheklardan iborat.

$M_2 = M_1 +$  muddati ko'rsatilgan depozitlar, nochoq jang'arnalar.

$M_3 = M_2 +$  yirik jang'arnalar, xususiy firma, tashkilotlarning xisob raqamlardagi omonatlar, muddati ko'rsatilgan yirik jang'arnalardan iborat.

Ene umumiy pul agregati  $L = M_3 +$  turli qimmatbaxo qog'ozlarni o'z ichiga oladi.

- Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilovchi omillar:**
- Muayyan davrda (bir yilda) sotilishi kutilayotgan tovarlar miqdori;
  - Tovarlarning va xizmatlar narxlari;
  - Pul birligining aylanish tezligi;
  - Kredit munosabatlarning rivojlanganlik darajasi.

**Pul muomalasi to'g'risidagi nazariyalar:**

**Klassik nazariya:** Muomala uchun zarur pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlarning qiymat miqdori va ularning oltin asosiga teng kelishi g'oyasini ilgari suradi. **Miqdoriylik nazariyasi:** Bu nazariyaga ko'ra muomaladagi pul miqdorining o'zgarishi tovarlar narxining o'zgarishiga olib keladi va bu o'z navbatida pulning xarid quvvatini o'zgartiradi.

**Fisher yondashuvi:** Bunda Fisher tenglamasi ( $M \cdot V = P \cdot Q$ ) narxlar pul massasiga to'g'ri mutanosiblikda, pulning qadri-giymati esa uning miqdoriga teskari mutanosiblikda bog'liq bo'lishini ko'rsatadi.

**Kembrijd maktabi (A.Marshall, A.Pigu, D.Robinson) yondashuvi:** Pulga talab va uning taklif o'rtasidagi muvozanatlik shartlarini xarakterlaydi, ya'ni  $M = k \cdot R \cdot Y$ , bu erda:

- $M$  - pul massasi;
- $k$  - Marshall ko'effitsienti; (nominal daromadlarning naqd pul shaklida saqlanayotgan qismi)
- $R$  - narxlarning umumiy darajasi


**Pulga talab haqidagi nazariyalar**

**Monetaristik nazariya:** Unga ko'ra, pulga talab faqat transaktsion maqsad (bitimlar uchun), ya'ni ayriboshlash, oldi-soldi jarayonida bitim tuzish uchunгина zarur.

- Muomalaga ana shu maqsad uchun zarur bo'lgan minimal miqdordagina pul kerak. Boshqa xar xil maqsadlarda pul saqlash noto'g'ri

**Keynscha nazariya:** Bitim uchun, ya'ni ayriboshlash vositasi sifatidagi pulga talab.

- Extyotkorlik maqsadi, xar extimolga qarshi naqd pul saqlash zaruriyati.
- CHaygovochilik maqsadi, ya'ni turli qimmatbaxo qog'ozlarni arzon bo'lishni kutib pulni saqlash.




**Pul bozori** - moliyaviy bozorning tarkibiy qismi bo'lib, unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar xarakati ularga bo'lgan talab va taklif ta'sirida uyg'unlashiriladi.

**22.2. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari**


**Inflyatsiya** - bu pul aylanish kanallarining ortiqcha pul massasi bilan to'lib ketishi oqibatida narxlar o'taicha (umumiy) darajasining ko'tarilib borishini va natijada milliy pul birligining qadrsizlanishini anglatadi.

**Deflyatsiya** - inflyatsiyaga qarama-qarshi jarayonni, ya'ni narxlarning umumiy darajasining pasayib borishini bildiradi.

**Inflatsiya namoyon bo'lad:**




**Inflatsiya davrida milliy pul birligi quyidagilarga nisbatan qadrsilanadi**




Inflatsiya sur'ati narx indeksi (RI) yordamida aniqlanadi. Narx indeksi – bu joriy davrdagi narxlarning (Rj) bazis davrdagi narxlarga (Rb) nisbatidir


$$RI = \frac{Rj - Rb}{Rb} \times 100$$

**Narx indeksi turlari**



**Inflatsiyaning kelib chiqish sabablari**





### Inflyasiyaning iqtisodiy oqibatlari

- Axvlining o'rtacha turmush darajasi pasayadi;
- Qayd qilingan (doimiy) daromad oluvchilar real daromadi kamayadi;
- pul jang'arnalari qadrsizlanadi va pulga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar real qiymati pasayadi;
- iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtaqidagi nomutanosiblik kuchayadi;
- investitsion tovarlar va uzocq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar iqtisodiy axvoli og'irlashadi;
- investitsiyalar foizining real stavkasi va foizli daromadlar kamayadi.
- bo'sh pul mablag'larining ishlab chiqarish soxasidan muomala soxasiga oqimi kuchayadi;
- byudjet daromadlari qadrsizlanadi va byudjet taqchilligi kuchayadi;
- davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori o'sib boradi;
- barter ayirboshlash o'z o'rniga ega bo'ladi.

**Davlatning inflyasiyaga qarshi siyosati, inflyasiyaning ijimoiy-iqtisodiy oqibatlari**ni yunshatish, ya'ni inflyasiya ustidan nazorat o'rnatish va narxlar o'sishini nisbatan past darajada ushlab turishga qaratiladi.

### Davlatning inflyasiyani jilovlashga qaratilgan uzocq muddatli (strategik) chora-tadbirlari

#### Ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar:

- foydaga imtiyozli solliqlar belgilash;
- ishlab chiqarish maqsadlariga imtiyozli kreditlar berish;
- yangi ish boshlagan korxonalar ga subsidiyalar berish;
- tashqi savdo (eksport-import) ga imtiyozlar berish;
- sanarali antimonopol tadbirlarni amalga oshirish.

#### Byudjet taqchilligini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar:

- byudjet daromadlarini ko'paytirish (solliq bazasini kengaytirish orqali);
- byudjet xarajatlarni kamaytirib borish;
- investitsion jarayonlar ga davlatning aralashuvini nisbatan cheklash, asoslanmagan subsidiya xamda dotasiyalarni kamaytirish va x.k;
- fan-texnika taraqqiyotini, iqtisodiyotdagi jilobiy tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash.

#### Pul massasini tartibga solishga qaratilgan tadbirlar:

- pul daromadlarining o'sishini cheklash yoki to'xtatib qo'yish;
- pul emissiyasini cheklash;
- davlat kreditlarini qat'iy chegaralash;
- banklararo kredit resurslarining auktsonlarini kengaytirish;
- davlatning olin va valyuta zaxiralarni ko'paytirish;
- korxonalar ni xususiy lashtirish jarayonini kengaytirish va x.k.

#### Tashqi omillarning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar:

- Bu tadbirlar chet el kapitalari, qisqa muddatli kreditlari va qarzlari ga inflyasiyaning ta'sirini kamaytirishga qaratiladi.

#### Davlatning inflyasiyani jilovlashga qaratilgan qisqa muddatli tadbirlari:


- Qo'shimcha turdagi maxsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar ga imtiyozlar berish;
- iste'mol tovarlari importini kengaytirish;
- yangi xususiy korxonalar aksiyalarini sotishni rag'batlantirish;
- muddatli omonatlar ga yuqori foiz stavkalarini belgilash;
- ichki bozor raqobatbardosh bo'lgan sharoida milliy valyuta kursini oshirish;
- davlat oltin va valyuta zaxiralardan qisman inflyasiyani jilovlashda foydalanish.

### 22.3. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari

**Kredit** (lotincha *credit* – ishonch degan ma'noni anglatadi) juda qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, dastlab mulkdorlar tomonidan natural (g'alla, chorva va boshqa) keyin pul (sudxo'rlik kapitali) shaklida qarz berilishini anglatgan.

**Kredit**- egalari qo'lda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ma'lum muddatga xaq to'lash sharti bilan qarzga olishi va qaytarib berishi yuzasidan kelib chiqqan munosabatlardir.

#### Kredit shakllari



#### Kredit resurslarining manbalari:

- > amortizatsiya ajratmalari;
- > maxsulot sotish va xizmat ko'rsatishdan olingan pul mablag'larini;
- > korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish xamda moddiy rag'batlantirish fondlari;
- > korxonalar foydasi;
- > byudjet tashkilotlari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning bankdagi joriy pul mablag'larini;
- > axolining bo'sh turgan pul mablag'larini;
- > bank resurslari va davlatning zakiradagi pul mablag'larini;
- > chet el investitsiyalari va kreditlari.



Kredit vazifalari
> Taqsimlash
> Emissiya
> Nazorat qilish
> Bo'sh pul mablag'larining xarakatdagi, oborotdagi kapitalga aylantirish.
> Rag'batlantirish.
> Tovar ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi.

Kredit munosabati ikki sub'ekt o'rtasida, pul egasi, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

### 22.4. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari.

Bozor iqtisodiyotining negizini bank tizimi tashkil etadi. Xilma-xil bo'lgan bank tizimi o'z ichiga bank tartibotlaridan tashqari, bozor faoliyati jarayonida shakllanadigan, kredit berish, qimmatli qog'ozlar oldi-soldisi, moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish, investitsiyalar, ssuda va xokazolar borasidagi iqtisodiy munosabatlarning deyarli butun majmuini oladi.






**Markaziy bank siyosatining instrumentlari**

Siyosat instrumentlari	Umumiy tavsif
Pul emissiyasi	Muomaladagi naqd pullar o'sishi
Zaxira siyosati	Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining (va boshqa moliyaviy institutlar) depozit xisoblariga tushuvchi mablag'larning bir qismini majburiy zaxiraga ajratish me'yorini belgilanishi.
Valyuta siyosati	Mamlakatda pul taklifi miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatish. MB valyuta sotib pul miqdorini qisqartiradi, xarid qilib esa uning miqdorini oshiradi
Ochiq bozor siyosati	MB tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi va xaridi
Xisob siyosati	MB tomonidan tijorat banklariga ssudalar berish uchun xisob stavkasi yoki qayta moliyalashtirish stavkasi belgilanishi


**Tijorat banklarining daromadlari**



### Tijorat banklarining harajatlari



### КРЕДИТ БИТТИМЛАРИ СОНИ, МИЛИАРДА



### Xulosalar

1. Pulning iqtisodiyotda o'z vazifalarini bajarish jarayonida to'xtovsiz harakatda bo'lishi, tovarlar va xizmatlar ayirbosh qilish jarayonida qo'ldan qo'lga o'tib, aylanib turishi pul muomalasi deyiladi.
2. Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat pul tizimining muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: milliy pul birligi; naqd pul muomalasida qonuniy to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog'oz, tanga va kredit pullar tizimi; pul emissiyasi, ya'ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi; pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.
3. Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgileri) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Bularning hammasi birgalikda pul agregati deb yuritiladi.
4. Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori muayyan davr davomida sotilishi va sotib olinishi lozim bo'lgan tovarlar summasi, pul birligining aylanish tezligi va kreditning rivojlanishi kabi omillarga bog'liq bo'ladi.
5. Makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri inflyasiya hisoblanib, u pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida qog'oz pul birliklarining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda turli tovar narxlarining o'sishida ifodalanaadi.
6. Kelib chiqish sabablariga ko'ra talab inflyasiyasi va taklif inflyasiyasi farqlanadi. Talab inflyasiyasi iqtisodiyotdagi barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan sharoitda ishlab chiqarish sohasi ortiqcha talabni qondira olmashligi natijasida kelib chiqadi. Taklif inflyasiyasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarining oshishi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, o'sish sur'atiga ko'ra inflyasiyaning

o'rnatib boruvchi, jadal va giperinflatsiya; bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya kabi turlari farqlanadi.

7. Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

8. Kredit resurslarining asosiy manbalari korxonaning amortizatsiya ajratmalari; mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari; korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari; korxonalar foydasi; bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa jimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari; aholining bo'sh pul mablag'laridan iborat.

9. Banklar pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir. Ular kredit munosabatlariga xizmat qilib, kreditning har xil shakllarini o'z ichiga olib, kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi. Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depoziti) banklarning tarmoq o'tgan shaxobchalarini oladi.

#### Asosiy tayanich tushunchalar

**Pul muomalasi** – tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

**Pul tizimi** – tarixan tarkib topgan va mamlakat milliy qonunchiligi bilan mustahkamlangan pul muomalasini tashkil qilish shakli.

**Inflyatsiya** – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.

**Kredit** – bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

**Foiz normasi (stavkasi)** – foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

**Bank krediti** – pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) beriluvchi pul ssudalari.

**Xo'jaliklararo kredit** – bir korxonalar (muassasa) tomonidan ikkinchisiga berilib, ularning kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohasidagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiluvchi qarz mablag'larini.

**Tijorat krediti** – korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosan to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida bir-biriga beradigan kreditlari.

**Iste'mol krediti** – xususiy shaxslarga, avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari sotib olish uchun ma'lum muddatga beriluvchi qarz mablag'larini.

**Ipoteka krediti** – ko'chmas mulklar (er, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi qarz mablag'larini.

**Davlat krediti** – kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'larini qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi.

**Xalqaro kredit** – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakati.

**Lizing** – odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli.

**Faktoring** – boshqa iqtisodiy sub'ektlarning qarzdorlik buyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlarini.

**Forfeiting** – uzoq muddatli faktoring munosabatlarini.

**Trast** – mijozlarning kapitallarini boshqarish bo'yicha operatsiyalari.

**Banklar** – kredit munosabatlariga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar.

**Bank operatsiyalari** – mablag'larini jalb qilish va ularni joylashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.

**Bank foydasi (marja)** – olingan va to'langan foiz summalari o'rtasidagi farq.  
**Bank foyda normasi** – bank so'f foydasining uning o'z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.
2. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
3. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
4. Inflyasiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
5. Talab va taklif inflyasiyalarning grafikdagi ko'inishlarini tasvirlang va izohlang.
6. Giperinflyasiya qanday qilib turg'unlikka olib kelishi mumkinligini tushuntiring.
7. Kreditni nima zarur qilib qo'yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.
8. Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning tavsifini bering.
9. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?
9. Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko'rsating.
10. Hozirda O'zbekistonda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash borasida qanday chora-tadbirlar tizimi qo'llanilmoqda?

## 23-bob. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli

### Reja:

23.1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar

23.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi va vazifalari

23.3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari


### 23.1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar


**Makroiqtisodiy tartibga solish** – bu milliy xo'jalikni ijtimoiy tashkil etish va tartibga solish usullari va mazkur bosqichda tabiiy, moddiy, mexnat, moliyaviy, intellektual va boshqa resurslarni jamiyat ehtiyojlariga muvofiq tarzda taqsimlash mexanizmlari yig'indisi.

#### Iqtisodiyotni tartibga solish yo'llari:

- \* O'z-o'zini tartibga solishning bozor mexanizmlariga amal qilishi.
- \* Iqtisodiyotni markazlashgan tarzda ma'muriy usul-dar yordamida tartibga solish
- \* Davlatning aralashuvini bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga erishish

Milliy xo'jalikda makroiqtisodiy muvozanatlikni ta'minlab borish va uning samarali faoliyat qilishiga erishish iqtisodiyotni tartibga solishni zarur qilib qo'yadi.





**Davlat tartibotining asosiy yo'nalishlari**

**Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi**

- iqtisodiy o'sish
- to'la bandlik
- iqtisodiy samaradorlik
- iqtisodiy erkinlik
- mehnat qobiliyati bo'lmaganlarni ta'minlash
- barqaror narx darajasi
- tashqi aloqalarda balans

*Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan iqtisodiy resurslardan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'nalitirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuntiradi.*

<b>Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish nazariyalari</b>	
A.Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi	1929-1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.
J.M.Keynsning «ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) nomli asari	Davlat fiskal (xazinaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va axolining ish bilan bandligini ta'minlashi zarur.

**Iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasidagi neoklassik yo'nalishlar:**

**Birinchi oqim:**-keyns ta'limoti izdoshlari bo'lib, davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi g'oyasini ximoya qilishni davom ettiradi.

**Ikkinchi oqim:** «Neokonservativizm» deb atalib, ular davlat xususiy firmalar va xo'jalik faoliyatiga aralashmasligi zarur degan qarashni yoqlab chiqadi. Ular o'z qarashlarini quyidagi dalillar bilan asoslaydi:

Davlatning yalpi talabni rag'batlantirishi byudjet taqchilligiga olib keladi. Uni pul emissiya qilish orqali qoplash inflyatsiyani vujudga keltiradi.

**Neokonservativ oqim yo'nalish(maktab)lari**

**Monetarizm-** Asoschisi amerikalik iqtisodchi M.Fridman xisoblanadi. Uning fikriga ko'ra davlatning iqtisodiyotga eng kam darajada aralashuvi pul muomalasi doirasida bo'lishi kerak. Monetariistlarning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan tavsiyalari:

- pul taklifi va kredit berishni qattiq cheklash;
- pul emissiyasini ishlab chiqarishning o'sishiga mos ko'paytirish;
- davlatning axoliga turli to'lovlarni kamaytirish xisobiga ijtimoiy dasturlarni qisqartirish.

**Taklif nazariyasi-** Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish siyosatida ustuvorlik tovarlar taklifini yalpi talabga moslashtirishga berilishi lozimligini qayd qiladi.


**Rasional kutish nazariyasi-** Davlat bozor kon'yunkturasida kutilayotgan inqirozli xohlatlarni oldindan taxminlash va uning oqibatlarini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilaishga qaratish zarurligini qayd qiladi.

23.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi va vazifalari

**IDTTSning asosiy maqsadi** iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mustaxkamlash (mamlakat ichida va xalkaro maydonda) va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish xisoblanadi.


**Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi.**

Ular jumlasiga iqtisodiy siklini barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof - muxit xolatini yaxshilash kabi larni kiritish mumkin. IDTTS maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi.



### 23.3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar davlat xokimiyati kuchiga tayanadi va taqiblash, ruxsat berish va majbur qilish xarakteridagi tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.



**Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul - kredit va byudjet siyosatida o'z ifodasini topadi.**

**Pul - kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:**

- xisob stavkasini tartibga solish;
- moliya kredit muassasalalarining markaziy bankdagi extiyojlari minimal xajmini o'rnatish va o'zgartirish;
- davlat muassasalalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni sotish va to'lash).

### Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanish usullari

- a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari — transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa soxalarni bevosita boshqarish.
- b) narxlar va ish xaqini «muzlatib» qo'yish siyosati
- v) ish bilan bandlik xizmati (mexnat birjalari) faoliyatini tashkil qilish
- g) iqtisodiy soxani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish

Davlat bu dastalar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutilgan yo'nalishda o'zgartirishga xarakter qiladi. Bunga quyidagi yo'llar bilan erishadi.

Birinchidan davlat markaziy rezerv tizimi orqali banklar mablag'larining qarzga beriladigan va extiyoj (rezerv)da turadigan qismlari ulushini o'zgartiradi. ikkinchidan, Markaziy rezerv tizimi boshqa banklarga past foiz xisobidan qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishiga ta'sir qilishini ta'minlaydi.



Uchinchidan, davlat markaziy rezerv tizimi orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o'z obligationsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog'ozlarini sotib oladi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga xanda soliq turlari va soliq tulaashda berilgan imtiyozlarga bog'liq bo'ladi.

**IDTTS ning oliy shakli davlat iqtisodiy dasturlari xisoblanadi.** Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat. **Iqtisodiy dasturlar o'rtta muddatli, favqulodli va maqsadli bo'lishi mumkin.** O'rtta muddatli umum iqtisodiy dasturlar odada besh yilga tuziladi. Favqulodli dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyasiya sharoitlarida ishlab chiqib, qisqa muddatli xarakterga ega bo'ladi. Amalda bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda **maqsadli dasturlar** amalga oshiriladi. Bunday maqsadli dasturlarning ob'ekti tarmoqlar mintaqalar, ijtimoiy soxalar va ilmiy tadqiqotlarning xar xil yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

**IDTTS tashqi iqtisodiy usullar yordamida xarj amalga oshiriladi.** Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatiladi.

**Tovarlarni, xizmatlarni, kapital va fan - texnika yutuqlari eksportini rag'batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellarga investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to'lovlarini o'zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki cheklash bo'yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish, xalqaro iktisodiy tashkilotlarda va davlatlararo integratsional uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.**



**Xulosalar**

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi uning bozor vositasida o'zini-o'zi tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'z zimmasiga olishi; bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi keltirib chiqaruvchi salbiy oqibatlarni bartaraf etish zarurligi; iste'molchilarning manfaatlarini himoyalash; bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman engillashtirish, jumladan, aholining kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga olishi; hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini ham o'z zimmasiga olishi orqali izohlanadi.

2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy



iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkili etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalari orqali ifodalalanib, ular, asosan, bozor tizimining amal qilishini engillashtrish va himoya qilish, iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. YA'ni, bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhimi ta'minlash; raqobarni himoya qilish; daromad va boylikni qayta taqsimlash; resurslarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

4. Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bevosita va bilvosita ta'sir qilish usullari hamda tashqi iqtisodiy usullardan foydalanadi. Tartibga solishning bevosita ta'sir qilish usullaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri, ma'muriy tartibga solish ko'zda tutiladi. Bu usullar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlarini bevosita boshqarish; narxlar va ish haqini «muzlatib» qo'yish siyosati; ish bilan bandlik xizmati (mehnat birjalari) faoliyatini tashkil qilish; iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish va h.k.

5. Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va byudjet siyosatida o'z ifodasini topadi. Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi: hisob stavkasini tartibga solish; moliya-kredit muassasalalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish; davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat obligatsiyalarini chiqarish, ularni sotish va to'lash). Davlat byudjet siyosati uning daromadlar va harajatlarni qismini o'zgartirishga qaratilib, bu usulning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi.

#### Asosiy tayanch tushunchalar

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** – qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi** – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish.

**Davlatning iqtisodiy vazifalari** – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari** – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

**Bevosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma'muriy vositalari.

**Bilvosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.

2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to'g'risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?

3. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?

5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?

6. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.

7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o'ynaydi?

8. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy dasturlari nima va ular qanday amalga oshiriladi?
9. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi dinamikasini tahlil qiling. Yillar davomida tarmoq va sohalar bo'yicha davlat sektori ulushining o'zgarishini izohlang.
10. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning tashqi iqtisodiy usullari mazmunini tushuntiring.

**24-bob. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati**

**Reja:**

24.1. Aholining daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari

24.2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash

24.3. Davlatning ijtimoiy siyosati. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

**24.1. Aholining daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari**



**Axoli daromadlari** – bu ularning ma'lum vaqt oralig'ida odatda bir yilda olgan pul mablag'lari va moddiy ne'matlari (uy xo'jaligida ishlab chikarilgani bilan birga) summasi tushuniadi.

**Axoli iste'mol darajani** to'g'ridan-to'g'ri ularning daromadlari darajasiga bog'liq buladiki, bu daromadlarning axoli turmush darajasidagi rolini belgilab beradi.

**Natural daromad** mehnat xaki xisobiga olinadigan va uy xujaliklarining uz iste'mollari uchun ishlab chikargan maxsulotlardan iborat buladi

**Axoli shaxsiy daromad tarkibiy tuzilishi**

1) Pul va natural shakldagi ish xaqi va maosh	2)	ijtimoiy bandlikdan olinadigan daromadlar
Quruqli kuchlar xizmatchilarining pul va natural ko'rinishdagi ta'minotlari		
3) Tadbirkorlarning ajratmalari:		
a) ijtimoiy sug'urta va shu kabirlarga		
b) boshqa maqsadlarga.		
4) Erkin kasblardagi shaxslar		O'zini-o'zi band qilishdan daromadlar
5) Fermerlar		
6) Boshqa yakka tartibdagi tadbirkorlar va savdogarlar		Mulkdan olinadigan daromadlar
7) Renta, sof foiz, dividendlar		
8) Joriy transferlar, kompaniyalarning xayriyalari		Transfer daromadlari
9) Davlat nafqalari va boshqa to'lovlar		



**Real daromad darajasini belgilab beruvchi omillar:**

- Nominal daromad summasi
  - Narx darajasi
  - Solliqlar va boshqa to'lovlar miqdori
- Axoli nominal daromadi manbalari:**
- ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad
  - Davlat yordam dasturlari hisobiga olinadigan pul mablag'lari
  - Moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul mablag'lari

**Axoli moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul mablag'lari:**

- ❖ Sug'urta bo'yicha to'lovlar.
- ❖ Omonatlar hisobiga foizlar.
- ❖ Aksiya hisobiga olinadigan dividend.
- ❖ Lotoreya yutuqlari.
- ❖ Obligatsiyalar bo'yicha foiz.
- ❖ Zayom to'lovlari.
- ❖ Shaxsiy uy qurilishiga beriladigan ssudalar.
- ❖ Xar xil qoplovchi to'lovlari.


**Ish xaqi mazmunini aniqlash borasidagi yondoshuvlar**



Yondoshuv yo'nalishi	Asoschilar	Qisqacha mazmuni
o'Yashash uchun vosita minimumda konservatsiyasi	D.Rikardo, T.Malthus	Ish xaqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil, deb hisoblanadi
Ishchi kuchi qiymatining o'zgarigan shakli	Ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi, marksisitik yo'nalishdagi iqtisodchilar	Ish xaqi ishchi kuchi tovar qiymatining puldagi ifodasi sifatida qaralib, uni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymati sifatida aniqlanadi
Ish xaqini mexnat baxosi sifatida ifodalash	Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining ko'plab vakillari	Ish xaqini bozordagi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbati orqali belgilanuvchi mexnat baxosidan iborat, deb belgilanadi

Ish xaqi ishchi va xizmatchilar mexnatining miqdori, sifati va umumidoriyiga qarab, milliy maqsulardan oladigan ulushining puldagi ifodasi

Nominal ish xaqi – ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish xaqi


Real ish xaqi – nominal ish xaqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori






Axoli turmush darajasi – axolining xayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi xamda ular exitoyining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi

- AXOLI TURMUSH DARAJASINING  
KORSAVKICHLAR TIZIMI GURUXLARI
- 1) tug'itilish va o'lish darajasi xamda boshqa demografik ko'rsatkichlar;
  - 2) xayot kechirishning sanitar-gigiena jixatidan sharoitlari;
  - 3) oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish;
  - 4) turar joy sharoitlari;
  - 5) ma'lumot va madaniyat;
  - 6) mexnat qilish va bandlik sharoitlari;
  - 7) axolining daromadlari va xarajatlari;
  - 8) xayot kechirish qiymati va iste'mol narxleri;
  - 9) transport vositalari;
  - 10) dam olishni tashkili etish;
  - 11) ijtimoiy ta'minot;



**Turmush tarzi** – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jaxon xanjamiyatidagi xayot faoliyati turi xamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya



- mehnat, uni tashkili etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy xayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik xayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari

**Eng kam iste'mol byudjetini xisoblash usullari:**

- iste'mol savati asosida;
- regressiy usuli: iste'molning eng kam qiymati, turli xarajatlar va daromadlar nisbati orqali;
- ekspert baxolash asosida sosiologik kuzatish o'tkazish orqali.

*Iste'mol savati- insonning muayyan darajadagi ehtiyoqlarini qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori bo'lib, u joriy bozor narxlarini bo'yicha xisoblanadi.*

**24.2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash**

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti daromadlar mutlaq miqdorining o'sib borishini taqozo qilsada, lekin uning nisbiy miqdorlardagi farq (turli mamalaklar va aloxida mamakat axolisi turli qatlamlari o'rtasidagi) xar qanday sharoitda saqlanib qoladi. Demak iqtisodiy o'sish va axoli daromadlari miqdorining ko'payishi daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi.

**Daromadlar tengsizligi** axoli daromadlarining o'tracha darajasidan, aloxida oilalar, axoli qatlamlari va guruxlari daromadlarining farq qilishlik darajasini

Ko'trsatadi,


Daromadlar tengsizligi va uning miqdori turli darajada aniqlanadi:

- dunyo mamalaklari bo'yicha;
- aloxida mamalaklar darajasida;
- ma'muriy-xududiy birliklar darajasida.

**Daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar**

- Kishilarning umumiy layoqatidagi (jismoniy, aqliy va estetik) farqlar.
- Ta'lim va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- Tadbirkorlik maxorati va riskka moyilligi darajasidagi farqlar;
- Bozorda xukmronlik qilish layoqati;
- Mulikka egalik qilishdagi farqlar;
- Omad, tasodif va boshqa favqulodda xolalar.

Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy ulchash uchun jaxon amaliyotida **Lorens egri chizig'idan foydalaniladi** «oilalar ulushi» yotik chizigida, «daromadlar ulushi» esa tik chizigida joylashgan. Nazariy jixatdan daromadlarning mutloq teng taqsimlanishi imkoniyati bissektirsa o'qida burchakni teng ikkiga buluvchi ifodalangan bo'lib, u oilalarning xar kandy mazkur foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'trsatadi. Bu oilalarning 20% i barcha daromadlarning 20%ni olsa, 40%-40%, 60%-60% va x.k. ni olishini bildiradi, mos keluvchi nuqtalar bissektirsa o'qida joylashadi. **Mutloq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi tafout daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi.** Lorens egri chizig'idan turli davrlarda yoki turli mamalaklarda yoki axolining turli guruxlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishini taqqoslash uchun foydalanishi mumkin. Bunda soliqlar chiqarib tashlangan va chiqarilmagan xamda ijtimoiy transport to'lovlarini o'z ichiga olgan daromadlar xisobga olinadi.



### Daromadlar tabaqalanishini aniqlash ko'rsatkichlari

<b>Disel koefitsienti</b>	Bu ko'rsatkich 10 foiz eng yuqori ta'minlangan axoli o'rtacha daromadlari va 10 foiz eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1 ga, Shveysiyada esa 5,5:1 ga teng
<b>Jini koefitsienti</b>	Yalpi daromadning axoli guruxlari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun <b>axoli daromadlari tengsizligi indeksi</b> ko'rsatkichidan foydalanishni ifodalaydi. Jini koefitsienti chizmadagi Lorenns egri chizig'i bilan muliq tenglik chizig'i o'rtasidagi yuzaning OFE uchburchak yuzasiga nisbati orgali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich ganchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashtirib boranda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

**Davlatning milliy daromadni qayta taqsimlash vazifasidan asosiy maqsad** daromadlar tengsizligidan farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy xayot sharoitini ta'minlashdan iborat. Bunday maqsadni ruyobga chiqarish shakli bo'lib, maxsulot va xizmatlarni taqsimlash, tarnsfer to'lovlar xamda daromadlarni bargarorlashtirish bo'yicha davlat dasturlari mablag'larining bir qismini davlat byudjeti orgali shakllanadi va markazlangan xolda foydalaniladi. Mablag'larining boshqa qismini korxonaning o'zlarining foydalari va fondlari xisobiga tashkil topadi.

### 24.3. Davlatning ijtimoiy siyosati. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

**Davlatning daromad siyosati tegishli daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni byudjet orgali axoli turli guruxlari o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat.** Bunga milliy daromadning ma'lum qismini yuqori daromad oluvchi axoli qatlamidan past daromad oluvchilarga qo'llig'a o'tadi. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor yo'li bilan o'rnatiladigan narxlarini o'zlashtirish (masalan, fermerlarga narxlarini kafolatlash) va ish xaqining eng kam darajasini

belgilash usullaridan foydalanadi.


**Ijtimoiy to'lovlar** - kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam tadbirlari tizimi bo'lib, bu ularning xo'jalik xayotida gathashishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy to'lovlarining maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlashtirish xamda ichki talabni ushlab turish xisoblanadi.

Ijtimoiy amaliyotda qashshoqlikning o'zi **xayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi.** Ijtimoiy minimum ehtiyojlarni qondirishning minimal normasi (me'yori) bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajalarini xam o'z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni kuzda tutadi.

Daromadlarni ushlab turishning keng doiradagi davlat dasturlari ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa, ular o'z ichiga ancha katta xajimdagi pul sarflarini va nafqa oluvchilarning asosiy qismini qamrab oladi. **Bu dasturlar umumiy soliq tushumlari xisobidan moliyalashtiriladi va davlatning xayriyaxon dasturlari xisoblanadi.**

**Ijtimoiy siyosat** - bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yuqsaltishga va bozor iqtisodiyoti gathashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat. Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat axolini ijtimoiy qullab quvvatlash va ximoya qilishga qaratiladi xamda aloxida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

#### Axolani ijtimoiy ximoyalashning asosiy yo'nalishlari



**Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya kilishga asoslanib, ijtimoiy kumaklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta'minlash ma'balari tubdan uzgartirishni takozo kiladi. Bu siyosat ijtimoiy ximoya anik maksadi va axolining anik tabakalarini kamrab olishni kuzda tutadi. Yordam tizimini fakat kam ta'minlangan va mexnatga laykatsiz fuqarolarga nisbatan kullaniib, shu maksad uchun davlat ma'balari bilan bir katorada mexnat jamoalari, turli tashkilot xamda jamgarmalarning mablag'laridan xam foydalaniladi.**

**Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan baxrmandan buluvchi asosiy kishilar xisoblanib, ular uchun xamma nafaka va moddiy yordamlar fakat oila ortkai etkazib beriladi.**

**Ijtimoiy kumaklashishning yangi tizimini mexnatga rag'batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bulishini xam takazo kiladi.**

### Xulosalar

1. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaga, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi. Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

2. Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

3. Farovonlikning eng quy'i chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishechi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

4. Dunyodagi barcha mamlatkatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rta daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli

mamlatkatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi.

5. Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni taqabulashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni byudjet orqali aholi turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat.

6. Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish — bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rta darajasini muntaзам oshirib borish hisoblanadi.

### Asosiy tayanach tushunchalar

**Aholi daromadlari** — aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

**Nominal daromad** — aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

**Ixtiyorida bo'lgan daromad** — barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad.

**Real daromad** — narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyorida daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarini sotib olishga etadigan quvvati, ya'ni aholi daromadining xarid quvvati.

**Lorens egri chizig'i** — daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy jihatdan ifodalovchi geometrik egri chiziq.

**Ijtimoiy to'lovlar** — kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

**Ijtimoiy siyosat** — davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

2. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.
3. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar tavsiflab beradi?
4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va tushuntirib bering.
5. Lorens egri chizig'i nimani anglatadi? Uning mazmunini misollar yordamida bayon qiling.
6. Jini koeffitsienti qanday aniqlanadi? Rivojlangan mamlakatlarda mazkur koeffitsient qiymatining o'zgarish tendensiyalari nima bilan izohlanadi?
7. O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlarini izohlang.
8. Mamlakatimizda «Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?
9. Keyingi yillarda O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish borasida qanday natijalar qo'lga kiritilmoqda?
10. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o'zgarishida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?

## 25-bob. Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi

### Reja:

- 25.1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmillallashuvi
- 25.2. Jahon xo'jaligining globallashuvi yo'nalishlari va ziddiyatlari
- 25.3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon integratsiyasining rivojlanishi
- 25.4. Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish

### 25.1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmillallashuvi

**Jaxon xo'jaligi** (jaxon iqtisodiyoti) – bu xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan, iqtisodiy munosabatlar bilan o'zaro bog'langan milliy xo'jaliklarning o'zaro yaxlitligidir.

#### Jahon xo'jaligining vujudga kelish shart-sharoitlari:


- Xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashishning qaror topishi va rivojlanishi;
- transport, aloqa va xalqaro kommunikasiya tizimlari rivojlanishi;
- kapitalning to'planishi va markazlashishi oqibatida xalqaro monopoliyalar vujudga kelishi;
- FTT va ishlab chiqarishning baynalmillallashuv jarayonini kuchaytib borishi.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** – boshqa mamlakatlarga nisbatan ba'zi afzal sharoitlarga ega bo'lgan mamlakatlarni ma'lum turdagi tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi.



## Xalqaro mexnat taqsimotining sabablari va axamiyati

### Xalqaro mexnat taqsimotining zamonaviy bosqichi



### Jahon xo'jaligi

#### Tarkibi:


tovar va xizmatlar jaxon bozori;  
kapitallar jaxon bozori;  
ishchi kuchi jaxon bozori;  
xalqaro valyuta tizimi;  
xalqaro moliya-kredit tizimi;  
axborotlar soxasi, IT,

#### Sub'ektlar:

xalq xo'jaligi majmusiga ega davlatlar;  
transmilliy korporasiyalar;  
xalqaro tashkilot va institutlar;  
milliy chegaralardan tashqaridagi xo'jalikning barcha tarmoqlariga

## XALQARO ISHCHI MIGRASIYASI

Ishchi kuchi migrasiyasi – bu mexnatga layoqati axolini milliy chegaralardan tashqariga joylashishi, ko'chishi.




### Mexnat resurslarining xalqaro joylashuvidagi

#### ijobiy va salbiy tomonlar

<b>Migrantlar uchun</b>	yangi joyga ko'chish va joylashish bilan bog'liq yo'qotishlar yangi madaniyat, til va muxit va x.k.ga moslashish muammolari ishga joylashish, yaxshi mexnat sharoiti va ish xaqidan foyda olish ehtimoli
<b>Chetga jo'natuvchi mamlakatlar uchun</b>	jamiyat mexnat resurslarining bir qismini (odatda yaxshisini) yo'qotish («ziyovilarning chiqib ketish») davlat byudjetidagi milliy daromadlar va soliq tushumlari ma'lum qismining yo'qolishi to'lov balansining daromadlar qismi to'ldirishi (emigrantlarning pul o'tkazmalari)
<b>Qabul qiluvtchi mamlakatlar uchun</b>	jamiyatda bandlik va ijtimoiy keskinlik muammolarini engillashtirish ish beruvchilarning daromadlarini ko'paytirish (xorijiy ishchi kuchi arzoni)
<b>Jaxon uchun</b>	ishsizlikni qisqartirish, jaxon maxsulot ishlab chiqarishini oshirish madaniyat va xalqlarni yaqinlashtirish, jaxon xanjamiyatida tinchlik va to'lovlikni mustahkamlash

<i>E.F.Borisov jaxon xo'jaligi shakllanishining to'rt bosqichi</i>	
<b>Birinchi bosqich</b> ishlab chiqarishning sanoatlashuvidan oldingi davr	Dasrlab o'sha davrdagi kishilar jamoalari yoki qabilalari o'rtasida paydo bo'lgan savdo ayirboshlashuvi keyinchalik tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan turli mamlakatlarda o'rtasidagi doimiy tovar almashuvi – xalqaro savdoning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi
<b>Ikkinchi bosqich</b> ishlab chiqarishning sanoatlashuv davri	Yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi va tadbirkorlarning ko'proq foyda olishga intilishi tashqi savdoni deyarli barcha milliy xo'jaliklarning tarkibiy qisminga aylantirib qo'yishi natijasida XVIII-XIX asrlarda rivojlangan jaxon bozori paydo bo'ldi
<b>Uchinchi bosqich</b> XIX-XX asrlar	Bu davrda jaxon xo'jaligi tizimi shakllandi
<b>To'rtinchi bosqich XX asrning 60-yillari</b>	Ko'plab mustamlaka mamlakatlarning siyosiy qaramlikdan ozod bo'lishi natijasida zamonaviy jaxon iqtisodiyotida joby o'zgarishlarning yangi tendensiyalari paydo bo'ldi



## 25.2. Jahon xo'jaligining globallashtiruv yo'nalishlari va ziddiyatlari

**Globallashtiruv (lotincha globus – yer kurrasi)** jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkiliy topishi va rivojlanishini anglatadi.

Globallashtiruvning yo'nalishlari makroiqtisodiyotga nisbatan sifati jihatidan yangi bo'lgan iqtisodiy munosabatlar turining tarkib topishiga olib keladi. Globallashtiruv jarayonining quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

**Birinchi yo'nalish – mulkchilik munosabatlarining globallashtiruv.** Hozirda mulkiy o'zlashtirishning mamlakatlarda hududidan chetga chiquvchi, ko'plab davlatlarning ishtiroki asosida ro'y beruvchi ko'rinishlari amal qilmoqda. Bularga transmilliy korporatsiyalar (TMK), shuningdek TMKning xalqaro birlashmalarini misol keltirish mumkin.

**Ikkinchi yo'nalish – kooperatsiya va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasiga o'tish.** Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda hozirgi zamon murakkab mehnat kooperatsiyasiga xos bo'lgan xo'jalik o'zaro aloqalarining juda katta tarmog'iga kirishib ketganlar. Eng mukammal texnika vositalarini yaratishda turli mamlakatlardan yetkazib beriluvchi ko'plab butlovchi qismlardan foydalaniladi. Masalan, AQSh "Boing" samolyotini ishlab chiqarishda butlovchi qism va detallarni mingga yaqin xorijiy firmalardan oladi.

**Uchinchi yo'nalish – xo'jalikni tashkiliy etishning butunlay yangi shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi.** Jahonda xo'jalik aloqalarini tashkiliy etish shakllarining tubdan o'zgarishi ko'p jihatdan axborot tarqatishning globallashtiruv bilan bog'liq. Jumladan, yangi asrning dastlabki davri uchun quyidagi jarayonlar xos bo'ladi: a) butun jahonni to'liq kompyuterlashtirishni taqozo etuvchi global axborot tizimlari (Internet shifari) yanada rivojlanadi; b) sun'iy yo'l doshlar imkoniyatlaridan foydalanishning yangi tizimi uyali telefon aloqasidan yo'l doshlar orqali ta'minlanuvchi global aloqaga o'tish imkonini beradi; v) insoniyat ochiq axborotlashgan jamiyat tomon intiladi; g) Internet orqali savdo tizimi keng rivojlanadi.

To'rtinchi yo'nalish – xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibga soluvchi roli rivojlanadi. Jahon xo'jaligi subektlarining o'zaro aloqasi hamda o'zaro bog'liqligining kengayishi va kuchayishi global muammolarni hal etishda tobora ko'proq davlatlarning ishtirok etishini taqozo etadi. Bu muammolarning murakkablashuvi ularning o'z vaqtida va tezkorlik bilan hal etilishida hukumatlararo va nohukumat (ishlab chiqaruvchilar, kompaniyalar va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqa tashkilotlarning birlashmalari) xalqaro iqtisodiy tashkilotlarining faoliyatini zaruriyatga aylantiradi.

#### Jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlari

tuti mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi.

boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi.

ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi

tuti mamlakatlarda aholi sonining o'zgarishining faqatlanishi.

*Yugoridagilardan ko'rinadiki, hozirda jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari o'zining ijobiy yo'nalishlari va ziddiyatlariga ega bo'lib, bu jihatlarning nisbatini tartibga solishda dunyoning barcha mamlakatlarning faol ishtiroki va birlashuvi talab etiladi.*

### 25.3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** jaxsonning xamma mamlakatlarning xo'jalik munosabatlaridagi o'zaro ta'sirlashish xarakteri va usullarini tavsiflaydi.

#### Xalqaro iqtisodiy munosabatlar:

- xalqaro tovar va xizmatlar savdosi
- xalqaro kredit
- kapitalning xalqaro migratsiyasi
- mexnat resurslarining xalqaro migratsiyasi
- xalqaro ilmiy-texnik aloqalar
- erkin iqtisodiy xududlar
- valyuta munosabatlari
- iqtisodiy integratsiya

#### Jahon bozori XVI asrda, buyuk geografik kashfiyotlar davrida tug'ildi.

**Kapitalning xalqaro xarakati** - bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va faoliyati qilishi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri **ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi** xisoblanib, u o'z ifodasini mexnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakadan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, maddaniy, oilaviy va boshqa xarakterdagi omillar xam taqozo qiladi.

**Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash** xar bir shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan soxasi kodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni lisenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan texnika va texnologiyani ijlalab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

**Jahon infrastrukturasini.** Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'tib boruvchi xarakati butun jaxon infrastrukturasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi.

#### Jahon mamlakatlari guruxi:

**Sanoati rivojlangan mamlakatlar** – bozor iqtisodiyoti, ilg'or va samarali ishlab chiqarish, axoli jon boshiga yuqori YAMM/YAIM ko'rsakichi va muvofiq tarzda kishilarning yuqori sifati turmush darajasiga ega IXRT mamlakatlari (iqtisodiy Xamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti)

**Yangi sanoatlashgan mamlakatlar** – bozor iqtisodiyoti shiddati o'sib borayotgan, fan va texnika taraqqiyoti, sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish va eksporti yuqori sur'atda ortib borayotgan, jamiyatda erkinkliklar rivojlanayotgan va demokratiyaga ega davlatlar. Bu – Koreya, Singapur, Tayvan va boshqalar.

**Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar** – Saudiya Arabistoni, Quveyt va qator OPEKka a'zo mamlakatlar – XX asrning so'nggi choragida xorijga neftni ko'p miqdorda etkazish orgali o'z daromadlarini keskin ko'tara oldilar.

**O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar** – samarasiz «buyruqbozlik iqtisodiyoti» dan ozod bo'lgan va demokratiya, shaxs erkinligi, ochiq jamiyat, xuquqiy-bozor munosabatlariga o'tgan mamlakatlar.

**Iqtisodiy qolqoq mamlakatlar** – jaxonning rivojlanmagan, qashshoqlik va kambag'allikdan aziyat chekayotgan (taxminan 100 ta) Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarining bir qismini (Somali, Efiopiya, Bangladesh, Birma, Gayana, Gaiti va boshqalar)

**Kapitalning xalqaro harakati - bu kapitalning chet elda joylashirilishi va harakat qilishi.** U chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- xususiy yoki davlat kapitali shaklida. Kapitalning xalqaro tashkilotlar yo'li bilan harakati ko'pincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi;
- pul va tovar shaklida. Jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalar, patentlar, nou-xau hamda tovar kreditlari shaklida bo'lishi mumkin;
- qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;
- suda va tadbirkorlik kapitali shaklida. Suda shaklidagi kapital quyilmalar bo'yicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi kapital esa foyda keliradi. Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri va portfelli investisiyalardan iborat bo'ladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning (ba'zida ularni tashqi iqtisodiy aloqalar, jahon xo'jaligi aloqalari deb ham yuritiladi) – bu jahonning turli mamlakatlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari majmuidir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi;
- kapital va chet el investisiyalarining harakati;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;
- valyuta-kredit munosabatlari.


Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihataridan biri **ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi** hisoblanib, u o'z ifodasini ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitida ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakattan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa tavsifdagi omillar ham taqozo qiladi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismini o'z ichiga oladi: **emigratsiya** va **immigratsiya**. **Emigratsiya** – mamlakatlardan doimiy yashash joyiga chiqib ketishni, **immigratsiya** – mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi. Xalqaro migratsiya shuningdek repatriatsiya – ya'ni fuqarolarni ilgari chiqib ketgan mamlakatlarga qaytarilishi jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro migrantlar beshta asosiy toifaga ajratiladi:

- 1) immigrantlar va noimmigrantlar;
- 2) shartnoma bo'yicha ishlashga kelgan migrantlar;
- 3) nolegal, yashirin immigrantlar;
- 4) boshpana so'rovchi shaxslar;
- 5) qochoqlar.



Birinchi xalqaro tashkilotlar 20-yillarda tuzilgan bo'lsada (Millatlar ligasi-1919y, Xalqaro xisob-kitoblar banki 1929y.). Xozirgi davrda amal qiluvchi, xalqaro darajada jaxon xo'jalik aloqalarini ko'p tomonlama tartibga soluvchi tizimlar ikkinchi jaxon urushidan keyin shakllana boshladi.

1945 yil maxsus xalqaro uyg'unlashtiruvchi muassasalar –Xalqaro valyuta fondi (XVF-MVF) va Xalqaro ta'mirlash va rivojlantirish banki (XTRB-MBRR) tuzildi. Xozirgi davrda xam ularning ikkalasi muxim xalqaro tashkilot xisoblanadi: jaxon savdosi, xalqaro kredit va valyuta munosabatlari soxalarini davlatlararo tartibga solishning tartib-qoidalarini aniqlab beradi.

Urushdan keyingi davrda tuzilgan tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK-GATT) Evropa iqtisodiy xamkorligi tashkiloti (EIXT-OEES), NATOning iqtisodiy masalalarni uyg'unlashtiruvchi komitei (IMUK-KOKOM) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni libberlashtirish davriga to'g'ri keladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yana bir axamiyatga molik soxasi bu valyuta-moliya soxasidir. Xalqaro moliyaviy munosabatlarni uyg'unlashtirish XVF (MVF), XTRB (MBRR), iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (XRO-OESR), xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy korporasiya (XMK-MFK) va shu kabilar doirasida amalga oshiriladi. G'arbda etti etakchi mamlakatlarning xar yillik kengashi bu soxada muxim rol o'ynaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tarkibiy qayta qurishlarni moliyalashtirish bilan XTRB faol shug'ullanadi. XTRB va u bilan birga jaxon banki tarkibiga kiruvchi Xalqaro rivojlanish Uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy korporasiya (XMK-MFK) xar xil investision ob'ektlarni o'rta va uzoq muddatli kreditlash bilan shug'ullanadi. loyixalarning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini tayyorlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy qayta o'zgartirishga yordam beradi.

Sharqiy-Evropa mintaqasida tarkibiy qayta qurishga moliyaviy ta'sir ko'rsatish va yordam tashkil qilish maqsadida 1991 yil Evropa tiklash va rivojlanish banki (TREV-B-EVVR) tuzildi.

**Evropa ittifoqining ijroiya organi**

-**Evropa xamjamiyati Komissiyasi (EXK)**dir. Uning a'zolari milliy xukumatlar tayinlaydi, lekin ular o'z faoliyatlarida mutlaqo mustaqildir.

**Ittifoqning qarorlar qabul qilish organi.**

-**Vazirlar Kengashi** xisoblanadi. Uning tarkibida ichki ishlar, moliya, ta'min, qishloq xo'jaligi kabi Vazirlar Kengashi mavjud bo'ladi.

**Evropa xamjamiyati Komissiyasi faoliyatini nazorat qilish, xamjamiyati byudjeti va qonunlarini maqullash xamda ularga o'zgartirish kiritish xuquqi Evropalament** zimmasiga yuklatiladi.

Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy axamiyati jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi xalqaro integrasi markazi Shimoliy Amerika xududi xisoblanadi. Bu erda 1994 yilning 1 yanvarida Shimoliy Amerika Erkin savdo assosiasiyasi (NAFTA) tashkiloti kuchga kirdi. NAFTA tashkiloti AQSH, Kanada va Meksika davlatlarini o'z tarkibiga birlashtirgan.

**NAFTA** davlatlari kelishuvida asosan tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, o'zaro kelishmovchiliklarni xalqaro mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investisiya muxitini erkinlashtirish masalalari nazarda tutilgan. NAFTAning Eiga nisbatan o'ziga xos xususiyati integratsiya jarayonlarining simmetrik emasligidir.

**NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy xohlatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- AQSH, Kanada va Meksika davlatlarida o'zaro savdo qiladigan tovarlarga nisbatan bojlarini bekor qilishi;
- Shimoliy Amerika bozorlarini Meksika orqali AQSHga kirib kelayotgan tovarlar uchun bojlarini to'lanmaslikka xarakat qiluvchi Osiyo va Evropa kompaniyalari ekspansiyasidan ximoya qilish;
- Meksikada bank va sug'urta kompaniyalari ishida Amerika va Kanada kompaniyalari kapital qo'yilmalari va raqobatlariga bo'lgan ta'qiqlarni olib tashish;
- atrof-muxitni ximoyalash bilan bog'liq muammolarni xalq qilish uchun uch tomonlama guruhlar tashkil qilish va boshqalar.

Jahon iqtisodiyotida **uchinchi integratsiya markazi** boshqa integratsiya markazlariga nisbatan xuddi, axolisi va resurslarining miqdori bo'yicha ancha ustundir. Biroq, Osiyo-Tinch okeani mintaqasining integratsiyalashuvi yo'lida juda ko'p to'siqlar (mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik-diniy va madaniy farqlar, o'zaro siyosiy da'volar, xuddiy to'qnashuvlar va boshqalar) mavjud. Xozirgi kunda Osiyo-Tinch okeani xavzasida bir necha yirik subxuddiy iqtisodiy guruhlar - **Janubiy-SHARQiy Osiyo davlatlari Assosiasiyasi (ASEAN)**, Janubiy Xitoy Forumi, Avstraliya-Yangi Zelandiya erkin savdo xuddi va boshqalar mavjud bo'lib, ular xam dunyoning eng yirik okeanbo'yi sohillarida joylashgan davlatlarning umumiy tashkilotini shakllanishiga xalaqat bermoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy xamkorligi tashkiloti 1989 yilda tashkil topgan bo'lib, 21 davlatni o'z tarkibiga birlashtirgan. Bu tashkilotning 1995 yil Osaka shaxrida ma'qullangan xarakat dasturi 2010-2020 yillargacha savdo va investitsiyalashning Umumjahon savdo tashkiloti (UST) standartlariga muvofiq erkinlashtirishga yo'naltirilgan.

**Xulosalar**

1. Jahon xo'jaligi milliy xo'jalikdan iqtisodiy aloqalarning xalqaro miqyosga chiqishi va yagona jahon bozorining mavjudligi bilan farqlanadi. Jahon bozorining amal qilishiga rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosati ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Jahon bozorining o'ziga xos xususiyati bo'lib jahon narxleri va xalqaro raqobat tizimining amal qilishi hisoblanadi. Aynan xalqaro raqobatning mavjudligi turli darajadagi milliy qiymatlarni yagona baynalminal qiymatga keltiradi. Jahon narxi jahon bozoriga ne'matlarning asosiy hajmini etkazib beruvchi mamlakatlardagi shart-sharoitlar orqali aniqlanadi.
2. Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminalashuvi - bu iqtisodiy aloqalarning jahon miqyosida kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olishi jarayoni hisoblanadi.
3. Iqtisodiy hayotning baynalminalashuvi bilan bir qatorda globallashuv jarayoni ham muhim o'rin tutadi. Globallashuv jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi. Globallashuv jarayonining mulkchilik munosabatlarning globallashuvi; kooperatsiya va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasiga o'tishi; xo'jalikni tashkil etishning butunlay yangi shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi; xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibga soluvchi roli rivojlanishi kabi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. SHuningdek, jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonlarining turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishining bir tekisda bormasligi; boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi; ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi; turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining farqlanishi kabi ziddiyatli tomonlari ham mavjud.
4. Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma'lum turini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

5. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilinishining ma'lum darajasi bilan tavsiflanadi.

6. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisoblanib, u o'z ifodasini ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitida ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakattan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

#### Asosiy tayananch tushunchalar

**Jahon xo'jaligi** – xalqaro mehnat taqsimoti, savdo-ishlab chiqarish, moliyaviy va ilmiy-texnikaviy aloqalar orqali birlashgan turli mamlakatlar xo'jaliklari tizimi.

**Ishtab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalmihallashuvi** – mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olishi jarayoni.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** – alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishtab chiqarishga ixtisoslashuvi.

**Globallashtuv** – jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkili topishi va rivojlanishi.

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** – jahonning turli mamlakatlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari majmui.

**Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi** – ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitida ish bilan ta'minlanish maqsadida bir mamlakattan boshqasiga ko'chib o'tishi.

**Emigratsiya** – ishchi kuchining mamlakattan doimiy yashash joyiga chiqib ketishi.

**Immigratsiya** – ishchi kuchining mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo'jaligining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?

2. Jahon hamjamiyati mamlakatlari turkumlash qanday mezonlarga asoslanadi? Ularni turkumlash bo'yicha hozirgi davrdagi yondoshuvlarga asoslanib davlatlarning asosiy guruhlarini ajratib ko'rsating.

3. Iqtisodiy hayotning baynalmihallashuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?

4. Globallashtuv jarayoni nima va uning qanday yo'nalishlari mavjud? Globallashtuv jarayonining ziddiyatli jihatlarini gapirib bering.

5. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rolni o'ynaydi?

6. Jahon narxlari qanday qiymatga asoslanadi? Jahon narxlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tavsifini bering.

7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.

8. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi to'g'risida tushuncha bering. Xalqaro migrantlar qanday toifalarga ajratiladi?

9. Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering va ularning har birining ahamiyatini ko'rsating.

10. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi? Hozirda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday xalqaro tuzilmalarni bilasiz?

**26-bob. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi**

**Reja:**

26.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari

26.2. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarining amal qilish xususiyatlari

26.3. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyati

**26.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari**

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** – bu turli mamlakatlar iqtisodiy aloqalarining barqarorlashib, chuqurlashib rivojlanishi, ular xo'jaliklarining chambarchas birlashish jarayonlaridir

**Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari**

Erkin savdo hududlari	<i>• bu iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi savdo cheklashlari bekor qilinadi.</i>
Bojxona ittifoqi	<i>• iqtisodiy integratsiyaning bu shakli erkin savdo hududlarining faoliyat qilishi bilan birga yagona tashqi savdo tarflari o'rnatilishi va ichinchi mamlakatlarga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritilishini taqozo qiladi.</i>
To'lov ittifoqi	<i>• bu milliy valyutalarning o'zaro erkin almashirini va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishini ta'minlaydi.</i>
Umumiy bozor	<i>• bu iqtisodiy integratsiyaning ancha muntazab shakli bo'lib, uning qatnashchilariga erkin o'zaro savdo va yagona tashqi savdo tarfi bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosat ta'minlanadi.</i>
Iqtisodiy va valyuta ittifoqi	<i>• bu darajalararo iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli hisoblanadi. bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qator chiqqan shakllari umumiy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.</i>


Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini ob'ektiv tavsifdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichidan quyidagilar asosiy o'rinni egallaydi:

- xo'jalik aloqalarining bayraminallasuvi va globallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon fan-texnika revolyusiyasi;
- milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

Integratsiya jarayonlarini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri – milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasining oshishidir. **Ochiq iqtisodiyotning o'ziga xos belgisi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:**

- mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga chuqur kirishganligi;
- tovarlar, kapital, ishchi kuchining mamlakatlararo harakati yo'lidagi to'siqlarning kamaytirilishi yoki to'liq bartaraf etilishi;
- milliy valyuta konvertatsiyasining ta'minlanganligi

**Integratsiya turlari**





### Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shartlari

Integratsion aloqaga kiritilayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan bir xil darajada bo'lishi hamda bir tardagi xo'jalik tizimlariga ega bo'lishi;

ularning hududiy jihatidan yuqulishi, yuqorici miholqada joylashganligi va umumiy chegaralarga egaoligi;

ularning tarixan tarkib topgan va etarli darajada mustahkam iqtisodiy aloqalarga egaoligi;


iqtisodiy manfaatlar va muammolarning umumiyligi hamda ularni hal etishda birgalikdagi harakatlarning samaradorligi va h.k.

### 26.2. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarning amal qilish xususiyatlari

Bütün jaxon xo'jalik xayotining bayramliallashuvi davlatlararo xo'jalik aloqalarini tartibga solishning mexanizmini yaratish zarurligiga olib keldi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish milliy tashkiliy shakllardan boshlanadi. Xo'jalik xayotining bayramliallashuv jarayoni dastlab milliy davlatlar faoliyatini xalqaro uyg'unlashitirishga, keyin esa davlatlararo va xalqaro tashkilotlar tuzilishiga olib keldi.

Xuquqiy ma'noda tartibga solish xalqaro tartiblarni o'rnatishga, ya'ni meyoriy normalar va qoidalarni aniqlovchi kelishuvlarni ishlab chiqarishni yoki xalqaro aloqalarning qandaydir soxasini xal qilishda tomonlarga majburiyalarga amal qilishni yuklaydi. Umumqabul qilingan standartlar va qoidalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro tartiblar o'z navbatida milliy tartibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Birinchi xalqaro tashkilotlar 20-yillarda tuzilgan bo'isada (Milliylar ligasi-1919y, Xalqaro xisob-kitoblar banki 1929y.). Xozirgi davrda amal qiluvchi, xalqaro darajada jaxon xo'jalik aloqalarini ko'p tomonlama tartibga soluvchi tizimlar ikkinchi jaxon urushidan keyin shakllana boshladi.

1945 yil maxsus xalqaro uyg'unlashitiruvchi muassasalar –Xalqaro valyuta fondi (XVF-MVF) va Xalqaro ta'mirlash va rivojlanitirish banki (XTRB-MBRR) tuzildi. Xozirgi davrda xam ularning ikkalasi muxim xalqaro tashkilot hisoblanadi: jaxon savdosi, xalqaro kredit va valyuta munosabatlari soxalarini davlatlararo tartibga solishning tartib-qoidalarini aniqlab beradi.

Urushdan keyingi davrda tuzilgan tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK-GATT) Evropa iqtisodiy xamkorligi tashkiloti (EIXT-OEES), NATOning iqtisodiy masalarni uyg'unlashitiruvchi komiteti (IMUK-KOKOM) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni libberlashitirish davriga to'g'ri keladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yana bir ahamiyatga molik soxasi bu valyuta-moliya soxasidir. Xalqaro moliyaviy munosabatlarni uyg'unlashtirish XVF (MVF), XTRB (MBRR), iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (XRO-OESR), xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy korporasiya (XMK-MFK) va shu kabilar doirasida amalga oshiriladi. G'arbdagi etti etakchi mamlakatlarning xar yillik kengashi bu soxada muxim rol o'ynaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tarkibiy qayta qurishlarni moliyalashtirish bilan XTRB faol shug'ullanadi. XTRB va u bilan birga jaxon banki tarkibiga kiruvchi Xalqaro rivojlanish Uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy korporasiya (XMK-MFK) xar xil investitsion ob'ektlarni o'rta va uzoq muddatli kreditlash bilan shug'ullanadi, loyixalarning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini tayyorlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy qayta o'zgartirishga yordam beradi.

Sharqiy-Evropa mintaqasida tarkibiy qayta qurishga moliyaviy ta'sir ko'rsatish va yordam tashkil qilish maqsadida 1991 yil Evropa tiklash va rivojlanish banki (TREV-EVRR) tuzildi.

#### Evropa ittifoqining ijroiya organi

-Evropa xamjamiyati Komissiyasi (EXKQ)dir. Uning a'zolari milliy hukumatlar tayinlaydi, lekin ular o'z faoliyatlarida mutlaqo mustaqildir.

#### Ittifoqning qarorlar qabul qilish organi.

-Vazirlar Kengashi xisoblanadi. Uning tarkibida ichki ishlar, moliya, ta'min, qishloq xo'jaligi kabi Vazirlar Kengashi mavjud bo'ladi.

Evropa xamjamiyati Komissiyasi faoliyatini nazorat qilish, xamjamiyati byudjeti va qonunlarini maqullash xamda ularga o'zgartirish kiritish xuquqi Evropalament zimmasiga yuklatiladi.

Jaxon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy axamiyati jixatidan ikkinchi o'rinda turuvchi xalqaro integratsi markazi Shimoliy Amerika xududi xisoblanadi. Bu erda 1994 yilning 1 yanvarida Shimoliy Amerika Erkin savdo assosiasiyasi (NAFTA) tashkiloti kuchga kirdi. NAFTA tashkiloti AQSH, Kanada va Meksika davlatlarini o'z tarkibiga birlashtirgan.

NAFTA davlatlari kelishuvida asosan tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, o'zaro kelishmovchiliklarni xal echish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investisiya muxitini erkinlashtirish masalalari nazarda tutilgan. NAFTAning Eiga nisbatan o'ziga xos xususiyati integratsiya jarayonlarining simmetrik emasligidir.

#### NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy

##### xolatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- AQSH, Kanada va Meksika davlatlarida o'zaro savdo qiladigan tovarlarga nisbatan bojlarini bekor qilish;
- Shimoliy Amerika bozorlarini Meksika orqali AQSHga kirib kelayotgan tovarlar uchun bojlarini to'lamaslikka xarakat qiluvchi Osiyo va Evropa kompaniyalari ekspansiyasidan ximoya qilish;
- Meksikada bank va sug'urta kompaniyalari ishida Amerika va Kanada kompaniyalari kapital qo'yilmalari va raqobatlariga bo'lgan ta'qiqlarni olib tashlash;
- atrof-muxitini ximoyalash bilan bog'liq muammolarni xal qilish uchun uch tomonlama guruslar tashkil qilish va boshqalar.

Jaxon iqtisodiyotida **uchinchi integratsiya markazi** boshqa integratsiya markazlariga nisbatan xududi, axolisi va resurslarining miqdori bo'yicha ancha ustundur. Biroq, Osiyo-Tinch okeani mintaqasining integratsiyalashuvi yo'lida juda ko'p to'siqlar (mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik-diniy va madaniy farqlar, o'zaro siyosiy da'volar, xududiy to'qnashuvlar va boshqalar) mavjud. Xozirgi kunda Osiyo-Tinch okeani xavzasida bir necha yirik subxududiy iqtisodiy guruslar - **Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assosiasiyasi (ASEAN)**, Janubiy Xitoy Forumi, Avstraliya-YAngi Zelandiya erkin savdo xududi va boshqalar mavjud bo'lib, ular xam dunyoning eng yirik okeanbo'yi soxillarida joylashgan davlatlarning umumiy tashkilotini shakllanishiga xalagit bermoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy xamkorligi tashkiloti 1989 yilda tashkil topgan bo'lib, 21 davlatni o'z tarkibiga birlashtirgan. Bu tashkilotning 1995 yil Osaka shaxrida ma'qullangan xarakat dasturi 2010-2020 yillargacha savdo va investisiyalashning Umumijaxon savdo tashkiloti (UST) standartlariga muvofiq erkinlashtirishga yo'naltirilgan.

## 26.3. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyati

### O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi

80 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatiladi
Dunyoning 20 dan ortiq davlatlarda elchixonalar ochiladi
BMIT iqtisodiy muassasalariga a'zolik
Jahon bankiga a'zolik
Xalqaro bankka a'zolik
Xalqaro valyuta fondiga a'zolik
Xalqaro moliya korporatsiyasiga a'zolik
Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar a'zolik

O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini ko'rita darajasiga bo'lish mumkin

<b>Global daraja</b>	• O'zbekistonning dini, etirofida xavfli va hamjamiyatlar (dini), etirofida hamjamiyat, an'anaviy, jahon banki, xalqaro bank, korporatsiya, banklar tashkiloti (sbi) kabi tashkilotlar faoliyatini o'z ichiga olgan bo'lgan.
<b>Transkontinental daraja</b>	• Bu xalqaro tuzatish iqtisodiy xarakterli tashkilot (sbi) sifatida o'zaro aloqalarni yanada kuchaytirishga qaratilgan. 1922-yilda tashkilot tuzilgan bo'lsa, o'z ichiga o'zaro iqtisodiy tashkilot, iqtisodiy, iqtisodiy va o'zaro aloqalar tashkiloti, o'zaro aloqalar tashkiloti, o'zaro aloqalar tashkiloti va o'zaro aloqalar tashkiloti kiradi.
<b>Mintaqalararo daraja</b>	• Yungli tashkilotlar — moliya, ma'muriyat bilan integratsiyaga kiradi.
<b>Mintaqaviy daraja</b>	• Bu mintaqaviy tashkilot, yungli mintaqaviy tashkilot, o'zaro aloqalar tashkiloti va o'zaro aloqalar tashkiloti sifatida o'zaro aloqalar tashkiloti, o'zaro aloqalar tashkiloti va o'zaro aloqalar tashkiloti kiradi.

Shunday qilib, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shishida dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi o'ringa ega bo'lib, bu milliy iqtisodiyotning bayramlilashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy tashqi omillari hisoblanadi.

### Xulosalar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya — bu mamlakatlarning chuqur, barqaror o'zaro iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi, milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik va siyosiy aloqalarining birlashish jarayonidir. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari sifatida erkin savdo hududlari, bojxona ittifoqi, to'lov ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqini ko'rsatish mumkin.
2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini ob'ektiv tavsifdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichida xo'jalik aloqalarining bayramlilashuvi va globalashuvi; xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi; umumijahon fan-texnika revolyusiyasi; milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi kabi asosiy o'rinni egallaydi.
3. Turli mamlakatlardagi integratsiyaning turli elementlari bir xilda rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, integratsiyaning qat'iy (bir tomonlama nafli) integratsiya, tasodifiy integratsiya, moslashuvchan (ikki tomonlama nafli) integratsiya kabi turlari farqlanadi.

4. Bugungi kunda O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p darajali tizim sifatida amal qilib, uni quyidagi beshta darajaga ajratish mumkin: global; transkontinental; mintaqalararo; mintaqaviy; mahalliy. Har bir darajadagi integratsion aloqalarning o'ziga xos vazifalari mavjud.

#### Asosiy tayanich tushunchalar

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** — jahon mamlakatlari o'zaro iqtisodiy aloqalarini chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashish jarayoni.

**Erkin savdo hududlari** — iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning dorasida savdo cheklashlari bekor qilinadi.

**Bojxona ittifoqi** — yagona tashqi savdo ta'rifi o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishini taqozo qiladi.

**To'lov ittifoqi** — milliy valyutalarning o'zaro almashinuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

Umumiy bozor – bunda uning qatnashchilari o'zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o'tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta'minlanadi.

**Iqtisodiy va valyuta ittifoqi** – iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli bo'lib, bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

**Qat'iy (bir tomonlama nafli) integratsiya** – integratsiya jarayonlaridan ba'zilar naf ko'ruvchi, boshqa birlari donor mamlakatlar hisoblanadigan integratsiyaning tashqi tavsif holatlari bilan shartlangan turi.

**Moslashuvchan (ikki tomonlama nafli) integratsiya** – har bir mamlakat bir vaqtning o'zida ham donor, ham naf ko'ruvchi hisoblanadigan integratsiya turi.

**Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?
2. Erkin savdo hududlarining mohiyatini tushuntiring. Bunday tuzilmalarning integratsiyalashuv jarayonidagi o'rni qanday?
3. Bojxona ittifoqi va to'lov ittifoqi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Umumiy bozorning amal qilish tamoyillari qanday va bugungi kunda uning faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar talab qilinadi?
5. Integratsiyaning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misollar keltiring.
6. Bugungi kunda O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining qanday darajalari mavjud?
7. Evropa Ittifoqi, Erkin savdo to'g'risida SHimoliy Amerika bitimi (NAFTA), Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) to'g'risida ma'lumot bering.
8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi yana qanday nazariyalarni bilasiz? Bu nazariyalarning afzal va kamchilik tomonlarini taqqoslang.
9. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsating.
10. Mamlakatimizning keyingi yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyatiga baho bering.


**27-bob. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari**


**Reja:**

- 27.1. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo to'g'risidagi turlicha nazariyalar
- 27.2. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari
- 27.3. To'lov balans, uning tuzilishi va taqchilligi
- 27.4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari
- 27.5. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi

**27.1. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo to'g'risidagi turlicha nazariyalar**

**Xalqaro savdo** - bu turli davlat-milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirtoshlash jarayonidir. bu esa eksport va importda o'z ifodasini topadi.





**Proteksionizmning klassik va zamonaviy ko'rinishlari farqlanadi. Klassik yoki qattiq proteksionizm siyosatining nazariy asosini merkantilizm tashkil etib, uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:**

- tovarlar importini cheklash;
- eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- chetdan keluvchi tovarlarga yuqori boji to'lovlarini o'rnatish orqali milliy ishlab chiqarishni himoyalash;
- tovarlarning ma'lum turlari bilan savdo qilishga davlat monopoliyasining o'rnatilishi va h.k.

**Zamonaviy proteksionizmning ham asosiy maqsadi ichki bozorda milliy ishlab chiqaruvchilar uchun nisbatan qulay sharoitlar yaratish hamda ularni xorijiy ishlab chiqaruvchilar raqobatidan himoyalash hisoblanadi, biroq uning usul va vositalari o'zining moslashuvchanligi bilan klassik proteksionizmdan farq qiladi**

Erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar mavjud bo'ladi. Ularning asosiy lari quyidagilar:

- 1) **boji to'lovlari.** Boji to'lovlari import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin;
- 2) **import kvotalari.** Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi;
- 3) **tarifsiz to'siqlar.** Tarifsiz to'siqlar devyilganda litsenziyalash tizimini, mahsulot sifatiga standartlar qo'yish yoki oddiy ma'muriy taqiqlashlar tushuniladi;
- 4) **eksportni ixtiyoriy cheklash.** Eksportni ixtiyoriy cheklash savdo to'siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o'zlarining ma'lum mamlakatga eksportini ixtiyoriy ravishda cheklaydi.

**Erkin savdo (fritederlik) siyosati proteksionizm siyosatining aksi bo'lib, tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan.** Bu siyosat xalqaro savdo hajmlarini o'sishiga olib keluvchi turli tarif va kvotalarni qisqartirish, milliy iqtisodiyotning ochiqiligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro savdoni tartibga solish xalqaro va milliy darajalarda amalga oshadi.

Milliy darajadagi tartibga solish eksport va importni tartiblash orqali namoyon bo'ladi. Eksportni tartiblash tashkiliy va kredit-moliyaviy usullar yordamida uni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. **Eksportni rag'batlantirishning tashkiliy usullariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

- eksport qiluvchilarga axborot va maslahat berish xizmatlarini ko'rsatuvchi maxsus bo'limlarni tashkil etish;
- savdo bitimlarini tuzishda davlat idoralarning ishtirok etishi;
- tashqi savdo uchun malakali kadrlarni tayyorlashga ko'maklashuv;
- xorijiy mamlakatlarda ko'rgazmalar tashkil etishda yordam ko'rsatish;
- milliy kompaniyalarni diplomatik jihatdan qo'llab-quvvatlash va h.k.

Eksportni rag'batlantirishning kredit-moliyaviy usullari quyidagilardan iborat:

- eksportga tovarlar yetkazib berishni subsidiyalash;
- eksport qiluvchilar uchun davlat kreditlarini berish va xususiy kreditlar berilishini rag'batlantirish;
- xorijda amalga oshiriluvchi savdo bitimlarini davlat tomonidan sug'urtalash;
- eksportdan olinuvchi foydadan soliq to'lashdan ozod etish va h.k.

Importni tartibga solish asosan uni tarifi va tarifsiz vositalar orqali cheklashdan iborat. Asosiy tarifi to'siq sifatida bojxona bojlarini keltirish mumkin.

### 27.3. To'lov balansini, uning tuzilishi va taqchilligi

**To'lov balansini** - bu mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt (odatda bir yil) oralig'ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvidir.

**Iqtisodiy bitimlar** - qiymatning har qanday ayiriboshlanishi, ya'ni tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlardan iborat. har bir bitim to'lov balansining debet va kredit qismlarida o'z ifodasini topadi.

**Kredit** – qiymatning mamlakardan chiqib ketishi bo'lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qoplovchi to'lovlar ekvivalentini oladi. **Debet** – qiymatning mazkur mamlakaga kirib kelishi bo'lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarning sarflaydi. To'lov balansida kreditlar umumiy summasi debelarning umumiy summasiga teng

To'lov balansidagi barcha bitimlar o'z ichiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli, u uchta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi (3-):

- 1) joriy operatsiyalar hisobi;
- 2) kapital harakati hisobi;
- 3) rasmiy zahiralarining o'zgarishi.

#### To'lov balansining tuzulishi

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balans qoldig'i	
3. Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k. - kreditli xizmatlar)	4. Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to'lovlar va h.k. - kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transferlar	
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i	
II. Kapital harakati hisobi	
7. Kapital kirish	8. Kapital oqib chiqishi
Kapital harakati balans qoldig'i	
Joriy operatsiyalar va kapital xarakati balans qoldig'i	
III. Rasmiy zahiralarining o'zgarishi	

Makroiqtisodiy modelda joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i quyidagicha ifodalanaadi:

$$X_{\text{eksport}} - M_{\text{import}} = X_n_{\text{sof eksport}} - Y_{\text{YalM}} - (C+I+G)_{\text{absorbsiya}}$$

Absorbsiya - yalpi ichki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xo'jaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi.

To'lov balansining taqchilligi Markaziy bank (MB) rasmiy zahiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Rasmiy zahiralarining asosiy lari quyidagilar:

- chet el valyutalari;
- oltin;
- mamlakatning XVFDagi kredit ulushi;
- qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va h.k.

#### 27.4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari

**Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari** - bu pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardir.

**Valyuta kursi** - bu bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishidir.

#### Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar

- 1 • milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- 2 • milliy iste'molchilarning real xarid qilish layogati va mamlakatdagi inlyatsiya darajasi;
- 3 • valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balans holati;
- 4 • mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- 5 • valyutalarga jahon bozordagi ishonch va h.k.

- Milliy valyuta tizimi – valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi. Uning tarkibiga quyidagi unsurlar kiradi:
- milliy pul birligi;
  - valyuta kursi tartibi;
  - valyutaning muomalada bo'lish shart-sharoitlari;
  - valyuta bozori va oltin bozori tizimi;
  - mamlakatning xalqaro hisoblashuv tartibi;
  - mamlakat oltin-valyuta zahirasining tarkibi va uni boshqaruv tizimi;
  - mamlakat valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi milliy muassasalar mavjqi.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustakamlangan shakli.

Xalqaro valyuta tizimining tarkibiy unsurlari qo'yidagilar hisoblanadi:

- asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari – SDR, Yevro);
- valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi;
- xalqaro to'lovlarni balanslashtirish tartibi;
- valyutaning muomala qilish shart-sharoiti;
- xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi;
- valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

**Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari**

<b>birinchi bosqich</b>	• 1879-1934 yillarni o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan.
<b>Ikkinchi bosqich</b>	• 1944-1971 yillarni o'z ichiga olib, bunda oltin-denizli (bretan-vyudk) tizimi deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. bu ikki tizim qo'y'd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan.
<b>uchinchi bosqich</b>	• 1971 yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqariladigan, shtab-yuruvchi valyuta tizimi nomi bilan ataladi. chunki dastlab ko'pincha o'z valyutalarining xalqaro qiyimatini o'zgartirish uchun valyuta bozori ning faolligi qo'yilishiga aralashadi.

**27.5. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faolligining rivojlanishi**

<b>Xalqaro valyuta fond (XVF)</b>	• O'ziga o'z nomidagi valyuta kurs va to'lov birlashtirish tartibiga sohib, u dastlab valyuta-moliya munosabatlarini ta'minlash maqsadida tashkilot sifatida tashkil topilgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri valyuta bozorini barqarorlashtirish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.
<b>Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (IVV)</b>	• moliya boshqarish to'g'risida tashkilot sifatida tashkilot sifatida tashkil topilgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri valyuta bozorini barqarorlashtirish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.
<b>Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining (XTB)</b>	• xTB amoniatni taqdim etadigan qurilmalarning asosiy qismi qo'yilgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri valyuta bozorini barqarorlashtirish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.
<b>Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK)</b>	• valyuta bozorini barqarorlashtirish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.
<b>Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA)</b>	• uning asosiy faolligi esa ko'proq qo'lg'usizlikni bartaraf etish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.
<b>Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHT)</b>	• u ilg'or amoniatni taqdim etadigan qurilmalarning asosiy qismi qo'yilgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri valyuta bozorini barqarorlashtirish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.
<b>Xalqaro hisoblashuvlar banki (XHB)</b>	• shu davrning boshida tashkilot sifatida tashkilot sifatida tashkil topilgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri valyuta bozorini barqarorlashtirish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.
<b>Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETB)</b>	• 1990-yilda tashkil etilgan bo'lib, asosiy faolligi moliyaviy va moliyaviy xizmatlarni ta'minlash maqsadida tashkilot sifatida tashkil topilgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri valyuta bozorini barqarorlashtirish va mamlakatlararo savdo olib borishni ta'minlashdir.

## Xulosalar

1. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkili etadi. Xalqaro savdo – bu turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan xalqaro savdo tashqi savdo aylannasi, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

2. Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakardan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakadan bo'lgan qarzlarni ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

3. Mamlakatdagi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi eksport hajmi uning iqtisodiyotining «ochiqligi» darajasini ifodalaydi. Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) – bu mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur etkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan qismi.

4. Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobattan himoya qilish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning proteksionizm (tashqi ta'sirdan himoyalash) va fritederlik (savdoga to'liq erkinlik berish) kabi shakllari keng tarqalgan.

5. Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo'ladi va shu sababli to'lov balansida ikki

tomonlana yozuv tartibiga rioya qilinadi. Har bir bitim to'lov balansining debet va kredit qismlarida o'z ifodasini topadi.

6. Iqtisodiyot sub'ektlarining davlat va Markaziy bank siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansini inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi.

7. Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlilar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika yutuqlarini ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi.

8. Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. Valyuta kursi bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishini ko'rsatadi.

9. Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, xarid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordamida beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi.

### Asosiy tayanch tushunchalar

**Eksport** – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakattan tashqariga chiqariladi.

**Import** – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

**Reeksport** – biror bir mamlakatning boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.

**Reimport** – iste'molchi mamlakattan reeksport tovarlarni sotib olish.



**Xalqaro valyuta tizimi** – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

**Valyuta kursi** – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.

**To'lov balans** – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odarda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

**Iqtisodiy bitimlar** – qiymaning har qanday ayirtoshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar.

#### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi?

2. Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?

3. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.

4. Proteksionistik siyosating ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.

5. Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.

6. Xalqaro valyuta tizimini tushuring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

7. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi?

8. Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

9. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi? Ularning asosiy faoliyatlarini tavsiflab bering.

#### **GLOSSARIY (Izohli lug'at)**

**Aholi pul daromadlari** – ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qiymatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

**Aholini ijtimoiy muhofaza qilish** – davlat tomonidan aholining etarli darajadagi hayotiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yunaltilgan kafolatlar tizimi.

**Aholining real daromadlari** – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

**Axborot infratuzilmasi** – mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o'zaro faoliyatini ta'minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar majmui.

**Bandlik** – mehnatga layoqati aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy etijoylarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

**Bank-moliya tizimining barqarorligi**– banklarning va boshqa moliya muassasalarining o'z majburiyatlari yuzasidan talablarga to'la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning etariligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

**Bank aktivlari** – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qiymatli qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko'rinishida bo'ladi.

**Bank tizimining likvidligi** – bankning o'z majburiyatlarini vaqtda va so'zsiz bajara olish imkoniyati.

**Banklar likvidligi** – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash

bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'leri darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

**Banklarning kredit portfeli** – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlamasi bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yahshi; b) standart; c) substandart; d) Shubhali; e) umidsiz. Tijorat banklarining ma'lum sanaga ssuda hisobvараqalarida qolgan pul mablag'leri majmuasi (goldig'i).

**Bank likvidligi** – banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining amal qilishini tartibga solishda va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishda qo'llaniladigan dastak va vositalar ya'ni nuquvlatlar to'planidir.

**Bozor kon'yunkturasi** – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

**Byudjet defitsiti** – byudjet xarajatlarning byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchilik.

**Bozor islohotlari** – bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

**Davlat byudjeti** – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

**Daromad solig'i** – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

**Daromad solig'i stavkalari** – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqdarning foizlardagi darajalari.

**Diversifikatsiya** – (lotincha dan diversus- har xil va facere-qilmog, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish

bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

**Diversifikatsiya strategiyasi** – korxonaga faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir.

**Dividend** – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qism bo'lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

**Erkin industriya-iqtisodiy zona** – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi.

**Erkinlashtirish** – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatining bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan jarayon; davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar tizimi; iqtisodiy siyosat yo'nalishlaridan biri.

**Eksport** – tovarlar, texnologiyalar va xizmatlarni tashqi bozorda sotish uchun mamlakat tashqarisiga olib chiqilishi.

**Emissiya** – nuomomaga pul yoki qimmatli qog'ozlarni chiqarish.

**Eksportning geografik tarkibi** – alohida qit'a mamlakatlari, mamlakatlar guruhlari, yoki alohida mamlakatning mamlakat eksportidagi ulushlari nisbati.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

**Global moliyaviy-iqtisodiy bozor** – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishga asoslangan munosabatlar.

**Xususiy tadbirkorlik** – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foйда) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

**Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar** – ikki turdagi – ishtirokchilari bevosita davlatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda tarkibiga ishlab

chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyalar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

**Ijtimoiy soha** – aholi turmush tarzi, uning farovonligi, iste'modlarajasiga bevosita bog'liq bo'lgan va ularni belgilab beruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar majmui. Ijtimoiy sohaga eng avvalo xizmat ko'rsatish sohasi (maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmat ko'rsatish, yo'llovchi transporti, aloqa va boshqalar) kiradi.

**Ijtimoiy dasturlar** – aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivoqlantirishga oid chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan rejayiv hujjatlar.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlilar** – bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlilar.

**Ijtimoiy infratuzilma** – aholingturmush faoliyatini, uning farovonligi ta'minlashga xizmat qiluvchi turli muassasa va ob'ektlar majmui.

**Iqtisodiy islohotlar** – iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

**Iqtisodiy ukhad** – turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

**Iqtisodiyotni erkinlashtirish** – nima va qancha ishlab chiqarishni, qaerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning o'zi belgilashi uchun imkon berish.

**Islohotlar konsepsiyasi** – ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'natishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g'oyasidir.

**Iqtisodiyotni barqarorlashtirish** – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

**Ijtimoiy to'lovlar** – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

**Ijtimoiy siyosat** – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

**Ijtimoiy-amaliy markaz** – ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsizlar o'rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish bilan shug'ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

**Iqtisodiyotning real sektori** – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

**Investitsiyalar** – asosiy va aylanna kapitalni gavya tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'tirishi.

**Investitsiya dasturi** - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadiriy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

**Investitsiya muhiti** – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

**Investitsion kreditlar** – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

**Infratuzilma** – har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lishi shart hisoblangan tarkibiy qismi.

**Ishlab chiqarish infratuzilmasi** – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va

avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

**Ishtab chiqarishni mahalliydastirish**— sanoat ishtab chiqarishining turli bosqichlarida import Shakkida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xom ashyo va materiallar asosida ishtab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

**Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari**— mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich va natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillashuvi darajasi.

**Iqtisodiy rivojlanish samaradorligi** — iqtisodiyotni rivojlantirish natijalarining bu borada qilingan sarf-xarajatlarga nisbati.

**Industriyalashtirish** — mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o'tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishtab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko'paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishtab chiqarishni barpo etish jarayoni.

**Inflyasiya** — pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadsizlanishi, narxlarning o'sishi.

**Inflyasiya darajasi** — ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

**Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi** — iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'tasidagi proporsiyalar va o'zaro nisbatlar.

**Investitsiyalar** — daromad olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.

**Iste'mol bozoridagi mutanosiblik** — iste'mol bozoriga taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi bilan aholining to'lovga qodir talabining o'zaro mosligi.

**Ijtimoiy soha ob'ektlari**— aholiining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiliuvchi soha va tarmoqlar majmumi. Bular

qatoriga uy-joy fondlari, sog'liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

**Ijtimoiy hamkorlik**— xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dingga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi.

**Iqtisodiy o'sish** — real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.

**Import** — mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir.

**Investitsion soliq krediti** — soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdagi asos bo'lsa, u holda soliq to'lovlarni kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma — bosqich to'lash mumkin bo'ladi.

**Inson omili** — amalga oshirilayotgan barcha ishlohtlarning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jihatni o'z ichiga oladi.

**Institutsional siyosat** - davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarida yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlar, hatti-harakatlar.

**Intermodal markaz** — yuk tashishlar bo'yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

**Inflyasiya darajasi** — ma'lum vaqt ichida (oy, yil) kamida 300 ta tovar va xizmatlardan tashkil topgan iste'mol savati bo'yicha narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

**Iste'mol** — ijtimoiy ishtab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarni qondirish jarayoni.

**Iste'mol krediti** — markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste'mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

**Ish bilan band bo'lgan jami aholi**— ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning jimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi.

**Ishsizlik** — iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay «ortiqcha» bo'lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo'lib qolish hodisasi.

**Jahon bozori kon'yunkturasi** - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, Ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

**Jahon banki** — 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

**Kichik biznes sub'ektlari** — korxonalar ko'lamini, ishlab chiqarish hajmini, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub'ektlar.

**Kichik korxonalar** — kichik biznes sub'ektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'rsanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

**Kooperatsiya aloqalari** — turli sohalar ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

**Kredit qarzдорlik**— korxonalar, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'lib, ular me'yordagi (muddatli o'timgan) hamda muddatli o'timgan qarzдорliklarga bo'linishi mumkin.

**Korporativ obligatsiyalar** — korporativ tashkiliy tuzilmalar (yuridik shaxslar) tomonidan o'zining faoliyatini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan qarz instrumentlari.

**Kooperatsiya aloqalari** — mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

**Korxonalar texnik qayta qurultirish** - alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi.

**Kapital xarajatlar** - asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar va zaxiralarning o'sishi.

**Kredit** — jismoniy va yuridik shaxslarning vaqinchalik bo'sh mablag'larini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

**Kutilayotgan inflyatsiya darajasi** — mavjud jimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

**Makroiqtisodiy muvozanat** — iqtisodiyot turi tomonlarining o'zaro tengligi bo'lib, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo'ladi.

**Mikrofirma** — kichik biznes sub'ektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar** — mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi jimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

**Moliyaviy sog'lomlashtirish** – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatchilikni oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish.

**Mamlakatning eksport salohiyati**– muayyan mamlakatning o'zida mavjud bo'lgan yoki ishlab chiqarilayotgan resurslari, mahsulotlarini eksportga chiqarish imkoniyati, qobiliyati.

**Mamlakat to'lov balansi** – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt (odatda bir yil) oralig'ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo'yicha to'lovlar summasi nisbati bo'lib, u o'z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o'kazmaqlar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

**Mamlakat iqtisodiyotining raqobatchilikligi** – mamlakatning o'rtacha va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

**Milliy iqtisodiyotning raqobatchilikligi** – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

**Mahalliylashtirish** – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

**Mikrokredit** – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar.

**Modernizatsiya** – ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

**Moliya tizimi** – moliyaviy munosabalar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

**Narx** – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

**Nodavlat va jamoat tashkilotlari** – davlatga qarashli bo'lmagan, ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

**Osiyo taraqqiyot banki** – Osiyo va Uzoq sharq mintaqasiga bevosita qarzlarni berish hamda texnik jihatdan ko'maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishini rag'batlantirish maqsadida 1966 yilda tashkil etilgan bank.

**Preferensiya** – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

**Proffisit** – davlat byudjeti daromadlarining xarajatlardan ko'prog' bo'lishi.

**Pul - kredit siyosati** – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmuasi.

**Protetsionizm** – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

**Pul emissiyasi** – amaldagi pul massasining ortishiga olib keluvchi pullarni muomalaga chiqarish.

**Pul massasi** – har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladigan naqd va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuidir.

**Pul - kredit siyosati** – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmuasi.

**Pul** – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

**Real daromad** — narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori bo'lib, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

**Samarali iqtisodiy siyosat** — davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o'zaro uyg'unlashtirilgan chora-tadbirlari majmumi.

**Solliqlar** — davlat byudjeti yoki mahalliy byudjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganliklari uchun majburiy to'lovlar.

**Solliqlarni unifikatsiya qilish** — soliq mexanizmini qoddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob'ekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini birlashtirish.

**Solliq imtiyozlari** — solliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda solliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqincha ozod qilish shakli.

**Solliq krediti** — byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan solliq summasini ma'lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki solliqni qaytarish shakli.

**Solliq solishning soddalashtirilgan tartibi** — solliq solishning ayrim toifadagi solliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi solliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan solliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Solliq stavkasi** — solliqlarni hisoblashda solliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan solliq me'yorini ifodalaydi.

**Solliq yukli** — mablag'larni boshqa foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlardan olib, solliqlarni to'lash uchun yo'naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklolvar darajasi bo'lib, odatda solliq to'lovchining muayyan davrda byudjetga to'langan solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat miqyosida solliq yukli darajasini solliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i orqali ifodalanaadi.

**Solliq yukini engillashtirish** — solliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

**Sug'urta kompaniyasi** — sug'urtalovchi rolda maydonga tushuvchi, ya'ni sug'urta hodisasi ro'y bergan chog'da sug'urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o'ziga oluvchi tashkilot.

**Sekulyarlashtirish** — davlat va jamiyat boshqaruvini din ta'siridan holi qilish jamiyoti.

**Tashqi savdo aylanmasi** — mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, muayyan vaqt oralig'idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig'indisiga teng bo'ladi.

**Tashqi savdo aylanmasi saldosi** — mamlakat eksporti va importi hajmlari o'rtasidagi farq, tafovut.

**Tashqi qarz** — mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

**Tashqi savdo siyosati** — bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

**Tashqi savdo aylanmasi diversifikatsiyasi** — eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi.

**Tejamkorlik** — jamiyat iqtisodiy rivojlanishining muayyan darajasida barcha resurslardan tejimli foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabat bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

**Turmush darajasi** — aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

**Tarkibiy o'zgarishlar siyosati** — davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmumi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar - o'zga mamlakat rezidentlari

tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag' kiritish, uni tasarruf etish va ular ishlatishi usidan nazorat o'rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra aksiyalarni kamida 10 foiziga egalik qilish.

**Turnush sifati** – jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko'ra uning o'lehoivi hisoblanuvchi tushuncha.

**Tashqi nodavlat qarzarlar** – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

**Tashqi savdo** – bir mamlakatning boshqa mamlakatlak bilan savdosi.

**Urbanizatsiya** – jamiyat taraqqiyotida shaharlar rolini oshirish jarayoni. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining tabiiy o'sishi, qishloq aholi punktlarini shaharlarga aylantirish, keng shahar oldi hududlarini shakllantirish hamda aholining qishloq joylardan shahar joylariga migratsiyasi hisobiga ro'y beradi.

**Valyuta bozori** – xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasi.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik** – alohida fuqarolar tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyati.

**Yagona soliq to'lovi** – kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig'imlar o'rninga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi.

**Yalpi ichki mahsulot** – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

**1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari va huquqiy-meyoriy xujjatlari**

**1.1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari:**

1.1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2015 yil. – 40 b.

1.1.2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat Statistikasi to'g'risida» gi Qonuni. 2002 yil 12 dekabr №441-11 // O'zbekiston Respublikasi qonunlar to'plami. –T.: 2002 yil. №24. 26-31 b.

1.1.3. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashirish to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1993 yil. – 56 b.

1.1.4. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1996 yil. – 68 b.

**1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farnonlari va Qarorlari**

1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farnoni. // "Xalq so'zi". 2017 yil. 8 fevral

1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3165-son Qarori. // "Xalq so'zi" 2017 yil. 31 iyul

1.2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida» gi Farnoni. «Xalq so'zi» gazetasi. 2002 yil 26 dekabr.

1.2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadalashirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori «Xalq so'zi» gazetasi. 2006 yil 17 aprel.

1.2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish choralari to'g'risida" gi 2011 yil 7 yanvardagi №PP-1464 sonli qarori.



### 1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1.3.1. «O'zbekiston Respublikasida xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish davlat dasturi». Vazirlar Mahkamasining 433-sonli qarori. 1994 yil 24 avgust.

1.3.2. «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8-sonli qarori. 2003 yil 8-yanvar.

### 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

2.1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston NMIU 2017 y. -488 b.

2.2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturling eng muhim ustvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 15.01.2017 y.

2.3. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlarga o'tishning o'ziga xos yo'li. -T.: O'zbekiston. 1993. - 116 b.

2.4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston. 1995. - 124 b.

2.5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston. 1995. - 269 b.

2.6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston. 2009. 56 b.

2.7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -T.: O'zbekiston. 2010. - 56 b.

2.8. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuklatilish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. -T.: O'zbekiston. 2011. - 59 b.

### 3. Kitob va turkum nashrlar

3.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plamlari

a) bir tomlik:

3.1.1. Abdullayev Y.O. Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. -T.: «Mehnat», 1998. 384 b.

3.1.2. Abduraxmonov Q.X., To'xtirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'li. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyot jamg'armasi nashriyoti, TDIU, 2004.

3.1.3. Abulkasimov H.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning birligini rivojlantirishi. -T.: Akademiya, 2011.

3.1.4. Abulkasimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari. -T.: Akademiya, 2012.

3.1.5. Abulkasimov H.P., Namraev O.Y.A. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. -T.: Iqtisod moliya, 2014.

3.1.6. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). -T.: «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2010. - 756 b.

3.1.7. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. - 784 b.

3.1.8. Борисов Е.Ф. Экономическая теория. Учебник. -М.: Проспект. 2006. 314 с.

3.1.9. Леонтьев В. Экономические эссе. -М.: Политиздат, 1990. 415 с.

3.1.10. Маршалл Ж. Новые элементы французской системы национальных счетов. -М.: Статистика, 1967. 374 с.

3.1.11. Стоун Р. Метод затрат-выпуск и национальные счета. -М.: Статистика, 1964. 212 с.

3.1.12. Стуленский В. Доход нации. -М.: Статистика, 1968. 712 с.

3.1.13. Хансен Э. Экономические циклы и национальный доход. -М.: Иностранная литература, 1959. 256 с.

3.1.14. Хикс Дж. Стоимость и капитал. -М.: Прогресс, 1993. 240 с.

3.1.15. S'ou'ibnazarov V.K. Milliy hisoblar tizimi. -T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. 125 b.

**b) ikki muallif:**

3.1.16. Atapova T.A., SerEGINA S.F. Makroekonomika. -M.: Delo i servis, 2001. 448 s.

3.1.17. Bashkurov B.I., Ryabushkin B.T. Praktikum po nacionalnomu schetovodstvu. -M.: Finansy i statistika, 2004. 319 s.

3.1.18. Vidянина B.I., Zhuravleva G.P. Obshchay ekonomicheskay teoriya (politjekonomiya). Uchebnik. Podred. -M.: Promomedia, 1995. 390 s.

3.1.19. Dorbinush R., Fisher S. Makroekonomika. Per. s. ang. -M.: MGU. Infra 1997. 450 s.

3.1.20. Makkonell K.P., Брю С.Д. Экономике 14-е издание, учебник. -M.: Инфра 2002. 540 с.

3.1.21. Образцова О.И., Копейкина О.В. Система национальных счетов. Учебник. -M.: ГУ ВШЭ, 2008. 231 с.

3.1.22. Сагин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов. -M.: Финансы и статистика, 2006. 270 с.

**4. Statistik ma'lumotlar**

4.1. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2004 год. Статистический сборник. -T.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2005. с.204

4.2. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2008 год. Статистический сборник. -T.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2009. с.196.

4.3. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2009 год. Статистический сборник. T.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2010. с. 203.

4.4. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2015 год. Статистический сборник. -T.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2016. с. 206.

4.5. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2016 год. Статистический сборник. -T.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2019. с. 198.

4.6. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlati. -T.: O'zbekiston. 2011. 140 b.

**5. Internet manbalari**

5.1. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

5.2. [www.lbu.uz](http://www.lbu.uz)

5.3. [www.isbuk.ru](http://www.isbuk.ru)

5.4. [www.businessvoc.ru](http://www.businessvoc.ru)

5.5. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

5.6. <http://www.worldbank.org/>

5.7. <http://en.wikiredia.org/>

KIRISH.....	4
<b>I-BO'LIM. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI...</b>	
<b>1-bob. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish usullari.....</b>	6
1.1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi.....	6
1.2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.....	8
1.3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari.....	11
1.4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar).....	14
1.5. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilish usullari.....	15
<b>2-bob. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari.....</b>	21
2.1. Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi.....	21
2.2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.....	23
2.3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.....	25
2.4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi.....	29
2.5. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari.....	30
<b>3-bob. Ilmiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari.....</b>	34
3.1. Ilmiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar.....	34
3.2. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari.....	37
3.3. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulkiy ob'ektlari va sub'ektlari.....	38
3.4. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.....	41
3.5. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish maqsadi, yo'llari va usullari.....	54
<b>4-bob. Tovar-pul munosabatlari - bozor iqtisodiyotining asosidir.....</b>	59
4.1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi.....	59
4.2. Tovar va uning xususiyatlari.....	62
4.3. Qiymat to'g'risidagi turli xil nazariyalar.....	64
4.4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.....	65
4.5. O'zbekistonda milliy valyuta — so'mning muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari.....	68
<b>II BO'LIM. BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI.....</b>	72
<b>5-bob. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi.....</b>	72
5.1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.....	72
5.2. Bozor iqtisodiyotida doimiy va asosiy muammolarning hal qilinishi.....	75
5.3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.....	77
5.4. Bozor va uning vazifalari.....	79
5.5. Bozorning turlari va tuzilishi.....	81
5.6. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.....	85

<b>6-bob. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari.....</b>	90
6.1. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari.....	90
6.2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari.....	93
6.3. O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.....	96
<b>7-bob. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati.....</b>	103
7.1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni.....	103
7.2. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni	106
7.3. Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati.....	108
7.4. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi.....	111
<b>8-bob. Raqobat va monopoliya.....</b>	118
8.1. Raqobating mohiyati, shakllari va usullari.....	118
8.2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari.....	123
8.3. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik.....	128
<b>9-bob. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari.....</b>	135
9.1. Narxning mazmuni va uning vazifalari.....	135
9.2. Narx turlari va ularning mazmuni.....	136
9.3. Raqobating turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari.....	139
9.4. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirish xususiyatlari.....	142
<b>10-bob. Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi..</b>	146
10.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari.....	146
10.2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari, ularni tashkil etish va boshqarishning bozor tizimlari.....	149
10.3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashirilishi va rag'batlantirilishi.....	154
10.4. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati bosqichlari.....	156
10.5. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanna kapital.....	158
10.6. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligi.....	159
<b>11-bob. Korxonalar (firmlar) xarajatlari va foydasi.....</b>	163
11.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi.....	163
11.2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarning o'zgarish tamoyillari.....	167
11.3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi.....	170
<b>12-bob. Ish haqi va mehnat munosabatlari.....</b>	180

12.1. Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari.....	180
12.2. Ish haqining iqtisodiy mazmuni.....	182
12.3. Ish haqini tashkiliy etish shakllari va tizimlari.....	183
12.4. Mehnat munosabatlarning iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli.....	186
<b>13-bob. Agrar munosabatlar va agrobiznes.....</b>	<b>191</b>
13.1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning xususiyatlari.....	191
13.2. Renta munosabatlari.....	193
13.3. Agrosanoat integratsiyasi va agrobiznes.....	195
13.4. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirish va yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	197
<b>III BO'LIM. MILLIY IQTISODIYOT (MAKROIQTISODIYOT)NING AMAL QILISH VA RIVOJLANISH QONUNIVATLARI.....</b>	<b>204</b>
<b>14-bob. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari.....</b>	<b>204</b>
14.1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.....	204
14.2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari	208
14.3. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari.....	211
<b>15-bob. Yalpi talab va yalpi taklif.....</b>	<b>218</b>
15.1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.....	218
15.2. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar.....	223
15.3. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi.....	227
<b>16-bob. Iste'mol, jang'arma va investitsiyalar.....</b>	<b>232</b>
16.1. Iste'mol va jang'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi.....	232
16.2. Jang'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi.....	235
16.3. Investitsiyalar va ularning darajasini belgilovchi omillar.....	236
16.4. Jang'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbatni ta'minlash muammolari.....	240
16.5. O'zbekistonda investitsion faollikni ta'minlash va uning shart-sharoitlari.....	241
<b>17-bob. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik.....</b>	<b>246</b>
17.1. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari.....	246
17.2. Iqtisodiy o'sishning omillari.....	250
17.3. Iqtisodiy o'sish modellari.....	252
17.4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.....	255
<b>18-bob. Milliy iqtisodiyotning muvozanati va nisbatlari.....</b>	<b>260</b>
18.1. Iqtisodiy muvozanat, uni ta'minlash shart-sharoitlari va aniqlash	260

usullari.....	262
18.2. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.....	262
18.3. O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirishi.....	264
<b>19-bob. Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik.....</b>	<b>269</b>
19.1. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklliligi.....	269
19.2. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Sikllarning asosiy turlari.....	271
19.3. Inqirozlarning mazmuni va turlari.....	274
19.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari.....	277
<b>20-bob. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik.....</b>	<b>284</b>
20.1. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.....	284
20.2. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va uning taklifi nisbati.....	286
20.3. Ishchi kuchi bandligi to'g'risidagi turli konsepsiyalar sharti.....	287
20.4. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash.....	290
20.5. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.....	291
<b>21-bob. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.....</b>	<b>295</b>
21.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi.....	295
21.2. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari.....	298
21.3. Soliq tizimi va uning vazifalari.....	300
21.4. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari.....	307
<b>22-bob. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli va pul taklifi.....</b>	<b>310</b>
22.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyalari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi.....	310
22.2. Infiyatsiya, uning mohiyati va turlari.....	312
22.3. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.....	317
22.4. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari.....	318
22.5. O'zbekistonda milliy valyutani mustakamlash siyosatining amalga oshirilishi.....	320
<b>23-bob. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli.....</b>	<b>326</b>
23.1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar.....	326
23.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi va vazifalari.....	329
23.3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.....	331
<b>24-bob. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.....</b>	<b>338</b>
24.1. Aholi daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari.....	338
24.2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash.....	343
24.3. Davlatning ijtimoiy siyosati. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy	345

## СОДЕРЖАНИЕ

yo'nalishlari.....	350
<b>IV BO'G'IM. JAHON XO'JALIGI.....</b>	<b>350</b>
<b>25-dob. Jahon xo'jaligi va uning evolutsiyasi.....</b>	<b>350</b>
25.1. Iqtisodiy rivojlanishning umijahon tomonlari va ishlab chiqarishning bayraminallashtuvi.....	350
25.2. Jahon xo'jaligining globalashuvi yo'nalishlari va ziddiyatlari.....	354
25.3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon inflyatsiyasining rivojlanishi.....	356
25.4. Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish.....	258
<b>26-dob. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi.....</b>	<b>365</b>
26.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiiv asoslari.....	365
26.2. Jahondaqi asosiy integratsion guruhlarining amal qilish xususiyatlari.....	367
26.3. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyati.....	371
<b>27-dob. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.....</b>	<b>374</b>
27.1. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo to'g'risidagi turlicha nazariyalar.....	374
27.2. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.....	375
27.3. To'lov balans, uning tuzilishi va taqchilligi.....	376
27.4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.....	378
27.5. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlarga tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi.....	380
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>384</b>
<b>ADABIYOTLAR.....</b>	<b>398</b>

<b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>	<b>3</b>
<b>РАЗДЕЛ I. ОБЩИЕ ОСНОВЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....</b>	<b>5</b>
Глава 1. Предмет и методы познания дисциплины «Экономическая теория».....	5
1.1. Экономика и ее основная проблема.....	5
1.2. Формирование и развития экономической теории как науки.....	7
1.3. Предмет и задачи экономической теории.....	10
1.4. Экономические законы и категории (научные термины).....	13
1.5. Методы научного познания экономических процессов.....	14
<b>Глава 2. Процесс производства и его результаты.....</b>	<b>20</b>
2.1. Факторы производства и их классификация.....	20
2.2. Сущность процесса производства.....	22
2.3. Общие и конечные результаты производства.....	24
2.4. Производственная возможность и ее границы.....	28
2.5. Эффективность производства и ее показатели.....	29
<b>Глава 3. Экономические системы и отношения собственности.....</b>	<b>33</b>
3.1. Этапы социально-экономического развития и различные подходы к их познанию.....	33
3.2. Экономические системы и их модели.....	36
3.3. Сущность и экономическое содержание отношений собственности. Объекты и субъекты собственности.....	37
3.4. Многообразие форм собственности и их экономические содержания.....	40
3.5. Цели, пути и способы разгосударствления и приватизации собственности в Узбекистане.....	53
<b>Глава 4. Товарно-денежные отношения - основа рыночной экономики.....</b>	<b>58</b>
4.1. Переход от натурального производства к товарному производству.....	58
4.2. Товар и его свойства.....	61
4.3. Различные теории стоимости.....	63
4.4. Происхождение, содержание, функции и роль денег.....	64
4.5. Введение в обращение национальной валюты - сума в Узбекистане и пути ее укрепления.....	67
<b>РАЗДЕЛ II. ТЕОРИИ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....</b>	<b>71</b>
<b>Глава 5. Содержание и функционирование рыночной экономики.....</b>	<b>71</b>
5.1. Содержание и основные признаки рыночной экономики.....	71
5.2. Решения основных и постоянных проблем в рыночной экономики.....	74
5.3. Преимущества и противоречия рыночной экономики.....	76
5.4. Понятие и функции рынка.....	78
5.5. Виды и структура рынка.....	80

5.6. Инфраструктура рынка и ее элементы.....	84
<b>Глава 6. Переходный период к рыночной экономике и его особенности в Узбекистане.....</b>	<b>89</b>
6.1. Понятие переходного периода. Пути перехода к рыночной экономике.....	89
6.2. Принципы и особенности перехода к рыночной экономике в Узбекистане.....	92
6.3. Реализация рыночных реформ и его основные направления в Узбекистане.....	95
<b>Глава 7. Теория спроса и предложения. Рыночное равновесие.....</b>	<b>102</b>
7.1. Понятие спроса и факторы, влияющие на его величину. Закон спроса.....	102
7.2. Понятие предложения. Факторы, влияющие на величину предложения. Закон предложения.....	105
7.3. Соотношение спроса и предложения. Рыночное равновесие.....	107
7.4. Теория потребительского поведения.....	110
<b>Глава 8. Конкуренция и монополия.....</b>	<b>117</b>
8.1. Содержание, формы и методы конкуренции.....	117
8.2. Экономические основы монополий.....	122
8.3. Возникновение конкурентной среды и антимонопольное законодательство в Узбекистане.....	127
<b>Глава 9. Сущность цен и особенности их формирования.....</b>	<b>134</b>
9.1. Содержание и функции цены.....	134
9.2. Виды цен и их содержание.....	135
9.3. Ценообразование в контексте различных форм конкуренции.....	138
9.4. Ценовая политика и особенности её осуществления в Узбекистане	141
<b>Глава 10. Предпринимательская деятельность и предпринимательский капитал.....</b>	<b>145</b>
10.1. Содержание, задачи и условия развития предпринимательской деятельности в рыночной экономике.....	145
10.2. Формы предпринимательской деятельности, рыночные системы их организации и управления.....	148
10.3. Дальнейшая либерализация и стимулирование малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане.....	153
10.4. Предпринимательский капитал и стадии его движения.....	155
10.5. Оборот предпринимательского капитала. Основной и оборотный капитал.....	157
10.6. Эффективность воспроизводства и использования основного капитала.....	158
<b>Глава 11. Издержки и прибыль предприятия (фирмы).....</b>	<b>162</b>
11.1. Понятие издержек производства и их состав.....	162
11.2. Принципы изменения издержек производства краткосрочном и долгосрочном перспективе.....	166
11.3. Сущность прибыли. Масса и норма прибыли.....	169

<b>Глава 12. Заработная плата и трудовые отношения.....</b>	<b>179</b>
12.1. Принципы распределения созданного продукта и доходов.....	179
12.2. Экономическое содержание заработной платы.....	181
12.3. Формы и система организации заработной платы.....	182
12.4. Экономическое содержание трудовых отношений и роль профессиональных союзов.....	185
<b>Глава 13. Аграрные отношения и агробизнес.....</b>	<b>190</b>
13.1. Экономическое содержание аграрных отношений. Особенности сельскохозяйственного производства.....	190
13.2. Рентные отношения.....	192
13.3. Агрпромышленная интеграция и агробизнес.....	194
13.4. Осуществление аграрных реформ в Узбекистане и основные направления их углубления.....	196
<b>РАЗДЕЛ III. ЗАКОНОМЕРНОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ (МАКРОЭКОНОМИКИ).....</b>	<b>203</b>
<b>Глава 14. Национальная экономика и ее макроэкономические параметры. Валовой национальный продукт и формы его движения.....</b>	<b>203</b>
14.1. Национальная экономика и её макроэкономические параметры ..	203
14.2. Содержание валового внутреннего продукта, его составные части и формы движения.....	207
14.3. Методы расчёта валового внутреннего продукта.....	210
<b>Глава 15. Совокупный спрос и совокупное предложение.....</b>	<b>217</b>
15.1. Понятие совокупного спроса и факторы, влияющие на его объём..	217
15.2. Понятие совокупного предложения и факторы, влияющие на его объём.....	222
15.3. Соотношение между совокупным спросом и совокупным предложением.....	226
<b>Глава 16. Потребление, сбережение и инвестиции.....</b>	<b>231</b>
16.1. Экономическое содержание потребления и сбережения, их взаимозависимость.....	231
16.2. Сущность, факторы и эффективность сбережения.....	234
16.3. Инвестиции и факторы, определяющие их уровень.....	235
16.5. Проблемы обеспечения соответствия между инвестициями и сбережениями.....	239
16.5. Пути и условия повышения инвестиционной активности в Узбекистане.....	240
<b>Глава 17. Экономический рост и национальное богатство.....</b>	<b>245</b>
17.1. Содержание, виды и показатели экономического развития.....	245
17.2. Факторы экономического роста.....	249
17.3. Модели экономического роста.....	251

17.4. Понятие и структура национального богатства .....	254
<b>Глава 18. Пропорциональность и равновесия национальной экономики</b> .....	259
18.1. Содержание и формы проявления экономического равновесия.....	259
18.2. Экономическая пропорциональность и ее виды.....	261
18.3. Пропорциональное развитие экономики Узбекистана на основе реструктуризации, диверсификации и модернизации.....	263
<b>Глава 19. Цикличность экономики и макроэкономическая нестабильность</b> .....	268
19.1. Макроэкономическая стабильность и цикличность экономики....	268
19.2. Теории экономических циклов. Основные типы циклов.....	270
19.3. Понятия и виды кризисов .....	273
19.4. Сущность, причины и негативные последствия мирового финансово-экономического кризиса .....	276
<b>Глава 20. Совокупная рабочая сила, ее занятость и безработица</b> ....	283
20.1. Особенности воспроизводства труда в рыночной экономике .....	283
20.2. Рынок рабочей силы. Соотношение спроса и предложения рабочей силы .....	285
20.3. Обзор различных концепций занятости рабочей силы .....	286
20.4. Безработица и ее виды. Определение уровня безработицы.....	289
20.5. Основные направления политики государства в области занятости рабочей силы и социальной защите безработных в Узбекистане .....	290
<b>Глава 21. Финансовая система и финансовая политика</b> .....	294
21.1. Сущность и функции финансов. Финансовая система .....	294
21.2. Бюджетный дефицит и государственный долг.....	297
21.3. Налоговая система и ее функции.....	299
21.4. Проблемы совершенствования бюджетно-налоговой системы в Узбекистане.....	306
<b>Глава 22. Денежно-кредитная система. Банки и их роль в рыночной экономике</b> .....	309
22.1. Денежное обращение и закономерности его функционирования. Спрос на деньги и предложение денег.....	309
22.2. Инфляция, её сущность и виды .....	311
22.3. Кредитные отношения и формы кредитования .....	316
22.4. Банковская система. Центральные и коммерческие банки и их функции.....	317
22.5. Осуществление политики укрепления национальной валюты в Узбекистане.....	319
<b>Глава 23. Роль государства в регулировании рыночной экономики</b>	325
23.1. Теории и взгляды о роли государства в регулировании национальной экономики .....	325
23.2. Цели и задачи государственного регулирования экономики.....	328

23.3. Методы и инструменты государственного воздействия на экономику.....	330
<b>Глава 24. Уровень жизни и доходы населения</b> .....	337
24.1. Доходы населения и их структура. Уровень жизни населения и его показатели.....	337
24.2. Неравенство доходов и определение его уровня.....	342
24.3. Социальная политика государства. Основные направления социальной политики в Узбекистане.....	344
<b>РАЗДЕЛ IV. МИРОВОЕ ХОЗЯЙСТВО</b>	
<b>Глава 25. Мировое хозяйство и его эволюция</b> .....	349
25.1. Общемировые стороны экономического развития и интернационализация производства .....	349
25.2. Направления и противоречия глобализации мирового хозяйства....	353
25.3. Формы международных экономических отношений. Развитие мировой инфраструктуры.....	355
25.4. Международное регулирование мировых хозяйственных связей....	357
<b>Глава 26. Международная экономическая интеграция и включение Узбекистана в мировое хозяйство</b> .....	364
26.1. Сущность, формы и объективные основы международной экономической интеграции.....	364
26.2. Особенности функционирования основных интеграционных групп (группировок) мира.....	366
26.3. Интеграция Узбекистана в мировую экономику и его внешнеэкономическая деятельность.....	370
<b>Глава 27. Мировой рынок. Международные валютные и кредитные отношения</b> .....	373
27.1. Международное разделение труда и различные теории о международной торговле.....	373
27.2. Содержание, структура и особенности мировой торговли .....	374
27.3. Платежный баланс, его структура и дефицит.....	375
27.4. Международные валютно-кредитные отношения и валютные системы .....	377
27.5. Развитие деятельности межгосударственных валютно-финансовых организаций.....	379
<b>ГЛОССАРИЙ</b> .....	383
<b>ЛИТЕРАТУРЫ</b> .....	397

Content

INTRODUCTION .....	3
<b>SECTION I. GENERAL BASIS OF ECONOMIC DEVELOPMENT....</b>	<b>5</b>
Chapter 1. Subject and methods of cognition of the discipline "Economic theory".....	5
1.1. Economy and its main problem.....	5
1.2. Formation and development of economic theory as a science .....	7
1.3. The subject and tasks of economic theory.....	10
1.4. Economic laws and categories (scientific terms).....	13
1.5. Methods of scientific knowledge of economic processes.....	14
<b>Chapter 2. The production process and its results.....</b>	<b>20</b>
2.1. Production factors and their classification.....	20
2.2. The essence of the production process.....	22
2.3. General and final production results.....	24
2.4. Production capability and its boundaries.....	28
2.5. Production efficiency and its indicators.....	29
<b>Chapter 3. Economic systems and property relations.....</b>	<b>33</b>
3.1. Stages of socio-economic development and various approaches to their knowledge.....	33
3.2. Economic systems and their models.....	36
3.3. Essence and economic content of property relations. Objects and subjects of ownership.....	37
3.4. The variety of forms of ownership and their economic content.....	40
3.5. Goals, ways and means of denationalization and privatization of property in Uzbekistan.....	53
<b>Chapter 4. Commodity-money relations - the basis of a market economy.....</b>	<b>58</b>
4.1. Transition from natural production to commercial production.....	58
4.2. Product and its properties.....	61
4.3. Various cost theories.....	63
4.4. The origin, content, functions and role of money.....	64
4.5. Introduction into circulation of the national currency - soum in Uzbekistan and ways to strengthen it.....	67
<b>SECTION II. THEORY OF MARKET ECONOMY.....</b>	<b>71</b>
<b>Chapter 5. Content and functioning of a market economy.....</b>	<b>71</b>
5.1. Content and main features of a market economy.....	71
5.2. Solutions to major and persistent problems in a market economy.....	74
5.3. Advantages and contradictions of a market economy.....	76
5.4. Market concept and functions.....	78
5.5. Types and structure of the market.....	80
5.6. Market infrastructure and its elements.....	84
<b>Chapter 6. The transition period to a market economy and its features</b>	<b>89</b>
in Uzbekistan.....	
6.1. The concept of a transition period. Transition paths to a market economy.....	89
6.2. Principles and features of the transition to a market economy in Uzbekistan.....	92
6.3. Implementation of market reforms and its main directions in Uzbekistan.....	95
<b>Chapter 7. Theory of supply and demand. Market equilibrium.....</b>	<b>102</b>
7.1. The concept of demand and factors affecting its value. Demand law.....	102
7.2. Offer concept. Factors affecting the amount of supply. Supply law.....	105
7.3. Supply and demand ratio. Market equilibrium.....	107
7.4. Consumer behavior theory.....	110
<b>Chapter 8. Competition and Monopoly .....</b>	<b>117</b>
8.1. Content, forms and methods of competition.....	117
8.2. The economic foundations of monopolies.....	122
8.3. The emergence of a competitive environment and antitrust legislation in Uzbekistan.....	127
<b>Chapter 9. Essence of prices and peculiarities of their formation.....</b>	<b>134</b>
9.1. Content and price functions.....	134
9.2. Types of prices and their content.....	135
9.3. Pricing in the context of various forms of competition.....	138
9.4. Pricing policy and features of its implementation in Uzbekistan.....	141
<b>Chapter 10. Entrepreneurial activity and entrepreneurial capital.....</b>	<b>145</b>
10.1. Content, tasks and conditions for the development of entrepreneurial activity in a market economy.....	145
10.2. Forms of entrepreneurial activity, market systems of their organization and management.....	148
10.3. Further liberalization and stimulation of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan.....	153
10.4. Entrepreneurial capital and stages of its movement.....	155
10.5. Business capital turnover. Fixed and working capital.....	157
10.6. Efficiency of reproduction and use of fixed capital.....	158
<b>Chapter 11. Costs and profits of the enterprise (firm).....</b>	<b>162</b>
11.1. The concept of production costs and their composition.....	162
11.2. Principles of change in production costs in the short and long term.....	166
11.3. Essence of profit. Mass and rate of return.....	169
<b>Chapter 12. Wages and Labor Relations.....</b>	<b>179</b>
12.1. Principles of distribution of the created product and income.....	179
12.2. The economic content of wages.....	181
12.3. Forms and system of organization of wages.....	182
12.4. The economic content of labor relations and the role of trade unions.....	185
<b>Chapter 13. Agrarian relations and agribusiness.....</b>	<b>190</b>



13.1. The economic content of agricultural relations. Features of agricultural production.....	190
13.2. Rental relationship.....	192
13.3. Agro-industrial integration and agribusiness.....	194
13.4. Implementation of agrarian reforms in Uzbekistan and the main directions of their deepening.....	196
<b>SECTION III. REGULARITIES OF FUNCTIONING AND DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY (MACROECONOMY).....</b>	<b>203</b>
<b>Chapter 14. National economy and its macroeconomic parameters. Gross national product and forms of its movement.....</b>	<b>203</b>
14.1. National economy and its macroeconomic parameters.....	203
14.2. Content of gross domestic product, its components and forms of movement.....	207
14.3. Methods for calculating gross domestic product.....	210
<b>Chapter 15. Aggregate Demand and Aggregate Supply.....</b>	<b>217</b>
15.1. The concept of aggregate demand and factors affecting its volume.....	217
15.2. The concept of aggregate supply and factors affecting its volume.....	222
15.3. The relationship between aggregate demand and aggregate supply.....	226
<b>Chapter 16. Consumption, saving and investment.....</b>	<b>231</b>
16.1. The economic content of consumption and savings, their interdependence.....	231
16.2. Essence, factors and efficiency of saving.....	234
16.3. Investments and factors determining their level.....	235
16.5. Challenges in Matching Investment and Savings.....	239
16.5. Ways and conditions for increasing investment activity in Uzbekistan.....	240
<b>Chapter 17. Economic Growth and National Wealth.....</b>	<b>245</b>
17.1. Content, types and indicators of economic development.....	245
17.2. Economic growth factors.....	249
17.3. Economic growth models.....	251
17.4. The concept and structure of national wealth.....	254
<b>Chapter 18. Proportionality and equilibrium of the national economy.....</b>	<b>259</b>
18.1. Content and forms of manifestation of economic equilibrium.....	259
18.2. Economic proportionality and its types.....	261
18.3. Proportional development of the economy of Uzbekistan based on restructuring, diversification and modernization.....	263
<b>Chapter 19. Cyclicity of the economy and macroeconomic instability.....</b>	<b>268</b>
19.1. Macroeconomic stability and cyclicity of the economy.....	268
19.2. The theory of economic cycles. Basic types of cycles.....	270
19.3. Concepts and types of crises.....	273
19.4. Essence, causes and negative consequences of the global financial and economic crisis.....	276

economic crisis.....	283
<b>Chapter 20. Aggregate labor force, its employment and unemployment.....</b>	<b>283</b>
20.1. Features of labor reproduction in a market economy.....	283
20.2. Labor market. Labor demand and supply ratio.....	285
20.3. Overview of different concepts of labor force employment.....	286
20.4. Unemployment and its types. Determination of the unemployment rate.....	289
20.5. The main directions of the state policy in the field of labor force employment and social protection of the unemployed in Uzbekistan.....	290
<b>Chapter 21. Financial system and financial policy.....</b>	<b>294</b>
21.1. The essence and function of finance. Financial system.....	294
21.2. Fiscal deficit and public debt.....	297
21.3. Tax system and its functions.....	299
21.4. Problems of improving the fiscal system in Uzbekistan.....	306
<b>Chapter 22. Monetary system. Banks and their role in a market economy.....</b>	<b>309</b>
22.1. Monetary circulation and patterns of its functioning. Money demand and money supply.....	309
22.2. Inflation, its essence and types.....	311
22.3. Credit relations and forms of lending.....	316
22.4. Банковская система. Центральные и коммерческие банки и их функции.....	317
22.5. Implementation of the policy of strengthening the national currency in Uzbekistan.....	319
<b>Chapter 23. The role of the state in the regulation of the market economy.....</b>	<b>325</b>
23.1. Theories and views on the role of the state in the regulation of the national economy.....	325
23.2. Goals and objectives of state regulation of the economy.....	328
23.3. Methods and tools of state influence on the economy.....	330
<b>Chapter 24. Standard of living and income of the population.....</b>	<b>337</b>
24.1. Population income and their structure. The standard of living of the population and its indicators.....	337
24.2. Income inequality and determination of its level.....	342
24.3. Social policy of the state. The main directions of social policy in Uzbekistan.....	344
<b>SECTION IV. WORLD ECONOMY.....</b>	<b>349</b>
<b>Chapter 25. World economy and its evolution.....</b>	<b>349</b>
25.1. Global aspects of economic development and internationalization of production.....	349
25.2. Directions and contradictions of globalization of the world economy.....	353
25.3. Forms of international economic relations. World infrastructure.....	355

**IZOXLAR UCHUN**

development..... 357

25.4. International regulation of world economic relations..... 357

**Chapter 26. International economic integration and inclusion of Uzbekistan in the world economy..... 364**

26.1. Essence, forms and objective foundations of international economic integration..... 364

26.2. Features of the functioning of the main integration groups (groupings) of the world..... 366

26.3. Integration of Uzbekistan into the world economy and its foreign economic activity..... 370

**Chapter 27. World market. International monetary and credit relations..... 373**

27.1. International division of labor and various theories about international trade..... 373

27.2. Content, structure and features of world trade..... 374

27.3. Balance of payments, its structure and deficit..... 375

27.4. International monetary and credit relations and monetary systems..... 377

27.5. Development of activities of interstate monetary and financial organizations..... 379

**GLOSSARY..... 383**

**LITERATURE..... 397**

IZOXILAR UCHUN

O'QUV ADABIYOTINING  
NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 20 20 yil " 28 " dekabr dagi "676" -sonli buyrug'iga asosan

5-5 Egankendiyev, S.A. Abdullayev, M. M. Manlabetjanov

(muallifning familiyasi, ismlari va sharaflari) 5230100 - Jg'itoadlet (tamog'lar va soxalar bo'g'icha),

5230200 - Menajment (tamog'lar va soxalar bo'g'icha),

(ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi))

5232200 - Ekonometika, 5231600 - Tsaon resurslarini fozafatash

5232300 - Mintaqaviy iqtisodiet, 5520100 - Jg'itmay ish (pensiyalar)

talabarlari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Jg'itodiyot nazariyasi hanti

(o'quv adabiyotining nomi va nari: dastlab, o'quv yo'llarini)

a'qum qo'llanma ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazir

J. Madjidov



Ro'yxatga olish raqami 676-375

EGAMBERDIEV FARMONQUL TURSUNQULOVICH  
MAMBETJANOV KAXRAMON KURBANDURDIEVICH

## IQTISODIYOT NAZARIYASI

*Oliy o'quv yurtlari ta'labalari uchun o'quv  
qo'llama*

*Muharrir: M. Talipova*

*Texnik muharrir: G. Talipova*

*Sahifalovchi: N. Fayziyeva*

*Litsenziya raqami № 10-3719*

*Bosishga 2020-yil 09-dekabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16*

*Ofset qog'ozi: Tayms garnitudasi. Shartli bosma tabog' 28,75.*

*Nashr tabog'i 26,5 Adadi 200 nusxa.*

*“Toshkent kimyo texnologiya instituti” bosmaxonasida chop etilgan.  
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 32-uy.*